

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

T. J. ENAZAROV, V. A. KARIMJONOVA,

M. S. ERNAZAROVA, SH. S. MAHMADIYEV, K. G'. RIXSIYEVA

# O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASI

(o'quv qo'llanma)

Toshkent  
“UNIVERSITET”  
2012

Mazkur ishda mualliflar bu sohadagi bir necha yillik tajribani va ilmiy-amaliy kuzatishlarini jamlab berishga harakat qilgan. Unda quyidagi bo‘limlar bor: Kirish, ma‘ruza mavzulari, ishchi o‘quv dasturi, test savollari, amaliy mashg‘ulot savollari, dialektologik amaliyot uchun ko‘rsatmalar, yozma ishlarni baholash mezonlari, “Dialektologik amaliyot” vaqtida to‘plangan materiallardan namunalar, Ilova, adabiyotlar ro‘yxati. Ularda mualliflar shu fan sohasidagi ilmiy-nazariy fikrlarni qayd etib, bu fanni o‘qitishning, shuningdek, har yili ushbu fandan “Dialektologik amaliyot”ni o‘tkazish jarayoniga oid yo‘l-yo‘riqlar majmuining o‘ziga xos jihatlarini va yaratilishi lozim bo‘lgan ko‘p tomli “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”ni tuzish muammosining bugungi kungacha e‘tiborga olinmagan tomonlari haqida to‘xtalgan.

Ushbu darslik filolog talabalarga, shuningdek, o‘zbek shevashunosligining dolzarb muammolari bilan qiziqqan tadqiqotchilarga mo‘ljallangan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU o‘zbek filologiyasi fakulteti o‘quv-metodik kengashining 2011-yil 14-noyabrdagi majlisida nashrga tavsiya etilgan.

Mas’ul muharrir prof.R.Sayfullayeva  
Taqrizchilar: f.f.d.,prof.S.Ashirboyev  
f.f.n., dots.M.Qodirov  
p.f.n., dots.S.Yo‘ldoshyeva  
f.f.n. N.Shoimova

ISBN – 978-9943-305-52-6

## K I R I SH

Bugungi kunda mamlakatimizning mustaqillikka erishganiga ham 20 yildan oshdi. Mana shu davr ichida yurtimizda fan, madaniyat, ta'lim-tarbiya, texnika, iqtisodiyot, siyosat sohalarida mustaqillik tufayli juda katta ijobjiy o'zgarishlar ro'y berdi va bundan keyin ham ular davom etaveradi. Shu sababli ular adabiy tilimizda ham, shevalarimizda ham o'z ifodasini topmoqda.

O'zbek adabiy tili xalq shevalaridan o'ziga kuch oladi, chunki sheva bo'lmasa, adabiy tilimizning kelajagi bo'lmaydi. Hayotiy ozuqa olib turadigan asosi bo'lmasa, har qanday adabiy til vaqt o'tishi bilan o'lik tilga aylanadi. Shuning uchun ham shevalar har qanday adabiy tilning asosiy hamda rivojlanish poydevoridir. U(lar)ni ilmiy adabiyotlarda dialekt va sheva terminlari bilan atash kuzatiladi. Biz u(lar)ni sheva deb, bitta termin bilan atashni o'rinni hisoblaymiz. Shu o'rinda shevashunosligimizning buguni hamda kelajagi haqida o'ylab ko'rib, shuningdek, bu sohada ilmiy ishlari bilan tanilgan bir qancha tadqiqotchi olimlarning fikr-mulohazalarini e'tiborga olib, ushbu ishni tayyorladik.

Shevashunosligimizning tarixi XI asarning mashhur tilshunosi Mahmud Koshg'ariyga borib taqaladi. Uning "Devonu lug'atit turk" asari turkiy xalqlar shevalarining so'zligini arab tilida izohlab, o'zida jamlagan mukammal va bebafo lug'atlardan biri sanaladi. Shu asarning "Indeks lug'ati" ham olimlarimiz tomonidan tayyorlangan. Mana shu lug'at bahona turkiy qabila-urug'larning tillari bir bobo tildan rivojlanib, taraqqiy etganligi haqidagi ilmiy-nazariy qarash dalillar asosida tasdiqlandi, bu hol ona tilimizning o'ziga xos nufuzini va tarixiy taraqqiyotini dalillar vositasida tasdiqlab turibdi. Hazrat Alisher Navoiy ham bundan sal kam olti asr oldin mana shu turkiy tilda, ya'ni eski o'zbek adabiy tilida she'rlar yozib, olamni qurolsiz holda, qalam bilan egallagan allomalardan biri sanaladi. Mana shuning natijasida o'sha vaqtida Xuroson hukmdori bo'lган Husayn Boyqaro tilimizga Davlat tili darajasini berish to'g'risidagi tarixiy farmonini e'lon qilishga majbur bo'lган. Xonliklar davrida ham garchi o'sha vaqtida tilimiz bo'yicha chuqur ilmiy asoslarda tadqiqotlar olib berilmagan bo'lsa-da, tilimiz ijtimoiy hayotdagi mavqeini saqlab qolganligi va kuchaytirganligi tarixda hech ham rad qilib bo'lmaydigan dalillar orqali o'z ifodasini topgan.

XX asrning 20-80-yillarda, ya'ni sho'ro davrida tilimizga yanada taraqqiy etish uchun katta huquqlar berilmagan bo'lsa hamki, bir qancha rus sharqshunos olimlarining harakatlari bilan ona tilimiz hamda uning asosiy manbasi bo'lган shevalarimizni ham ilmiy, ham amaliy asoslarda o'rganishni boshlashgan edi. Bu olimlar shevalarimiz haqidagi ilmiy ishlari bilan adabiy til haqida gapirish uchun uning shevalarini o'rganish lozimligi masalasini dalillar vositasida ko'ra olishdi. Natijada, E. D. Polivanov, K.K.Borovkov, I.I.Zarubin, K.K.Yudaxin kabi o'nlab sharqshunos hamda dialektolog olimlarining shevalarimiz to'g'risidagi ilmiy tadqiqotlari maxsus tashkil etilgan dialektologik

ekspeditsiyalar vaqtida yaratilgan va bugungi kunda ham shevalarimizni o'rganish bo'yicha bebaho manbalar qatoridan ularning ilmiy ishlari o'rin olganligini tan olish shart. Rus olimlarining tadqiqotlari natijasida O'zFA qoshida A.S.Pushkin (Hozirgi Alisher Navoiy) nomidagi Til va adabiyot instituti ish boshlagan. Bu yerda XX asrning ikkkinchi yarmidan o'zbek xalq shevalarini o'rganish va ilmiy asoslarda tadqiq etish uchun maxsus Dialektologiya bo'limi tashkil etilgan edi. Unda V.V.Reshetov, F.Abdullayev, Sh.Shoabdurahmonov, A.Aliyev, B.Jo'rayev, X.Doniyorov, Yo.G'ulomov, Yu.Jumanazarov, A.Ishayev, D.Abdurahmonov, N.Rajabov, Q.Muhammadjonov, N.Shoimova kabi dialektolog olimlarning bebaho ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy ishlari yuzaga keldiki, bu holni jahon olimlari tan olishganligini hammamiz bilamiz. Bugungi kunda esa ushbu bo'limda faqat bir necha olimlar ishlashmoqda. Ularning ishlarini kuchaytirish hamda qo'llab-quvvatlash lozim. Hatto, bu davrda o'zbek dialektologiyasi va umuman, o'zbek tilshunosligi masalalari bo'yicha bir qancha ilmiy anjumanlar ham bo'lib o'tgan.

1989-yilning 21-oktabrida o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi. Ushbu maqomni bergan qonun ona tilimizga, shuningdek, o'zbek xalq shevalariga jiddiy e'tibor berib, ilmiy tadqiqotlar olib borishga qonuniy imkoniyatlarni yaratib berdi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng davlatimiz miqyosida dunyo jamoatchiligi lol qoladigan darajada xalq manfaati nuqtayi nazaridan juda ko'p ishlar amalga oshirildi va amalga oshirilmoqda. Ammo ba'zi bir sohalar e'tiborimizdan chetda qolmoqda. Mana shunday sohalardan biri, albatta, o'zbek shevashunosligi sanaladi. Bunga sabab nima? Bu holga, bizningcha, quyidagi hollar sabab bo'ldi:

1.So'zsiz, mustaqillik bizga ko'p narsa berdi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng shevalarimizni ilmiy asoslarda nazariy va amaliy jihatlardan o'rganish masalasiga jiddiy e'tibor kerak bo'lib qoldi. Shevalarimiz ham tilimiz singari taraqqiyotda ekan, demak, ularni ma'lum bir davrlarda ham amaliy, ham nazariy jihatlardan o'rganish, ular asosida ma'lum nazariy xulosalarga kelishning zarurligi tabiiy hol. Axir Mahmud Koshg'ariy o'z asarida qayd etgan so'zlar va hatto, XX asrning 70-yillarda qayd etilgan dialektal so'zlar bugun shevalarimizda kam qo'llanmoqda va ba'zilar umuman qo'llanmayapti. Chunki ba'zi bir shevalarimizni XX asrning 50-70-yillardan turib o'rganilganiga ham mana 40 (qirq) yildan oshib ketdi. Demak, shevalarimizni XXI asrdan turib Mahmud Koshg'ariy darajasidan-da yuqoriroq turib o'rganish zaruriyati kun tartibida turibdi. Albatta, hukumatimiz odilona ish olib bormoqda, gap faqat o'zimizda qolgan. Ona tilimizning o'zagi – qon tomiri bo'lgan shevalarimizni o'rganib, ilmiy-nazariy asoslarda tadqiq etish uchun bamaslahat holda ish yuritib, xalq ommasiga ham, rahbariyatimizga ham tushuntirishimiz zarur. Shunda ilmiy mavzular bo'yicha e'lon qilinayotgan ilmiy konkurslarning tashkilotchilari ham o'zbek xalq shevalarini o'rganish ayni shu

kunlar uchun juda zarur va muqaddas ish ekanligini anglashib, sheva hamda lajhalarimizni ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy jihatlardan o‘rganish uchun maxsus tadqiqot ishlariga mablag‘ ajratishlari tabiiy holdir.

2.Shevalarimizni ilmiy hamda amaliy jihatlardan tadqiq etuvchi sheva-shunoslarimizga ham e‘tiborni kuchaytirish lozim. Shevalarimizni XXI asrdan turib mukammal o‘rganish va ilmiy asoslarda tadqiq eta olish bugungi zamon talablaridan biri hisoblanadi. Shevashunoslarni ham, ular to‘plagan sheva materiallarini ham hsu soha bo‘yicha bir ilmiy ishlarni amalga oshiradigan tashkilotga jamlash lozim.

3.Shevashunosligimiz bo‘yicha keng qamrovli yangi ilmiy tadqiqotlar olib borish zaruriyati sezilmoqda. Chunki oldin, ya’ni XX asrning 40-80-yillarida o‘rganilganda shevalarimiz hududiy jihatdan atroflicha to‘liq tadqiq etilmagan edi. To‘g‘rirog‘i, to‘liq tadqiq etishning imkoniyati ham yo‘q edi. O‘scha vaqtarda shevalarimiz tizimidan ba’zi bir shevalar umuman o‘rganilmay qolib ketgan edi. Bu esa shevalarimizni har tomonlama to‘liq o‘rganish ta’limning magistratyra bosqichida ham davom ettirish lozimligini ko‘rsatib turibdi.

4.Shevalarimiz o‘zbek adabiy tilining poydevori va o‘sish-o‘zgarishining o‘zagi sanaladi. Demak, shevalarimizni ilmiy asoslarda o‘rganishga, albatta, ijtimoiy, ma‘naviy, ma‘rifiy va ilmiy-nazariy jihatlardan ehtiyoj sezilmoqda. Sababi, shevalarimiz o‘zbek milliy tilining va o‘zbek milliy tilshunosligimizning asosi va doimiy poydevori hisoblanadi. Ammo bu sohada hali juda ko‘p ishlar amalga oshirilmagan. Ularga quyidagilarni ham kiritish mumkin:

4.1.Tan olishimiz kerak, hozirgacha lajhalar va shevalararo dialektologik lug‘atlar mukammal holda yaratilmagan. O‘zbek xalq shevalarining lug‘aviy boyligini o‘zida jamlagan va umumiy holda ifodalaydigan bor-yo‘g‘i bittagina “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati” yaratilgan (T.,Fan,1971) . Unda filologiya fanlari nomzodi, etakchi ilmiy xodim Ahmad Ishayev (marhum) tuzgan “O‘zbek shevalarida qarindosh-urug‘ nomlari” bilan birga 9500 (to‘qqiz yarim ming) atrofidagina shevalarimizga oid dialektal so‘z mavjud. Bu lug‘atning sobiq sho‘ro davrida yaratilganiga e‘tibor bersak, bunday lug‘atning yaratilishi ham o‘scha vaqtdagi dialektolog olimlarning katta muvaffaqiyatlaridan biri bo‘lganligini e’tirof etish kerak. Shu bilan birga tadqiq etilgan har bir sheva bo‘yicha so‘zlar o‘scha tadqiqotlarda hali hanuz qolib ketmoqda, ularning miqdori o‘ttiz ming atrofida ekanligi Ahmad Ishayev tomonidan asoslab, birma-bir ko‘rsatib berilgan<sup>1</sup>. Bizningcha, ular leksikografik nuqtai nazardan saralangan holda kelajakda yaratiladigan ko‘p tomli “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”da qayd etilishi maqsadga muvofiqdir.

4.2.Shevalarimizning dialektologik atlaslarini yaratish bo‘yicha XX asrning 60-80-yillarida ilmiy ishlar olib borilgan. Turli ilmiy manbalarda V. V.

<sup>1</sup> Ishayev A. O‘zbek dialektal leksikografiyasi. T.,Fan, 1990. 20-45-betlar.

Reshetov dialektologik atlas tuzgan degan fikr bor, ammo shunday atlasning o‘zi yo‘q, bu bor haqiqat. Shevashunosligimizni o‘rganuvchi tadqiqotchilarning ishlari markazlashtirilmagani uchun shevalarimizning dialektologik atlaslarini yaratish ishlarini boshlash ancha og‘ir bo‘lmoqda. Sheva so‘zlariga leksik-dialektizmlar nuqtayi-nazaridan qarasak, dialektologik atlaslarini yaratib bo‘lmaydi. Shuning uchun A.Ishayev tomonidan ilgari surilgan sheva so‘zlarini lug‘atlarga kiritishning yetti jihatini (ilovada berilgan) ham birday e’tiborga olish lozimligi sezilib turibdi. Buning uchun shevalarni to‘liq o‘rganish lozim.

4.3.Bugungi kun nuqtayi nazaridan shevalarimizning fonetikasi, leksikasi, so‘z yasalishi, sintaksisini jiddiy o‘rganish, ilmiy nazariy, ilmiy amaliy jihatlardan tadqiq etish lozim bo‘lmoqda. Ehtimol, shevalarimizning yuqorida ko‘rsatilgan jihatlari misollar vositasida qayta tahlil va talqin etilganda, ular to‘g‘risida sho‘ro davridagidan ko‘ra mukammal ilmiy xulosalarga kelish mumkin bo‘ladi.

4.4.O‘zbek shevalarini bugungi kunda o‘rganishning ahvoli va kelajagi masalasini o‘ylab ko‘rish kerak. Agar sal befarqroq bo‘lsak, kundalik ishlaru tashvishlar bilan o‘ralashib qolaversak, shevalarimizning bugungi dialektal boyligi va betakror nufuzini ilmiy manbalarda saqlab qolishdan ojiz bo‘lib qolamiz. Buni ona tilimizga hurmati, muhabbatি bo‘lgan kishilar umuman xohlashmasa kerak.

Shevashunosligimizning buguni va kelajak taraqqiyotiga oid bu kabi amalga oshirilmagan, biroq amalga oshirishni mustaqilligimiz va milliy mafkuramiz talab qilib turgan muammolarning optimal yechimi masalasi juda og‘ir va murakkab ishlardan bo‘lib, uni quyidan tashabbus bilan olib chiqib bo‘lmaydi. Balki mamla-katimiz hukumatining ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning tarmoqlariga e’tibor berayot-ganidek, shevalarimizni XX1 asrdan turib ilmiy va amaliy asoslarda o‘rganish uchun ularning homiyligi hamda ko‘magidagina bunday ulug‘, muqaddas hamda miqyosi benihoya katta bo‘lgan ishni amalga oshirishimiz mumkin. Shu o‘rinda yurtboshimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch” asaridagi quyidagi jumlalar shevashunosligimizga ham e’tibor zarurligini ta’kidlab turibdi: “Ma’lumki, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili - bu millatning ruhidir. Buyuk ma’rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning so‘zlarini bilan aytganda, “Har bir millatning dunyoda borligni ko‘rsatadigan oyinayi hayoti til va adabiyotidur. Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmardir”. Bu haqda gapirganda, mustaqillik arafasida o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish masalasida qanday qizg‘in, ba’zida keskin va murosasiz bahs va tortishuvlar bo‘lib o‘tgani beixtiyor yodimizga tushadi. O‘sanda ayrim siyosiy guruhlar O‘zbekiston sharoitiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydigan, bir-biriga butunlay zid va qarama-qarshi fikrlarni olg‘a surgan, shuning hisobidan o‘ziga obro‘ topish, odamlarni ortidan ergashtirishga uringan edi. Nega deganda, til bilan bog‘liq

muammolar orqali milliy tuyg‘ularni ro‘kach qilib, ulardan g‘arazli maqsadlarda foydalanish mumkin. Mana shunday o‘ta qaltis va murakkab vaziyatda agarki ozgina ehtirosga berilsak, hushyorlikni yo‘qotsak, arzimagan uchqundan o‘t chiqib ketishi hech gap emasdi. Markazda va o‘zimizda qulay bahona kutib, payt poylab turgan imperiyaparast kuchlarga aynan shu narsa kerak edi. Ammo biz ular kutgan yo‘ldan bormadik. Og‘ir-vazminlik bilan ish tutib, har tomonlama o‘ylab, mulohaza qilib, barcha siyosiy va ijtimoiy guruhlarning talablarini qondiradigan, eng muhim, xalqimiz va Vatanimiz manfaatlariga javob beradigan yagona to‘g‘ri yo‘lni topishga erishdik.

Avvalo, respublika Oliy Kengashi qoshida davlat tili bo‘yicha taniqli olim-lar, ijodkor ziyolilar, jurnalistlar va jamoatchilik vakillaridan iborat maxsus komis-siya tashkil qilindi. Komissiya a’zolari aholining turli ijtimoiy qatlamlari, siyosiy guruhlar, barcha millat va elat vakillari tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarni atroflicha o‘rganib, respublika rahbariyati va keng jamoatchilikka doimiy axborot berib borar edi. Ana shunday ishchanlik ruhida Oliy Kengash sessiyasiga taqdim etiladigan loyihaning har bir moddasi bo‘yicha har taraflama fikr almashuv, babs va munozalar bo‘lib o‘tdi.

Nihoyat, 1989-yilning 19-oktabr kuni bu o‘ta muhim masala Oliy Kengash sessiyasi muhokamasiga qo‘yildi. Va qariyb bir yarim asrlik qaramlikdan so‘ng mamlakatimizda o‘zbek tili davlat tili deb e’lon qilindi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo‘lmish ona tilimiz o‘zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo‘ldi. Bu Vatanimiz tarixida tom ma‘nodagi buyuk voqeа edi. Istiqlol yillarida o‘zbek tilining qo‘llanish doirasи amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o‘ziga xos xususiyat-lariga bag‘ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o‘quv qo‘llanmalari, yangi-yangi lug‘atlar ko‘plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o‘z his-sasini qo‘shmoqda”<sup>1</sup>. Shu o‘rinda ilmu fan va ma‘rifatni rivojlanishning asosiy yo‘li deb mahkam tutish bilan yaponlar XX asrning ikkinchi yarmidayoq insoniyat taraqqiyotining eng yuqori pog‘onasiga chiqqanligini e’tiborga olishimiz lozim bo‘ladi. Bizning o‘zbek xalqimiz ham ular bilan teng bo‘lsa, tengki, biroq hech ham kam emas. Shuning uchun shevalarimizni o‘rganish yuzasidan bir necha o‘n yillikka mo‘ljallangan va moddiy mablag‘ bilan ta‘minlangan shu sohaga tegishli mutaxas-sislarni tayyorlash, ularni qayta tayyolash va ayni shu sohada ilmiy tadqiqotlarni olib borish markazini O‘zMU (yoxud shu soha aloqador boshqa tashkilot) qoshida tashkil etish zarur. Shu markaz qat’iy reja asosida shevalarimizni har tomonlama tadqiq etishni nazorat qilishi, shevashunoslar tadqiqotining asosiy maqsadi bo‘lgan turli maqomdagи dialektizmlarni yig‘ishga yo‘naltirishi va qilingan, rejalashtirilgan tadqiqotlar bo‘yicha hisobot berib turishi lozim. Axir “O‘zbekiston - kelajagi buyuk davlat”, -deb faxr bilan aytar ekanmiz, buning asosida o‘zbek xalqining ming-ming yillik tarixi va

<sup>1</sup> Karimov I.Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch.T., Ma’naviyat, 2008.83-85, 86-betlar.

taraqqiyotiga, shuningdek, o‘zbek milliy tilshunosligining shakllanishi va rivojlanishiga zamin bo‘lgan shevalarimiz ekanligini tan olish vaqt keldi. Bu esa o‘zbek xalq shevalarini yangidan har tomonlama mukammal tadqiq etilishi va shuning natijasida o‘zbek shevalarining ko‘p tomli lug‘atlarini tayyorlash ishlari davom etayotganligi tabiiy holligini tasdiqlamoqda. Shuning uchun ham shevalarimizni ilmiy va amaliy asoslarda o‘rganish bilan “Ta’lim tizimida ta’lim va tarbiyaning uzviy ravishda olib borilishi nafaqat mamlakatning intellektual jihatdan yuksalishini, shuningdek, shaxs ma’naviy kamolotini ham ta’minlaydi”<sup>1</sup>.

Ushbu o‘quv qo‘llanma bir-biriga bog‘liq bo‘lgan o‘n bitta qismdan tashkil topgan bo‘lib, I. I. Zarubin, K.K. Yudaxin, E. D. Polivanov, G‘ozi Olim, A. K. Borovkov, F. Abdullayev, V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, B. Jo‘rayev, S. Ibrohimov, M. Mirzayev, A. Ishayev, Q. Muhammedjanov, K. Nazarov, Yo. G‘ulomov, A. Shermatov, A. Aliyev, D. Abdurahmonov, N. Rajabov, S. Ashirboyev, B. To‘ychiboyev, K. Usmonov, A. Jo‘rayev, N. Murodova, N. Shoimova, M. Begaliyev kabi bir umr o‘zbek dialektologiyasi sohasi bilan shug‘ullangan olimlarning ilmiy tadqiqotlari e’tirof etilgan holda tayyorlandi. Albatta, yangi fikr-mulohaza va bir qancha misollar qo‘sildi. Bu o‘quv qo‘llanma amaliy hamda ilmiy muammolar tizimi sohasida yaratilgani uchun bahsli o‘rinlar bo‘lishi mumkin: “Deyishadiki, haqiqat bahslarda tug‘iladi”. Shuning uchun obyektivlik asosida bildiriladigan har bir mulohazani shu ishning keyingi nashrida e’tiborga olamiz.

Mualliflar ushbu o‘quv qo‘llanmani tayyorlash jarayonida (aniqrog‘i, yigirma yildan ortiq vaqt davomida) qimmatli maslahatlarini ayamagan hurmatli ustozlar - Sh. Shoabdurahmonov (marhum), A. Ishayev (marhum), A. Aliyev (marhum), N. Rajabov (marhum), K. Nazarov, S. Ashirboyev, B. To‘ychiboyev, K. Usmonov, R. Sayfullayeva, Yo. Tojiyev, M. Qodirovga o‘z minnatdorchiliklarini bildirishadi.

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси президенти Ислом Каримовнинг «Юксак маънавият – енгилмас куч» асарини таълим муассасаларида ўқитишни ташкил этиш бўйича таълим технологияси. Т., 2010.73-бет.

## I. “O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI” FANIDAN MA‘RUZALAR

### 1-MAVZU

#### “O‘ZBEK DIALEKTOLOGIYASI” KURSINING UMUMIY MASALALARI. MILLIY TIL VA MAHALLIY DIALEKTLAR. TRANSKRIPSIYA. O‘ZBEK ADABIY TILI VA O‘ZBEK XALQ SHEVALARI

Reja:

1. “O‘zbek dialektologiyasi” fanining predmeti va vazifasi.
2. Milliy til, o‘zbek adabiy tili, o‘zbek xalq shevalari va mahalliy dialektlar.
3. Xalq shevalari adabiy tilni boyituvchi vositalardan biri.
4. Ona tilini o‘qitishda ushbu fanning o‘rni.
5. Mazkur fanining tilshunoslikning boshqa sohalari bilan aloqadorligi.
6. Transkripsiya hamda unga xos xususiyatlar.

Tayanch so‘z va tushunchalar

Sheva. Lahja. Adabiy til. Terminologiya (atamashunoslik).

Sinxron plan. Milliy til. Dialekt. Transkripsiya. Transliteratsiya.

Diaxron plan. Tasviriy dialektologiya. Fonetik transkripsiya.

Fonologik transkripsiya. Tarixiy dialektologiya.

Unilar (cho‘ziq va qisqa). Undoshlar.

Lingvo-geografiya usuli. Orfografiya. Orfoepiya. Dialektal xato.

#### **Dialektologiya fanining predmeti va vazifasi**

Tilshunoslik ilmi bir-biriga yaqin va bog‘lanib ketgan bir necha sohalar majmuidan iborat. Shuning uchun ham dialektologiya tilshunoslikning alohida bir sohasi bo‘lib, u biror tilning mavjud mahalliy dialektlarini, ya’ni mavjud mahalliy lahja hamda shevalarni ilmiy, nazariy, amaliy jihatlardan o‘rganadi va o‘rgatadi. Dialektologiya grekcha so‘z bo‘lib, (dialektos - sheva, logiya - fan) sheva haqidagi fan degan ma‘noni anglatadi. Bu ta’rif 1959-yilgi darslikda bu tarzda berilgan: “Dialektologiya grekcha dialektos so‘zidan olingan bo‘lib, so‘zlashmoq, gaplashmoq demakdir”<sup>1</sup>. Rus, nemis, fransuz, ingliz dialektologiyalari bo‘lgani kabi “O‘zbek dialektologiyasi” nomli fan ham mavjuddir. Bu fanni oliv o‘quv yurtlarida rasman o‘qitish XX asrning 60-yillardan boshlangan. Ayni shu fanni ilmiy-nazariy hamda amaliy jihatlardan asoslash (1925-yidan shevalarimizni, asosan, shahar shevalatini rus olimlari o‘rganishni boshlashgan) va unga oid mavzulardan oily o‘quv yurtlarining filologiya fakultetlaridagi talabalarga dars berishda rus olimlarining xizmatlari benihoya katta ekanligini e’tirof etish lozimdir.

<sup>1</sup> Qarang: Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. T., 1959. 3-бет.

“O‘zbek dialektologiyasi” fani O‘zbekistondagi, qardosh mamlakatlardagi o‘zbeklarning tilini, turli dialekt, lahja va shevalarini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etib, shevalarimiz taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi. Qadimiy tarixga ega bo‘lgan o‘zbek tilining sheva, dialekt, lahja hamda shevalar guruhlari o‘zbek dialektologiyasining o‘rganish predmeti, obyekti ham hisoblanadi.

Mavjud obyektlarni o‘rganish bo‘yicha dialektologiya ikki turga bo‘linadi:

1. Tasviriy dialektologiya (dialektografiya) mahalliy lahja va shevalarga xos fonetik va leksik-grammatik xususiyatlarni sinxron planda qayd qilish bilan chegaralanadi. Bunda shevalarning ayni vaqtdagi xususiyatlari o‘rganiladi. Albatta, sinxron planda o‘rganilgan shevalar tasviriy dialektologiya uchun ilmiy-amaliy qimmatga molik bo‘lgan ishonchli materiallarni va ular haqidagi xulosalarni beradi.

2. Tarixiy dialektologiya esa tilning dialektal xususiyatlarining kelib chiqishini, rivojlanishini, turli davrlardagi o‘zgarishlarini asoslاب ko‘rsatadi. Shu jumladan, shevalarimizning qardosh tillar bilan munosabatini va shu shevalarning tashkil topishida boshqa tillarning ishtirokini aniqlash, lahja va shevalarni lingvo-geografik usul bilan o‘rganishni hamda til tarixiga oid tarixiy matnlarni ilmiy nazariy, shuningdek, amaliy jihatlardan o‘rganish, o‘zlashtirish va tadqiq etish maqsadlarini ham ko‘zda tutadi.

Shevalarni o‘rganish til tarixi uchun ham, xalqning tarixi uchun ham boy va qimmatli materiallar beradi. Adabiy tilda yo‘q bo‘lib ketgan, o‘zgarishga uchragan leksik elementlar, ayrim grammatik formalar mahalliy shevalarda saqlanib qolgan bo‘lishi mumkin. Shuning uchun dialektologiya til tarixini o‘rganish uchun juda ham ahamiyatli. Qadimiy turkiy yozma yodgorliklarining bizga noaniq bo‘lgan xususiyatlarini hozirgi o‘zbek shevalarining fonetik, leksek, morfologik, leksek-morfologik xususiyatlarini ilmiy asoslarda o‘rganish bilan aniqlab, to‘ldirish mumkin.

Mazkur fan juda qadimdan, shu jumladan, M.Koshg‘ariy, Alisher Navoiy, Z.M.Boburlar davridan to bugungi kunlargacha shakllanish bosqichini bosib o‘tgan. Ya‘ni o‘zbek adabiy tilining mustahkam asosi bor. Shuning uchun ham “Avvalo, ko‘p ming yillik boy o‘tmishimizni tadqiq etishning yaxlit konsepsiyasini, ya‘ni dasturini, ilmiy izlanishlarning uslubini... (yangi ilmiy metodologiyani – *ta’kid bizniki(T.E)*) aniqlab olish zarur”<sup>1</sup> hamda “Asosi bor yetar murodga, Asosi yo‘q qolar uyatga!”<sup>2</sup>, -deb bekorga aytilmagan. Demak, bu fanning metodologiyasi haqida to‘xtalish shart. Albatta, ushbu fanning metodologiyasi bu – o‘zbek xalq sheva hamda lahjalarining, shuningdek, milliy tilimizning tarixiy taraqqiyotini izchillik bilan ko‘rsatuvchi ilmiy nazariy hamda g‘oyaviy-ma’rifiy jihatlarni asoslaydigan obyektiv qonuniyat, ta’limot, nazariya, g‘oya, usul hamda ularni tahlil etuvchi ilmiy-amaliy tamoyillar

<sup>1</sup> Karimov I.Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.T.,Sharq, 1998. 30-bet.

<sup>2</sup> Ziyomuhhammadov B. Komillikka eltuvchi kitob.T., Turon-Iqbol, 2006. 110-bet.

majmuyi hisoblanadi. Shu o‘rinda metodologiya masalasi tushunchasi bahsli ekanligini ta’kidlash kerak<sup>1</sup>.

Ushbu fanni o‘rganish, o‘zlashtirishda quyidagi terminlar faol qo‘llanadi:

*Sheva* - biror tilning o‘ziga xos fonetik, leksik, grammatic xususiyatlariga ega bo‘lgan kichik qismi (*oraliq sheva, shevalar guruhi* degan terminlar ham bor). *Toshkent shevasi, Shahrisabz shevasi, Qo‘qon shevasi, Buka shevasi* kabi shevalarni misol sifatida keltirish mumkin.

*Lahja* - shevaning fonetik, leksik, so‘z yasalishi hamda grammatic xususiyatlarini ma’lum bir tizim asosida o‘zida birlashtirgan shevalar yig‘indisi. Ayni vaqtida tilimizda uchta lahja bor: 1) *qorluq lahjasi*; 2) *qipchoq lahjasi*; 3) *o‘g‘uz lahjasi*. Ularning nomlanishi turkiy urug‘-qabilalar nomidan shakllangan. Lahja so‘zi arab tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, *tarz, ravish, yo‘sint* singari ma‘nolarni bildiradi.

*Dialekt* atamasi - dialektologik adabiyotlarda lahja, sheva ma’nolarida ham ishlatiladi. Hoziri kunda esa u umumlingvistik dialekt atamasi ma’nosida ishlatilmoqda. Dialekt atamasi grek tilidan o‘zlashgan so‘z. Prof.V.V.Reshetov bu atamani o‘z tadqiqotlarida shevalar guruhi ma’nosida faol darajada qo‘llagan. Mazkur atama bu fanga oid rus tilidagi ilmiy hamda ilmiy metodik adabiyotlarda ham uchraydi.

*Dialektologiya* umuman shevashunoslikka oid asosiy atamalardan biridir. *O‘zbek dialektologiyasi* atamasi esa o‘zbek shevalarini o‘rganuvchi fanning nomi.

Dialektologiyaning, xususan, o‘zbek dialektologiyasining o‘rganish obyekti o‘zbek tilining mahalliy lahja va shevalari bo‘lib, uning asosiy maqsadi o‘zbek xalq shevalarini zamonaviy ilm-fan talablaridan kelib chiqqan holda ilmiy hamda amaliy jihatlardan tadqiq etish va shevalarimizning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik xususiyatlaridagi yangi holatlarni o‘zgarishsiz belgilab boorish. Mana shu asosiy maqsaddan kelib chiqqag holda quyidagi vazifalari amalda bajarish lozim bo‘ladi:

1. Ayrim sheva, shevalar guruhi va dialektlarning fonetik, morfologik, sintaktik, leksik xususiyatlarini tavsiflash.
2. Milliy tilning paydo bo‘lishi va taraqqiyotida shevalarning tutgan o‘rni, milliy tilga asos bo‘lgan shevalarni aniqlash.
3. Shevalarning o‘zaro munosabatini, adabiy tilga va qardosh tillarga munosabatini sheva materiallariga asoslanilgan holda belgilash.
4. O‘xhash xususiyatlariga ko‘ra o‘zbek shevalarning tarqalish chegarasini aniqlash.
5. Umumiy o‘xhash lingvistik xususiyatlarini belgilab, shevalarning ma’lum hududdagi tarqalish karta(xarita)larini tuzib, shevalarni tasnif qilish.

<sup>1</sup> Qurang: Xolboev S. Tarix fanining metodologik asoslari va tamoyillari (I.Karimovning asarlari misolida) // Ijtimoiy fikr.Inson huquqlari.T.,2004.1(25)-soni.140-146-betlar; Xolboev S. Tarix fanining metodologik masalasi // O‘zMU xabarlari.375-379-betlar.

Bulardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tilining sheva, dialect, lahja, shevalari guruhlarining xususiyatlarini ilmiy nazariy va ilmiy amaliy manbalar asosida amaliy tekshirish “O‘zbek dialektologiyasi” fanining asosiy vazifasidir. Darhaqiqat, “Uchinchidan, o‘zbek shevalarini o‘rganish keyingi payitda juda yomon ahvolda ekanligi hammaga ma’lum. Shevashunoslар o‘zbek tilshunosligida qolmadi hisob. Dialektologlar kamayib ketdi. Bunday mutaxassislar tayyorlamayapmiz. Ekspeditsiyalar (dialektal ekspeditsiyalar - ta’kid bizniki – T.Enazarov) yo‘q bo‘ldi.

Shevalar lug‘atini tuzish to‘xtab qolgan. O‘zbek tili shevalarga boyligi bilan ajralib turadi. Xazina bo‘lgan o‘zbek shevalarini jiddiy tadqiq qilmay turib, o‘zbek adabiy tilining taraqqiyotini belgilab bo‘lmaydi. Matematik lingvistika kerak, biroq shevalarni jiddiy tadqiq qilish ham juda zarur”<sup>1</sup>.

Turli hududlarda bo‘lgan har xil dialektlarni va shevalarni o‘rganish shu xalqning tarixi uchun ham, til tarixi uchun ham juda muhim bo‘lgan ishonchli ma‘lumotlarni asoslab, ochib beradi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida bo‘lmanan ba’zi bir so‘zlarni yoki o‘z shaklarini o‘zgartirib yuborgan ba’zi grammatik shakllarning eski, oldingi shakllari hozirgi o‘zbek tilining mahalliy shevalarida saqlanib qolgan bo‘lishi mumkin. Masalan, eski o‘zbek tilida asol qo‘llanilgan *yitmoq* fe’li o‘rniga hozirgi o‘zbek adabiy tilida *yo‘qolmoq* fe’li ishlatalidi, lekin bu fe’lning eski *yitmoq* shaklini hozirgi o‘zbek shevalarida uchratish mumkin (“o‘lim-yitim bo‘lmasin - *olъm-yъtim bolməsъn*”. Tosh. shevasidan)...

Eski o‘zbek tilidagi sifatdoshning *-g‘an* shaklini hozirgi qipchoq shevalarida uchratish mumkin (*barg‘an, qalg‘an*).

*əndən song* (andan so‘ng) - eski o‘zbek tilida, bundan - hozirgi o‘zbek tilida, *andan* - hozirgi o‘zbek shevalarida uchraydi.

*Bərmış* (eski o‘zbek tilida) - *bərgən* (hozirgi o‘zbek tilida) - *bərmış* (Xorazm shevalarida).

*Erur* (eski o‘zbek tili) *-dir* (hozirgi o‘zbek tili) - *erur* (hozirgi o‘zbek shevalarida), *əchərg‘ə* - ochishga, *acharg‘a* (qipchoq shevalarida); *ulus* - xalq - ulus (shevada); *sustaymoq* - susaymoq; *supurgu* - supirgi; *yəmg‘ir* - yog‘mir; *yaqin* - yəvuq; *ul-bul*; u-bu (adabiy tilda) - *ul-bul* (Tosh. shevasida) va boshqalarni misol qilib berish mumkin.

Dialektologiya fanining o‘zbek tilini o‘qitishdagi ahamiyati juda kattadir, chunki shevalarning asosiy xususiyatlarini yaxshi bilish barcha filologlar uchun, xususan, mакtab o‘qituvchilar uchun juda zarur. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yozuvida uchraydigan xatolar o‘z shevalari ta‘sirida amalgalashirgan xatolar hisoblanadi. Shuning uchun o‘qituvchi adabiy tilni, o‘zbek shevalarini yaxshi bilishi, o‘quvchilarga ularni o‘rgatish, og‘zaki va yozma nutqdagi kamchiliklarni tugatish uchun doimo o‘quvchilarga e‘tibor berish lozim: *mungaitыр* — xafa qilib; *əylənməq* — aynalmoq; *djəzdə* - poshsha; *yeddi* — yetti; *qobyz* — chang (og‘izda chalinadigan musiqa asbobi); *navqan* — tut

<sup>1</sup> Tojiev Yo.Til ilmiga sadoqat.T., Mumtoz so‘z, 2010.9-bet.

daraxti; *sъirtta* — tashqarida; *nənni ushəg'i* nonning ushog‘i, *vəylapты* — o‘ylabdi; *yəlləmas* — yolchimas, *qымран* — tuya qimizi.

Dialektologiya til tarixini o‘rganishda ham ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy qimmatga ega bo‘lgan ma‘lum otlarni beradi. Chunki eng qadimgi va qadimgi turkiy til asosida XIV-XV asrlarda shakllangan eski o‘zbek adabiy tili to bugungi kungacha - XXI asrning birinchi o‘n yilligigacha qanday rivojlanib borganini, tilimizga oid bo‘lgan qoidalar, qonunlarning amal qilinishini faqat dialektologiya fanining kuzatishlari va ilmiy jihatdan o‘rganishlari orqali bilib olamiz. Bu degani dialektologiya fani til tarixi bilan hamkorlikda ish olib boradi deganidir. Sababi, xalq tilida qadimgi tilga oid so‘z va forma(so‘z shakli qo‘sishma)larning ishlatilishi tez-tez uchrab turadi.

Markazdan chetdagi tumanlarda yashovchi kishilar, asosan, keksalar tilini kuzatish dialektologlarga ko‘p qiziqarli materiallar beradi. Tog‘larda, cho‘llarda aholi istiqomat qiladigan joylar uzoqligi tufayli o‘zlarining xarakterli dialektal xususiyatlarini o‘zgarishsiz saqlaydilar hamda avloddan avlodga olib o‘tishmoqda. Bu hol ko‘proq sheva vakillari nutqiga xos individual xususiyatlardan hisoblanadi.

“O‘zbek dialektologiyasi” fani tilshunoslikning orfografiya bo‘limi bilan chambarchas bog‘liq. Orfografiya to‘g‘ri yozish qoidalarini va prinsiplarini o‘rganadi. So‘zning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri yozilganligini dialektologik kuzatishlar bergen materiallar va xulosalar orqali aniqlanadi: yo r - yə r, yog‘ - yəg‘ (yəg‘), bəg‘ +- ga - bəqqa (bəqqa), tog‘ - ga - toqqa (təqqa), keynina — keyinga, *mavqıl* — ma‘qul.

Dialektologiya adabiy tilimizning talaffuz me’yorlarini tekshiradigan orfoepiya bilan ham o‘zaro bog‘liq, chunki har kuni ishlatadigan so‘zlarimiz adabiy tilga qabul qilinmasdan oldin sheva va lahjalarda ishlatilgan. Bu holni sheva vakillari nutqidan yozib olingan matnlarda va yozma yodgorliklarda ko‘rish mumkin. Shevalarimizda o‘zbek adabiy tilining orfoepiya qoidalari shakllangan, ma‘lum bir tizimga tushgan.

Mazkur fan terminologiya bilan ham o‘zaro bog‘liqdir. Chunki o‘zbek tiliga Davlat tili huquqini bergen qonunning qabul qilinishi bilan (1989-yil 21-oktabr) mavjud termin(atama)lardan ba’zi birlarini o‘zbekchalashtirish zarurati yuzaga keldi. Bizga zarur bunday atamalarni o‘zbekchalashtirishda “O‘zbek dialektologiyasi” fanida mavjud bo‘lgan dialektologik materiallar ko‘mak bera oladi. Masalan: *elvizak* - mayin shabada. Bu so‘z oldin kishilarga uncha ma‘lum bo‘lmagan, chunki u faqat shevadagina qo‘llangan. Uni adabiy til doirasiga olib kirishda f.f.n. Ahmad Ishayevning xizmati katta. Ushbu so‘zni ishlatgani uchun XX asrning 60-yillarda shu olim, hatto, tanqid qilinib, feleton ham qilingan. Yana sheva vakillari tilida quyidagi so‘zlarni ham uchratish mumkin: *bag‘alar//bachala(r)* – bələlər (bolalar); *əblast* - viloyat (viloyat); *kəlxəz* – kolxoz; *həməsh -əməch* (omoch); *rayən* – tuman; *nəhya* (nohiya); *tuzilish* – struktura; *intıbaq* (ittifoq); *murcha* - *qarincha* - *chuməli* (chumoli) kabi atamalarni ham uchratish mumkin. Ular shevalardan topilgan holda tilimiz

boyligini o‘zida ifodalab turibdi. Ilm-fan, kasb-hunar sohalariga oid atamalarni o‘zbekchalahtirish lozimligini o‘ylasak, dialektologiya fani oldida ko‘p masalalar turganligini sezish mumkin. Sababi, fan, texnika va hayotimizning har bir sohasiga oid atamalarni imkoniyat darajasida o‘zbekchalahtirishda, so‘zsiz, shevalarimiz leksikasiga oid ba’zi bir so‘zlarning ishlatalishi o‘rinlidir.

O‘zbek lajha hamda shevalarining xususiyatlarini yaxshi bilish, o‘rganib olish o‘qituvchilar uchun, ayniqsa, “Ona tili va adabiyoti” fanining o‘qituvchilari uchun ham juda zarur hisoblanadi. Ushbu fan o‘qituvchisi o‘z o‘quvchilarining nutqidagi, yozuvidagi shevaga oid xususiyatlarni yaxshi bilsa, o‘quvchilarning yozma va og‘zaki nutqiga xos bo‘lgan kamchiliklarini to‘g‘ri topa oladi. Buning uchun shevalarimiz haqida mukammal ma‘lumotga ega bo‘lishi shart. Shundagina, o‘quvchilarning adabiy til talablari va me‘yorlarini o‘zlashtirib borish darajasidagi savodxonligi oshib boradi. Chunki o‘quvchilar nutqida, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yozuvida uchraydigan xatolar shevalarimiz ta‘sirida sodir bo‘ladigan xatolar jumlasiga kiradi: *мəнəм* — so‘m, pul; *əynəlməq* — aylanmoq; *қəsүп* — qabul; *esnə* - ensa; *қыдыштышма*, *қыдыштыш* — sayir, *nənnə ushəg'* ՚ — nonning ushog‘i; *дəсбə* — jinni, telba; *Buxorəgə turədə* - Buxoroda turadi; *ərdjə* — sandiq, *qo‘ngshu* — qushni.

Andijonlik o‘quvchi adabiy tildagi *taroq*, *sanoq*, *kosa* tipidagi so‘zlarni *taraq*, *sanaq*, *kasa* shaklida yozsa, toshkentlik o‘quvchi esa adabiy tildagi *shabada*, *aka*, *do‘ppi* kabi so‘zlarni o‘z shevasi ta’sitida *shəbəda*, *əka*, *to‘ppi* ko‘rinishida yozishi va bu bilan orfografik xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin. Shunday qilib, o‘quvchi hamda talabalarni adabiy talaffuzga o‘rgatish, birinchi galda , ular nutqini sheva, ya’ni dialektizmlar ta’siridan holi qilish kerak bo‘ladi: adabiy tildagi *tarəq*, *dala*, *əyəq*, *chəynak*, *kattarəq*, *yətəq*, *yo‘ldəsh* tipidagi so‘zlar 0-lovchi o‘zbek shevalarida mahalliy sheva ta’sirida talaffuzi buzilib *tarə:*, *dəda*, *əyi:*, *chəynak*, *kəttarəq:*, *yətə:*, *yo‘ldəsh* tarzida aytildi. Bunday talaffuz o-lovchi shevalar uchun odatdagagi hol sanaladi.

Yuqorida keltirilgan adabiy tilga oid so‘zlar a-lovchi o‘zbek shevalarida esa *taraq*, *dada*, *ayaq*, *choynak*, *kattaraq*, *yataq*, *yo‘ldosh* tarzida talaffuz etiladi va bu hol a-lovchi o‘zbek shevalarida me‘yor hisoblanadi. Bunday xilma-xillikni bartaraf qilish uchun o‘qituvchi o‘sha sheva bilan adabiy tilni qiyoslay olishi lozim. Qiyoslashda, albatta, adabiy til tayanch holatda bo‘lishini unutmaslik shart: *qatiq* so‘zi o‘zbek xalq shevalarida *qattyq*, *qatyq*, *qətttyq*, *qatyq*, *qatuq*, *qatug*; *qatu*: tarzida talaffuz etilsa-da, lekin bu so‘z adabiy til me‘yoriga ko‘ra qatiq tarzida bir xil talaffuz etiladi.

O‘quvchilarga to‘g‘ri talaffuz me‘yorlarini singdirish maqsadida bajariladigan yirikroq ish o‘sha shevaning fonetik tizimini adabiy tilning fonetik tizimi bi-lan qiyoslash hisoblanadi. Sababi, o‘zbek shevalarining vokalizm tizimi ham, kon-sonantizm tizimi ham fonologik jihatdan adabiy tildan farq qiladi. O‘zbek adabiy tilining tayanch shevalarida unli fonemalar 7tadan iborat bo‘lsa, shimoliy Xorazm qipchoq guruh shevalarida 9ta mustaqil unli tovush bor. Janubiy

Xorazm o‘g‘uz guruh shevalarida cho‘ziq unlilardan tashqari 10ta unli, Iqon shevasining unlilar tizimida 18ta fonema mavjud.

Maktablardagi ona tili o‘qituvchisi o‘quvchilarga adabiy tilning yozma va og‘zaki shakllarini uzliksiz holatda o‘rgatish jarayonida yuqoridagi kamchilik hamda nuqsonlarni tugatishi mumkin.

## Transkripsiya

Transkripsiya dialekt va shevalarda uchraydigan tovushlarning turli ko‘rinishlarini yozuvda ifodalash uchun qo‘llanadigan ma’lum belgilar tizimidir. Tildagi tovushlarni aniq ifodalash uchun xizmat qiladigan yozuv - transkripsiya, lotincha transcriptio – qayta yozish deb ataladi. Transkripsiya dialekt va shevalarda uchraydigan tovushlarning turli ko‘rinishlarini yozuvda ifodalash uchun qo‘llanadigan ilmiy yozuvdir. Transkripsiya bir tildagi fonetik, morfologik, leksik, grammatik xususiyatlarni hisobga olgan holda, ilmiy maqsadlar uchun talaffuzga ko‘ra yozib olish degan ma’noni beradi. Dialektologiya fanida tadqiqotchilar lahja va shevalarning o‘zlariga xos tomonlarini, xususiyatlarini talaffuzga moslab yozib olar ekanlar, mavjud alfavitdagi belgilar yetarli bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, lotin, rus va o‘zbek tili alfavitlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish talab qilinadi. Bu belgilar odatda mavjud alfavitdagi harflarning ustidan, yonidan va tagidan shartli belgilar qo‘ysh yo‘li bilan amalga oshiriladi yoki boshqa alfavitdan shartli ravishda belgi (harfi) qabul qilinadi. Natijada, ilmiy yozuvda belgilar soni asos qilib olingan alfavitdagi belgilar sonidan ko‘p bo‘lishi mumkin.

Transliteratsiya so‘zi ham lotincha bo‘lib, *orqali, vosita* va *harf* ma‘nolarida qo‘llaniladi. Biror tilning yozma yodgorliklarini yoki ma’lum matnni (masalan, arab alifbosida yozilgan eski o‘zbek tili yodgorliklarini) nashr etishda shu yodgorliklarning yozuv tizimini boshqa til yoki yodgorlik bosilayotgan xalqning mavjud yozuv tizimi orqali ifodalash transliteratsiya deb ataladi. Demak, transliteratsiya biror yozuv harflarini boshqa bir yozuv harflari bilan almashtirib ifodalash usulidir. Biror tilning yozma yodgorliklarini yoki ma’lum bir arab alifbosidagi yohud boshqa alifbodagi yodgorliklarni nashr etishda shu yodgorliklarning yozuv tizimini boshqa til yoki yodgorlik bosilayotgan xalqning mavjud yozuv tizimi orqali ifodalash transliteratsiya deb ataladi. Transliteratsiya biror bir yozuv tizimi harflari bilan yozilgan matnni boshqa bir yozuv harflari bilan almashtirish usulidir (arabcha matn---> hozirgi yozuvda; eski o‘zbek yozuvi matni ----> hozirgi yozuvda; lotin yozuvi matnnini ----> hozir yozuvda berish).

Transkripsiya uchun u yoki bu xalq iste’molidagi traditsion alfavitdan o‘rni bilan ma’lum bir o‘zgarishlar kiritish orqali foydalilaniladi. Shuning uchun trans-kripsiyyada belgilar soni o‘ziga asos bo‘lgan alfavitdagi harflar sonidan ko‘p bo‘ladi. Bugungi kunda tadqiqotlarda lotin hamda rus-krill alifbosi asosida qo‘llanadigan transkripsiylar ishlatilmoqda. Mazkur ishda rus-krill alifbosi

asosidagi transkriptiyadan unumli foydalaniilgan. Transkriptiya amalda ikki turga bo‘linadi: 1) fonetik transkriptiya; 2) fonologik transkriptiya.

Sheva(lar)ning talaffuz xususiyatlarini ishonchli dalillar vositasida birmabir yozib olib, saqlash uchun fonetik transkriptiyadan faol foydalaniiladi. Bunda she-vaga xos so‘zlar transkriptiya vositasida to‘liq yozib olinadi. Unda tilda mavjud bo‘lgan hamma nutq tovushlarni yozuvda aks ettirishdir, yani o‘z ifodasini topadi. Faqat shevalarga xos alohida fonemalarnigina hisobga olish uchun ishlataladigan transkriptiya fonologik transkriptiya deyiladi: v - v - lab-lab undosh, v(ъ) - v - lab-tish undoshi.

Turkiy tillarni va shevalarni o‘rganishda turkologlar tomonidan rus va lotin alifbolariga asoslangan turlicha transkriptiyalar qo‘llanilgan. Ulardan rus olimlari qo‘llaydigan transkription belgilar har tomonlama qulay va keng doirada ishla-tiladi. Shuningdek, bu transkription belgilar bilan yangi o‘zbek yozuvida ham foydalinish mumkin.

### **Unli tovushlar**

Unli tovushlarni ifodalash uchun quyidagi transkription belgilar olingan. Ular sheva materiallarini yozib olishda ishlataladi:

6 – umumturkiy orqa qator, lablanmagan [a] unlisi. Qipchoq guruhidagi ohangdosh shevalarning hammasida uchraydi: *vaqt, ata, hamъt, ag’ am*.

ə – old qator, lablanmagan keng unli. U o‘zbek xalq shevalarining deyarli hammasida uchraydi: *əkə, kəttə* (Toshkent), *əkə, kəttə* (Qo‘qon), *dəsyər*.

় – orqa qator, lablanmagan ochiq unli tovush. U ko‘pincha shahar va shahar atrofidagi shevalarda uchraydi: *d়n, n়n, ətə, b়lə, m়sh৿n*.

e (ye) – til old qator, lablanmagan tor unli bo‘lib, shahar va shahar tipli shevalarda uchraydi: *kel, bedə, terək, yenəvə, kesak, yechkə, teskərə, kerək*.

e – til old qator, lablanmagan, ochiq [e]unlisi. Bu fonema ohangdoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan shevalarda qo‘llaniladi: *eshik, echki, elək, mergən*.

ε – old qator unli, lablanmagan [e] unlisining ochiq varianti. Bu esa [e] va [ə] o‘r tasidagi bir tovush bo‘lib, Xorazmda *gəl, get, gərək*, Namanganda *nəməsəvə, bəli* tarzida aytildi.

i – til oldi unli. U odatdagagi turkiy so‘zlarda uchraydigan lablanmagan tovushdir. Ohangdosh shevalarda mustaqil fonema hisoblanadi: *tish, kiyim, ilgari, bittə, kitəp*.

ъ – lablanmagan unli. U tor unli tovush, [i] va [ы ] tovushlarining birlashishi natijasida kelib chiqqan. й fonemasi shahar va ularga yaqin shevalarda qo‘llaniladi: *kъshъ, ъkkъ, bъz, kъm, kъr, kъrъm, chъvъn, bъlməydykən*.

ы – lablanmagan unli. U tor unli tovush bo‘lib, i unlisiga yaqin talaffuz etiladi va chuqur til orqa tovushlaridan bo‘lgan q, g‘ , x tovushlari bilan yonmayon keladi. Ы – unlisi shahar va shahar atrofi shevalarida uchraydi: *qыrq, qыsh, qыzqыq, тых, /ыsh(/ыshт)*.

u – orqa qator, lablangan unli. Turkiy tillarda mustaqil fonema sanaladi. Bu unli o‘zbek xalq shevalarining hammasida ishlataladi: *əluvkən, tumshuq, ulug'*, *quyruq, murun*.

y – til oldi qator, lablangan unli. U ohangdoshlik qonuni saqlangan o‘zbek xalq shevalarida uchraydi: *kyi, gyi, yo'l, jaylandi, ych, pyl*.

o – til orqa qator, lablangan unli fonema(rus-kril yozuvida bu unli “ÿ” bilan ifodalanadi). Barcha shevalarda mustaqil holatda qo‘laniladi: *Oraq qolыны qоуыр, bir ming yuz on somga qoy* *əldы, gosala*.

ө – til old qator, lablangan unli. Bu ham ohangdosh o‘zbek shevalarida ishlataladi: *kөl, bөlə, bөlim, kөr, kөz, gөr, kөmъr*.

o‘ (oldingi yozuvdagi “ÿ”) – lablangan tovush. Bu unli [o] bilan [ə] orali-g‘idagi tovush bo‘lib, shahar va shahar atrofidagi shevalarda uchraydi: *qo'l, bo'l, bo'luv, to'lov, o'zlik*. Shunday qilib, unlilarni ifodalash uchun yuqorida qayd etilgan singari belgilar ishlataladi.

### **Undosh tovushlar**

Ilmiy yozuv sanaladigan transkriptsiyada b, d, z, m, n, p, r, s, t, sh undoshlari o‘zgarishsiz, o‘z holicha ishlataladi. Qolgan undosh tovushlar esa quyidagi transkriptsiyon belgilar bilan berilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

v – lab-lab ; [v] lab-tish undoshi uchrab qolsa, uni alohida izohlash kerak: *vƏh, Əvqat,buvə, buvi, təv // tƏv, elluv(ellik), chivin, jƏvlik // jəvlik, baruvdым*.

y - ruscha [y] tovushiga nisbatan torroq talaffuz qilinadigan tovush: *yəvən, kuyəv, qəynəgəchi, qəynənə, qəynətə, əyə, qoy, zəynəvi, yozgəchən, yorək, həyunchək*.

g‘ - chuqur til orqa, sirg‘aluvchi tovush: *qulə g‘əb, Əg‘aynə, g‘alvir, sarig‘, g‘əm*.

g - sayoz til orqa, portlovchi tovush: *gəz, gul, go'sh, gap, gavda, gazet (gazeta), gəvhər*.

j - sirg‘aluvchi undosh: *ajdar, jurnal, jaqtı, jaqын, jog‘ ari, jora, jol*.

dj yoki җ - qorishiq undosh: *əçol yoki djol, jajar(tor yoriq joy)*.

q - chuqur til orqa , portlovchi tovush: *shutanaq, qaychы, sig‘anaq (ochko‘z)*.

k - sayoz til orqa, portlovchi tovush: *kərəm, kəch, ko'kazan (xasis)*.

l - til orqa: *altын, lələ, ləchirə, lingi(kasalmand), lapa* (konvert), *kol*.

l - til oldi, yumshoq: *kyl, kel, bil, jilli(iliq), til,ləvqi(sust eshak), singil*.

ң - til orqa, burun tovushi: *kongil, ishiň, təñə qara, havlaki* (befarosat).

f - lab-lab va lab-tish: *tuf, puf*.

ch - qorishiq tovush: *chəy, ńchək, chorsillagan* (ishchan).

x - chuqur til orqa, sirg‘aluvchi tovush: *хатыр, Xəlmat*.

h - bo‘g‘uz tovushi: *hamma ,həylə, əvhəl, haltannan(hozirdan)*.

### **Diakritik belgilar va boshqa shartli belgilar**

. - ( nuqta) , : ( ikki nuqta) va ... ( ko‘p nuqta) belgidan keyin qo‘y ilib , unlilarning cho‘ziqligini bildiradi.

, - lenis , g‘ undoshining yoniga qo‘yilib, bu undoshning ( g‘, ) talaffuzida portlashni anglatadi.

ъ – asper, “g” ning yoniga qo‘yilib (gъ), spirantizatsiyani, ya‘ni shu tovushning sirg‘aluvchi ekanligini ifodalaydi.

/ - akut, belgining o‘ng tomoniga qo‘yilib, ( l/ ), palatalazatsiya ( yum-shalishini) ko‘rsatadi.

> belgisi – nutq tovushining boshqa nutq tovushiga o‘tish hodisasini bildiradi.

< belgisi – nutq tovushining boshqa nutq tovushi ta’sirida o‘zgarish hodisasini ko‘rsatadi.

// belgisi – tovushlarning almashinishi va ikki faktning parallel qo‘llanishini anglatadi.

( ) – kichik qavs – shart bo‘lmagan, nutqda tushib qoladigan elementni ko‘rsatadi.

[ ] - o‘rta qavs – umumiyl matndan Transkripsiya qilingan so‘zlarni ajratib ko‘rsatish uchun ishlatalidi.

~ - turli darajadagi qisqarish va kuchsizlanishni ifodalaydi.

Transkripsiada ma’lum bir sheva materiallarini yozib olishda quyidagilarga jiddiy e’tibor beriladi:

1. Har bir tovush bir belgi bilan ko‘rsatiladi, ya‘ni adabiy tildagi kabi ikki tovushni bir belgi bilan ko‘rsatish amalda qo‘llanmaydi. Masalan, *ya,yu,ya,yo*. Bu harflar adabiy tilda qo‘llanadigan harflar bo‘lib, rus-krill yozuvida grafemalar hisoblanadi.

2. Bir belgi doim bir tovushni bildiradi. U adabiy tildagi kabi ikki belgi bir tovushni bildirmasligi kerak. Masalan: *ng(n)*, kabi.

3. Turli diakritik belgilar (qo‘sishimcha belgilar) ham qo‘llaniladi. Bunday belgilar asosan ostki va ustki belgilardir, lekin ba’zan o‘rtada ham bo‘ladi. Masalan: *əlam*, *q*, *g‘*, *o*, *o‘*, *h* va boshqalar.

4. Unlilarning yumshoqligini bildirish uchun ustiga ikki nuqta qo‘yiladi yoki a unli o‘rnida ə harfi qo‘yiladi, yoziladi. Masalan: *pəkənə*, *gəp* va boshqalar.

5. Undoshning yumshoqligini bildirish uchun yuqorida uning o‘ng tarafiga kichik belgi qo‘yiladi. Masalan: *b‘ir*, *k‘im* va boshqalar.

6. Unlining ustidagi to‘g‘ri chiziq uzunlikni, botiq chiziq esa qisqalikni bildiradi. Agar bu belgilar bo‘lmasa, unli, odatdagidek, me’yoriy, o‘rta holatda bo‘ladi. Masalan: *kъm*, *vъm*, *sъm*.

7. Nutq tovushlarning qattiqligi ham ko‘rsatiladi: i - ы; a - а. Masalan, *бықып*, *qавәq*, *qasmaq*(ovqatning qozonga yopishgani), *qыз* (qiz), *go‘sht* va boshqalar.

8. Tovushlarning tushishi ham kichik qavs bilan ifodalanadi. Masalan: *bələlə (r)*, *sh: ər (h)*.

## 9. Urg‘u ham odatdagidek ko‘rsatiladi: Masalan: *sənədətъmъz*.

Hozirgi alifibo (rus-krill alifibosi asosidagi o‘zbek yozuvi va yangi o‘zbek yozuvi) asosida tuzilgan amaliy yozuvdagi belgilar bu fanda qo‘llanadigan trans-kriptsiya uchun xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda o‘zbek shevalariga xos bo‘lgan ba’zi bir nutq tovushlarini aniq ifodalash uchun qo‘shimcha belgilar ishlataladi.

Transkripsiyada (rus-krill yozuvidagi) “yo”lashgan harflar quyidagicha tarzda beriladi: ю - ў: я - ya, ye: e - e(ye,ye): ё - ў (yo ).

## O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari

O‘zbek tili singarmonizmning qisman borligi, kam saqlanib qolganligi bilan barcha turkiy tillardan farqlanadi. Shuningdek, boshqa turkiy tillarda 9(to‘qqiz)ta unli bo‘lsa, o‘zbek adabiy tilida esa 6(olti)ta unli mavjud. Adabiy til hamma shevalar uchun umumiy bo‘lgan tildir. U ma‘lum qoida va mezonga - maromlarga ega bo‘ladi, shuningdek, jonli tildagi holatlarni yozuv orqali ham bera oladi (jonli til esa yozuvga ega emas). Adabiy tilning asosida yotadi. Adabiy til shevalardagi har xilliklarga yo‘l qo‘yilmaydi, uni til qoidalari asosida tartibga soladi. Lekin shevalar adabiy til uchun asos hisoblanadi.

Masalan: Fe‘lning *-digan* formasi shevalarda turlicha talaffuz etilishiga qaramay, uning adabiy tilda yagona shakli mavjud (boradigan) :

*Bəradigən* (Toshkent shevasi), *bəratugən* (Samarqand-Buxoro shevalari),

*bəraətəgən* (Qo‘qon shevasi), *bərataugən* (O‘rta Xorazm shevalari)

*bəratn* (Qipchoq shevalari), *bəratagun* (Urganch shevasi)

Hozirgi adabiy til kelib chiqishi jihatidan eski o‘zbek tili bilan chambarchas bog‘liq, shunga ko‘ra ular bir-biridan keskin farq qilmaydi, balki bir-birini man-tiqiy jihatdan to‘ldiradi. Shuni ham hisobga olish kerakki, har bir davrning o‘ziga xos grammatik qoidalari, so‘z ishlatalish me’yorlari mavjud. Bunday o‘zgarishlar birinchi navbatda tilning leksikasida yaqqol sezilib turadi: jamiyatdagi ijtimoiy hayotning o‘zgarishi, fan-texnikaning taraqqiyoti va boshqa omillar natijasida tilda juda ko‘p yangi tushunchani bildiruvchi so‘zlar paydo bo‘ladi - shunga ehtiyoj tug‘iladi: *mashina, trakt ər, bint* va b.

Adabiy til shevalardan o‘zining leksik xususiyatlari bilan farqlanibgina qol-maydi, balki adabiy tilning grammatik qurilishi shevalarning grammatik quri-lishiga nisbatan murakkab bo‘ladi. Masalan, adabiy tilda murakkab fikrni ifodalash uchun tarkibi juda ham keng bo‘lgan qo‘shma gapdan foydalaniladi, shuningdek, sifatdoshli oborotlar, ergash gapli qo‘ishma gaplar orqali fikrni ifodalash adabiy tilda shevalarga nisbatan ancha murakkab va keng tarqalgan bo‘ladi. Bundan tash-qari, adabiy tilning grammatik tizimi o‘zining shevalar materiallarini birlashtirgan holda me’yoralashganligi bilan ham har qanday shevadan ajralib turadi. Demak, adabiy tilning qonun-qoidalari to‘la egallagan kishigina o‘z fikr-mulohazasini yozuv orqali ifoda eta oladi. Yozuvning paydo

bo‘ilishi bilan adabiy til umumxalq tili negizida maydonga keladi. Adabiy til, odatda, yozuv bilan bog‘lanadi.

Milliy adabiy tilning maydonga kelishi millatning tashkil topish jarayoni bilan bog‘liqdir. Millatning tashkil topishi uchun, shu millatning hamda a’zolari uchun umumiylar bo‘lgan bir tilning bo‘lishi shartdir, har bir millatning eng e‘tiborli belgilaridan biri - uning til birligi sanaladi. Demak, millat uchun yagona bo‘lgan umumiylar til bu milliy adabiy tildir.

O‘zbek milliy adabiy tili o‘z uzoq tarixiga egadir. Adabiy tilning taraq-qiyotida ulug‘yozuvchi, shoir va olimlar ijodining ahamiyati juda muhimdir. A.Navoiy XV asrdagi eski o‘zbek adabiy tilini boyitishga xizmat qilgan bo‘lsa, Furqat, Muqimiy kabi shoirlar XIX asrdagi o‘zbek tilini boyitishga xizmat qilganlar. Abdulla Qodiriy, G‘. G‘ulom, Abdulla Qahhor, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Odil Yoqubov kabi ijodkorlarning asarlari hozirgi o‘zbek adabiy tilimizni har tomonlama boyitishga hissa qo‘shamoqda.

Shevalar har bir xalqning umumiylar milliy tili tarkibiga kiradi, lekin ular shu milliy adabiy tildan o‘zining fonetik, leksik va grammatic xususiyatlari bilan farqlanadi. Demak, sheva milliy adabiy tilning bir tarmog‘i sanaladi. O‘zbek adabiy tili murakkab tarixiy jarayonda tashkil topgan. Eski o‘zbek tili hududiy tavsifiga ega bo‘lgan, shuning uchun eski o‘zbek tilida yozilgan (XV asr) asarlarda har qaysi yozuvchi asarlarining tiliga ma‘lum bir ma‘noda o‘z shevasining xususiyatlarini asos qilib olgan edi. Shunday qilib, eski o‘zbek tilida yozilgan asarlar umumxalq o‘zbek tilida yozilgan bo‘lib, ularda turli mahalliy shevalarning xususiyatlari aks etgan edi. Masalan: bir asarda *yaqin* so‘zi uchrasa, ikkinchi asarda esa shu ma‘noda *yovuq* so‘zi uchraydi. Demak, sheva(lar)ga xos bo‘lgan so‘zlarda ham ma‘noviy o‘zgarishlar bo‘lib turadi. Adabiy tilning orfoepik qoidalari hamma shevalar uchun umumiylar bo‘lgan bir xil talaffuz me’yorlarini hosil qiladi. Xuddi shuningdek, adabiy tilning orfografik qoidalari shevalarimiz uchun so‘zlarni to‘g‘ri yozish me’yorlarini amaliy jihatdan kuchaytirishga yordam beradi.

O‘zbek adabiy tilini o‘zbek xalq shevalari kuchaytirsa, boyitsa-da, ular bir-biridan fonetik, leksik, morfologik, so‘z yasalishi, sintaktik jihatlardan qisman bo‘l-sa ham farqlanib turishi tabiiy hisoblanadi. Bu esa talaffuzda, yozishda quyidagi dialektal xato(shevalargagina xos bo‘lgan xato)larni yuzaga keltiradi:

1. Fonetik xatolar: *opa – apa, men – man, sen – san, tovuq – tuvuq, sovuq – suvuq, sochiq – chəchylq, do‘ppi - to‘ppi, bichan – pəchan, yomon – yamən* kabilalar.

2. Fonetik-morfologik xatolar: *kattaroq – kattarak, aytmoq – aytmak, bo-shoq – bəshaq, taroq – taraq, muncəq - mo‘inchəq // bo‘inchəq, o‘qəb - o‘qəsh - o‘g‘əp, yotqyz – yətgiz - yətgiz - yətguz – yətkuz, ichmaydi – ishmiydə – ichmeydə* singarilar.

3. Morfologik xatolar: *boryapti* – *bɔrvɔttə* – *bɔrɔptə* – *bɔrɔptə* – *bɔruttə* - *bɔrajatir*, *boradigan* – *baratin*, *suzagan* - *suzɔŋ‘ich*, *tomizg‘i* – *damizliq*, *ketaylik* – *getalъ* va boshqalar.

4. Leksik xatolar: *tuxum* – *mayak* – *yumirtqa*, *dovychcha* - *g‘o‘ra*, *narvɔn* – *shatъ* – *zangъ*, *chumolъ* – *morcha*, *ona* (*ɔna*) – *ena* – *aya*.

Dialektal xatolar umuman olganda ikki xil bo‘ladi: 1) ko‘pchilik shevalar uchun umumiyl bo‘lgan dialektal xatolar, ya’ni umumiyl dialektal xatolar; 2) bir shevaning o‘zigagina oid bo‘lgan dialektal xatolar, ya’ni bir shevaga xos bo‘lgan dialektal xatolar. Ushbu xatolar asosida uslubiy xatolarni yuzaga keltiradi. Bunday xatolar talabalarda ham, o‘quvchilarda ham, hatto, katta yoshli ba’zi bir kishilarda ham yozma va og‘zaki shakllarda tez-tez uchraydi. Shevalarga xos bo‘lgan mazkur xatolarning sabablarini aniqlash jarayonida har bir mahalliy shevaga oid fonetik, morfologik, leksik xususiyatlar hisobga olinishi zarur.

### Savollar

- 1.”O‘zbek dialektologiya”si fanining predmeti va vazifalari.
- 2.Dialektologiya so‘zi nimani anglatadi?
- 3.Milliy til, mahalliy dialekt (shevalar) va dialektal xatolar haqida gapiring.
- 4.Nega xalq shevalari adabiy tilni boyituvchi vositalardan biri hisoblanadi?
- 5.Ona tilini o‘qitishda dialektologiya fanining o‘rni haqida so‘zlang.
- 6.Transkripsiya nima, uning qanday turlari bor?
- 7.O‘zbek adabiy tili va xalq shevalarining o‘zaro munosabati qanday?
- 8.Til lug‘at boyligini ohirishda dialektologiya fanining o‘rni.

### Adabiyotlar

Aliyev A.Yu., Rajabov N. O‘zbek dialektologiyasidan programma. T., 1992.

Aliyev A.Yu. Uychi shevasi // O‘zbek dialektologiyasidan materiallar. II. T., 1992.

Abdullayev F.A. O‘zbek tilining Xorazm shevalari. I.T.,1961;II. T., 1964.

Amansariyev V. Turkman dialektologiyasi. Ashgabat, 1970.

Vejilov A.L. Turetskaya dialektologiya. Izd. MGU, 1973.

Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. T., O‘qituvchi, 1978.

Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. T., O‘qituvchi, 1996.

Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari. T., 1962.

Shermatov A. Qashqadaryo o‘zbek shevalari. T., 1972.

Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? T., Fan, 1980.

Begaliyev.M. Q. O‘zbek tilining Qorabuloq shevasi leksikasi.T., Iqtisod-Moliya, 2007.126 bet.

**2-MAVZU**  
**O'ZBEK SHEVALARINING TASNIFII**  
Reja:

- 1.O'zbek shevalarining o'r ganilishi.
- 2.Prof. I.I. Zarubin tasnifi.
- 3.Prof. K.K. Yudaxin tasnifi.
- 4.Prof. E.D. Polivanov tasnifi.
- 5.Prof. G'ozi Olim tasnifi.
- 6.Prof. A.K. Borovkov tasnifi.
- 7.Prof. V.V. Reshetov tasnifi.

Tayanch so'z va tushunchalar

Tasnif.	Tavsif.	Fonetik xususiyat.
Morfologik xususiyat.		Metisatsiya.
Gibrildizatsiya.		Maksimal eronlashgan shevalar.
Eron elementlari mavjud shevalar.		Eronlashmagan shevalalr.
Uyg' urlashgan shevalar.		Shimoliy o'zbek shahar
shevalari. Shimoliy o'zbek qishloq shevalari.		Qipchoq lahjasi.
O'g'uz lahjasi.		Qorluq-chigil-uygur lahjasi.
a - lovchi shevalar, y - lovchi shevalar,		ঢ - lovchi shevalar.
dj - lovchi shevalar. Farg'ona guruhi.		O'rtta o'zbek dialekti.
Shayboniy-o'zbek dialekti.		Janubiy Xorazm dialekti.
Alohiba guruhi shevalari. Umlautli sheva.		Turkiston-Chimkent dialekti.
Qarshi guruhi. Toshkent guruhi.		Shimoliy o'zbek shevalari
guruhi.		
Namangan dialekti. Qarshi dialekti.		Andijon-Shahrixon dialekti.
O'sh-O'zgan dialekti.		Iqon-Qorabuloq dialekti.
Marg'ilon-Qo'qon dialekti.		Toshkent dialekti.
Jizzax dialekti.		Samarqand-Buxoro dialekti.
O'zbek tili tabaqalanish( shevalarning ajralishi) yo'li bilan emas, balki uyg'unlashish (shevalarning qo'shilishi) yo'li bilan tashkil topgan. Hozirgi o'zbek tili uch guruhi shevalarning (qipchoq, o'g'uz, qorluq) qo'shilishidan tashkil topgan. Shuning uchun o'zbek tilining dialekt va shevalari Markaziy Osiyodagi boshqa turkiy tillarga nisbatan xilma-xil guruhlarga bo'lingan. O'zbek tilining tarkibida boshqa turkiy tillarga nisbatan sheva ko'p.		
O'zbek shevalari va ularning o'ziga xos ayrim xususiyatlari, fonetik, morfologik xususiyatlarga ko'ra bir-birlari bilan yaqinlashadigan va ayni vaqtida bir-birlaridan farq qiladigan dialektal guruhlari haqida tasavvurga ega bo'lish uchun ularning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi tasnifini bilishimiz kerak. Shevalarimiz XX asr boshlaridagi oktabr to'ntarishidan keyinroq I. I. Zarubin, K.K. Yudaxin, A. K. Borovkov, E. D. Polivanov singari rus turkologlari va G'ozi Olim, F. Abdullayev, V. V. Reshetov, Sh. Shoabdurahmonov, B. Jo'rayev, S. Ibrohimov, M. Mirzayev, A. Ishayev, Q. Muhamedjanov, K. Nazarov, Yo. G'ulomov, A. Shermatov A. Aliyev, D. Abdurahmonov, N.		

Rajabov, B.To‘ychiboyev, K. Usmonov, A. Jo‘rayev singari o‘zbek tilshunoslari tomonidan ham u yoki bu darajada tasnif qilingan. Albatta, ularning bu sohadagi ishlarining ahamiyati bugungi kunda ham benihoya kattadir. Bugungi kungacha o‘zbek xalq shevalari ikki xil nuqtayi nazardan tasnif qilinganligi e’tirofga sazavor:

- 1) shevalarimizning mamlakatimiz va qo‘sni davlatlar hududlarida joylashishi jihatdan tasnifi, ya’ni o‘zbek shevalarining umumiy tasnifi;
- 2) ma‘lum bir voha yoki viloyat (tuman) shevalarining tasnifi, ya’ni o‘zbek shevalarining xususiy tasnifi.

### **Shevalarimizning mamlakatimiz va qo‘sni davlatlar hududlarida joylashishi jihatdan tasnifi**

XX asrgacha shevalarimiz turli nuqtayi nazarlardan o‘rganilgan bo‘lsa, XX asrning boshlaridan esa ular ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy asoslarda o‘rganilib, o‘sha vaqt uchun qimmatli bo‘lgan tasniflar amalgam oshirilgan. Shuning uchun ham professor I. I.Zarubin, prof. K. K. Yudaxin, prof. G‘ozi Olim, prof. A. K. Borov-kov, prof. V.V.Reshetovlar tomonidan shevalarimizni tasnif qilish bo‘yicha olib borilgan ishlarni shevalarimizning mamlakatimiz va qo‘sni davlatlarning hudud-larida joylashishi jihatdan tasnifiga misol qilib aytish mumkin.

Prof. I. I.Zarubinning o‘zbek shevalari yuzasidan qilgan tasnifi shevalarimizning ilk tasniflaridan biri sifatida quyidagilardan iborat. U o‘zbek shevalarini to‘rtta shevalar guruhiga bo‘lgan: 1) Xiva guruhi; 2) Farg‘ona guruhi; 3) Toshkent guruhi; 4) Samarqand-Buxoro guruhi.

Prof. I. I. Zarubinning bu tasnifida qipchoq (j-lovchi) va shimoliy o‘zbek shevalari hisobga olinmagan. Bu hol ushbu tasnifning kamchiligidir.

Prof. K.K.Yudaxin tasnifida o‘zbek shevalari tasnifining ikki varianti tavsiya qilinadi: 1-variantda shevalarimizning tojik tili bilan munosabati va singarmo-nizmini saqlash darajasiga qarab to‘rtta guruhga ajratgan:

- a) asl turkiy tovush tizimli va singarmonizmni saqlagan o‘zbek shevalari;
- b) o‘z tovush tarkibini qisman o‘zgartirgan, singarmonizmni yo‘qotgan shevalar;
- v) eron(tojik) tili unlilar tizimini so‘zlashadigan o‘zbek shevalar(i);
- g) o‘zbek va tojik tillarida so‘zlashadigan tojik shevalari.

Keyinchalik u (tasnifining 2-variantda) shevalarimizning o‘ziga xos xususiyatlari bilan yaxshi tanishib, oldingi tasnifiga aniqlik kiritib, o‘zbek shevalarini beshta guruhga bo‘ldi:

- 1.Toshkent guruhi. 2.Farqona guruhi. 3. Qipchoq (-j) guruhi.
4. Xiva (Xiva - o‘g‘uz) guruhi. 5. Shimoliy o‘zbek shevalari guruhi.

Prof. E.D.Polivanov tasnifida o‘zbek tili sheva va dialektlari orasidagi eng mayda farqlarni ham ko‘rsatuvchi klassifikatsiyani berdi. U o‘zbek tilidagi quyidagi ikki holatni ko‘zda tutgan:

1) metisatsiya (qardosh tillarning chatishuvi) - turkiy tillarning o‘zaro munosabati, ya’ni bir-biriga ta’siri;

2) gibrizatsiya (turli tizimdagagi, qardosh bo‘lmagan tillarning chatishuvi, masalan hind-evropa tillar oilasiga mansub bo‘lgan tojik tili bilan o‘zbek adabiy tilining va shevalarining munosabati) - tojik tilining o‘zbek shevalariga ta’siri.

Olim o‘zbek shevalarida tojik tilining ta’sirini hisobga olib, o‘zbek shevalarini: eronlashmagan va eronlashgan shevalar, deb bo‘ldi. Toshkent, Qo‘qon-Marg‘ilon, Andijon-Shaxrixon tipidagi shevalarda eronlashish elementi mavjudligini qayd qilgan. Buxoro, Samarqand, Xo‘jand, O‘ratepa tipidagi bir qancha shevalarni maksimal darajada eronlashgan, ya’ni tojik tili vokalizmini o‘zida to‘la aks ettirgan shevalar deb hisoblaydi. Eronlashmagan shevalarga Farg‘onaning singar-monizmli qishloq shevalarini (Saroy, Andijon, Yo‘lguzar) va o‘zbek-qipchoq (dj//j-lovchi) lahjasidagi shevalarni kiritadi.

E.D.Polivanov tasnifida shevalardagi quyidagi ikki holatning ta’sirini misollar bilan asoslab ko‘rsata olgan:

1. Metisatsiya (qardosh tillarning o‘zaro ta’siri).

2. Gibrizatsiya (qardosh bo‘lmagan tillarning o‘zaro ta’siri).

Maksimal eronlashgan shevalar: Samarqand va Buxoro shevalari.

Eron elementlari mavjud: Toshkent, Marg‘ilon, Andijon shevalari.

Eronlashmagan shevalar. Unga Farqonaning singarmonizmli qipchoq lahjası (shevalari) oiddir.

Yuqoridagilar asosida prof. E.D. Polivanov o‘zbek shevalarini uchta dialektga bo‘lib o‘rgangan:

1-dialekt: Eronlashgan shevalar. Ular 7 ta shevalar tipiga bo‘lingan:

1-tip shevalar: Samarqand-Buxoro shevalari.

2-tip shevalar: Toshkent shevalari.

3-tip shevalar: Qo‘qon-Marg‘ilon shevalari.

4-tip shevalar: Andijon-Shahrixon shevalari.

5-tip shevalar: Uyg‘urlashgan shevalar (Namangan, Chortoq).

6-tip shevalar: Shimoliy o‘zbek shahar shevalari.

7-tip shevalar: Shimoliy o‘zbek qishloq shevalari.

2-dialekt: O‘g‘uz lahjası 2 ta shevalar tipiga ajratilgan.

1-tip shevalar.Unga janubiy Xorazm (Xiva, Urganch, Shovot, Hazorasp, Xonqa, Sho‘raxon) hududidagi shevalar mansub.

2-tip shevalariga Shimoliy o‘g‘uz gruppa shevalari (Iqon-Qorabuloq, Jizzax viloyati Forish tumanidagi ---> Bog‘dod shevalari) oiddir.

3-dialekt: qipchoq lahjası 5 ta shevalar tipiga bo‘lingan:

1-tip shevalar: O‘rta Xorazm (Gurlan, Bog‘ot, Shavvoz ) va shimoliy Xorazm (qipchoq, Qo‘ng‘irot) Mang‘it).

2-tip: Ҷ -lovchi (qozoq-nayman, Farg‘ona-Qaraqalpoq) shevalari.

3-tip: Qurama shevalarga Ohangaron vodiysi shevalari mansubdir.

4-tip: Shimoliy o‘zbek shevalari.

5-tip. O‘rta o‘zbek shevasiga qirq shevasi, janubiy o‘zbek shevasi, laqay shevasi, Afg‘onistonning o‘zbek-qipchoq shevalari ayni shu sheva tipiga kiradi.

### **Professor G‘ozi Olim tasnifi**

Professor G‘ozi Olim o‘zbek shevalaridan o‘zi to‘plagan juda boy faktik materiallarga suyangan holda 1936-yili E.D.Polivanov tasnifidan so‘ng o‘zbek shevalarini tasnif qildi. E.D.Polivanov ma’noga ta’sir qilmaydigan fonetik hodisalarini, tashqi ta’sirni o‘z ishiga asos qilib olganini tanqid qilib, juft unlilarning ma‘no farqlash xususiyatiga, lahja, sheva vakillari orasida tushunilmaydigan leksik, morfologik, fonetik xususiyatlarga ko‘ra tasniflashni ilgari surdi. Gozi Olim o‘zbek shevalarni uch lahjaga ajratdi:

1. O‘zbek-qipchoq lahjasi, unga to‘rtta sheva kiradi: qirq shevasi, Jaloyir-laqay shevasi, qipchoq shevasi, Gurlan shevasi. Bu lahjaga Ohangaron vodiysi, Mirzacho‘l, Samarqand, Zarafshon, Buxoro atroflarida, Qashqadaryo, Surxondaryoda yashovchi o‘beklarning shevalari kiradi. Bu lahja vakillari Xorazmda, Andijonda, Namanganda, Qo‘qonda, Qipchoqda, Chimboyda, Qo‘nqirot tumanlarida hamda Tojikistonda va Afg‘onistonning shimolida yashovchi o‘beklarning shevasi ham shu lahjaga kiradi. Bu lahjaning fonetik va morfologik xususiyatlari quyidagicha:

*y > dj: yer -djer; yol - djol*

*q > g‘ : aq – ag‘ ar; aq - aqъ; qulaq - qulaqъ*

*p > b: tɔp > tɔbi, qat - qabb*

*g, g‘ > y: tegdi - tiydi, egdi - iydi; ybg‘ n - djyn*

Ko‘plik qo‘sishchasi: *-lar, -lər, -nar, -tar, -tər, -dar, -dər*.

Hozirgi zamон davом fe'l: *-yatы r, -djatə r*.

Bu lahjaga kiruvchi to‘rtta shevaning fonetik-morfologik xususiyati quyidagilardan iborat:

1. Qirq shevasida qisqa "i" o‘rnida cho‘ziq *iy* (i:) uchraydi: *i:t (it)*

Jo‘nalish kelishigidagi kishilik olmoshlari: *mag‘ an, sag‘ an, ugan* shakllarda uchraydi.

2. Jaloyir-laqay shevasida so‘zning ikkinchi bo‘g‘inda ham «e» tovushi kelishi mumkin: *kechen, bergen*.

3. Qipchoq shevasida lab garmoniyasi uchinchi bo‘g‘inda ham saqlangan bo‘ladi: *uyugə, to‘ y ugə*.

4. Gurlan shevasiga o‘zbek-qipchoq lahjasining hamma xususiyatlarini saq-lagan, ammo ayrim so‘zlarda esa so‘z boshida «dj»ni yo‘qotayotgan o‘zbek shevalari kiradi. Bu shevada *bola* so‘zining ko‘pligi *bag‘alar (bachalar)* bo‘ladi.

II. Turk-barlos lahjasiga Toshkent, Qo‘qon, Namangan, Andijon, Marg‘ilon shaharlari va ularning atrofida yashovchi o‘zbeklarning shevalari

kiritilgan. Bosh-qa joylarda ham bu lahjada gapiruvchilar uchraydi. Bu lahjada jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qattiq o‘zak unlilar va jarangsiz undosh bilan tugasa -qa, jarangli bilan tugasa -g‘a, yumshoq o‘zak jarangsiz undosh bilan tugasa -ga tarzida qo‘shiladi. Tushum kelishigi qo‘shimchasi: -nъ, -ni holatida qo‘llanadi.

Prof. G‘ozi Olim bu lahjani to‘rtta shevaga bo‘ladi:

1. Sayram-Chimkent shevasi.
2. Toshkent-Xovos shevasi.Unda tushum kelishigi -ti shaklida bo‘ladi. Istak fe’l yasovchi -luk: *keliyluk*. Hozirgi zamon davom fe’li: -*v̄et ke(l)v̄ettb, v̄v̄ettb, kemъȳetb*.
3. Andijon shahar shevasida tushum kelishigi -n,-ni,-t,-ti,-d,-di tarzida bo‘- ladi. Hozirgi zamon davom fe’li: -*yəp, -yoyp* bilan yasaladi: *keləyəpmən*.
4. Namangan shahar shevasida hozirgi zamon davom fe’lining qo‘shimchasi: -ut *keluttъman, kelmuttъmən*.

III. Xiva-Urganch lahjasiga Xiva, Xonqa, Kat; Toshovuz, Eski-Yangi Urganch, To‘rtko‘lda yashovchi o‘zbeklar kiradi. Jo‘nalish kelishik qo‘shimchasi -g‘ a,-ga,-a,- ə kabi ishlatiladi. Kelasi zamon fe’l yasovchi affaksi -djaq, -djak. Istak fe’l yasovchi: -l,-li. (*kel əli, əl əl*).

Prof. G‘ozi Olim Xiva-Urganch lahjasini ikki guruhgaga bo‘ladi:

1. Xiva shevasi. Bu shevada singarmonizmning saqlanishi, cho‘ziq unlilarga (a:i) ega bo‘lishi, “q” o‘rnida “k” undoshining kelishi muhim ahamiyatga egadir.
2. Qarluq shevasi (xususiyatlari berilmagan). Bu tasnidda o‘zbek-qipchoq lahjasidan boshqa shevalarning lingistik xususiyatlari farqlab berilmaganligi uchun tanqid qilingan, ya‘ni olimning bu tasnifi o‘sha vaqtligi o‘zbek shevalari-ning xususiyatlarini qamrab ola olmagan. Ayrim shevalarning lingistik farqlarini ko‘rsatuvchi belgilar berilmagan.

### **Professor A.K.Borovkov tasnifi**

U o‘zi to‘plab o‘rgangan materiallari asosida o‘zbek shevalarini quyidagicha tarzda ikkita guruhgaga bo‘lib tasnif (klassifikatsiya) qilgan:

1) o (ং) - lovchi shevalar; 2) a - lovchi shevalar.

O(ং) - lovchi guruhiga shahar shevalari va ular atrofidagi tumanlardagi shevalarini kiritadi.

A-lovchi guruh shevalarga esa singarmonizmni saqlagan shevalarni kiritib, uni ikkiga ajratadi: 1) y-lovchi shevalar; 2) dj-lovchi shevalar.

y-lovchi guruhiga Janubiy Qozoqistonligi o‘zbek shevalari va Janubiy Xorazm shevalari kiradi, dj-lovchi guruhiga esa Shimoliy Xorazm, Surxondaryo, Samarqand oblastidagi qishloq shevalari kiritildi.

Keyinchalik prof. A.K.Borovkov to‘plagan materiallarini jiddiy o‘rganib, o‘zbek shevalari tasnifining boshqa bir variantini taqdim etdi. O‘zbek dialekt va

shevalari orasidagi tarixiy-lingvistik xususiyatlarini hisobga olib, to‘rtta dialektga bo‘ladi:

1. O‘rta o‘zbek dialekti.
  2. Shayboniy-o‘zbek yoki dj-lovchi dialekti.
  3. Janubiy Xorazm dialekti.
  4. Alohida guruh o‘zbek shevalari.
1. O‘rta o‘zbek dialekti ikki guruhga ajratib o‘rganilgan:
- a) O‘rta O‘zbekiston shevasi (Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg‘ona). Unda 6 yoki 7 unli fonema bor, so‘zning 1,-2- bo‘g‘indan 3 fonemasi bor.
  - b) Shimoliy o‘zbek shevasi (Chimkent, Sayram, Jambul, Marki, Janubiy Qozog‘iston).
2. Shayboniy-o‘zbek yoki j-lovchi dialekti. Bu dialektga Samarqand, Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo, Ohangaron vodiysi, Farg‘ona. Bu dialektda unlilar soni 8 ta, o‘zlashayotgan 3 fonemasi bilan 9 tadir.

*djol < yol (yo ‘ il)*

*dʒəmən < yəmən (yomon)*

3. Janubiy Xorazm dialekti (Xonqa, Hazorasp, Shovot, Yangiariq, G‘azovot, Sho‘raxon). Unlilar 9 ta. Hozirgi zamon davom fe’l: -yətor. *Gəlyətor*.

Kelasi zamon fe’li fe’l o‘zagiga: -djəq, -djək qo‘shimchalarini qo‘shish bilan yasaladi.

4. Alohida guruh shevalar (kelib chiqishi turlicha bo‘lgan ayrim shevalar). Ular ikkiga bo‘linadi: 1) Qorabuloq, Iqon, Mankent shevalar guruhi; 2) «Umlautli» shevalar (Namangan viloyatida uchraydi) guruhi. Bunday shevalarda lablanish hodisasi aniq sezilib turadi: *uləm, bəruttə, keluttə*.

### **Professor V.V.Reshetov tasnifi**

Bu olim o‘zbek shevalarining tarixiy-lingvistik xususiyatlarini va ayrim dialektlarga qo‘shni tillarning (tojik, qozoq, qoraqlpoq, turkman) munosabatini hisobga olgan holda XX asrning 60-yillarida o‘zbek shevalarining tasnifini amalga oshirib, o‘sha davr uchun mukammal tasnifini tuzdi. Bu olimning tasnifi oldingi tasniflardan lingvistik xususiyatlarning ko‘p berilganligi bilan ajralib turadi va hozirgi kunlarda ham ma’lum bir belgilari borligi bilan ahamiyatlidir. O‘zbek xalqining tarkibida tarixiy-lingvistik jihatdan bir-biridan ajraladigan, farqlanadigan uch dialekt birligi bor: 1) Qipchoq dialekti; 2) o‘g‘uz dialekti; 3) qorluq-chigil-uyg‘ur dialekti.

Demak, o‘zbek tili uch turkiy qism(komponent)ning birikishi natijasida vujudga kelgan. Ular quydagilar: 1) Qorluq-chigil-uyg‘ur lahjasи hozirgi qardosh uyg‘ur tiliga fonetik va leksik jihatlardan yaqin bo‘lib, tojik tili bilan juda yaqin etnolingvistik munosabatda bo‘ladi; 2) qipchoq lahjasи qardosh qozoq va qoraql-poq tillari bilan yaqin hamkorlikda faoliyat ko‘rsatadi; 3) o‘g‘uz lahjasи qardosh turkman tili bilan yaqin munosabatda bo‘ladi.

Prof.V.V.Reshetov, asosan, turk tillari tasnifi uchun ham asos bo‘lgan ikki lahjani (qipchoq va o‘g‘uz lahjasini) tasnifi uchun asos qilib oladi. U uchinchi lahja sifatida qadimdan o‘zbek xalqining shakllanish tarixida muhim rol o‘ynagan qorluq, chigil va uyg‘ur qabilalarining birligini ko‘rsatib turadigan qorluq-chigil-uyg‘ur dialektini e’tiborga oladi. Ularning lingvistik xususiyatlarini hisobga olib, ularni lahja atamasi bilan quyidagicha tarzda ataydi:

1. Qipchoq lahjasi.
2. O‘g‘uz lahjasi.
3. Qorluq -chigil-uyg‘ur lahjasi.

O‘zbek tilining qorluq-chigil-uyg‘ur lahjasi

Mazkur lahja shahar shevalarini, shahar tipidagi qishloq shevalarini o‘z ichiga oladi. Bu guruh (Toshkent, Namangan, Andijon, Farg‘ona va bir qator aholi punktlari) bir dialekt kompleksini tashkil qiladi. Buni shu shevalarning bir qator maxsus xususiyatlari borligini ko‘rsatib turibdi:

1.Ba’zi bir undoshlarning almashinishi uchraydi: *ch* // *t* ning almashinib keli-shi: Toshk.: *tishla ch(ъ) mlə* // uyg‘. *ch(ə)shlə* ; Toshk.: *tushtъ* // *chusht*, uyg‘ ..:*chushtъ*.

2. So‘z o‘zagi va qo‘srimchalarining oxiridagi *k-q* // *g-g‘* undoshlarining saqlanishi hollari ham tez-tez uchrab turadi:

Uyg‘.: *tərъ* // *tərъq*, *sərъg‘*, *urug‘*, *otъk*.

So‘z oxiridagi undoshning tushishi kuzatiladi:

Toshk.: *qattъg‘* , *təru*: *taro* // *tərə:*, *ortə:*, *qəshlə:bə* // *qəshlə* :*lъ*

3. Turli qolatda ham *q* // *x* undoshlarining almashinishi: uyg‘ ..: Toshk., Namangan.: *toqta* // *toxta*, *toqsan* // *toxsan*, *baqtuk* // *baxtuk*.

4. *l* // *n* undoshlarining almashinishi:

*Koynek* // *koylək* // *kolək* // *konglək*.

Toshk.: *koynək* // *koylək* // *koynəy*.

5. To‘liq progressiv assimilyatsiya faol qo‘llanadi:

Toshkent: *tuzzъ* < *tuznъ* // *tuznъng*

*Əshshə* < *Əshnъ* // *Əshning*

*temъrrъ* < *temъrnъ* // *temъrnъng*

Namang.: *quşshə* < *quşnъ* // *quşnъng*

6. Qardosh uyg‘ur tilining fonetik xususiyatlaridan biri: «umlaut» bo‘lib, birinchi bo‘g‘inda kelgan quyi ko‘tarilish *a* // *ə* unlilarining ikkinchi bo‘g‘inda kelgan yuqori ko‘tarilish “ъ” unlisi ta‘sirida “e” ga o‘tishidir: *at* > *ətъ*. Bu hodisa Namangan shevasida uchrasada, Toshkent, Marg‘ilon shevalarida uchramaydi.

7. Namangan shevasi va uyg‘ur tilidagi tovushlarning tushishi va tor unlilar-ning qisqaligi kabi xususiyatlar Toshkent shevasida ham mavjud.

Toshk.: Namang.: *ədəmlə* *keldъla*, *bъzə* > *bзə*, *sъnə* > *slə*.

8. Toshkent, Namangan, Andijon, Marg‘ilon, Qo‘qon shevalarining hammasida turlovchi qo‘shimchalardan -nъ affiksi ham qaratqich, ham tushum kelishigi ma‘nolarini ifoda etadi: Әttъ səttъ; Әttъ bəshъ (*ning>ni*).

9. Bu shevalar guruhi hozirgi zamon davom fe’lni ifodalovchi ikki morfologik belgiga ega:

1) -vat va uning fonetik variantlari: -vat , -ut. Toshkent va unga yaqin qishloqlar shevasi (Parkent) -vət... Toshk.: -vət, Uychi - vət; Namangan -ut.

2) -yəp shakli Farg‘ona vodiysidagi shahar va shu kabi shaharlarga yaqin qishloq shevalariga xos: qъlyəpmən > qъlyəppən; bəryəpmən > bəryəppən.

Farg‘ona paradigmasiga (shevadagi hozirgi zamon davom fe’linihg ko‘rinishi) Samarqand va unga yaqin shahar va qishloqlar shevasi ham kiradi.

Qarluq-chigil-uyg‘ur lahjasiga kiruvchi dialekt va shevalarni individual xu-susiyatlarini saqlash-saqlamaslik nuqtayi nazaridan bir necha guruhga va dialektga bo‘lish mumkin. Bu lahja o‘z ichida to‘rt guruhga bo‘linadi:

1. Farg‘ona guruh shevalari.

2. Toshkent guruh shevalari.

3. Qarshi guruh shevalari.

4. Shimoliy o‘zbek shevalari guruhi.

I. Farg‘ona guruh shevalarida to‘rtta dialekt mavjuddir:

1. Namangan dialekti. Namangan shahar va Namangan viloyati shevalari ayni shu dialektga kiradi.

2. Andijon-Shahrixon dialekti. Unga Andijon shahri, Shahrixon, Andijon viloyatidagi shevalar kiradi.

3. O‘sh-O‘zgan dialekti. Mazkur dialektga O‘sh, O‘zgan, Jalolobod shevalari kiradi.

4. Marg‘ilon-Qo‘qon dialekti. Bunga Marg‘ilon, Farg‘ona shaharlari, Vodil, Qo‘qon shevalari kiradi.

II. Toshkent guruh shevalari. Ushbu guruh ikki dialektga bo‘lingan:

1. Toshkent dialekti. Ayni shu dialektga Toshkent shahar va viloyati shevalari kiradi. Lekin j-lovchi qipchoq shevalar kirmaydi.

2. Jizzax dialekti. Ushbu dialektga Toshkent, Samarqand, Jizzax, Qashqadaryo viloyatidagi Po‘lati kabi shevalar kiradi. J-lovchi shevalar kirmaydi.

III. Qarshi guruh shevalari esa ikkita dialektga ajratib o‘rganilgan:

1. Qarshi dialekti. Bunga Qarshi, Shahrисabz, Kitob, Yakkabog‘ tumanlari shevalari kiradi. J-lovchi shevalardan tashqaridagi shevalar unga mansubdir.

2. Samarqand-Buxoro dialekti. Unga Samarqand, Buxoro, Xo‘jand, Farg‘ona vodiysidagi Chust, Qashqadaryo vodiysidagi Koson shevalari shu dialektga kiradi. Bu shevalar qardosh bo‘lmagan tojik tili elementlarining turli darajada borligi bilan ajralib turadi.

IV. Shimoliy o‘zbek shevalari guruhi. U ikkita dialektga bo‘lingan:

1. Iqon-Qorabuloq dialekti. Mazkur dialektga Iqon, Qorabuloq, Mankent, Qoramurt kabi aholi punktlaridagi kishilarning shevalari kiradi. Bu dialekt o‘g‘uz va qipchoq shevalari elementlarining borligi bilan xarakterlidir.

2. Turkiston-Chimkent dialekti. Unga Turkiston, Chimkent, Sayram sheva-lari kiradi. O‘g‘uz elementlarining kamayishi, qipchoq, qozoq elementlarining ko‘payishi bu dialektdagi shevalarga oiddir.

### O‘zbek tilining qipchoq lahjasi

Ushbu lahjaga xos fonetik, leksik, morfologik xususiyatlar prof. E.D.Polivanov, prof. G‘ozi Olim tasniflarida atroflicha mukammallikda berilgan.

*g > y: tegdi > tiyεv*

*g‘ > y: yig‘ in > djεyεn*

*y > dj: yol > djol, yəmən > djəmən.*

Shaxsni bildiruvchi olmoshlarning jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasini olgandan keyingi shakli quyidagichadir: *mag‘an, sag‘an, o‘g‘an.*

Hozirgi zamon davom fe’li *-djətir* bilan yasaladi.

Qaratqich, tushum kelishigi qo‘shimchalarida *t/d/n* tovushlari almashinadi: *-nъing, -ning, -dъing, -ding, -tъing, -ting, -ны, -ни, -ды, -ди, -ты, -ти.*

Mazkur lahja boshqa lahjalardan o‘zining fonetik xususiyatlari bilan farq qilgani kabi leksik xususiyatlari bilan ham farqlanadi.

### O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi

Bu lahjaning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha:

a) qipchoq shevalaridagi kabi juft unlilar mavjud;

b) qisqa va uzun unlilar farqlanadi:

*a:: t, a:d*

(hayvon) (ism);

v) so‘z boshida *t* va *k* tovushlarining jaranglashinishi mumkin: *dil < til, gel < kel;*

g) *k, g* undosh tovushlarining talaffuzda yumshalishi ham kuzatiladi;

d) qaratqich kelishigi qo‘shimchasining *-ыing, -ing* formasi faol ishlatiladi;

e) *bol* fe’ldagi *b* ning tushishi: *ol > ol...* (Xorazmda yashovchi aholining aksariyat ko‘pchiligi o‘g‘uz lahjasida gapirishadi).

O‘zbek shevalari va ularning xususiyatlari (*y, j, Ҷ (o)*) oldingi tasniflarda mukammal tarzda berilgan.

## Ma‘lum bir voha yoki viloyat shevasining tasnifi

Bilamizki, ma‘lum bir voha yoki viloyat shevalarini tasnif qilish oldingi davrlarda, ya’ni XX asrning 50-90-yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda uchraydi. Masalan, F.Abdullayev, A.Shermatov, B.Jo‘rayev, A.Aliyev, Saidmuso Rahimov o‘zbek shevalarini guruhlab o‘rganishgan. F.Abdullayev Xorazm viloyati shevalarini qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga bo‘lib

o'rgangan. A.Shermatov, B.Jo'rayev Qashqadaryo viloyati o'zbek shevalarini: 1) Yuqori Qashqadaryo shevalari; 2) Quyi Qashqadaryo shevalari nomlari bilan guruhlarga ajratib o'rganishgan. A.Aliyev Namangan viloyati o'zbek shevalarini guruhlab, ilmiy hamda amaliy asoslarda tadqiq etgan.

Bu sohaga oid ba'zi bir ilmiy manbalarda oraliq shevalar haqida fikr yuritilgan. O'zbek tilining oraliq shevalarini Qashqadaryo shevalari misolida T.Qudratov tadqiq etgan. Saidmuso Rahimov esa Surxondaryo viloyatidagi o'zbek shevalarini ikkita guruhga bo'lib o'rgangan:

1.J-lovchi shevalar (qipchoq lahjasiga xos shevalar).

2.Y-lovchi shevalar (qorluq lahjasiga xos shevalar). Ularda V.V.Reshetov tomonidan talqin etilgan qipchoq va qorluq lahjalariga oid xususiyatlar uchraydi.

B.To'ychiboyev va B.Hasanovlar qipchoq lahjasini sharqiy, g'arbiy va Farg'ona guruh qipchoq shevalari deb uchga bo'lishgan.

#### Savollar

1. I.I. Zarubin tasnifida o'zbek shevalari necha guruhga bo'lingan, nega ?

2. K.K. Yudaxin o'zbek shevalarini necha guruhga bo'lib tadqiq etgan?

3. E.D. Polivanov tasnifining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

4.G'ozi Olim o'zbek shevalarini necha lahjaga bo'lib tadqiq qilgan?

5.A.K. Borovkov o'zbek shevalarini qanday xususiyatlari asosida o'rgangan va uning keyingi tasnifi qanday dialektlarga bo'lingan?

6. V.V. Reshetov tasnifining o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.

#### Adabiyotlar

Aliyev A. Namangan guruh o'zbek shevalari // O'TA. 5. T., 1969.

Qodirov Q.Q. O'zbek shevalarini o'rganish va tasnif qilish masalasi. Fargona., 1949.

Borovkov A.K. Voprosi klassifikatsii uzbekskix govorov // Izvestiya AN UzSSR. 5. T., 1953.

Rajabov N. O'zbek shevashunosligi. T., O'qituvchi, 1996. 76-78-betlar.

Reshetov V.V. O'zbek dialektlarining monografik o'rganish // O'zbek tili va adabiyoti masalalari. 1. T., 1960.

Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O'zbek dialektologiyasi. T., 1962.

Reshetov V.V. O'zbek shevalarining klassifikatsiyasi // O'TA.1-son.T., 1966.

To'ychiboyev B., Hasanov B. O'zbek dialektologiyasi. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, T., 2004.

#### 3 - MAVZU

#### O'ZBEK SHEVALARI FONETIKASI. O'ZBEK SHEVALARIDA UNLILAR

Reja:

1.O'zbek shevalari fonetikasining individual xususiyatlari.

2. A.K. Borovkovning birinchi tasnifi shevalar fonetikasiga asoslanganligi.

3.O‘zbek shevalariga oid fonetik hodisalarning xususiyatlari.

Tayanch so‘z va tushunchalar

O‘zbek tili lajhalarida unlilar. Unlilarning cho‘ziq hamda qisqaligi.

Singarmonizm va uning turlari. Tanglay uyg‘unligi.

Lab uyg‘unligi. Shevaning muhim fonetik xususiyatlari.

Singarmonizm. Qisqa unlilar.

Cho‘ziq unlilar. Fonetik ultra (emfiatik) cho‘ziqlik.

Taniqli olim prof. A.K.Borovkov o‘zbek shevalarini tasnif qilishda o‘z yo‘liga ega bo‘lgan olimlardan biridir. To‘plab ulgurgan faktik materiallar asosida ushbu olim o‘zbek shevalari tasnifining ikki xil variantini taklif qilgan. Bu tasnifida o‘zbek dialekt va shevalarini, ulardagi eng muhim fonetik (shuningdek, fonetik-morfologik) xususiyatlarga ko‘ra ikki guruhga ajratildi:

1. Ə - lovchi shevalar.

2. A- lovchi shevalar.

Ə - lovchi guruh shevalarga shahar shevalari (Kattaqo‘rg‘on, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Andijon, Qo‘qon, Margilon, Farg‘ona, Qarshi, Jizzax shahar shevalari) va ular atrofidagi tumanlarning shevalarini kiritdi.

A-lovchi guruh shevalarga esa olim singarmonizmni saqlagan shevalarni kiritdi. Mazkur guruh o‘zbek shevalari (bu guruh shevalarda uchraydigan fonetik xususiyatga ko‘ra) y -*lash* va *dj -lash* xususiyatiga ko‘ra o‘z navbatida ikkiga ajratiladi:

1) y-lovchi              *g, g'* > *tegdi - tiydb*

2) dj-lovchi              *egdi - iysi, ybn - djyb*

Y-lovchi guruhga Janubiy Qozog‘istondagi (Chimkent, Mankent, Turkiston va shu kabilar) o‘zbek shevalari va Janubiy Xorazm shevalari kiritildi.

dj - lovchi guruhga esa Shimoliy Xorazm, Surxondaryo, Samarqand, Qashqadaryo viloyatlaridagi qishloq shevalari mansubdir:

*y > dj -: yer - djer, yol - djol*

### **O‘zbek tili lajhalarida unlilar**

Bilamizki, o‘zbek xalq shevalari o‘z tarkibi jihatdan murakkabdir. O‘zbek tili dialektlari kompleksi tarkibiga qorluq-chigil-uyg‘ur, qipchoq va o‘g‘uz lajha-lari kiritiladi. Bu lajhalarining har biri o‘z navbatida vokalizm jihatidan fonetik noo‘xhashliklarga ega bo‘lgan shevalarga bo‘linadi. Unlilar ikkinchi bir nom bilan vokal, ularning majmui vokalizm deyiladi.

Ilmiy tadqiqot ishlaridan ma’lum bo‘lishicha, qarluq-chigil-uyg‘ur lajasida 10 ta unli fonema bor: *i, ə, o’, u, o’, a; ə, e, ɔ, e*.

O‘g‘uz lajasidagi shevalar esa tovush jihatdan ancha murakkab, chunki ularda ba’zi unli fonemalar sifat jihatidangina emas, balki miqdoriy jihatdan ham farq qiladi. Bu lajadagi shevalarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bularda ma’no farqlovchi, ya‘ni ma‘lum semantik vazifaga ega bo‘lgan va

mustaqil fonema hisoblanadigan alohida cho‘ziq va mutlaq qisqa fonemalardan tashkil topgan bo‘lib, bu fonemalarning soni ba’zi shevalarda 18 taga ham etadi (ya’ni unlilarning qisqa, cho‘ziqligi ham ma’noga ta’sir etgani uchun e’tiborga olinadi).

O‘zbek adabiy tiliga asos bo‘lgan shevalarda unli fonemalar soni - 8 tadan oshmaydi: a, ə, Ә, u, o‘, ye, e, i. Bunga “e” fonemasini ham qo‘shish mumkin.

O‘rtalik Qashqadaryo je-lovchi qipchoq shevalarida umumturkiy orqaqator “a” unlisi saqlangan, “ә(o)” unlisi esa mazkur shevalarda sporadik holda (ya’ni “a” unlisiga moyilroq tarzda qo‘llanadi – *qara(fe'l)*, *qara(sifat)* // adabiy orfografik *qara(fe'l)*, *qora(sifat)*) uchraydi.

Toshkent va Samarqand shevalarining vokalizm tizimi 6 fonemalik (a, e, Ә, u, o‘, e), bu fonemalarning ba’zilari boshqa shevalardan sifat jihatdan farq qiladi.

Toshkent shevalarida quyidagi unli tovushlar bor: ъ, e, ə, Ә, o, u.

Samarqand guruh shevalarida quyidagicha unli fonemalar mavjud: ъ, e, a, Ә, e, u.

Ushbu holni Qarshi, Buxoro, Xo‘jand, Chust shevalarida ham ko‘rish mumkin.

Iqon shevasida esa vokalizm – unlilar quyidagicha:

oldingi qator	orqa qator
qisqa i,ye,e,u, Ә	ы, a, u, Ә
cho‘ziq i:,e:,e:,u:, Ә:	ы:, a:, u:, Ә:

Demak, Iqon shevasi vokalizmida qisqa unlilar to‘qqizta : i; ye, e, u, y, ы, a, u, Ә (9). Cho‘ziq unlilar: i:,e:,e:,u:, Ә: , ы:, a:, u:, Ә:

Qo‘qon va Marg‘ilon shevalarida sifat jihatdan farq qiladigan, ammo miqdor jihatdan farqlanmaydigan 7 fonema (ъ, u, ye, Ә, ə, a, e) mavjud (ъ, y, e, Ә, ə, a, Ә).

Toshkent shevalarida ə, Ә unlilarini ko‘rsak, Buxoro, Qarshi, Samarqand, Xo‘jand, Chust shevalarida ham ə, Ә unlilarni bilgan holda, Qo‘qon, Marg‘ilon shevalarida a, ə, Ә unlilar borligini ko‘ramiz.

Andijon, Shahrixon, Farg‘onaning qishloq shevalari, Turkiston, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryodagi j-lovchi o‘zbek shevalarida, Ohangaron vodiysi-ning qurama shevalari vokalizmi tarkibida 10 ta fonema mavjud: a, ə, e, Ә, o, o‘, u, y, ъ, i.

O‘zbek shevalarida unlilarning cho‘ziq va qisqaligi ham ahamiyatga egadir: *a:t(ad)* - ism, *at* – ot(hayvon nomi); *a:ch* (a:sh), *a:j* - och (qorin och bo‘ganda aytishi-ladi); *ach* - әch (eshikni och); *kul* (kulmoq), *ku:l* (ko‘l); *o’:t* (inson organizmi) - *o’t* (olov), *ot* - *o’t* (o‘tmoq).

Xiva shevasida *yaz* //ad.orf.yoz (xat yoz), *ya:z* // ad.orf.yoz (yoz keldi).

O‘zbek shevalarida ikkinchi darajali cho‘ziq unlilar bor bo‘lib, ular yondosh undoshning tushishi natijasida hosil bo‘ladi: *shəhar* > *shə:ər* > *shə::r*; *bər* > *bə:ər*; *tegma* > *te:mə*.

Fonetik ultra cho‘ziqlik (emfatik cho‘ziqlik) jumla ohangdorligi bilan bog‘liqdir: *məm bəlmə:: mən* (men bilmayman),  
*səm bəlmə::sən* (sen bilmaysan),  
*u bəlmə::də* (u bilmaydi).

Yaqin kelajakda ә- lovchi, a-lovchi shevalar vokalizmi – unlilari tizimidan “e” unlisi mustahkam o‘rin oladi.

### Singarmonizm

Singarmonizm deb so‘zdagi tovushlarning bir-biriga hamda qo‘sishchalarining o‘zakka talaffuz jihatdan uyg‘unlashishiga aytildi.

Turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek tilida singarmonizmning ikki xil ko‘rinishi bor: 1. Tanglay uyg‘unligi (unlilarning qattiq va yumshoqligiga ko‘ra)...  
*barыig‘* - borish, *kimkə* - kimga, *ilgari* - ilgari, *dalag ‘a* - dalaga.

2. Lab uyg‘unligi - birinchi bo‘g‘indagi unliga keyingi bo‘g‘indagi unlining yoki o‘zakdagagi unliga qo‘sishchadagi unlining lablanishi jihatdan moslashuvividir:

<i>ъпът (inim)</i> - ukam,	<i>uzum</i> – uzum
<i>kozom</i> - ko ‘zim ,	<i>tuzum</i> – tuzumi.

Singarmonizm termini grekcha so‘z bo‘lib, *sun* - birga, *hormonia* - ohangdoshlik degan ma‘noni bildiradi. Bu - so‘zning asosi va qo‘sishchalar (affiks) tarkibidagi unlilarning o‘zaro uyg‘unlashuvi, garmoniyasidir. Bu hodisa ayrim turkiy tillar uchun, o‘zbek tilining esa ayrim shevalari uchun xarakterlidir. Masalan, o‘zbek tilining qipchoq tip shevalarida uchinchi shaxs egalik qo‘sish-chasining *-i*, *-o*, *-u* kabi variantlarga egaligi singarmonizm belgisidir: ishi, atы, ozu (o‘zi) kabi. Misollarga murojaat qilaylik:

<i>kopruk</i> - ko ‘priк	<i>dəydu</i> – daydi
<i>bətur</i> - botir	<i>o ‘quydu</i> - o ‘qiydi
<i>qətur</i> - qotir	<i>mudur</i> - mudir
<i>xətun</i> - xotin	<i>o ‘qush</i> - o ‘qish
<i>məku</i> - moki	<i>muqum</i> – muqumъ

Yuqoridagilar singarmonizmning lab uyg‘unligi (lab garmoniyasi)ga misol<sup>1</sup>. Shuni alohida ta’kidlash keraki, shevalarimizda faol uchraydigan singarmoniz hodisasi o‘zbek adabiy tilida juda kam – yo‘q hisobi. Mana shu xususiyati bilan adabiy tilimiz boshqa turkiy tillardan ajralib turadi.

### Savollar

1. Kim shevalarni fonetik xususiyatlariga ko‘ra ikkiga bo‘lib o‘rgangan?
2. Y-lovchi, ә-lovchi, a-lovchi sheva vakillari qaysi hududlarda yashaydi?
3. Qorluq-chigin-uyg‘ur lahjasida unlilar qancha?
4. O‘g‘uz lahjasida unlilar miqdori qanchaligini ayting?
5. Qo‘qon va Marg‘ilon shevalarida qancha unli fonema bor?

<sup>1</sup> Mirzayev M. O‘zbek tilining Buxoro guruh shevalari. T, Fan, 1971. 32-bet.

6. Unlilarning cho‘ziq va qisqaligi ma‘no farqlaydimi?
7. Fonetik ultra cho‘ziqlik nima?
8. Tanglay va lab uyg‘unligi to‘g‘risida so‘zlang.

Adabiyotlar

- G‘ulomov H. O‘zbek tilining Jizzax shevasi // O‘DM. 1. T., 1957.
- Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. T., 1962.
- Ishayev A. Mang‘it shevasi fonetikasidan materiallar //Adabiyotshunoslik va tilshunoslik masalalari. IV. T., 1962.
- Ibrohimov S.I. O‘zbek tilining Andijon shevasi. T., 1967.
- Mirzaev M. O‘zbek tilining Buxoro guruh shevalari. T., Fan, 1969.
- Egamov V. O‘zbek tilining G‘allaorol shevalari. Samarqand, 1970.
- Abdullayeva D. O‘zbek tili Oshoba shevasining fonetik xususiyatlari. AKD. T., 1999.25 bet.
- Abdullaev F.A. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi. T., Fan, 1978.
- Jo‘raev X.O‘zbek tili turk-kaltatoy shevasining fonetik va leksik xususiyatlari.T.,1981. 120 bet.
- Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. T., O‘qituvchi, 1996.
- Muhammadjonov Q. Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalari (qarluq va qipchoq tip sheva materiallari asosida).T.,Fan, 1981. II kitob. 370 bet.

4-MAVZU  
O‘ZBEK SHEVALARIDA UNDOSHLAR  
Reja:

- 1.O‘zbek shevalarida undoshlar.
- 2.Shevalarda uchrovchi va uchramaydigan undoshlar.
- 3.Lab undoshlari hamda bo‘g‘uz undoshi.
- 4.Til oldi, til o‘rta va til orqa undoshlari.
- 5.Undosh fonemalar tavsifi.
- 6.Undoshlarning orttirilishi hamda tushib qolishi.
- 7.Unli va undoshlarning orttirilishi hamda tushib qolishi.
- 8.Dissimilyatsiya va assimilyatsiya, ularning turlari.

Tayanch so‘z va tushunchalar

Toshkent tipidagi y-lovchi shevalar.	Affrikat tovush.
Fonema.	Lab undoshlari.
Til oldi undoshlari.	Til o‘rta undoshlari.
Til orqa undoshlari.	Bo‘g‘iz undoshi.
Undoshlarning ortishi va tushib qolishi.	Unli va undoshlarning ortishi.
Unli va undoshlarning tushishi.	Dissimilyatsiya.

Assimilyatsiya.

Tarixan xilma-xil bo‘lgan o‘zbek (konsonantizm) tizimini fonologik jihatdan, ya’ni printsiplial farq qiladigan undosh fonemalarni aniqlash va ularning talaffuz qilinish xususiyatlarini belgilash uchun ma’lum guruhdagi shevalar o‘zaro qanday xususiyatlari bilan

bir-biriga yaqin yoki bir biridan nimalar bilan farq qilishini aniqlash lozim. Shuning uchun quyidagilarga etibor qarataylik:

1. Bir-biridan printsipial farq qiladigan undosh fonemalarning miqdori va ularning sifat jihatdan xarakteristikasiga ko‘ra, y-lovchi shevalar o‘zbek adabiy tiliga birmuncha yaqin turadi. Ammo Toshkent tipidagi y-lovchi shevalarda uchramaydigan, biroq j-lovchi va singarmonizmli y-lovchi shevalarda mavjud bo‘lgan “h” fonemasi bundan mustasno.

Janubiy Xorazm shevalaridagi “k”, “g” undoshlari ham qo‘llanilishi jihatidan birmuncha o‘ziga xos xususiyatlariga ega. Til orqa burun “ng” tovushi ham shevalararo bir xil emas: ng // ng‘ (// g‘ ).

2. Barcha j-lovchi shevalardagi undoshlar tizimi deyarli har xil holatdadir.

X tovushining tavsifi, uning mavjud bo‘lish, bo‘lmasligi bilan j-lovchi shevalar bir-biridan farq qiladi. Undoshlar tizimi tarkib jihatdan j-lovchi shevalar qipchoq gruppasidagi turkiy tillarga, birinchi navbatda, qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz tillariga yaqin turadi.

3. J-lovchi shevalardagi “dj” affrikati o‘rniga “j” fonemasini qo‘llaydigan shevalar j-lovchi shevalarning alohida guruhini tashkil qiladi. “Y” fonemasi y-lovchi shevalarga nisbatan j-lovchi shevalarda kam qo‘llanadi, chunki bu shevalarda qadimgi turkiy “y” tovushi so‘z boshida “dj” yoki “j” tovushi bilan almashadi.

y-lovchi shevalar ta’sirida “y” tovushining “dj” tovushiga o‘tishi  $y > dj$  tamomila tugagan. O‘zbek adabiy tili barcha shevalardan “f”, “j”, “s” fonemalarga egaligi bilan farq qiladi.

f fonema. Samarqand-Buxoro shevalarini mustasno qilganda barcha sheva vakillari talaffuzida “p” fonemasiga aylanadi. Ruscha “j” tovushi “dj” tarzida talaffuz qilinadi. O‘zbek shevalarida quyidagi undosh fonemalar bor:

1. Lab undoshlari: p, b, (f), v, m.
2. Til oldi undoshlari: a) t, d, s, z, ch (j), sh, dj; b) til oldi sonorlari: n, l, r.
3. Til o‘rta: y.
4. Til orqa: q (k/x’), g (g/g‘), ng (ng/ng‘), x, q, g‘ (g‘)

Bo‘g‘iz undoshi: h (h).

“p” fonemasi lab-lab, portlovchi jarangsiz p undoshi barcha o‘zbek shevalarida so‘zning barcha bo‘g‘inida uchraydi: pəxtə, tepə, pəndjə.

Ba’zi shevalarda “p” o‘rnida “b” qo‘llanadi: jl. tepə > tebə; kepək > kevək-kebək. p > b, p > v hodisasi j-lovchi shevalarni y-lovchi shevalardan farqlaydi.

“b” fonemasi. Lab-lab “b” undoshini talaffuz qilganimizda tovush paychalari birmuncha titraydi. Bu xususiyati bilan “b” undoshi “p” dan farq qiladi. b > p: jl əutyır pərəyətyırtы, ketip pərədys.


b > v xususiyati uchraydi: ozbəy > ozvək; əlbəttə > əlvəttə.

Toshkent tipidagi shevalarda uchraydigan hozirgi zamon fe’l yasovchi - vot affiksidagi “v” tovushi ham “b” > “v” holatidan deb qarash kerak:

Y-lovchi shevada: *baryb yat* > *bərəb yət* > *bərvət*.

f fonemasi. Ushbu tovush qadimdan qabul qilingan so‘zlarda, shuningdek, yaqinda qabul qilingan internatsional so‘zlarda ham uchraydi.

Shevalarimizda nutqiy jarayonda “f” tovushi barcha o‘rinlarda “p” tovushi bilan almashinadi:



m fonemasi. Bu tovush lab-lab, portlovchi undosh bo‘lib, burun rezanansi ishtirokida talaffuz etiladi:

*qamylis*, *tamyl*, *mələl (malol)*, *kəməl (komil)*

*qıymat*, *məydən*, *məmyg’ (momiq)*, *cəmcə (somsa)*

Ba’zi so‘zlarda “m” fonemasi “b” undoshi bilan almashinib qo‘llanadi:

*bəynə - mayna; boldjəl > mo’ ljal*

So‘z oxirida d // t almashinishi uchraydi (ammo bu holat shu undoshlar qatnashgan hamma so‘zlarga ham tegishli emas): *dard* > *dart*, *mard* > *mart*.

So‘z boshida b // m undoshlarining almashinishi hodisasi ham bor: *bilən* // *minən* > *mnən* > *mən*.

J-lovchi shevalarda m > ng holati mavjud: *nimani* > *ningəni*.

Til oldi undoshlari jarangli-jarangsiz bo‘lishiga ko‘ra quyidagi juft fonemalarga bo‘linadi: [t-d], [s-z], [sh-j], [g-dj].

t fonemasi. Til oldi, portlovchi, jarangsiz undosh tovush so‘z(lar)ning barcha bo‘g‘inlarida kela oladi: *t* > *d bətrək* > *bədrək*.

*t > ch tush > chush, tish > təsh > chəsh*.

d fonemasi. Bu tovush portlovchi “t” fonemasining jarangli juftidir, u so‘zning hamma joyida kela oladi: *d* > *t* *balənd* > *bələnt* > *bələn*; *xursənd* > *xursənt* > *xursən*; *hədləp* > *həlləp* (reg. assimilyatsiya).

### Unli va undoshlarning orttirilishi hamda tushib qolishi

O‘zbek tilidagi shevalarda nutq jarayonida unli va undosh tovushlar ba’-zan orttiriladi, ba’zan esa tushirilib qoldiriladi. Unli va undosh tovushlarning ortti-rilishi so‘zdagi tovushlar miqdorini ko‘paytiradi va shu bilan birga uning talaf-fuzini uzaytiradi. Bu hodisa bir tomondan talaffuz qilishni osonlashtirsa, ikkinchi tomondan, tilning tarixiy fonetik evolyutsiyasi nuqtayı nazaridan, ba’zi so‘zlarda orttirilgan tovushlar uni talaffuz etishni qiyinlashtiradi. Misollar tahliliga murojaat qilaylik:

1. Unli orttirilishi: “i”

a) so‘z boshida: jl. *ylay* < *lay*; *ylay qılamız* (loy qilamiz),

b) so‘z oxirida: jl. *lapı* < *lap*; *lapı urmag’ in* (lof urmag’ in)

2. Undosh tovushlarning orttirilishi ham uchraydi:

a) so‘z boshida: “*h*” undoshi orttiriladi: jl. *həyv* ән < əyvən, *xəsəl* < əsəl;  
dj. jl. *djoldam* < oldəm,

*djibək* < ipək

*djuzum* < uzum

*djuzugum* < uzugim

ch jl. *chertek* < ertak;

b) so‘z o‘rtasida “*v*” undoshi orttiriladi:

*ovzi* < ozi, *suvrat* < surat, *navmart* < nomart; *duvchar* < duchar

y: *neychek* < necha; *kiytini* < ketini; *iygə* < ega.

v) so‘z oxirida “*y*” undoshi orttiriladi:

jl. *sərpəy* < sarpə; *mənikey* < məniki; *qudey* < qudə

n jl. *ketməkchyın* < ketməkchi; *berməkchyın* < berməkchi;

*bələ-chəqən* < bala-chaqa.

q jl. *mazaq qыlyır* < maza qыlyır

g) ikki so‘zning tutashgan joyida quyidagi undoshlar ortadi:

l: *pellidi* < pel edi;

g: *toməngəldə* < tomən eldə

y: *buyəməs* < bu eməs; *shuyəməs* < shu eməs; *uy eməs* < u emas.

Tovush orttirilish jarayonida so‘z tarkibida boshqa fonetik hodisa ham bo‘lishi mumkin. Lekin bu so‘zda tovush orttirilishi ekanini esdan chiqarmaslik lozim.

Tovush tushishi hodisasi so‘zdagi unli va undosh tovushlar uchun tegishlidir. Shuning uchun tovush tushish hodisasini tilshunoslikda eliziya hodisasi deb nomlangan. Eliziya hodisasi quyidagicha ro‘y beradi:

1. So‘z o‘zak negizida eliziya hodisasi:

jl. *xardar* < xarədar // tosh. xərdor. naman. xoddor// ad.orf. xaridor.

*həmsha* < hemisha // ad.orf. hamisha; *ek* < eki // ad.orf. ikki.

2. So‘z o‘zak-negizlariga qo‘srimchalar qo‘silmaganda: *bəllər* < bələlər,  
er: *də* < eridə // ad.orf. eridi.

3. Ba’zi ikki bo‘g‘inli so‘zlar oxiriga unli tovush bilan boshlanuvchi qo‘srimcha qo‘silsa, yopiq bo‘g‘indagi unli tushib qoladi:

yl. *qərnən* > *qərnə* > *qənnə*, *burun* *burnə* > *bunnə* > //*murun* > *murnə* > *munnə*, *boyun* > *boynə*.

jl. *avuz* > әнзы; yl. *og* ‘ ыл > *og* ‘ лъ.

4. Ikki so‘z birgalikda talaffuz qilinganda ikki xil fonetik hodisa yuz beradi:

a) agar ikkinchi so‘z unli bilan boshlansa, birinchi so‘z oxiridagi unli tushuriladi: jl. *əltəyinəchə* < eltı əyg ‘ əcha; *djolqochində* < djolqı ichində.

b) agar ikkinchi komponent undosh tovush bilan boshlansa, birinchi so‘z oxiridagi unli talaffuz qilinmaydi:

jl. *ekqolıny* < eki qolıny; *ekkazungev* < eki kozungev; *nardjaúa* < narvy- djaqa.

5. O‘zak-negiz yoki qo‘s Shimchalar boshidagi undosh tovushlar tushib qoladi: *aydayтыз* < *haydayтыз*; *ishə* < *shishə* *bizər* < *bizlər*.

6. So‘z o‘rtasidagi undosh tovushlar tushiniladi: *shə:ə r* < *shahar*; *su:uq* < *suvuq*; *tərədi* < *tərəddud*

7. O‘zak-negiz yoki qo‘s Shimchalar oxiridagi undosh tovushlar tushadi: *gunə* < *gunəh*; *gəyə* < *gəyəh*; *guvə* < *guvoh*; *su* < *su:* < *suv*; *dos* < *dost*.

8. Ikki o‘zak-negiz tutashgan joyda yoki qo‘s Shimchalar qo‘s hilganda o‘zak-negiz boshidagi, oxiridagi undosh tovush tushirib qoldiriladi:

*Barg‘an djog‘ ali* < *bargan djog‘ hali*; *mag‘anam* < *mag‘an ham*; *gəpirə ekən* < *gəpirər ekən*; *kelə edi* < *kelər edi*.

Dissimilyatsiya so‘zdagi bir-biriga o‘xshash tovushlarning boshqa noo‘xshash tovushlarga aylanishi bo‘lib, bu bilan assimilyatsiyaga qarama-qarshi bo‘l-gan fonetik hodisadir. O‘zbek shevalarida sonor (*l, r, n*) tovushlarga ega bo‘lgan so‘zlar dissimilyatsiya hodisasiga uchraydi: *zərər* - *zələl*; *devər* - *dəvəl* - *devəl*; *əndjir* - *əndjil*; *roməl* - *yoməl*

Assimilyatsiya so‘z(lar)dagi undoshlarning o‘zaro o‘xshash bo‘lishini bildi-radi. Shevalarimizda uning ikkita turi bor: 1) progressiv assismilyatsiya – bunda oldingi tovush keyingi tovushi o‘ziga o‘xshatib olinishi jarayonidir: ad.orf. *bizni* - *bəzzə*, ad. orf. *qorni* - *qərrə*, ad.orf. *shaharni* - *shə:ərrə*, ad.orf. *tolni* - *t əllə*, ad.orf. *musht* - *mushshə*.

2) regressivi assimilyatsiya – bunda keyingi tovush oldingi undosh tovushni o‘ziga o‘xshatib oladi: ad.orf. *berdi* - *berdə* > *beddə*, ad.orf. *turdi* - *turdə* > *tuddə*, ad.orf. *o‘rnim* - *ornəm* > *onnəm*, ad.orf. *zamonlarni* - *zamənlərnə* > *zaməllərnə*, ad.orf. *atlas* - *etlas* - > *əlləs*

Ko‘pchilik o‘zbek shevalarida quyidagi jarangli va jarangsiz undosh tovushlarning talaffuzi bilan yozilishi bir-biriga mos kelmaydi:

1.*p, t, k, q* jarangsiz undosh tovushlar jaranglilashish hodisasiga ega: epladi – evlədi, tovush – dəvush, bilaki – biləgi, terak – terəy kabilər.

2.*b,v,d, z* jarangli undosh tovushlar jarangsizlashishi kuzatiladi: obod – əbət, yuzta – yustə, o‘ttiz - o‘ttis, kitob – kitəp, avtor – əftər, avtomat – əftəmat singarilar.

3. Quyidagi undoshlar o‘zaro o‘rin almashadi: *q-x:to‘qson* - *to‘qsən*, *to‘xtash* - *to‘qtash*; *t-d:qant* - *qand*, *po‘lat* - *po‘lad*; *h-m:bo‘g‘in* - *bo‘g‘im*, mabodo – *nabədə*; *b-m:* *bo‘yin* - *mo‘yin*, bunday – munday; *b-v:sabzi* – *savzi*, xabar – *xavar*; *ch-sh:uchta* – *ushta*, *pochta* – *pəshta*; *s-ch:sochiq* – *chəchiq* // *chachyiq*, supurgi – *shipirgi* va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek tili shevalaridagi fonetik hodisalar amalda, nutq vaqtida bo‘lib turadi, ya’ni sheva vakillari tomonidan nutq jarayonida aytildi. Shuningdek, har bir shevada tovushlarning tushishi va orttishi hodisalari tez-tez qo‘llanib turadi. Bu ham shevalarning o‘ziga xosligini anglatadi.

### Savollar

1. O‘zbek shevalarida undosh fonemalar tizimi qanday holda?

2. Undoshlar necha guruhga bo‘linadi?
3. t, b, f, d fonemalarini izohlab bering.
4. Undoshlarning orttirilishi va tushishiga misollar ayting.
5. Unlilarning orttirilishi hamda tushishiga misollar keltirib izohlang.
6. Dissimilyatsiya nima va unga misollar ayting.
7. Assimilyatsiya hodisasiga oid misollarni qayd eting.

#### Adabiyotlar

Reshetov V.V., Shoabduraxmonov Sh. Fonetika. T., 1953.

Reshetov V.V., Shoabdurahmonov Sh. O‘zbek dialektologiyasi. T., 1962.

Tursunov U., Doniyorov X.O‘zbek tilidagi singarmonizm haqida // Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek Davlat universitetining asarlari. S., 1959. 37-44-betlar.

Ishayev A. Foneticheskie osobennosti Mangitskogo govora uzbekskogo yazika. AKD. T., 1962.

Jo‘rayev B. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek dialektlari. T., 1963.

Mirzayev M. O‘zbek tilining Buxoro guruh shevalari. T., Fan, 1969.

Egamov V. O‘zbek tilining G’allaorol shevalari. Samarqand, 1970.

Rajabov N. O‘zbek dialektologiyasidan qo‘llanma. S., SamDU nashri, 1974.

Shermatov A. Qashqadaryo oblastidagi o‘zbek xalq shevalari. T., Fan, 1978.

Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi. T., O‘qituvchi, 1996.

Abdullayeva D. O‘zbek tili Oshoba shevasining fonetik xususiyatlari. AKD. T., 1999.

To‘ychiboyev B., Hasanov B. O‘zbek dialektologiyasi. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, T., 2004.

## 5-MAVZU

### O'ZBEK SHEVALARI LEKSIKASI VA SO'Z YASALISHI

Reja:

1. O'zbek shevalarining o'ziga xosligi.
2. Shevalararo so'zlarning farqlanishi.
3. So'zlarning shakliy bir xilligi va boshqa-boshqa ma'nolarni anglatishi.
4. Shevalarda qo'llanuvchi so'zlarning semantik guruhlari.
5. Sheva so'zlarida leksik qatlam.
6. Shevalarda sinonim, antonim, omonim va neologizmlarning qo'llanishi.

Tayanch so'z va tushunchalar

Leksika. Tarixiy grammatika.	Shevalar leksikasi.
Tarixiy leksikografiya.	Leksik qatlam.
Sheva so'zlarining fonetik tipi.	Sheva so'zlarining morfologik
tipi. Turkiy leksik qatlam.	Sheva so'zlarining leksik tipi.
So'zlarning leksik-morfologik tipi.	O'zlashgan leksik qatlam.
Sinonim. Antonim. Omonim.	Neologizmlar.
Sheva so'zlarining semantik tipi.	So'zlarning semantik guruhlari.

Bilamizki, o'zbek xalq shevalari lug'ati va uning ko'p tomli yangi variant-lari, shuningdek, ularni yaratish muammolari murakkabdir. O'zbek shevalari fo-netik, grammatik xususiyatlari bilan birga leksik xususiyatlarga ham ega. Bu xusu-siyatlar shevalarni adabiy tildan hamda ularning o'zini o'zaro farqlashga yordam beradi.

Har bir til, shevada hayotiy zarur tushunchalar so'zlar vositasi bilan ifodalanadi. Tilimiz leksik tarkibining asosiy qismini tashkil etuvchi so'zlar o'zbek shevalari va o'zbek adabiy tili leksik tarkibining asosiy qismini tashkil etadi. Shevalar xalq tarixini yoritishda va tarixiy grammatika hamda tarixiy leksikog-rafiani yaratish uchun ham boy materiallar beradi: *g'o'rg'uduq* (qarovsiz, tashlandiq quduq), *qasmaq* (sutning qozonga yopishib qolgani), *qinjir* (ovqatni kam yeydigan), *tushəmə* (beshbarmoq, lazcha, shilpildiq, Qash.qip.) va boshqalar.


O'zbek xalq shevalari tarkibida *arna*, *yap* (Xorazm), *əd əsh* // *ədəg'*, *yəvuq* // *uzoq-yovuq* kabi adabiy tildan shaklan o'zgargan yoki adabiy til taraqqiyotida allaqachon chiqib ketgan ayrim so'zlar mavjud. Bunday so'zlarni o'rganish til tarixi, adabiy til tarixini o'rganishda muhim ilmiy qimmatga egaligini ta'kidlash lozim. O'zbek adabiy tilida bo'lмаган so'zlar o'zbek xalq shevalarida uchraydi. Masalan, *gəvərə* (oshqozon), *gəjman*(epchil, harakatchan qiz), *hiqday* (semiz), *chorsillag' an* (ishchsn), *jəyir* (dovyurak), *chayir* (qotmadan kelgan odam), *tog' i* (yana), *təytuv* (mahmadona), *həddili* (irodali), *kəsir* (zarar, ziyon), Qash.qip.), *ədresmən* (isiriq), *girdikənə* (ko'rshapacha), *sərpxi* (tovuq), *tikech* (chekich), *sotə* (hassa), *ərish* (shoti), *yərqnət* (ko'rshapalak), *yəvən* (qishloq) va boshqalar.

Bunday so'zlarni yosh avlod vakillari eshitmagan, tushunmaydi. Shuning uchun ular arxaik so'zlar hisoblanadi. Bunday so'zlar shevalarning leksikasi

tarkibidan chiqa boshlagan. Shevalarni bir-biridan leksik jihatdan farqlaydigan xususiyatlar barcha so‘z turkumlari doirasida uchraydi. Buni uchala lahja misolida ko‘rsak:

Qarluq lahjasi	Qipchoq lahjasi	O‘g‘iz lahjasi
<i>Chaqalɔq</i>	<i>bovək</i>	<i>bovək</i>
<i>tuxum</i>	<i>məyək</i>	<i>yimirtə</i>
<i>muchъchə</i>	<i>muchchi</i>	<i>qumri</i>
<i>chopch əy</i>	<i>ertəy - mətəl</i>	<i>ertəy</i>
<i>chum əlъ</i>	<i>chumali</i>	<i>qarəndjə</i>
<i>og‘ ur</i>	<i>keli</i>	<i>Səqo‘</i>
<i>nərv ən</i>	<i>narvan</i>	<i>Zəngni</i>
<i>Ьshkəm</i>	<i>vayish</i>	<i>ənə</i>
<i>Эyъ</i>	<i>enə</i>	<i>yip</i>
<i>ərq ən</i>	<i>arqan</i>	

O‘zbek shevalarida dialektal so‘zlarning fonetik, morfologik, leksik-morfo-logik, semantik va leksik tiplari bor: *chɔch* (soch), *zъrəy* (zirak), *qulɔq* (quloq), *ɔshshъ* (oshni); *nərvən* (Far.), *shatъ*, *zəngngi*; *kelъ*, *sɔ:qi*; *rɔvach*, *chukrъ*; *nənpar*, *chekъch* va boshqalar. Shevalarimizda shunday so‘zlar ham uchraydiki, bunday so‘zlar shakl jihatidan bir-biri bilan o‘xhash bo‘lishlariga qaramay, shevalararo boshqa-boshqa ma‘nolarda ishlatiladi. Misol:



O‘zbek shevalarining leksik tarkibida an’anaviy leksika asosiy o‘rinni egal-laydi. Shevalarning an’anaviy leksikasi hozirgi kunda asosan keksalar nutqi(tili)da qo‘llanadigan so‘zlar majmui bo‘lib, ular sof leksik dialektal so‘zlar hisoblanadi. Shevalarda qo‘llanuvchi dialektal so‘zlarning semantik (ma‘noviy) guruhlari ko‘p bo‘lib, ulardan namunalar sifatida quyidagilarni keltiramiz:

1. Ovqat nomlari: *bo‘rsiq* (mog‘orlab qolgan non), *nishɔnlɔ*, *singcha* (qizarib, singib pishgan non), *jutum* (yeyish mumkin bo‘lgan narsa), *piyova*, *ɔsh*, *laxchatoppa*, *g‘ ilvindi*, *chalop* singarilar.

2. Dehqonchilikka xos so‘zlar: *sanga* (ko‘p bosilgan yer), *jəbiz* (qotib qolgan yer), *o‘rpang* (ekilmagan yer), *oq ərъq*, *bəqləjən*, *shah arъq*, *məla*,

*qəvəq, ashkədi, bug ‘dəy // biydəy, djoxərə, qzlcha, kəsek, chopiq, bəyədərəng, suvəma, əriqchi, əriqoqsoqol, məhrim, chig ‘irchi, chakboshi, suvmirchi, ovandozchi, syvjug ‘ur, uvatchi, loppək.*

3. Chorvachilikka oid so‘zlar: *Ət//at, səgər, ənek, qoy, echkə, tuyə, xotuk, təyxər, qulun, tuyə, ayg ‘yr, biyə, uloq, bəytəl, buzoq, bəzə: // bəzəg ‘, nəvvəs, məlxəna, ulov, lo ‘k* (erkak tuya) va boshqalar.

4. Uy-ro‘zg‘or buyumlarining nomlari: *ləgən, səndug ‘, pəqər, teshə, xurma, g ‘alvər, chəvlə, tushək, bələsh, əlacha, chərpəqə, pənshaxa* va boshqalar.

5. Ovchilikka xos so‘zlar: *tor, tuzəq, qərpən, ura* (ov urasi), *temir qərpən, keyez, qarməq*, *Əv ora, sanchqayı* singarilar.

6. Bاليqchilikka xos so‘zlar: *sazan, zog ‘ara, qarməq, sanchqayı, laqqa, zəg ‘ara balıq, laqqa baliq, chavaq, chortan balıq* kabilər.

7. Binokorlikka xos atamalar: *bosag ‘a, chəlduvər, durədgər, səpəqən, dəqəvəz, ship, təchə, sinch, ustun, sarrəv, xərə, pəydevər, pəytesha, qasava, ravaq, əmorə, oy, mbir, təkchə* singarilar.

8. Onomastik so‘zlar: *Mamasədəyiq, Toshmat, Eshmat, sha::r, dacha, səyupəm, checha, Qaynaquvdi* va boshqalar.

9. Kiyim nomlari: *gupicha, koynəy // koynək, ləzim, orama kamzul, orama chəpən, chəpon, chakmon, qalpəg ‘, jelak, maxsi-kəvush, pəypə //pəypəg ‘* kabilər.

10. Bog‘bonlikka oid so‘zlar: *shkəm, yer tək, bədəm, qalamcha* (yosh nihol), *bəg ‘Et* (bog‘li joy), *bəg ‘dər* (bog‘ egasi, bog‘li joy) singarilar.

11. Qarindosh-urug‘ nomlari: *əyə, enə, kəttə enə, əməki, chevara, devara, məmə, inim, bola, təg ‘ə, təg ‘əvəchə, qayni, qayinsingil, qaynənə, qayin ukə* kabilər.

12. Hunarmandchilikka oid so‘zlar: *sinch, bələr, səqqa, pəytesha, əmbir, qo ‘l teshə, ko ‘tərmə* (og‘ir narsani ko‘tarib beruvchi asbob), *əməch, təqə, təqəchi, dəs-kələ, məvit, mələ, lapag ‘*(kuvacha), *shaytən* (*to ‘g ‘rilikni ko ‘rsatuvchi asbob*), *qubba, chəchəq, kəshtə* (materialarga gullar tikilib, uyning devorlariga osib qo‘yiladi).

13. Atoqli otlar(kishi ismi, sharifi, toponim, zoonim, fitonim, etnonim va narsa, sarlavha, asarlarning atab qo‘yilgan nomlari)ga oid so‘zlar: *Elshəd - Elshod, Məmərəim - Mamaraim, Məməsədiq - Mamasodiq, Məlguzər - Molguzar(aslida Morguzar), Qaynaquvdə - Qaynaquvdi(guzar), Qayrabsollə - Qayrabsəldi(qishloq)* va boshqalar.

Shevalarimizdagι so‘zlar shaklan tub va yasama so‘zlar guruuhlariga bo‘linadi: *Əyi, tag ‘nay, enə, yənə, kosek, korek, xoppək, osyimli, sanchqayı, toshək, oq arəq, tarasha, ashkədi* singarilar.

Kelgusida o‘zbek shevalarining ko‘p tomlik “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”ning tuzilishi keljak avlodlarimiz oldidagi qarzdir. Albatta, uning tarkibida sinonim, omonim, antonim, etnografik, leksik-fonetik dialektal, leksik-frazeologik, leksik-derivatsion, morfologiq-dialektal so‘zlar lug‘atlari bo‘lishi

tabiiy holdir. Bunday dialektal lug‘atlar (“Rus dialektologiyasi” fani uchun) rus olimlari tomonidan tuzilib, nashr qilingan.

O‘zbek shevalari leksik tarkibida tarixiy jihatdan ikkita leksik qatlam bor: 1) umumturkiy leksik qatlam so‘zлari; 2) o‘zlashgan leksik qatlam so‘zлari. Albatta, shevalarda asosiy so‘zлar turkiy leksik qatlamga oiddir: *Этə, Эра, енə, ненə, бэр, кел, кет, тәр, чәр, уәр, қәл*.

O‘zbek shevalarida boshqa tillardan o‘zlashtirilgan so‘zлar ancha miqdorni tashkil etadi: Bunday so‘zлar tilda qabul qilingan bo‘lib, sheva fonetikasi va gram-matikasiga xos xususiyatlarni ham o‘ziga o‘zlashtiradi. Aniqrog‘i, sheva vakili o‘zlashgan so‘zlarga o‘z shevasiga oid bo‘lgan ba’zi bir xususiyatlarni yuklaydi. Misol: *aqыл (aql), amel (amal), opət (ofat), өсөнүт, qudrət, dunyə, shərəm (sharm), shırpə (shift), өгөх (ogoh), bələn (balance), dəs (dast), bey (burch), kavşıhdəz, dərəx, duterchə, dərəxsəz, xush-xəvər, bədəvlət, өshpaz, өshqənəz, əməlpərəs, chəypurəsh, serhəsəl* va boshqalar.

Bir qancha o‘zlashgan internatsional so‘zлar shevalarimizda ba’zi bir o‘zgarishlar bilan ishlataladi: *pəezd, məshinə, zavəd, traktər, gazet, təksi, kəsməs, paltə, stəl, shakf, bətinka, rəman, teatr, kəlxəz, fəbrəkə* kabilar. O‘zbek shevalarida shaklan o‘xhash bo‘lib, ma’nolari farqlanuvchi omonim so‘zлar ham ko‘p miqdorda qo‘llanadi:

I *quraq-laxtak*; II *quraq- mayda*; III *quraq - hamishning qurigani*. (Jiz.);

I *təpə - balandlik*, II *tapa - bosh*;

I *chaqa - chaqa pul*, II *chaqa - tuxumdan chiqqan qush*, III *chaqa - aqliy qobiliyati zaif odam*;

I *ulaq - echki*, II *ulaq - ulama soch*;

I *qыуыq - durracha*, II *qыуыq - o‘jar odam*;

I *botqa - semiz*, I *botqa - ovqatning bir turi*;

I *dъm - hech*, II *qъm – havo dim*, III *dъm - jim*, IV *dъm - siqilish*;

I *et - go ‘isht*, II *et - ayt*;

I *ul - o ‘qi l*, II *ul - poydevor*;

I *jəv - yov*, II *jav - eshikni yop*, III *jav - non yopmoq*;

I *suvdaq - suvdek toza*, II *suvdaq - chiroyli*;

I *tu: - to ‘g ‘on*, II *tu:- bayroq*;

I *suxsur – parranda*, II *suxsur – chiroyli*;

I *xo ‘mbo ‘ya - xamirturush*, II *xo ‘mbo ‘ya - semiz*;

I *juban - yo ‘g ‘on, qalin(jo ‘g ‘on arqan - yo ‘g ‘on arqon)*, II *juban - yugan*:

I *cho ‘t – tesha*, II *cho ‘t – chama, taxmin*;

I *cho ‘zmə - yupqa ovqat*, II *cho ‘zma - podnyajka*.

Sheva vakillari nutqida sinonimlar ham ko‘p qo‘llanadi:

*uəldər, əshg ‘əl-dəshg ‘əl - tentak*;

*тыйтыри, su quyd, shaytan - shum*;

*bəttəl, qыууый, ters, aks - qaysar; pakana – yerg ‘altak*;

*buvi, Әyi, biyi - ona; chərsi - qыууый, qыуыйча - belbog‘*

*diykat, pismiltiq - ayyor; balg ‘ndar – taxman, me:rəp ;*

*chərsə, chərsu, qyuqcha - bel bog‘  
 chəroyli, koxlu, sulu:, gozal, bejyrəm;  
 kuch, quarat – kuch; quyosh, oftob, kun - quyosh  
 zahar, zaqqum – zahar; aniq, ravshan – aniq;  
 kuvər, bəlg‘a, təvar – tesha; padarvakil - qızata – vakilə at*

Shu jumladan, o‘zbek shevalarida antonim(qarama-qarshi ma’noli so‘z)lar ham ko‘p ishlatiladi: *janub - chushlik* (tushlik); *chin so‘zli – allamchi;* *oqəv* (ach-chiq) - *təttə* (shirin); *tez - jay* (tez-sekin); *sədda – qo‘pol;* *yəxsh - shildyır* (yo-mon), *kun chəqəsh* (sharq) - *kun bətəsh* (g‘arb), *pəst – yuqori;* *achchiq – shirin;* *bəbək* (chaqaloq) - *soqym* (katta); *choqor* (chuqur) - *tək* (baland); *tumən* (past) - *bəyək* (baland).

Shevalarda yangi so‘zlar, ya’ni neologizmlar ham qo‘llanadi: *karədər,* *pələklənəka, akəp, kəntrəl, semən, adris, atəm, xaladilniy, kəsməs, iskələt* (*skalad*), *chekənkə, trəli:bus* (trolleybus) va boshqalar.

O‘zbek shevalarida tilshunoslikda alohida bir so‘z sifatida tan olinayotgan frazeologizmlar ham faol ishlatiladi. Ammo ularning dialektal lug‘ati haligacha tuzilmagan. Ularning: a) adabiy tildagi frazeologizmlar bilan o‘xhash; b) adabiy tildagi frazeologizmlar bilan o‘xhash bo‘lmagan turlari bor. Misollar:

*Oziminan ozi giriptər* - O‘ziminan o‘zi giriptor (o‘zi bilan o‘zi ovora).

*It pəshək bolməq* - It pishak bo‘lmoq (o‘zaro urishmoq).

*Guruchi suv kotərməydəgən* - Guruchi suv ko‘tarmaydi (tanqidga chidamaydi).

*Tekən nərsəgə təmdən təshləydi* - Tekin narsaga tomdan tashlaydi.

*əxməqqə Məkkə bər qadam* - Axmoqqa Makka bir qadam.

*Chəp təməning tələn tuddıngmə* - Chap tomoning bilan tuddingmi?

*Tuyə goshti yeməq // devol təngan* - Tuya go‘shti yemoq // devol mingan.

*Devəl ushlatip ketti* - Devol ushlatip ketti (aldab ketti).

*Əyəg ‘i tərtmədi* - Oyog‘i tortmadi(borgisi kelmədi).

*Pədəchənə qızınlı pəda kegəndə rəxmtə kirəyməsh* - Podachini qizini poda keganda paxmi kiraymish.

*Tələb bər qərəch* - Tili bir qarich (katta gapiradigan).

*Ozıgə təppə kesəlməgən, bərvəvgə uvrə kesəyməsh* - O‘ziga to‘ppi kesolmagan, birovga uvra kesaymish (qo‘lidan hech ish kelmaydigan).

*ərqəsi tutti* - Arqasi tutti (jahli chiqdi).

*Ichigə shələ ekkən* - Ichiga sholi ekkan.

*O‘tləb kettə* - O‘tlab ketti (boshqa mavzuga otib ketdi).

*Jəg ‘ınlı yeganə* - Jag‘ini yegan(ko‘p gapiradigan).

*Qoshig ‘ınlı aytib qəlməq* - Qo‘shig‘ini aytib qolmoq (charchab qolmoq).

*Birəvdə təhorətiqə nəməz oqbydə* - Birovdi tahoratiga nomoz o‘qiydi(Qash.).

*Tekən bosə, təx yut* - Tekin bo‘sa, mix yut.

*əxmoqqa Quva bər təsh* - Axmoqqa Quva bir tosh (Qo‘qon sh.)

*Ləlbgə səllə* - Laliga solli (noz qildi).

*Shaytəngə dərs berədi* - Shaytonga dars beradi (hiylakor odam).

*Kozə kokərdə* - Ko'zi ko'kardi (toqati toq bo'ldi). Demak, shevalarning frazeologik lug'atini tuzish uchun ularni guruhlab yig'ish va izohlab borish shart.

Darhaqiqat, o'zbek shevalari o'z hamda o'zlashgan qatlamlardan iborat bo'lgan va adabiy tildagi so'zlardan dialektal ma'nolari bilan jiddiy farqlanadigan, benihoya katta hajmdagi so'zlikka ega. Ularning hammasini bir lug'atda berib bo'lmasligi tabiiy holdir. Bulardan anglashilib turibdiki, 1971-yilda nashr etilgan "O'zbek xalq shevalari lug'ati" ga kirmay qolgan, ammo shevalarimizda mavjud bo'lgan quyidagi so'zlarning guruhlari ham bor (bizningcha, bular uchun o'z nomlari bilan atalgan alohida-alohida DLLlar tuzish kerak):

1. Etnografik-dialektal so'zlar. "O'zbek adabiy tilida ham, shevalarimizda ham xalqimizning asrlar davomida shakllangan juda qadimgi turmush tarzi, urf-odatlari, moddiy va ma'naviy madaniyati bilan aloqador ko'pgina so'z, terminlar mavjud. Lekin bu xil so'zlar - adabiy tildagi etnografizmlar ham, adabiy til va shevalar uchun mushtarak bo'lgan adabiy-dialektal etnografizmlar ham, faqat sheva, dialektlarga xos etnografik so'zlar ham bir-birlaridan farqlangan holda tadqiq etilmagan. Xullas, DLga faqat shevalardagina qo'llanadigan etnografizmlar kiritiladi va ular qanchalik ko'p bo'lsa, DLning qimmati shunchalik ortadi"<sup>1</sup>. Bunday so'zlar adabiy tilda kam, shevalarda anchagina. Demak, etnografik-dialektal so'zlarning DLLarini tuzish lozim.

2. Leksik-semantik dialektal so'zlar. "Sheva, dialektlardagi so'zlar adabiy tildagi, shuningdek, boshqa biror sheva, dialektdagи xuddi o'sha xil so'zlardan ma'nosiga ko'ra farqlanadigan bo'lsa, ular leksik-semantik dialektlar so'zlar guruhini tashkil etadi. Masalan, adabiy til va shevalarda mavjud bo'lgan aka so'zi ayrim shevalarda "ota" va hatto "pochcha" ma'nolarida qo'llanadi. Yoki adabiy tildagi va shevalardagi "dərs" (urok) so'zi Xorazm va Qoraqalpog'istondagi o'z-bek shevalarida "mahalliy o'g'it, go'ng" ma'nolarida uchraydi. Ko'pchilik hol-larda bu xildagi so'zlarning har ikkalasi ham sheva vakillari tomonidan qo'llanadi va ularning ma'nolari nutq jarayonida tushinarli bo'ladi.

Qiyoslang, *pəshə* (Sayram, Chimkent, Forish, Andijon) ~ *pəshshə* (Xorazm-qipch., QQASSR-o'zb., Buxoro, Farg'ona) ~ *peshshe* (Xorazm-o'g'uz) ~ *pə:shə* (Iqon) - *chivin* (komar), *chъbъn* (Xorazm-qipch., QQASSR - o'zb.) ~ *chъvъn* (Xorazm-o'g'uz) ~ *chывын* // *чывын* (Buxoro) ~ *chi:vin* (Qoramurt) ~ *chu:n* (Shahrisabz) - *pəshshə* (muxa). Sh.Rahmatullaev "dialektizm-ma'no" deb atagan bu xil so'zlar<sup>2</sup> leksik-semantik dialektal so'zlar sifatida DLga kiritiladi"<sup>3</sup>..

<sup>1</sup> Ishayev A. Shevalar lug'atiga kiritiladigan so'zlar // O'TA. 1988 yil. 2-soni.37-42-betlar.

<sup>2</sup> Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili.T., 1975. 50-bet.

<sup>3</sup> A.Ishayevning yuqoridagi asariga qarang.

3.Leksik-fonetik dialektal so‘zlar, ya’ni shevada jiddiy fonetik o‘zgarish-larga uchragan so‘zlar. F.A.Abdullayev “...fonetik o‘zgalik ma’nodagi o‘zgalik bilan bog‘liq bo‘lsa, bunday so‘zlar lug‘atga kiritilishi kerak”, - deydi. Ayrim dia-lektologlarimiz esa DLda “fonetik o‘zgarishli, ammo ma‘no o‘zgaligiga ega bo‘l-magan so‘zlar mustaqil so‘z sifatida berilmaydi”, - deyishadi. Bu fikrga qo‘shilish qiyin, chunki shevalarimizda mavjud bo‘lgan xilma-xil fonetik hodisalar sababli adabiy tildagi ba’zi so‘zlar shu qadar o‘zgarib ketadiki, hatto ularning qanday so‘z ekanligini izohsiz aniqlab bo‘lmaydi:

a) Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa shevalarda *jdav* so‘zi bor. Bu so‘z y->dj- hamda -g‘ > -v tovushlari o‘zgarishi tufayli sodir bo‘lgan adabiy tildagi *yog‘* so‘zining aynan o‘zidir;

b) Oshobo shevasida *burgulte*, *olta* kabi so‘zlar mavjud. Aslida ular -tl- -lt- metatezasi va so‘zlar oxiridagi -r undoshining tushishi natijasida sodir bo‘lgan, ma‘noda farqlanmaydigan *burgutlar*, *o‘tlar* (travы) so‘zlaridir. Xo‘s, *djav*, *olta* singari fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlarni DLga kirtimaslik kerakmi? Bu xil so‘zlar DLLarda berilmasa, qaysi xildagi lug‘atlarda beriladi? Umuman shevala-rimizdagi *kerye-qariya*, *koyeg-kuyov* kabi fonetik qiyofasi o‘zgargan so‘zlar ham-da *lapыda* - *rapida*, *zələl* - *zarar* singari dialektizmlar DLdan o‘rin olmog‘i lozim”.

4. Leksik-derivatsion dialektal so‘zlar. “Adabiy tilda yoki faqat shevalarda mavjud bo‘lgan xilma-xil so‘z yasovchi affikislар shevalardagi so‘zlarga yoki adabiy til va shevalar uchun mushtarak so‘zlarga qo‘shilishi natijasida sheva, dialektlarda adabiy tilda uchramaydigan dialektal so‘zlar vujudga keladiki, ularni “leksik-derivatsion dialektal so‘zlar” deb atagan ma’qul”.

5.Morfologik-dialektal so‘zlar. “Adabiy til va shevalardagi so‘z o‘zaklariga forma yasovchi affikslarni qo‘shish orqali vujudga kelgan morfologik-dialektal so‘zlar turli xil bo‘lib, ular, odatda, forma yasovchi affikslarning birgalikda qo‘llanishi, turli xil fonetik o‘zgarishlarga uchrashi yoki faqat shevalarga xos forma yasovchi affikslarning qo‘shilishi natijasida shevalarda (adabiy tilda //uchramaydigan) *Əpəngvələ* - opanglar; *Ətəluvъ* // *ətəluyъ* - otalari; *həmməlъysъ* - hammalari singari anchagina marfologik dialektal so‘zlar paydo bo‘lgan”.

6.Frazeologik-dialektal iboralar. “O‘zbek sheva, dialektlarida mavjud bo‘l-gan, adabiy tilda uchramaydigan yoki uchrasa ham ma‘noda farqlanadigan fra-zeologik iboralar, birikmalar bir butun, yaxlit holdagina biror ma‘noni, odatda, qo‘shimcha ko‘chma ma‘noni anglatadiki, ularni DLda qay tarzda bermoq kerak? Qozoq, boshqird, qoraqalpoq tili shevalariga o‘zi reestr so‘z sifatida berilgan. Tatar, yoqut shevalariga oid lug‘atlarda esa ular bir butun holda berilmay, odatda, undagi birinchi so‘z tariqasida berilgandan keyin frazeologik iboraning o‘zi qayd etilgan. Xullas, lug‘atlar tuzish qiyin, lekin savobli ish. Leksikologiya sohasida qilingan ishlar ba’zan unitilishi mumkin, biroq leksikografiya bo‘yicha bajarilgan ishlar - tuzilgan yaxshi lug‘atlar hech

qachon unutilmaydi. Shunga ko‘ra, DL tuzuvchilari oldida turgan eng muhim vazifa shevalarimizdagi mavjud dialektal so‘zlarni xalqimiz so‘z boyligini o‘ziga xos xazinasi bo‘lgan DLLarda qayd etib, kelgusi avlodlar uchun saqlab qolishdan iborat”<sup>1</sup>.

7. Kitobiy uslubga xos bo‘lgan so‘z hamda terminlar.

8. Sheva vakillari ma‘nosiga tushunmaydigan diniy aqidalarga oid (o‘zlashgan) so‘zlar va iboralar.

9. Varvarizm, parnografik (ma‘nodagi) so‘zlar.

10. Adabiy tilda mavjud bo‘lgan professionalizmlar va terminologik leksika.

11. Fonetik (o‘zgarishga uchragan) dialektizmlar.

Shuningdek, shevalarimizning hozirgi ahvolida shevalararo leksik farqlarni, bir tushunchani ifodalovchi shevalararo so‘zlarning adabiy tilga munosabatini chuqur ilmiy asosda aniq belgilab olish mumkin emasligi tabiiy holdir. Bunday qilish uchun esa shevalarimizning ko‘p tomli lug‘atini shakllantirish va nadhr etish shartdir. Yuqoridagilarni rejali tarzda amalga oshirish shevalarimizning bugungi leksik, fonetik, morfologik, semantik, frazeologik boyligini bir butun holda saqlab qolish demakdir. Bular esa o‘zbek shevalarining leksik xususiyatlarini jiddiy o‘rganishni va ko‘p tomli “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”ni tayyorlab, o‘zbek xalqi shevalariga xos so‘zliklarni guruhlarga bo‘lgan holda to‘plab, nashr etish lozimligini ko‘rsatib turibdi.

## O‘zbek xalq shevalarida so‘z yasalishi

Bu mavzu o‘zbek shevalariga bag‘ishlangan har bir dialektologik ilmiy ishda ma’lum ma‘noda o‘z ifodasini topa olgan. Sh.Shoabdurahmonov , X.Doniyorov, F.Abdullayev, A.Aliyev, B.Jo‘rayev, Yu.Jumanazarov, N.Rajabov, K.Sharipova singari dialektolog olimlarning ishlarida mazkur mavzu qisqa bo‘lsa ham berilgan. Ot, sifat, fe’l va ravish so‘z turkumlarida ko‘proq so‘z yasalishini kuzatish mumkin. Bu sohada affiksatsiya va kompozitsiya usullari bilan so‘z yasalishini shevalarimizda ham uchraydi. O‘zbek adabiy tilida bo‘lganidek, sheva va lahjalarimizda ham so‘z yasashning affiksatsiya usuli bilan yangi so‘zlarni hosil qilish ancha unumli so‘z yasash usullaridan biri. Albatta, so‘z yasalishi hodisasi shevalarimizning ham boyish manbalaridan biri sanaladi. Shu bilan birga shevaga oid ba’zi bir ilmiy tadqiqot ishlarda so‘z yasalishiga namuna sifatida keltirilgan misollardan bir qanchasi o‘zini oqlamaydi.

Shevalardagi so‘z yasalishiga keltirilgan misollardan namunalar:

-cha qyzylcha (qizil lavlagi, Farg‘ona.); -lyaq damyizlyiy (tomizg‘i, Xorazm.)

-shug ‘ / -shuq yelshug ‘ (T.); -shək yelimshək (X.); -ləq bətəlqə (Qo‘q.)

<sup>1</sup> Yuqorida berilgan.

-*dan* *xavardan* (xabardor, X.); -*g'uch* *suzəng 'uch* (T.); -*lug tuzlug* ' (A., T.);  
 -*ag'* *uyag'* (uyg‘oq, X.); -*gər* *bəzərgər* (bozorbob, And.); -*ch inanch* (ishonch);  
 -*da shaqrda* (shaqirla jl.); -*əli / -ali getəli, baralı* (ketaylik, boraylik, X.);  
 -*chəng/ -chən mahsəchən// məhsəchəing* (mahsisiz) (F., A.)

Otlarda so‘z yasashning affiksatsiya yo‘li bilan hosil bo‘lgan yasama so‘zlar ko‘p uchraydi: *bəg bən, xalvəgar*. Biror kasb, ixtisosga mansub shaxs otlarini yasovchi qo‘shimchalar: -*chə naychə, surnaychə, tegərmənchə, a'ləchə;* -*bəz, -vəz mər-bəz, guruhbəz; -kər səhəpkər; -gar nəsgar; -kash pəllakash; -tarəsh juntarəsh; -paz salmyisapaz; -bəf shəyubəf; -sho ‘y po ‘stsho ‘y; -mand ayəlmand*

O‘rin-makon ma’nosini bildiruvchi otlarni yasovchi qo‘shimchalar:

-*zər, -zəsten, -gəp, -dən, -q, -əq, -qəq (bətqəq)*

Aniq va abstrakt (mavhum) predmetlar ma’nosini bildiruvchi otlarni yasaydigan yasovchi qo‘shimchalar: -*a: gora, kosa, qalama; -ak kunjak, elak, tulak; -chə. -kə surtkə; -əq orəq; -g ‘uch qərg ‘ıch, surg ‘uch, -chəq yarg ‘ uchoq* (qo‘l tegirmoni); -*ush (ulush - to‘y-marakalarda beriladigan yemishlik ma’nosida).*

Mavhum (abstract) ma’noli otlarni yasovchi qo‘shimchalar:

-*lək, -ləq, -lik yaxshılvək, səg ‘ ləq*

-*chəlvək: de:qonchılvək, uzumchılvək*

Old qo‘shimcha: *ham - / -dəsh hamsoydəsh*

*hamkasp / kasbdəsh, sohbatdəsh, hamnəm //*

*adash.*

Shevalarda so‘zga so‘z qo‘shib so‘z yasash holatiga, ya‘ni kompozitsiya usuli bilan so‘z yasalishiga ham misollar kop miqdorda uchraydi:

*shəkəsa, gosh(t) barak, palavkadə, nənkadə,*

*tuxumbarak, guləra:nə , borəkalla, nəskadə,*

*patma chəmtchəq* (jiblajibon, And.), *qəra yalaq* (chug‘urchuq, Far.).

Sifat yasovchi qo‘shimchalar unumli va unumsiz so‘z yasovchi qo‘shimchalar ko‘rinishlarida uchraydi: -*lə, -lək, -səs, -gan, qəyl, -akə; bala-chaqalə, xəmakə; -q, -qəq, -g ‘ən, -ma, ba-, -be, nə-, ser-, ham-*. *Yumuq, urushqoq, maxtan-choq, qəzg ‘ən, purg ‘un, qovurma, to‘g ‘rama bama:nə, bamaza, nəaniq, hamtavəq.*

Odatda, sifat yasovchi old qo‘shimcha shevalarda keng ko‘lamda qo‘llanadi: *ba-, be-, nə-, ser-, ham-*. Bulardan ko‘rinib turibdiki, shevalarımızda so‘z yasalishi qisman bo‘lsa ham o‘zbek adabiy tilidan farq qiladigan holda uchraydi. Bu farq ma’nodagi noziklikda va shakliy jihatdan o‘zgachalikda aniq bilinadi.

### Savollar

1. O‘zbek shevalarining o‘ziga xosligi nimalarda ko‘rinadi?

2. Shakliy bir xil, ma'nolarni esa boshqa-boshqa so'zlarga misollar yozing.

3. Sheva so'zlarining qanday semantik guruhlari mavjud?
4. Shevalardagi omonim, neologizmlarga misollar keltiring.
5. Shevangizga oid so'z yasalishdan misollar keltib, izohlang.

#### Adabiyotlar

Shoabdurahmonov Sh.Sh.O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari.T., 1962.

Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksikasi. T., Fan, 1979.

O'zbek shevalari leksikasi. T., Fan, 1966.

O'zbek shevalari leksikasi. T., Fan, 1971.

O'zbek shevalari leksikasi. T., Fan, 1991.

Ishayev A. Shevalar lug'atiga kiritiladigan so'zlar // O'zbek tili va adabiyoti. 1988 yil. 2-soni.37-42-betlar.

Bobojonov Yu.Janubiy Xorazm etnografik leksikasi. AKD. T.,1997. 23 s.

Shoimova N. Qashqadaryo o'zbek qipchoq shevalari leksikasi. Qarshi, Na-saf, 2000.140 b.

Murodova N. O'zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi. T.,Fan, 2005.

Saidova M. Namangan shevalaridagi qarindoshlik terminlarining leksik- semantik tahlili. AKD. T.,1995. 23 b.

Nafasov T. Qashqadaryo o'zbek xalq so'zlari.T.,Muharrir, 2011. 466 bet.

Abdiyev M.O'zbek tilida shaxs nomlarining yasovchi affikslar xarakteristikasi.Filol.fanlari nomzodi diss.T.,1990. 25 s.

Bobojonov Yu.Janubiy Xorazm etnografik leksikasi. AKD. T.,1997. 23 s.

Ibrohimov S. Farg'ona shevalarining kasb-hunar leksikasi. Kulollik, tandirchilik va shuvoqchilikka oid. ADD.T.,1956. 144 b.

Pardayev I.O'zbek tilining zargarlik terminologiyasi. Avtoref. diss. kand. filol.n.T.,1994.27 bet.

Abdullayev F.A. Andijon oblast Yangiyo'rg'on rayon qipchoqlari shevasidagi ba'zi leksik xususiyatlari // Toshkent Chet tillar pedagogika instituti. Ilmiy ishlar.YII. T.,1963.107-121-betlar.

Abdullayev F. A. Xorazm shevalari leksikasi // O'zbek shevalari leksikasi. T.,1966. 18-120-betlar.

#### 6- MAVZU

#### O'ZBEK SHEVALARI MORFOLOGIYASI. TURLANISH

##### Reja:

1. Shevalarning adabiy tildan farqlovchi morfologik xususiyatlari.
2. Shevalarda kelishiklar tizimi va ifodalanishi.
- 3.Shevalarda egalik qo'shimchalarini.
- 4.Shevalarda ko'plik kategoriyasi va uning ifodalanish yo'llari.
5. Ko'plikning morfologik va sintaktik yo'l bilan ifodalanishi.

Tayanch so‘z va tushunchalar  
 Morfologiya. Shevalar morfologiyasi.  
 Shevalarda egalik qo‘shimchalari.  
 Shevalar morfologiyasiga xos xususiyatlar.  
 Shevalarda turlanish. Kelishik. Shevalarda kelishik.

### Turlanish

O‘zbek xalq shevalari adabiy tildan o‘ziga xos morfologik xususiyatlari bilan ham farqlanib turadi. Bu xususiyatlar turlanish (so‘zning kelishik, egalik, ko‘plik qo‘shimchalarini olib o‘zgarishi), tuslanish (so‘zning shaxs-son, zamon, mayl qo‘shimchalarini olib ma’lum bir holatda o‘zgarishi), shuningdek, yasalish (yangi so‘z yasalishi, forma yasash) va shu kabilarda yaqqol seziladi.

Albatta, o‘zbek xalq shevalaridagi turlanishga xos xususiyatlar kelishik, ko‘plik, egalik qo‘shimchalarining shevalararo so‘zlarda ma’lum bir tartib va me’yorda qo‘llanishida ko‘rinadi.

### Kelishik kategoriyasi

O‘zbek adabiy tilida kelishiklar miqdori oltita bo‘lib, ularning shakli va ma‘no xususiyatlari XX asrning 50-yillaridayoq professor A.G‘.G‘ulomovning «O‘zbek tilida kelishiklar» asarida to‘liq yoritilgan. 1973-yilda M.Shoinoyatova esa shevalarimizdagи kelishiklarning tizimini maxsus tadqiq etib, nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan. Shevalarda kelishiklar turlicha ishlataladi: ba’zilarda oltita, ba’zi birlarida yettila, boshqa birida beshta, yana boshqa birida esa to‘rttadir. Besh yoki to‘rtta kelishikka ega bo‘lgan shevalarda ikki kelishik vazifasini bitta qo‘shimcha bajaradi. Masalan, Toshkent shevasida tushum hamda qaratqich kelishiklari unlidan so‘ng «-нъ» qo‘shimchasi, undoshdan so‘ng o‘zgarishga uchragan shakllari bilan 19 xil shakl orqali ifodalangan. Shuningdek, Qarshi shevasida tushum va qaratqich kelishiklari -пъ-въ/-ть qo‘shimchasi orqali, o‘rin-payt va jo‘nalish kelishiklari -yə, -gə // -kə // -qa qo‘shimchasi orqali ifodalanganadi. Qiyos qiling: dj - lovchi shevalarda:

Kelishiklar	Unlidan so‘ng	Undoshdan so‘ng
B.k.	∅	∅
Q.k.	-нынг // -нънг	-дынг // -тънг, -динг // -тинг
T.k.	-ны // -ни	-ди // -ты, -qi, -ди // -ти
J.k.	-г‘ а // -гә	-qa // -г‘ а-гә // -кə-, -ə, -нə // - а,-
na		
O‘-p.k.	-да // -дə	-да // -та-дə // тə
Ch.k.	-дан // -дəн, -нан // -нəн	-дан // -тан-дəн // -тəн- нан// -
nən		

Y-lovchi shevalarda (masalan, Toshkent shevasida):

Kelishiklar	Unlidan so‘ng	Undoshdan so‘ng
-------------	---------------	-----------------

B.k.	$\emptyset$	$\emptyset$
Q.k.	-пъ	ng,v,y undoshlaridan so‘ng -пъ,qolgan hollarda o‘zak-negiz oxiridagi undoshga moslashadi: -тъ, -лъ,-шъ,-еъ,-гъ.
J.k.	-га	-га // ka, -qa
O‘-p.k.	-дә	-дә // -тә
Ch.k.	-дән	- дән // -тән
Farg‘ona shevalarida:		
Kelishiklar	Unlidan so‘ng	Undoshdan so‘ng
B.k.	$\emptyset$	$\emptyset$
Q.k.	-пъ	-дъ,-yu, -тъ
J.k.	-гә	-гә // -кә // -qa
O‘-p.k.	-дә	-дә // -ta
Ch.k.	-дән	-дән // -тән
O‘g‘uz gruppа shevalarda (masalan, Xiva-Urganch):		
Kelishiklar	Unlidan so‘ng	Undoshdan so‘ng
B.k.	$\emptyset$	$\emptyset$
Q.k.	-ны`// -ni	-ны`// -ni
J.k.	-г‘ a // -га // -yə	-a // -ə,-na // -nə
O‘-p.k.	-да // -дә	- ta // -дә
Ch.k.	-дан// -дән	- tan // -дан
Qarshi shevasida:		
Kelishiklar	Unlidan so‘ng	Undoshdan so‘ng
B.k.	$\emptyset$	$\emptyset$
Q.k.	-пъ	-пъ,-дъ // -тъ
J. va o‘-p.k.	-yə	-га // -ка // -qa
Ch.k.	-дән	-дан// -тан// -нан

Bosh kelishikning o‘zbek shevalarida adabiy tildagi kabi grammatik ko‘rsatkichi yo‘q. Qaratqich kelishigining ifodalanishi y-lovchi va dj-lovchi shevalarda ma‘lum darajada farq qiladi.

Dj-lovchi shevalarda kelishiklardan qaratqich kelishigi qo‘srimchasi quyidagi shakllarda ifodalanadi: Unlidan so‘ng: 1) qattiq o‘zak-negizlarda -*nying*: *atanъing*; 2) yumshoq o‘zak-negizlarda -*ning*: *enenъing*. Bu kelishik qo‘srimchasi o‘zak-negizda lablangan tovushning bo‘lishiga qarab -*nung*, -*nyng*, -*dung*, -*dyng*, -*tung*, -*tyng* shaklida bo‘ladi: *konunung*, *urushtung*.

Undoshdan so‘ng: a) jarangli undosh bilan tugagan qattiq o‘zak-negizlarda -*dyng* (*tavdъing*), yumshoq o‘zak-negizlarda -*dъng* (*bizdъng*); b) jarangsiz undosh bilan tugagan qattiq o‘zak-negizlarda -*nying* (*atnying*) yumshoq o‘zak negizlarda -*ъttъng* (*ъttъng*) shaklidadir.

Y-lovchi shevalarda esa mazkur qaratqich kelishigining -*пъ-дъ// -тъ* qo‘srimchalari bilan ifodalanadi, bu qo‘srimcha ayni vaqtda tushum kelishigi

qo'shimchasining o'rnida ham ishlatiladi: *səzən ozzyizga munasəp* (sizning o'zingizga munosib).

Toshkent, Namangan shevalarida qaratqich kelishigi qo'shimchasi -*nъ* o'zi qo'shiladigan o'zak-negizning qanday undosh bilan tugashiga qarab, bir necha xil formaga ega bo'ladi. Iqon, Qorabuloq va Hazorasp shevalarida qaratqich kelishigi qo'shimchasi unlidan so'ng: -*nъing*, -*nъng*, undoshdan so'ng: -*ынг*, -*инг* tarzida ifodalanadi: *атынг*, *дашынг*, *туузынг*.

Tushum kelishigi. Bu kelishik qo'shimchasi ifoda lanish jihatidan y-lovchi, dj - lovchi shevalarda farq qiladi. Dj - lovchi shevalarda tushum kelishi: Unlidan so'ng) qattiq o'zak-negizlarda -*ны* (*atanы*); b) yumshoq o'zak-negizlarda -*ни* (*enəni*).

Tushum kelishigi qo'shimchasi o'zak-negizda lablangan tovushlarning bo'lishiga qarab, -*nu*, -*tu* shaklida bo'ladi: *do'sti*, *tulkunu*, *qozunu*.

Undoshdan so'ng: jarangli undosh bilan tugagan qattiq o'zak-negizlarda -*ды* : *tavды*, *digitlerdi* *uygə votqazda*. Yumshoq o'zak-negizlarda -*ди*: *эldi*. Jarangsiz undosh bilan tugagan qattiq o'zak-negizlarda -*ты*: *atty*. Yumshoq o'zak-negizlarda -*ти*: *itti*. Tushum kelishigi qo'shimchasi o'zak-negizda lablangan tovushlarning bo'lishiga qarab -*du*, -*dy*, -*tu*, -*ty* shaklida keladi: *djoldu*, *sozdu*. *Sozdu bъlgən soyłəsən*, *qoshuqtu bъlgən тыnglasən*.

Y-lovchi shevalarda bu kelishik -*nъ*, -*dъ* // -*тъ* qo'shimchalari orqali ifodalanadi: *sen bashъунъ tartəsən* (And.). Toshkent shevasida tushum kelishigi qo'shimchasi -*nъ* o'zi qo'shilgan o'zak-negizning qanday undosh bilan tugashiga qarab bir necha xil formaga ega bo'ladi: -*kъ pədegəkkъ*; -*тъ sъmtъ*; -*dъ gərədјъ*; -*rъ temъrrъ*; -*тъ tuttъ*; -*sъ məssə*; -*lъ kollъ*; -*xъ məxxъ*; -*shъ Əshshъ*; -*chъ chəchchъ*; -*qъ oqqъ*; -*gъ tug 'ъ*.

Jo'nalish kelishigi. O'zbek shevalarda jo'nalish kelishigi qo'shimchasining ifodalanishi y-lovchi, dj-lovchi shevalarda ma'um farqlarga ega. Dj-lovchi she-valarda jo'nalish kelishigi quyidagicha ifodalanadi: Qattiq o'zak-negizlarda: a) unli va jarangli undoshdan so'ng: -*g'a*: *suvg'a*; b) jarangsiz undoshdan so'ng -*qa*, *qapqa*, *atqa*.

Yumshoq o'zak-negizlarda: a) unli va jarangli undoshdan so'ng: -*gə*: *djergə*; b) jarangsiz undoshlardan so'ng: -*kə* : *ishke*, *djipkə*. I va II shaxs egalik qo'shimchalaridan so'ng dj-lovchi shevalarda jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qattiq o'zak-negizlarda -*a(atama,atanga)*, yumshoq o'zak-negizlarda -*ə(ishimə, ishingə)*. III shaxs egalik qo'shimchalaridan so'ng qattiq o'zak-negizlarda -*na* (*bəlasына*), yumshoq o'zak-negizlarda -*nə* (*sərkəsinə*) bo'ladi.

Dj-lovchi shevalarda shaxs va ko'rsatish olmoshlari jo'nalish kelishigi bilan turlanganda *mag'an//məg'ən*, *sag'an//səg'ən*, *og'an*, *shog'an* shakllarida bo'ladi (bunda *n*, *g'* tovushlari metatezasi ro'y bergandir) (*mang'a-mag'an*).

Y-lovchi shevalarda jo'nalish kelishigi qo'shimchalari bir necha xil: Toshkent, Farg'ona: -*gə* ( *uygə* ), -*kə* (*otkə*), -*qə* (*bəqqə*). Xorazm, Xiva-Urg. -*g'a* (*qurvaqa-g'a*), -*yə(təngəye)*; -*ə(ekizə)*; -*nə* (*уапына*); -*nə* (*erkinə*). Qorabuloq shevasida ham Xorazm shevasidagidek holdir.

Samarqand-Buxoro shevalarida, shuningdek, Qashqadaryo viloyati sheva-larida jo‘nalish va o‘rin-payt kelishiklarining qo‘shimchalari almashtirib qo‘llashr holati uchraydi. Ushbu hodisa Jizzax shevasida ham uchrab turadi: *ozъggə yoq Əlamga yoq* (o‘zingda yo‘q, olamda yo‘q). Bu shevalarda o‘rin-payt kelishigini qo‘llashdan ko‘ra jo‘nalish kelishigini qo‘llash ko‘p uchraydigan holdir. Jizzax shevasida ba’zan tushum kelishigi qo‘shimchasi o‘rnida ham jo‘nalish kelishigi qo‘ishimchasi ishlatish hollari uchraydi: *pəssəjrgə kutyr turъpsъzmъ* (passajirni kutib turibsizmi).

O‘rin-payt kelishigi. Bu kelishik qo‘shimchalarini ifodalanishi dj-lovchi va y-lovchi shevalararo farqli hollarga ega. Dj-lovchi shevalarda o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi: qattiq o‘zak-negizlarda: a) unli va jarangli undoshlardan so‘ng -da (*qoluda*); b) jarangsiz undoshlardan so‘ng -ta (*qishloqta*). Yumshoq o‘zak-negizlarda esa: a) unli va jarangli undoshlardan so‘ng -də (*ezidə*); b) jarangsiz undoshlardan so‘ng: -tə (*miynatkəshtə*).

Y-lovchi shevalarda bu kelishik qo‘shimchalarini bir necha variantlarga ega: Tosh., Farg‘.: -də (*bolədə*); -tə (*Əttə*). Xorazm, Xiva, Urganch, Hazorasp: -da (*suvda*), -də (*ichində*), -ta (*yurtta*). Samarqand-Buxoro shevalarida o‘rin-payt va jo‘nalish kelishiklarini almashtirib, -da o‘rniga -ga; -ga o‘rniga esa -da qo‘llaydilar: *bu Ədəmlər sənə oldınggə nəmə qılədə?* -ga qo‘shimchasining -da affiksiga almashinishi yo‘nalish ma‘nosini bildirganda sodir bo‘ladi: *rayənda kettə* (rayonga ketti).

Bu shevalarda jo‘nalish va o‘rin-payt kelishiklari vazifasini asosan -ga qo‘shimchasi bajaradi. -ga qo‘shimchasining -da affiksiga almashinishi yo‘nalish ma‘nosini bildirganda sodir bo‘ladi: *rayənda kettə* (rayonga ketti). Bu hol Qashqadaryo viloyati shevalarida ham mavjud. Lekin bu shevalarda o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi vazifasini ham faqat jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi bajaradi. Masalan, Qarshi shevasida o‘rin-payt kelishigi jo‘nalish kelishigi bilan ifodalanadi: unlidan so‘ng -ya, -yə, undoshdan so‘ng -ga, -gə, -ka, -kə, -qa.

Misollar: *u kъttə əkъsъyə xurmъyə qatъx Əlъp bərgъn chəqqə yolgъ yəmъr yəqqan* (u katta akasiga xurmachadan qatiq olib borgan chog‘da yo‘lda yomg‘ir yoqqan); *bu kъshə Buxərəya yashaydə* (bu kishi Buxoroda yashaydi).

Y-lovchi shevalarda o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi o‘rnida jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi qo‘llash uchun: *uygə otiribdi* (uyda o‘tiribdi).

Chiqish kelishigi. Mazkur kelishik qo‘shimchasining qo‘llanishi ham dj-lovchi va y-lovchi shevalararo farqlanadi. Dj-lovchi shevalarda bu kelishigi qo‘shimchalari quyidagi shakllarda ifodalanadi: hatto o‘zak-negizlarda: a) unli va jarangli undoshlardan so‘ng -dan (*qarzъdan*, *tavdan*); b) jarangsiz undoshlardan so‘ng -tan (*attan*).

Yumshoq o‘zak-negizlarda a) unli va undoshlardan so‘ng -den (*tebeden*); b) jarangsiz undoshlardan so‘ng -ten (*bədrəktən*), qattiq o‘zak-negizlarda sonor *m*, *n*, *ng* tovushlari va egalik qo‘shimchalaridan so‘ng -nan (*tamnan*) yumshoq

o‘zak-negizlarda sonor *m*, *n*, *ng* tovushlari va egalik qo‘sishchalaridan so‘ng - *nən* (*djuzumnən*).

Y-lovchi shevalarda chiqish kelishigi qo‘sishchasi o‘zi qo‘silib kelgan o‘zak-negizning qanday tovush bilan tugashiga qarab bir necha fonetik variantlar-da bo‘ladi: Tosh.shevasida: -*dən* // -*tən* (*yƏrdən*, *dəryədən*, *dərəxtən*). Farg‘.she-vasida: -*dən-tən* // -*tən* (*qoldan*, *koprunktən*). Xorazm shevalarida: -*dan*//-*dən*//-*tən* // -*nən*//-*nən* (*yƏpraqyı`dan*) (*Əttan*). Qarshi shevasida: -*dan*//*tan*//-*nan* (*baladan*, *qalamnan*).

O‘zbek tilining Turkiston, Iqon va Qorabuloq shevalarida chiqish kelishigi qo‘sishchasi: -*dyın* (*undyıñ*, *tamdyın*); -*din* (*əptədin*, *betidin*, *ata-inəmdin*); -*tyın* (*choqtıñ*, *ziya:pattıñ*); -*tin* (*Chimgyittin*). Dj-lovchi shevalarda turlanish:

B.k.	<i>ata</i>	<i>enə</i>	<i>qozu</i>	<i>tulku</i>
Q.k.	<i>atanıñ</i>	<i>enəniñ</i>	<i>qozunıñ</i>	<i>tulkunuñ</i>
T.k.	<i>atanı</i>	<i>enəni</i>	<i>qozunu</i>	<i>tulkunu</i>
J.k.	<i>atag‘ a</i>	<i>enəgə</i>	<i>qozug‘ a</i>	<i>tulkugə</i>
O‘-p.k.	<i>atada</i>	<i>enədə</i>	<i>qozuda</i>	<i>tulkudə</i>
Ch.k.	<i>atadan</i>	<i>enədən</i>	<i>qozudan</i>	<i>tulkudən</i>

Y-lovchi shevalarda (Toshkent sh.)

B.k.	<i>dələ</i>	<i>təl</i>	<i>əsh</i>
Q.k.	<i>dələnə</i>	<i>təllə</i>	<i>əshshə</i>
J.k.	<i>dələgə</i>	<i>təlgə</i>	<i>əshkə</i>
O‘-p.k.	<i>dələdə</i>	<i>təldə</i>	<i>əshtə</i>
Ch.k.	<i>dələdən</i>	<i>təldən</i>	<i>əshtən</i>

Farg‘ona shevasida

B.k.	<i>shətə</i>	<i>chəy</i>	<i>əsh</i>
Q.k.	<i>shətənə</i>	<i>chəyeñ</i>	<i>əshtə</i>
J.k.	<i>shətəgə</i>	<i>chəygə</i>	<i>əshkə</i>
O‘-p.k.	<i>shətədə</i>	<i>chəydə</i>	<i>əshtə</i>
Ch.k.	<i>shətədən</i>	<i>chəydən</i>	<i>əshtən</i>

Xiva-Urganch shevasida

B.k.	<i>kush</i>	<i>gul</i>
Q.k.	<i>kushnə</i>	<i>gulni</i>
J.k.	<i>kusha</i>	<i>gulə</i>
O‘-p.k.	<i>kushda</i>	<i>guldə</i>
Ch.k.	<i>kushdan</i>	<i>kuldən</i>

Qarshi shevasida

B.k.	<i>bala</i>	<i>qalam</i>
Q.k.t.k.	<i>balanə</i>	<i>qalamnə</i>
J.k.o‘-p.k.	<i>balaya</i>	<i>qalamga</i>
Ch.k.	<i>baladan</i>	<i>qalamdan</i>

Qorabuloq shevasida

B.k.	<i>ba:la</i>	<i>tepə</i>	<i>at</i>
------	--------------	-------------	-----------

Q.k.	<i>ba:lanыng</i>	<i>tepəning</i>	<i>атынг</i>
T.k.	<i>ba:ланы</i>	<i>тепəгə</i>	<i>атqa</i>
J.k.	<i>ba:lag' a</i>	<i>tepədə</i>	<i>атqa</i>
O'-p.k.	<i>ba:lada</i>	<i>tepədə</i>	<i>atta</i>
Ch.k.	<i>ba:ladын</i>	<i>tepədin</i>	<i>аттын</i>

Xulosa qilib aytganda, kelishik kategoriyasi o‘zbek tilining shevalariaro o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadi.

Adabiy tildagi oltita kelishik shevalarda bir xilda qo‘llanilmaydi. O‘zbek shevalaridan ba’zi birlarida bitta, yagona kelishik sifatida ishlatiladigan qaratqich-tushum yoki tushum-qaratqich, shuningdek, jo‘nalish-o‘rin-payt yoinki o‘rin-payt- jo‘nalish kelishiklari bor. Bu esa ba’zi ishlardagi ma‘lum otlarni rad etadi<sup>1</sup>. Qaratqich kelishigi formasiga ega bo‘lgan dialekt – shevalarda kelishiklar oltita; qaratqich kelishigi uchun ham tushum kelishigi formasini qo‘llovchi shevalarda kelishiklar beshta; o‘rin-payt kelishigi o‘rnida jo‘nalish kelishigi formasini ishla-tuvchi shevalarda kelishiklar to‘rtta. Umuman, o‘zbek shevalarida qaratqich kelishigi 20 (yigirma) xil formada, qaratqich-tushum kelishigi 35 (o‘ttiz besh) xil formada, jo‘nalish kelishigi 15 (o‘n besh) xil formada, o‘rin-payt kelishigi 4 (to‘rt) xil formada, chiqish kelishigi 14 (o‘n to‘rt) xil formada ishlatiladi. Shevalarimiz kelishik qo‘srimchalarining xilma-xilligi hamda miqdoriy jihatdan ko‘pligi bilan boshqa turkiy tillar va ularning shevalaridan jiddiy farq qiladi.

### **Shevalarda egalik qo‘srimchalari**

Shevalarga oid egalik qo‘srimchalarini K.Nazarov prof.A.Gulomov rahbar-ligida maxsus o‘rgangan. Bu qo‘srimcha predmetning uch shaxsdan biriga qa-rashliligini anglatadi va birlik, ko‘plik shakllariga egadir. Bu qo‘ishimchalar y-lovchi Farg’ona va Xorazm shevalarida adabiy tildagiga mos holda teng kelsa ham, boshqa y-lovchi (Jiz., Tosh., Parkent) shevalarida va j-lovchi o‘zbek shevalarida farqli xususiyatlarga ega. J-lovchi shevalarda egalik qo‘srimchalari o‘zak-negiz-ning qattiq va yumshoqligiga ko‘ra bir necha variantlarga ega:

Unli bilan tugagan o‘zak-negizlarda birlik, qattiq o‘zak-negizda

I sh.	<i>-m</i>	<i>atam</i>	<i>toqlum</i>
II sh.	<i>-ng</i>	<i>atang</i>	<i>toqlung</i>
III sh.	<i>-сы, -су</i>	<i>atasы</i>	<i>toqlusu</i>

Ko‘plik, qattiq o‘zak-negizda

I sh.	<i>-мыз, -муз</i>	<i>atamyz</i>	<i>toqlumuz</i>
II sh.	<i>-нғыз, -нгуз</i>	<i>atangyz</i>	<i>toqlunguz</i>
III sh.	<i>-лари, -лары</i>	<i>atalari</i>	<i>toqlularы</i>

Unli bilan tugagan o‘zak-negizlarda

<sup>1</sup> Qarang: O‘zbek shevalari morfologiysi. T.,1984. 55-bet.

Birlik, yumshoq o‘zak-negizda

I sh. -m əkəm tulkum

II sh. -ng əkəng tulkung

III sh. -si, su əkəsi tulkusu

Ko‘plik, yumshoq o‘zak-negizda

I sh. -miz -muz əkəmiz tulkumuz

II sh. -ngiz -nguz əkəngiz tulkunguz

III sh. -ləri -ləri əkələri tulkuləri

Undosh bilan tugagan o‘zak-negizda

Birlik, qattiq o‘zak-negizda

I sh. -yim, -um qышлаг ‘ым, qushum,

II sh. -ying, -ung qышлаг ‘ынг, qushung

III sh. -ы, -и qышлаг ‘ы, qushu

Ko‘plik, qattiq o‘zak-negizda

I sh. -ытыз, -итиз qышлақытыз qushumuz

II sh. -ыңғыз, -унгиз qышлақыңғыз qushunguz

III sh. -лары, -нары, -дары, -тары, qышлаг ‘лары qushlarы

Bular aniq egalik qо‘shimchalari sanaladi. Ular gap boshida qaralmish bo‘lib keladi: *qushum kəttə*. Shuningdek, -пъкъ, -дъкъ, -ъкъ shakllaridagi egalik ko‘rinishi ham bor, uni adabiyotlarda abstrakt egalik ham deyishadi. Ularni olgan so‘zlar gap oxirida kelib, ot kesim vazifasida keladi: *Bu chərən meningki, bu qag‘ az unungki, uchəskə Lutrynpъkъ* (Lutfiniki).

Ba’zi so‘zlarda uchinchi shaxsda egalik qо‘shimchalari ketma-ket qо‘shilishi mumkin: съунъсъ, уәртъсъ, упъсъ. Shuningdek, Jizzax va Toshkent (-u)vuz shevalarida egalik qо‘shimchalari tushishi ham mumkin: бъздъ мәктәр, създъ qъshlәq. Egalik qо‘shimchalari otlarga va sifatdoshlarga qо‘shilib keladi: *yeyərənъ yep, үчər-rъnъ үчhыр* (eyarini eb, icharini ichib). Toshkent shevasida egalik qо‘shimchalari:

birlik

ko‘plik

I sh. -m, -ъm

I sh. -vuz // -vuzə // -vzə, uvuz // -u:z // -uz // -uvuzə

//

-uvzə // -u:zə // -uzə

II sh. -ng, -ъng

II sh. -yuz // -ylə, -ъууз // -ъз // -ylə

III sh. -sъ, -ъ

III sh. -sъ // -lərъ, -ъ // -lərъ

Mirishkor shevasida:

I sh. oyim

oyuvuz

I sh. kitəvum

kitəvuz

II sh. oying

oyiyiz

II sh. kitəvung

kitəviyiz //

kitəvləriyiz

III sh. oyi

oyləri

III sh. kitəvi

kitəvləri

Ko‘plik

O‘zbek shevalarida ko‘plik ikki usulda ifodalanadi:

1) morfologik (affiks) vositasida ifodalanishi: *bəlelər-bələ - bəlla - bag‘ alar, məllər - məldər - məllar -lar* tarzida qо‘ llanadi;

2) sintaktik yo'l bilan (ko'plikni bildiruvchi so'zlar yordamida) shakllanishi *on ədəm* - o'n odam, *kətt?-kəchək*, *hər xyl qələm* - har xil qalam, *todə-todə məl* - to'da-to'da mol.

Ad.orf. *-lar* ko'plik qo'shimchasi o'zbek shevalarida quyidagi ko'rinishga ega: jl -lar: *qışlıqlar* > *qışloqlar* -lər *məzgillər* // ad.orf. manzillar; -nər *miymənnər* // ad.orf. *mehmonlar*, *djuzumnər* // ad.orf.uzumlar; -dar *maldar* // ad.orf.mollar; -tar *attar* //ad.orf otlar; -tar *djigittar*//*yigitlar*.

yl. *-lar qushlar* (And.); *-lər gullar* //*gullar* (And.); *-la qы:zla* // *qızlar* (Xorazm); *-lə odamlə* //*odamlar* (Toshkent); *kishilə* // *kishilar* (Xorazm); *-ər bəzər* // *bizlar* (Parkent); *-ə bəzə* > *bəzə* > *bzə* // *bizlar* (Toshkent).

Til oldi unlilardan keyin: *-lər kishilər*, *ellər*, *ishlər*, *nərsələr*. So'z til orqa unlimi, o'zak sonor tovush bilan tugasa: *-nar:postunnar*, *chopannar*, *tannar*, *miymannar*. O'zak-negiz til oldi unlilar bilan tugasa: *-nər kunnər*, *tunnər*, *mergennər*, *hukumnər*, *gilamnər*.

#### Savollar

1. Dj-lovchi shevalarda nechta kelishik bor hamda ularga misollar yozing.
2. Y-lovchi shevalarda kelishiklar miqdori qancha?
3. Farg'ona shevalaridagi kelishiklarga misollar keltiring.
4. O'g'uz guruhi shevalarida nechta kelishik bor va ularga misollar yozing.
5. Qarshi shevasida kelishiklar miqdori qancha va ularga misollar keltiring.

#### Adabiyotlar

- Aliyev A. Namangan guruhi shevalari // O'TA. 5-son. T., 1969.  
Abdullaev F.A. O'zbek tilining o'g'uz lahjası. T., Fan, 1978.  
Ibrohimov S.I. O'zbek tilining Andijon shevasi. T., 1967.  
Mahammadjonov Q. Janubiy Qozog'istondagi o'zbek shevalari morfoloziyasi. T., Fan, 1983.  
Nazarov K. Qa'ni shevasida egalik affiksining formalari // O'TAM. 5-son. T, 1963.  
Shoinoyatova M.Sh. Padeji v uzbekskix govorax. AKD. T., 1971.  
O'zbek shevalari morfoloziyasi. T.,1984.  
G'ulomov A. G'. O'zbek tilida kelishiklar. SSSR FA O'zbekiston filialining asarlari. 2-seriya, filologiya. T., 1941.  
Ishayev A.Qoraqalpog'istondagi o'zbek lahjası.T.,Fan, 1977.  
Jumanazarov Yu.Hazorasp shevasining morfologik xususiyat-lari.T.,1961.  
Aliyev A. Uychi shevasi // O'zbek dialektologiyasidan materiallar. T.,1961. 348-359-betlar.  
Nazarov K.O'zbek shevalarida egalik ma'nosining ifodalananish yo'llari // O'zbek filologiyasining ba'zi bir masalalari. T.,Fan, 1968. 9-15-betlar.  
Nazarov K. Shimoliy O'zbek shevalari haqida // O'zbek filologiyasi masalalari. T., 1970.  
Shermatov A. Qarshi shevasida kelishik va egalik qo'shimchaları // O'TA masalalari.3-son.45-50-betlar.

O'rinboyev B., Jo'rayev X. O'zbek tili turk-kaltatoy shevasining grammatik xususiyatlari. T. Fan. 1985.

## 7- MAVZU

### O'ZBEK SHEVALARI MORFIOLOGIYASI. TUSLANISH Reja:

1. Shevalarda tuslovchi qo'shimchalarining farq qilishi.
2. O'tgan zamon fe'llarining tuslanishiga misollar berish.
3. Tarixiy o'tgan zamon fe'lining tuslanishining talqini.
4. Uzoq o'tgan zamon fe'lining tuslanishiga misollar keltirish.
5. Hozirgi zamon fe'lining tuslanishiga misollar yozish.
6. Kelasi zamon guman va maqsad fe'llarining tuslanishi.

Tayanch so'z va tushunchalar

- Tuslanish. Fe'l zamonlari.  
O'tgan zamon. Hozirgi zamon.  
Kelasi zamon. Shevalarda tuslanish.  
Tuslovchi affikslar (qo'shimchalar).

### Tuslanish

O'zbek adabiy tilidagi kabi xalq shevalarida ham shaxs-son, zamon va mayl shakllari tuslovchilardir. Bu mavzuning talqini doirasida Sh. Shoabdurahmonov, Yo.G'ulomov, K.Usmonov,Q.Muhammadjonov, T.Yo'ldoshyev singari olimlar tomonidan jiddiy tadqiq etilgan va zarur ilmiy-nazariy xulosalarga kelingan. Tuslovchi qo'shimchalar, masalan jl.-di /-m (fonetik variantlari bilan); yl. -dъ/-m (fonetik variantlari bilan) ham zamon, ham shaxs-sonni ko'rsatadi: jl *keldim*.

yl. *keldъm* - o'tgan zamon, birinchi shaxs birlik).

Tuslovchi qo'shimchalar shevalararo ozmi-ko'pmi farq qiladi:

- <i>dъq qaradъq</i> jl.	- <i>dъk keldъk</i> il.And.
- <i>duv kelduv</i> (Tosh.).	- <i>tъy kuttъy</i>
jl - <i>vәtъrman kelvәtъrman</i>	<i>yі - vәttmən bәrvәttmən</i> (Tosh.)
- <i>yәrрən bәryәrрən</i> (And.)	- <i>vәttъm</i> <i>bәrvәttъm</i> (Park.)
- <i>Әttmən bәrӘttmən</i> (Sam.)	- <i>uttъmən bәrutтъmən</i> (Nam.).

### O'tgan zamon

O'tgan zamon aniqlik fe'li, dj-lovchi shevalarda:

birlik	ko'plik
I sh. <i>qaradым tuttum</i>	Ish. <i>qaradык tuttuk</i>
II sh. <i>qaradыng tuttung</i>	II sh. <i>qaradынгыз tuttunguz</i>
III sh. <i>qaradы tutty</i>	III sh. <i>qaradылар) tuttu(lar)</i>

y-lovchi shevalarda:

birlik	ko'plik
I sh. <i>keldым kuttum</i>	I sh. <i>keldък kuttъy</i>
II sh. <i>keldыng kuttъng</i>	II sh. <i>keldънгер kuttънгъз</i>
III sh. <i>keldъ kuttъ</i>	III sh. <i>kelъштъ kuttъ (le)</i>

Tarixiy o‘tgan zamon fe’li

I sh.	<i>chыцқанман</i> > <i>chiqqamman</i>	I sh.	<i>чыцқаптың</i>
II sh.	<i>chыцқансан</i>	II sh.	<i>чыцқансың</i>
III sh.	<i>chыцқан</i>	III sh.	<i>чыцқан</i>

y-lovchi shevalarda:

I sh.	<i>bәrgənmən</i>	<i>bәrgənvuz</i>
II sh.	<i>bәrgənsən</i>	<i>bәrgənsъə</i>
III sh.	<i>bәrgən</i>	<i>bәrъshkən</i>

Uzoq o‘tgan zamon davom fe’li, j - lovchi shevalarda:

I sh.	<i>barg‘an edim</i> > <i>barg‘andim</i>	<i>barg‘andik</i> > <i>barg‘ andyk</i>
II sh.	<i>barg‘an eding</i> > <i>barg‘andying</i>	<i>barg‘an endingiz</i> >

*barg‘andyingiz*

III sh.	<i>barg‘an edi</i> > <i>barg‘ andы</i>	<i>barg‘ an edi</i> > <i>berg‘ andы</i>
y-lovchi shevalarda:		

I sh.	<i>turgənвəт</i>	<i>turgənzduv</i>
II sh.	<i>turgənъвə</i>	<i>turgənъduz</i>
III sh.	<i>turg‘ ənъdə</i>	<i>turgənduvda</i>

O‘tgan zamon hikoya fe’li, j-lovchi shevalarda, birlik

I sh.	<i>kelib edim</i> > <i>kelivedim</i> > <i>kevedim</i>
II sh.	<i>kelib eding</i> > <i>keliveding</i> > <i>keeding</i>
III sh.	<i>kelib edi</i> > <i>kelivedi</i> > <i>kevedi</i>

ko‘plik

I sh.	<i>kelib edik</i> > <i>kelivedik</i> > <i>kevedik</i>
II sh.	<i>kelib edingiz</i> > <i>kelivedingiz</i> > <i>keedingiz</i>
III sh.	<i>kelib edi</i> > <i>kelivedi</i> > <i>kevedi</i>

y-lovchi shevalarda, birlik

I sh.	<i>əluvdым</i>	<i>əluvduv</i>
II sh.	<i>əluvəng</i>	<i>əluvduvze</i>
III sh.	<i>əluvə</i>	<i>ələshuve</i>

Hozirgi zamon

Aniq hozirgi zamon fe’li j-lovchi shevalar, birlik

I sh.	<i>kelədjatırmən</i> > <i>keləyatırmən</i> > <i>kelivatırmən</i> :
II sh.	<i>kelədtatırsan</i> > <i>keliyatırsan</i> > <i>kelivatırsan</i>
III sh.	<i>kelədjatıır</i> > <i>keləutyır</i> > <i>kelivatıır</i>

ko‘plik

I sh. *kelədjatırmız* > *keləyatırmыız* > *kelivatırmыız*

II sh. *kelədjatırsыız* > *keləyatırsыız* > *kelivatırsыız*

III sh. *kelədjatıır* > *keləutyır* > *kelevatıır*

y-lovchi shevalar:

I sh.	<i>bәrvəmmən</i>	<i>bәrvəmmъз</i>
II sh.	<i>bәrvəssən</i>	<i>bәrvəssълə</i>
III sh.	<i>bәrvəttə</i>	<i>bәrъshvəttə</i>

Kelasi zamon gumon fe’li, j-lovchi shevalar:

I sh. <i>qararman</i>	<i>qararmyz</i>
II sh. <i>qararsan</i>	<i>qararsyz</i>
III sh. <i>qarar</i>	<i>qarar(lar)</i>

y-lovchi shevalar:

I sh. <i>bərərman</i>	<i>bərərməz</i>
II sh. <i>bərərsan</i>	<i>bərərsəlar</i>
III sh. <i>bərər</i>	<i>bərəshər</i>

Kelasi zamon

Kelasi zamon maqsad fe'li, j-lovchi shevalar:

I sh. <i>qalmaqýman</i>	<i>qalmaqýmżyz</i>
II sh. <i>qalmaqýsan</i>	<i>qalmaqýsyzyz</i>
III sh. <i>qalmaqchы</i>	<i>qalmaqы(lar)</i>

Savollar

1. O‘zbek shevalarda ko‘plik qay tarzda ifodalanadi?
2. Tuslanish nima va unga bir necha misollar keltiring.
3. Tuslovchi qo‘srimchalarning farqlari nimalarda?

Adabiyotlar

Nosirov Sh. Yom shevasining ba'zi bir morfologik xususiyatlari // Tilshunoslik masalalari. T., 1960.

Rajabov N. O‘zbek xalq shevalarida fe'lning morfologik tuzilishi. T., Fan, 1990.

Usmonov K. O‘zbek shevalarida fe'lning o‘tgan zamon formalari. T., Fan, 1991.

Shermatov A. Qashqadaryo o‘zbek shevalari. T., 1972.

Yo‘ldoshyev A.Y.Mankent shevasida fe'llarning zamon formalari // O‘zbek filologiyasining ba'zi bir masalalari. T., Fan, 1968. 16-25-betlar.

Yo‘ldoshyev T. Tojikistondagi o‘zbek shevalari morfologiyasi. T., Fan, 1986.

Muhammadjonov Q. Janubiy Qozog’iston dagi o‘zbek shevalari morfoloyasi. T., Fan, 1983. 166 b.

Nazarov K., G‘ulomov Yo. O‘zbek dialektologiyasi. T., Universitet, 1993.

Enazarov T. O‘zbek dialektologiyasi. Ma’ruza matni. T., 2000.

O‘rinboyev B., Jo‘raev X. O‘zbek tili turk-kaltatoy shevasining grammatik xususiyatlari. T. Fan. 1985.

O‘zbek xalq shevalari morfologiyasi. T., Fan, 1984.

G‘ulomov X. O‘zbek tilining Jizzax shevasi. O‘DM. I. T.: 1957.

8- MAVZU

## O‘ZBEK SHEVALARIDA SO‘Z TURKUMLARI

Reja:

1. Ot so‘z turkumi.
2. Sifat so‘z turkumi.
3. Olmosh so‘z turkumi.
4. Son so‘z turkumi.

### Tayanch so‘z va tushunchalar

Egalik qo‘shimchalari.	Kishilik olmoshlari.	Kelishik qo‘shimchalari.
Ko‘plik qo‘shimchalari.	Qo‘shma otlar.	Yasama otlar.
Asliy sifatlar.	Nisbiy sifatlar.	Jamlovchi son.
Ko‘rsatish olmoshlari.	O‘zlik olmoshi.	Bo‘lishsizlik olmoshlari.
Gumon olmoshlari.	Belgilash olmoshlari.	Sanoq son.
Tartib son.	Taqsim son.	Chama son.

O‘zbek shevalarining xarakterli xususiyatlardan biri bu so‘z turkumlarini ifodalovchi so‘zlarda shevalarga xos morfologik, leksik-morfologik xususiyatlarning nisbatan aniq ifodalanishidir. Chunki shevalarimiz xilma-xil bo‘lgani kabi so‘z turkumlarini ifodalovchi so‘zlar ham, yasovchi qo‘shimchalar ham bir-biridan farq qilib turadi. Bu haqida mukammal ma‘lumotlar “O‘zbek xalq shevalari morfologiysi” nomli kitobda berilgan<sup>1</sup>. Shuning uchun bu yerda so‘z turkumlariga qisqa ma‘lumot berish yo‘lidan borildi.

### Ot so‘z turkumi

Ot so‘z turkumiga oid so‘zlar ko‘plik va egalik qo‘shimchalarni olib turlanadi. O‘g‘uz shevalarida ko‘plik tushunchasi *-lar*, *-lər* qo‘shimchasi vositasida ifodalanadi. Ko‘plikning bu tarzda ikki forma bilan berilishi shevada singarmonizm hodisasi mavjudligini asoslab turibdi. Shevalarda ko‘plik qo‘shimchasining *-nar* / *-nər* shakllari ham mavjud. Ot so‘z turkumiga oid so‘zlar egalik, kelishik va ko‘plik qo‘shimchalarini olgan holda kelishi mumkin. Bu hol quyidagicha ko‘rinishga ega:

- a) ot so‘z turkumiga oid so‘zlar faqat egalik qo‘shimchagini oladi;
- b) ot so‘z turkumiga oid so‘zlar kelishik qo‘shimchalarini oladi;
- v) ot so‘z turkumiga oid so‘zlar ko‘plik va egalik qo‘shimchalarini olib keladi:

<i>balalarым</i>	<i>balalarытыз</i>
<i>balalarынгз</i>	<i>balalarынгиз</i>
<i>balalarы</i>	<i>balalari</i>

g) ot so‘z turkumiga oid so‘zlar egalik va kelishik qo‘shimchalari bilan turlanadi:

B.k.	<i>Этым</i>
Q.k.	<i>Этымпинг</i>
T.k.	<i>Этымты</i>
O‘-p.k.	<i>Этымдә</i>
J.k.	<i>Этымдә</i>
Ch.k.	<i>Этымдән</i>

<sup>1</sup> Qarang: O‘zbek shevalari morfologiysi. T., 1984. 55-bet.

d) ot so‘z turkumiga oid so‘zlar faqat kelishik qo‘srimchalarini olib turlanadi:

B.k.	<i>at</i>	<i>soz</i>
Q.k.	<i>atny</i>	<i>sozni</i>
T.k.	<i>atny</i>	<i>sozny</i>
O‘-p.k	<i>atta</i>	<i>sozdy</i>
J.k.	<i>ata</i>	<i>soza</i>
Ch.k.	<i>attan</i>	<i>sozdən</i>

*Pashshalarын a:lamg‘a be:gən ba:jы,*  
*Ustinde sarpa:yo‘, ba:shыnda ta:jы* (Qarnoq).  
*Zaqcha, bulbul, bolo‘t ba//a yarashmas,*  
*Kiyiktin ozgəsi ta://a yarashmas* (Qarnoq).

Buxoro guruh shevalarini tadqiq etgan Mustaqim Mirzayevning ta’kidlashicha, bu dialektning lug‘at tarkibini o‘rganishdan shu narsa aniqlandiki, jonsiz va jonli mavjudotlarni bildiruvchi so‘zlar, ya’ni grammatik otlar boshqa so‘z tur-kumlariga qaraganda son - miqdor jihatdan eng ko‘pchilikni tashkil etadi. Otlar tuzilish jihatdan sodda, qo‘shma va juft ko‘rinishlarda uchraydi. Sodda otlar tub (*bəq*, *halvə*) hamda affiksatsiya yo‘li bilan hosil bo‘lgan yasama so‘zlardan (*bəg* *bən*, *xalvəgar*) iborat.

Qo‘shma otlar ikki so‘zdan yasaladi: *nenkaεvъ, nəskəεvъ, bo‘rikalla, palavkaεvъ*. Juft otlar ma‘nosini o‘zaro yaqin yoki zid bo‘lgan ikki so‘zning tiziluvidan yasaladi, ko‘pincha ular yuklamalar bilan bog‘lanadi: *qəzən-tavəq; savzə-pəyəz; toyu təməshə*; *kechayu kunduz; doston dushman; yəzu qəsh*.

Biror kasb ixtisosga mansub shaxs otini yasovchi qo‘srimchalar:

- <i>chъ</i>	<i>naychъ, surnaychъ, tegъrmənchъ, ayləchъ.</i>
- <i>kər</i>	<i>səhərpər, pəxtəkər</i>
- <i>gar</i>	<i>nəsgar</i>
- <i>kəsh</i>	<i>pəllakash, dərkəsh (dardkash)</i>
- <i>tarəsh</i>	<i>juntarəsh, təshtərəsh</i>
- <i>paz</i>	<i>saməysapaz</i>
- <i>bəf</i>	<i>shəyəbəf</i>
- <i>sho‘y</i>	<i>po‘stsho‘y</i>
- <i>mand</i>	<i>ayəlmand</i>
- <i>bəz, -vəz</i>	<i>mərbəz</i>

O‘rin-makon ma‘nosini bildiruvchi otlar yasovchi qo‘srimchalar:

- <i>zər, -əsten, -gəh, -dən, -q, -əq, -qəq</i> ( <i>bətqəq</i> )
---

Aniq va mavhum predmetlar ma‘nosini bildiruvchi otlar yasaydigan yasovchi qo‘srimchalar:

- <i>a</i>	<i>go‘ra, ko‘sa, qalama.</i>
- <i>ak</i>	<i>kunjak, elak, tylak.</i>
- <i>chъ, -kъ</i>	<i>surtkъ</i>
- <i>əq</i>	<i>o‘irəq</i>
- <i>g‘əch/-g‘uch</i>	<i>qərg‘o‘ch, surg‘uch</i>

- *chəq*                    *yarg ‘ichoq (qo ‘l tegirmoni)*
- *ush*                    *ulush (to ‘y -marakalarda beriladigan emishlik ma ‘nosida).*

Mavhum ma‘noli otlarni yasovchi qo‘shimchalar va ularga misollar:

- *lək*, -*ləq*, -*lik*    *yaxshılyk, səg ‘lə.*

- *chılyk* : *de:qonchılyk, uzumchılyk*

Old qo‘shimcha:

*ham* - / -*dəsh* *hamso:bat, hamkas / kasbdəsh, sohbatdəsh, hamnəm/adash.*

Kompozitsiya usulida yasalgan otlarga misollar: *shəkəsa, gosh(t) barak, tu-xumbarak, gulъra* : *nə* va boshqalar.

### Sifat so‘z turkumi

Bu so‘z turkumiga oid xususiyatlarni va son, shuningdek, olmoshlarni T. So-diqov o‘rgangan<sup>1</sup>. Mazkur so‘z turkumiga oid so‘zlarni qo‘llashda boshqa sheva-lardan ham, adabiy til normasidan ham asosan farqsizdir. Sifat so‘z turkumiga oid so‘zlar oxiridagi undoshning jarangli variantda qo‘llanishi ham kuzatiladi: *sarыq, arыig‘, ossыig‘, achchыig‘, qattыg‘*.

Iqon shevasida ba‘zi bir sifat so‘zlari oxiridagi undosh jarangsiz: *qattыq, sassыq, achchыq, sarыq, suyuq*.

Asliy sifatlarning qiyosiy darajalari Buxoro dialektida quyidagicha yasaladi: a) -*rəq yaxshırrəq, yamənrəq*; b) ortirma (oshirma) daraja oddiy daraja formasiga keladi, faqat uning oldidan ortirmalikni bildiruvchi so‘zlar qo‘llanadi : *judə issыq, havə kop ъssыq*.

Sifat yasovchi qo‘shimchalar unumli va unumsiz ko‘rinishlarda uchraydi: -*lə*, -*lək*, -*səs*, -*gan*, *qəyl*, -*akъ*; *bala-chaqalъ, tuzsъl, xəmakъ*; -*q*, -*qəq*, -*g‘ən*, -*ma*, *ba-*, -*be*, *nə-*, *ser-*, *ham-*. *Yumuq, urushqoq, maxtanchoq qəzqən, purg ‘un, qovurma, to ‘g‘rama bama:nъ, bamaza, nəaniq, hamtavəq*.

Sifat yasovchi (prefiks) old qo‘shimchalar sheva vakillari nutqida juda keng miqyosda va faol qo‘llanadi: *ba-*, *be-*, *nə-*, *ser-*, *ham-*.

Otlardagi erkalash formasi sifatlardan ham qo‘llanadi. Asliy sifatlarda keladigan erkalash formasi shevalarda (Buxoroda) keng tarqalgan: *shınamgъna havlъ, ъssъqqъna patъr; navchagъna bir ədam kellъ; dommuqqъna og ‘ ъlcha*.

### Olmosh so‘z turkumi

Olmoshlarning shevalardagi qo‘llanishida adabiy tildagidan farqli holatlar mavjud. Kishilik olmoshlar shevalararo farqlanadi: *mən, sən, ul / u; biz, - bizər - bizlər; siz-silər - sillar; ular - ulalar*.

Ko‘rsatish olmoshlarining turlanishi:

<sup>1</sup> Sodiqov T. Sifat. Son. Olmosh // O‘zbek shevalari morfologiyasi. T.,1984.57-105-betlar.

B.k.	<i>bu</i>	<i>anav</i>	<i>manav</i>
Q.k.	<i>типынг</i>	<i>анаңынг</i>	<i>манаңынг</i>
T.k.	<i>типы</i>	<i>анаңы</i>	<i>манаңы</i>
O'-p.k.	<i>munda</i>	<i>anavda</i>	<i>manavda</i>
J.k.	<i>tuna</i>	<i>anava</i>	<i>manava</i>
Ch.k.	<i>mundып</i>	<i>anavдып</i>	<i>manavдып</i>

Ko'rsatish olmoshlarini qo'llashrda yaqin-uzoq, aniq-noaniqlikka qat'iy rioya qilinadi, so'zlovchiga yaqin bo'lgan predmetga ishora qilinganda *bu*, *shu*; uzoqqa ishora qilinganda *u*, *o'sha* olmoshlari faol qo'llanadi.

So'roq olmoshlari: *kim*, *ne/ni*, *ni:du*, *nichik*, *пхы/пыхы dedi*, *nechchi*, *qancha*. O'zlik olmoshi: *oz*. Uning kelishiklar bilan turlanishi egalik olgan ot turlanishidan farq qilmaydi: *ozi*, *oziming*, *o:zinnqin*, *o:zinə*, *ozini* / *o:zinni*, *ozin:də*, *ozindin*. Bo'lishsizlik olmoshi: *hech kim*, *hech пътә*. Guman olmoshi: *kimdir*, *nimadir*, *birov*, *birne* va boshqalar. Belgilash olmoshlari: *həmmə*, *barchasi*, *bəri*, *jamisi*, *butin*, *har kim*, *xər nərsə*.

Sheva vakillari nutqida olmoshlar qatnashgan gaplardan namunalar:

1.Kishilik olmoshlari: *Səlləyüz məlməldyr*, *shaxəgə ылдыrməng*, *ыгыт*, *Bəz ekəv doc boləlk*, *dushməngə bıldırməng*, *ыгыт* (qo'shiqdan). *Mening həlyim djaxshı dedə*, *men bəlyaq tutup djuruptən*, *dedə*.

2.Ko'rsatish olmoshlari: *Shunda Ət shunnnay deptə*: *Mən Ətəupъ Ətъudъм*,

*Ətəng olğənnən keyүn ишъ gorъпъ zъyərət qылъshgə chushgənədəm*. əgər kerəy bop qəsəm tənə bu yəlnə dytatəsən, dəp yələdən yləp berərtədə Əsməngə kotərъlərtə.

3.So'roq olmoshlari: *Nechun qiyo bəqmaysız*, *jənim*. *Kim so'rasha, falənchidan deng*. *Shunda əhməqlə(r) bər-bərəgə shərt qoyışhəbdə*: “əgərdə kəm gərərsə, oshə qolgə suv Ələp keləp quysən», *dəp*.

4.O'zlik olmoshi: *U chontıq shag'al*: “*Mən bir ozim chontıq bolup yurənda masqara (masxara) etətag'an edingiz, endi hammamiz birmiz – teng boldıq*”.

5.Bo'lishsizlik olmoshi: *Sizni hech kim so'ramadi*. *Og'ri hech nima Əlmabdi*.

6.Guman olmoshi: *Shunda kymdir*: “*Təqsyr, bu chələsənət, xət oqyuəlməydi*”, *dədb*. *Birəv nimadir aytdi*, *u ketti*.

7.Belgilash olmoshlari: *Təvisrən əytipti*: *Mən keləytikəngə həmə yəyrəydi, mengə həmə nersələr bisyər bolədi*. *Hər səhərdə bər kelmaglık ədətəynən orgyləy*, *Sylkypər turgan kuyıgdəy qəmətəynən orgyləy*.

## Son so'z turkumi

Son va uning turlarining qo'llanishi ham adabiy tildan qisman farq qiladi. Sanoq sonlarga misollar: (*biy*), *e:kki*, *ush*, *tot*, *besh*, *sakkis*, *ottus*, *səxsən*, *toxsan*.

*ɔlmish minən ɔlishib, yetmish minən yetishib, saksən minən so‘rashib, toxsan minən to‘qnəshing.*

Tartib son: *-nji*, *-nъи* qo‘shimchalari qo‘shib yasaladi: *birinji*, *ekinji*, *uchinji*.

Taqsim son sanoq songa *-din*, *-dъin* qo‘shimchalarini qoshish orqali taqsim son yasaladi: *beshdin*, *oltыidын*, *beshtadin*.

Chama son *-day*, *dъay*, *-choq* qo‘shimchalarini qo‘shib yasaladi: *altыiday* (*oltitacha*); *chaqlы* - *besh chaqlыg‘ qa:lam*.

Jamlovchi son. Sonning bu turi so‘z yasashning affiksatsiya usulidagi ikki qo‘shimcha bilan yasaladi:

1. *-av/-əv* qo‘shimchalarini qo‘shish bilan *ekəv*, *uchəv onav*.
2. *-lab/-lab* qo‘shimchasini qo‘shish bilan: *onləb chəqъrъsh*; *tortav bərməq*.

Sonlar barcha shevalarda bir xil, ammo ularning talaffuzda juziy farqlar bor.

#### Savollar

1. Otlarga xos so‘z yasalishiga misollar keltiring.
2. Qo‘shma va yasama otlarga oid misollarni qayd qiling.
3. Sifat yasovchi qo‘shimchalarga va old qo‘shimchalarga misollar yozing.
4. Son nimani ifodalaydi va uning ma‘no jihatdan turlarini qayd eting.

#### Adabiyotlar

Jumanazarov Yu.Hazorasp shevasining morfologik xususiyatlari.T.,1961.

Nazarov K.O’zbek shevalarida egalik ma’nosining ifodalanish yo’llari // O’zbek filologiyasining ba’zi bir masalalari. T.,Fan, 1968. 9-15-betlar.

Nosirov Sh. Qo‘qon shevasining ba’zi bir morfologik xususiyatlari // Tilunoslik masalalari. T., 1969.

Rajabov N. O’zbek shevashunosligi. T., O‘qituvchi, 1996.

Sodiqov T. O’zbek shevalarida ko‘rsatish olmoshlari // O‘TA. 1-son T., 1980. 45-49-betlar.

O’zbek xalq shevalari morfologiyasi. T., Fan, 1984.

#### 9- MAVZU

#### O‘ZBEK SHEVALARIDA SO‘Z TURKUMLARI (davomi)

Reja:

1. Shevalarda fe’l so‘z turkumiga oid xususiyatlar.
2. Sifatdosh hamda ravishdoshlarga oid xususiyatlar.
3. Ravish so‘z turkumiga xos xususiyatlar va ularning yasalishi.
4. Bog‘lovchilarning qo‘llanishi.
5. Yuklama va undovlarga oid xususiyatlar.

#### Tayanch so‘z va tushunchalar

Fe’l so‘z turkumi. Hozirgi zamon davom fe’li.

O‘tgan zamon fe’llari. Kelasi zamon fe’li.

Fe'llarning tuslanishi.	Fe'lning shart formasi.
Yaqin o'tgan zamon fe'li.	Tarixiy o'tgan zamon fe'li.
Qo'shma fe'llar.	Uzoq o'tgan zamon fe'li.
O'tgan zamon hikoya fe'li.	Ko'makchi fe'llar.
Hozirgi zamon fe'l shakllari.	Kelasi zamon fe'l shakllari.
Payt ravishi.	Kelasi zamon gumon fe'li.
Sifatdosh.	Ravishdosh.
Ravish. O'rin ravishi.	Holat ravishi.
Ravish yasalishi.	Daraja-miqdor ravishi.
Bog'lovchilar. Yuklamalar.	Undovlar.

### Fe'l so'z turkumi

Fe'l so'z turkumiga oid xususiyatlarni o'zbek shevalari materiallari vositasida Sh.Nosirov maxsus o'rgangan<sup>1</sup>. Ushbu so'z turkumiga oid so'zlar shevalarda turli ma'no nozikliklari bilan farqlanadi.

Hozirgi zamon davom fe'li -үәр/-әр qo'shimchalari bilan yasaladi:

I sh. Ҷshlayәрман	Ҷshlayәрмъз
II sh. Ҷshlayәрсан	Ҷshleyәрсъз
III sh. Ҷshayәртъ	Ҷshlayәртълар.

O'tgan zamon fe'llari -dъ,-tъ shakllari bilan yasaladi: *bəjərəvəm*, *kettəm*, *kettək*. Kelasi zamon fe'li -r, -ar qo'shimchalari bilan gumon formasi, -məqch qo'shimchasi bilan maqsad ma'nosi shakllanadi: *chəqъrарман*, *chəqъrармъз*; *chəqъrарсан*, *chəqъrармъз*; *chəqъrар chəqъrар*.

Fe'llar shevalarda ham shaxs-son qo'shimchalarini olib tuslanadi:

Buyruq istak mayli (Xorazm o'g'uz)		(Shimoliy o'zbek shevalarida)
birlik		birlik
I sh. mən bərməg' əuyın		I sh. mən bərmynuq
II sh. sən bərmə		II sh. sən bərmə
III sh. xu bərməsyin		III sh. u bərməsu
ko'plik		ko'plik
I sh. <i>bizlə bərməg' əylə</i>		I sh. <i>bəzər bərməynuq</i>
II sh. <i>cizlə bərməg' əysyz</i>		II sh. <i>sələr bərmənnər</i>
III sh. <i>xuləa bərməg' əylə</i>		III sh. <i>ulər bərməsu</i>

Fe'lning shart formasi -sa /-sə qo'shimchalari bilan yasaladi: *Bedənəning yatqan yeri xas bolur*; *Chillə chussə*, *na:r tuyələr mas bolur*.

Yaqin o'tgan zamon fe'lning shakllari xuddi adabiy tildagidek, faqat fonetik qiyoferasi boshqacharoq:

I sh. <i>mən aldым</i>	I sh. <i>bizlə aldыq</i>
II sh. <i>san aldын</i>	II sh. <i>sizlə aldынла</i>

<sup>1</sup> Nosirov Sh. Fe'l // O'zbek shevalari morfologiysi. T., 1984. 106-200-betlar.

III sh. *xu aldy* III sh. *xula aldy (la)*

Tarixiy o‘tgan zamon fe’l so‘z o‘zagiga -g‘ an, -gən, -g‘ an / -kan va shaxs-son qo‘shimchalari bilan yasaladi:

I sh. *mən barhamman* I sh. *bizlə barhamməs*

II sh. *səen barg‘ansan* II sh. *sizlə barg‘ ansıslə*

III sh. *xu barg‘an* III sh. *xula barg‘ an (la)*

Uzoq o‘tgan zamon fe’li -b, -ib ravishdosh shakliga e(ə) to‘liqsiz fe’lning tuslangan formasi qo‘shilib kelishi orqali yasaladi.

I sh. *mən koribiydim* I sh. *bizər kəribiduk*

II sh. *sən koribi: diq* II sh. *silər koribidinnər*

III sh. *u(l)koribi:di* III sh. *ular koribi:di/lər*

O‘tgan zamon hikoya fe’li so‘z o‘zagiga -b,-p,-ib,-ip shaklidagi qo‘shimchalarini qo‘shish orqali yasaladi:

I sh. *mən barayıptan* I sh. *bizlə borıptıys*

II sh. *sən barayıpsan* II sh. *sizlə barıpsıys*

III sh. *hu barayıpty* III sh. *hulə baroptıla*

Hozirgi zamon fe’li shakllari -yato ‘r qo‘shimchasi bilan yasaladi:

I sh. *mən baryatırmən* I sh. *bizlə barayatırtıys*

II sh. *sən baryatırsan* II sh. *sizlə barayatırsıys*

III sh. *hu barayatıy* III sh. *xula barayatıy*.

Kelasi zamon fe’l shakllari so‘z o‘zagiga -jak qo‘shimchasini qoishish bilan yasaladi: I sh. *barajakman* I sh. *barajakmız*

II sh. *barajaksan* II sh. *barjaksıys*

III sh. *barajak* III sh. *barjakla(r)*

Kelasi zamon gumon fe’li so‘z o‘zak-negiziga -r,-ar qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasaladi: I sh. *mən bararman* I sh. *bizlə bararmıız*

II sh. *sən bararsan* II sh. *sizlə bararsıız*

III sh. *hu barar* III sh. *ular bararlar*

Ammo qo‘shma fe’llarning tuzilishi adabiy tildagiga to‘g‘ri keladi:

1. Ot - fe’l - *qol qoymaq, xizmat etmak*.

2. Fe’l – fe’l - *oqyp chıxmaq, soylab bermak*.

*bol, qol, al, kor, ber, tur, et, qol* ko‘makchi (so‘zları) fe’llarining qo‘llanishi va ma‘no jihatdan adabiy til normasidan chetga chiqib ketadigan joyi yo‘q.

## Sifatdosh

Sifatdoshning -gan formasi singarmonistik varianti bo‘lgan -gən borligi bilan ham adabiy tildagi shaklidan ajralib turadi. Shuningdek, o‘tgan zamon sifatdosh formasi -gən, -g‘ an, -kən, -qan qo‘shimchasi bilan yasaladi: *barg‘ an a: dam, kəlgən ba:la*.

Hozirgi zamon sifatdosh formasi fe’l o‘zak-negiziga -yatqan, -yato ‘rg‘an elementini qo‘shish orqali yasaladi: *keləyato ‘rg‘an, barayatqan*.

Kelasi zamon sifatdosh formasi *-dəg ‘un*, *-dag ‘an*, *-təg ‘un*, *-tag ‘an* shakllarida fe’llarga qo’shib keladi: *baratog ‘un a:dam*, *kelətəg ‘un miyma:n*.

*-r*, *-ar* formali sifatdosh adabiy tildagi singari tarqalishi e’tibori bilan cheklangan: *yanar ta:g*, *uchar qush*.

*-jaq*, *-jek* formali sifatdosh Xorazm o‘g‘uz shevalarida keng tarqalgan. Chimkentdagi o‘zbek shevalarida esa bu hol qayd qilinmadı: *galjakman*, *mən barjaqman*.

## Ravishdosh

1. *-a*, *-ə*, *-y* qo’shimchalari fe’l o‘zak-negiziga qo’shib ravishdosh yasaladi: *Iqandын chыxтыq tang ata*; *arыsqa bardыq kun bata* (Iqon).

2. *-b*, *-ib* qo’shimchalarini qo’shiladi: *barыb*, *kelib*.

3. *-incha* *-ынча*, *-ginchə*, *-g‘incha* qo’shimchalarini qo’shib *bəllə* *gəlinchə* *shundədur*.

4. *-gəni*, *-g‘аны* qo’shimchalari bilan yasalgan ravishdoshlar maqsad ma’nosini ifodalaydi: *oqыг‘ аны ketti*, *oynag‘ аны kedi*.

5. *-gəli*, *-kəli*, *-g‘ алы*, *-qалы* bilan payt ravish yasaladi: *oquvg‘ a ketkəli ush yol oldы*.

## Ravish so‘z turkumi

Shevalardagi ravishlar qo’llanish jihatdan adabiy tildagi normalardan chetga chiqimaydi, faqat so‘zlarining fonetik qiyofasi - tuzilishida shevalarga xos ba’zi bir fonetik o‘zgarishlar bo‘ladi.

Payt ravishlariga misollar:

*Bugun*, *ertan*, *axsham*, *buyin*, *e:r*, *ertə-kunduz*, *xeli*, *xa:zo‘r*, *bo‘lto‘r*, *xarvax*. *Axsham* qo’shnimiznikida to‘y *bo‘lli*. *Bo‘ltor ukamnikiga tug‘ilgan kuniga brəgan edim*.

O‘rin ravishlariga misollar:

*Shunda*, *baqa*, *ke:din*, *shaqtын*, *azaqta*, *alistan*, *ayshaqa*, *məyshaqa*, *shuya:na*. *Opam qizini uzaqqa uzatti*. Akam “*Baqa kel*”, - *deb chaqirib olli*.

Holat ravishlariga misollar:

*Te:z*, *zo:rg‘a*, *qoyo‘n*, *ag‘ыr*, *onay*, *seki:n*, *mu:t* (*bekorga*) *to‘xtavsys,yayav*.

*Salim ishga zo‘rg‘a kelli*.

Daraja-miqdor ravishlariga misollar:

*kop*, *a:z,picha*, *Əbdan*, *shunchallы*, *qanchallы*, *to‘ntaqdlyu*, *pitə*, *so‘ra*.

Ravish yasalishiga misollar:

1. Leksik yo‘l bilan ravish yasalishi: *kop*, *a:z*, *yaxshы*, *chaqqan*, *alыs*.

2. Morfologik yo‘l bilan ravish yasalishi: *-cha*, *-chə*, *-day*, *-dəy*, *-lap*, *-ləp*, *-chasына*, *-chəsinə*, *-an*, *-ən*: *-qastan*, *yigitchəsигə*.

## Bog‘lovchilar

Bu so‘z turkumini va ko‘makchilarni M.Turopova sheva materiallari asosida tadqiq etgan<sup>1</sup>. Shevalardagi bog‘lovchilar o‘z xususiyatlari bilan adabiy tilga yaqin holatda. Fonetik ko‘rinishda farq bilinadi: va o‘rni bilan bog‘lovchi vazifasini baja-radi: *səm bilan mən. Həm bog‘lovchisi qo‘llanganda “h” undoshi tushadi: Əsh Əsayəm onny bashqa; kesəməm, a:samam alama-da. -də yuklamasi ba’zan bog‘lovchi vazifalarida qo‘llanadi: Bardıym-da, keldim. Aytqapıytyny ayttıym-da arqag‘a qashtıym.*

Toshketn viloyati shevalarida adabiy tilda teng bog‘lovchi vazifasini bajaruvchi *va, ham, hamda, biroq, chunki, garchi, holbuki* kabi bog‘lovchilar uchramaydi. Shu bilan birga sheva vakillari tomonidan ko‘p qo‘llanadigan *ammo, lekin, biroq* teng boglovchilari auni bir vaqtida aytlishi ham kuzatiladi: *ammo lekin biroq – Man sizga aystsam, am(m)o lekin biroq hecham ulgurmadi* (Bu misolda *ammo* bog‘lovchisida bitta “m” undoshi tushib qolgan, ham so‘zida “h” undoshi tushgan(ham >am) shaklida talaffuz qilinib, yuklama vazifasida kelgan). Demak, bog‘lovchi-yuklamalar haqida ham sheva materiallari asosida fikr yuritish lozim bo‘ladi.

## Yuklamalar

Shevalarda qo‘llanadigan yuklamalar –mi, тъ, -мы, -мə, -n,-чи, -ə, -yə, ham, Əv (ov) shaklarida ishlatiladi. Ular ma‘no jihatdan adabiy tildagidek ko‘rinishlarga ega bo‘lsa ham, shaklan farqlidir: -a, -ə yuklamasi istak, qistashni ifodalaydi: barsan-a, kesen-a.

-chi yuklamasi -a, -ə yuklamasiga ma‘no jihatdan yaqin: *alsay-chi, kesai-chi, barsayichchi.*

- na,-nə yuklamasi ikki xil so‘roq ma‘nosini ifodalaydi:

a) adabiy tildagi -mi yuklamasi vazifasida keladi: *sənəm a: damne, a:taq ba:zarын kədi na?*

b) adabiy tildagi -chi so‘roq yuklamasi vazifasida keladi: *o:zin, kəpsə, ma:shi:nə nə? mən ketəmə, sən nə.*

-av yuklamasi: a) hayrat, zavqlanish taajjub ma‘nolarini ifodalaydi;

v) achchiqlanish, achinish ma‘nosida ham ishlatiladi: *ba:hыma yetəsən -av, olumiqni be:su!*

Sheva vakillari nutqida -in, -ng qo‘shimchasi -a,-ya yuklamasining ma‘nosini beradi: *Tandыгында o:tын ba:rты? - yoq-?! (Tandiringda o‘tin bormi, yo‘qa, yo‘q edi-ya).*

<sup>1</sup> Turopova M. Bog‘lovchi. Ko‘makchi // O‘zbek shevalari morfologiysi. T.,1984. 222-238-betlar.

## Undovlar

Shevalardagi undovlarga alaqador leksik qatlam ham o‘ziga xos xususiyat-larga ega. Emotsional undovlar. Shevalarda *hayrat*, *taajjub*, *achinish* kabi ma‘no-larni ifodalovchi undovlar (Xor.) shevalarda *ibi*, *ibi-yey* holatida bo‘ladi. Ular *eh*, *e-ya*, *iyyis*, *voy-voy*, *atang* undovlariga to‘g‘ri keladi.

Uff - charchaganlikni, *uhh* – g‘amginlikni bildiradi. Mushuk: *pish-pish*, tovuq *tu:tu*; ot: *box-box*, *-mox-mox*, tuya: *chok-chok*, sigir: *xav-xav*, buzoq: *jəv-jəv*, qo‘y: *quray-quray*, suvichishga chaqirish *quray-quray*. Echki: *gich-gich* (haydash), *churi-churi* (chaqirish) xo‘kizni (qaytarish): *hav*, *ke!*

Tovushga taqlid so‘zlar ham uchrab turadi: *soat chiq-chiq qъlъi yurup toxaptъ*.

## Ko‘makchilar

Ko‘makchilar o‘ziga xos xususiyatlari bilan adabiy tildagi (-y) farq qiladi: *bilan-tъnən*, mərmən holatida faol qo‘llanadi - ishlatiladi: *kunъ tъnən ъshlədъy* - kun bilan ishladik. *Uchun* ko‘makchisi shevada *yuchun* formasida ishlatiladi: *menъyuchun ъshləsən ъshləmə* - meni uchun ishlama.

Sayin - adabiy tildagi kabi: kunsayunъ yəxshъ boləptъ - kun sayin yaxshi bo‘lyapti.

*Berъ, baqa, buyon, boshlap, keyъn, ъlgarъ, burun, avval, oldъn, qarab, qaraganda, qadar, uchun, bъlan* (*bъlən, mnəm, manan, man, mən, mam, məm*) kabi ko‘makchilar shevalarda faol ishlatiladi. Shevalarda modal va taqlid so‘zlar ham qo‘llanadi. Ular adabiy tildagi kabi holatlarda ishlatiladi.

Hozirgacha shevalar morfologiyasining ancha materialarl to‘plab o‘rganilgan. Shu hol ham o‘zbek shevalari morfologiyasini organish ancha bahsli va murakkab ekanligini ko‘rsatib turibdi<sup>1</sup>. Yuqoridagilarni e‘tiborga olib, xulosa qilinadigan bo‘lsa, hali bu sohada, ya’ni o‘zbek shevalari morfologiyasida ko‘p ilmiy ishlarni qilish mumkin.

### Savollar

1. Shevalarda fe’lga xos xususiyatlarni ko‘rsating.
2. Fe’llarda qanday zamonlar bor?
3. Sifatdoshlar qanday qo‘shimchalar bilan shakllanadi?
4. Ravishdoshlar qanday qo‘shimchalar bilan ifodalanadi?
5. Ravish so‘z turkumiga xos xususiyatlar nimalardan iborat?
6. Ravishning ma‘no turlari nechta va ular qanday yasaladi?
7. Bog‘lovchilar va yuklamalardan qaysilari shevalarda ko‘p qo‘llanadi?
8. Shevalarda qanday undovlar ko‘p ishlatiladi?
9. Ko‘makchilarning shevalarda ishlatishiga misollar keltiring.

<sup>1</sup> Abdurahmonov D. O‘zbek shevalari morfologiyasining o‘rganilishi // O‘zbek shevalari morfologiysi. T., 1984. 248-271-betlar.

## Adabiyotlar

- O‘zbek shevalari morfologiyasi. T.,Fan,1984.
- Abdullayev F.A. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi. T., Fan, 1978.
- Jumanazarov Yu. Xorazm shevasining ba'zi bir fe'l formalari // II. T., 1961.
- Uzoqov H. Vodil shevasida fe'llarning tuslanishi // Tilshunoslik masalalari. T., 1960.
- Usmonov K. O‘zbek shevalarida fe'lning o‘tgan zamon formalari. T., Fan, 1991.
- Shamsuddinov I. Karakulskiy govor uzbekskogo yazika. AKD. T., 1965.
- Abdullayev N. Afg‘onistondagi o‘zbek shevalari leksikasi // O‘TA. T., Fan, 1980. 1-son.
- Rajabov N. O‘zbek tilida fe'l shakllarining almashinib qÿllanilishi. T., 1991.
- Nazarov K.,G‘ulomov Yo.O‘zbek dialektologiyasi.T.,Universitet,1993. 62 b.
- Ibrohimov Y.Xo‘jayli-Qo‘ng‘iroq shevasida tuslanish kategoriyasi // Tilshu-noslik masalalari.T.,Fan, 1978.212-215-betlar.
- Egamov V. G‘allaorol shevasining ba'zi bir morfologik kategoriyalari haqida // O‘zbek Davlat universitetining asarlari.S.,1959.83-101-betlar.
- Eshmurodov A. Qorluq shevasidagi olmoshlarning ayrim xususiyatlari haqida // O‘zbek tilshunosligi masalalari.T., Qarshi, 1976. 68-69-betlar.
- Shermatov A. Qarshi shevasida kelishik va egalik qo‘sishimchalari // O‘TA masalalari.3-son.45-50-betlar.
- Muhammadjonov Q. Janubiy Qozog‘istondagi o‘zbek shevalari morfologiyasi. T.,Fan, 1983. 166 bet.
- Yo‘ldoshyev A.Y.Mankent shevasida fe'llarning zamon formalari // O‘zbek filologiyasining ba'zi bir masalalari. T.,Fan, 1968. 16-25-betlar.
- Rajabov N. O‘zbek tilining G‘arbiy Samarqand shevalari. T.,1977.
- Rajabov N. Qarnob shevasida fe'l kategoriyasi // O‘zDU asarlari. 77-yangi seriya. Samarqand, 1958.
- Gulyamov Ya.G. Grammatika Tashkentskogo govora. T., 1968.
- Djuraev B. Shaxrisabskiy govor uzbekskogo yazika. T., 1964.

## 10- MAVZU O‘ZBEK SHEVALARI SINTAKSISI Reja:

1. So‘zlashuv nutqining mukammal o‘rganilmaganligi.
2. Dialektal nutqqa xos xususiyatlar va shevalari sintaksisining o‘rganilishi.
3. Shevalarda ega, kesim, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol.
4. Namangan guruh shevalarida gap bo‘laklari tartibi.
5. Korazm shevalaridagi sodda va qo‘shma gaplarning tadqiq etilishi.

## 6. Shevalarda qo'shma gaplarning qo'llanilishi.

Tayanch so'z va tushunchalar

Fikr olishuv. Ilmiy uslub. Badiiy uslub. O'zaro so'zlashuv uslubi.

Mahalliy hududlar. Dialektal nutq. Predikativlik (kesimlilik) qo'shimchasi.

Kesimning ifodalanishi. Eganing ifodalanishi. Aniqlovchining ifodalanishi.

To'ldiruvchi hamda holning ifodalanishi. So'z tartibi. Adabiy til.

Lingvistik-struktural soha. Sintaktik sinonimiya. Dialektal gap.

Til odamlar orasida fikr olishuv vositasi bo'lsa, nutq esa shu fikr olishuv vositasining ro'yobga chiqishi va til materiallaridan foydalanish jarayonidir. Fikr olishuv esa nutqning ilmiy, badiiy va o'zaro so'zlashuv uslublari orqali voqe bo'ladi. O'zaro so'zlashuv nutqining adabiy uslubi va mahalliy hududlarga xos shakllari mavjud.

Shevalar sintaksisi o'zbek dialektologiyasining yangi, hali yetarli darajada o'rganilmagan sohasi hisoblanadi. Chunki shevalarning farqli xususiyatlari ularning fonetik, morfologik, leksik, sintaktik tizimlarida yaqqol ko'rinish turadi. O'zbek tilshunosligida mahalliy hududlardagi aholi nutqining fonetik, morfologik va leksik tomonlari ozmi-ko'pmi tekshirilgan. Ammo so'zlashuv nutqining mahal-liy sharoitga xos bo'lgan shakllari bilan adabiy og'zaki formasining o'zaro alo-qasi, ular orasidagi farqlar atroflicha o'rganilmagan. Bu masala rus tilshunosligida akademik V.V.Vinogradov tomonidan o'rganilgan: nutqning og'zaki formasi o'zi-ga xos uslubga ega bo'lishini qayd qilganida rus tilining o'zaro so'zlashuv for-masini e'tiborga olgan. Biz esa bugungi kundagi o'zbek shevalarining alohida farqli xususiyatlarini hisobga olishimiz shart. Bu narsa o'zbek tiliga ham bevosita aloqadordir. Sababi nutqning (o'zbek) formasidan tashqari o'zaro so'zlashuvga xos og'zaki formasi hamda uning o'ziga xos bo'lgan nutqining takrorlanmas holatdagi uslubi o'z-o'zidan paydo bo'ladi, deb o'ylash xato bo'lar edi, degan fikri ham dialektal nutqning alohida xususiyati borligini, uning adabiy (og'zaki) nutq bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Dialektal nutqda mahalliy odamlarga xos pauza, intonatsiya, turli ifoda vositalari hamda undan mahalliy odamlarning tushunishiga oid bo'lgan doiraga taqlid qilish ham namoyon bo'ladi. Unda savol beriladi, javob olinadi, ortiqcha replika bo'lmaydi, o'rniga qarab replika, pauza, odamlar davrasi ham sharoitga moslashib qisqa bo'ladi. Unda o'ziga xos emotsionallik, gap bo'laklarining urg'u va pauza bilan ajralib turish holatlari, bo'g'in va taktlarni alohida ifoda qilishdan tashqari, birikma, fraza, sodda gap va qo'shma gaplarni ajratib aytish hollari ham mavjud. Chunki til faoliyati til materiali va tizimi bilan dialektal bog'liqdir. Dialektal nutqda maxsus tayyorgarlik bo'lmaydi, nutq bunda dialogga asoslangani uchun so'zlovchi ma'lum erkinlikka asoslanib gapiradi. Nutq to'liqsiz gap formasida tarixiy ravishda namoyon bo'ladi, unda ifodalilik, ekspressivlik, intonatsion tugallik mavjud bo'ladi.

Dialektal nutqning namunalarini o‘rganish orqali o‘zbek shevalari va dialektlarining alohida tarzdagi sintaktik xususiyatlarini yoritib berish mumkin bo‘ladi. Hozirgi kunda sheva va dialektlarning sintaktik holatlarini o‘rganish ham juda katta ilmiy amaliy ahamiyatga ega. Mavjud monografik tavsifi va tadqiqotlarda sintaksis qismining bo‘lmashligi, birinchidan, ushbu soha traditsiya holatida o‘rganilmaganligi bilan, ikkinchidan, sintaktik tahlilning nihoyat darajada qiyinligi bilan izohlanadi. Sheva va dialektlarning sintaktik xususiyatlari har xil janrdagi jonli nutqlarni uzoq muddatli kuzatish natijasida to‘plangan faktik materiallar asosida yoritib berilishi kerak.

O‘zbek shevalarining sintaktik xususiyatlarini, albatta, ajratib olingan ma’-lum bir hudud doirasida M.Mirzayev, F.Abdullayev, Yu.Jumanazarov, A.Aliyev, B.O‘rinboyev, M.Turopova, X.Jo‘rayevlar o‘zlarining ilmiy tadqiqotlarida o‘rganishga harakat qilishgan.

Gap bo‘laklari shevalararo har xil ko‘rinishga ega bo‘ladi. Buxoro guruh shevalarda gapning kesimi sifatdosh bilan ifodalansa, ega bilan shaxs-sonda moslashmaydi, bunda sifatdosh predikativlik (kesimlilik) qo‘sishchasiiga ega bo‘lmaydi: *Man kelgan, ҳshlagan. San kelgan, ҳshlagan* holati yoritilsa, F.Abdullayev tomonidan **kesimning** 8 xil holatda ifodalanishi ko‘rsatiladi:

1. Fe'l kesim bo‘ladi: *Ya:ra ayto 'n, oye гърсын.* (Qo‘sish)
2. Yoq, bar so‘zlari kesim bo‘lib keladi: *Mənda ba:, sənda yoq.*
3. Sifat kesim bo‘ladi: *Вақырақ dyen bolg‘anъ yaxshъ, вақытыв durг‘anъ xunnanam уәхшъ.*
4. Olmosh kesim bo‘ladi: *Gelyatърг‘an yartъ uz, ya:въндәкан bәrgen соz.*
5. Son kesim bo‘ladi: *Ikkъ ombesh - br ottz* (maqol).
6. Infinitiv kesim bo‘ladi: *Maxsatim оқымаq.*
7. Ish oti kesim: *Bъr geryәn bъlysh, ikkъ geryүn - danъsh.*
8. Ravish kesim bo‘ladi: *Deyxan deyxannәn besh gun song.*

**Ega** 7 xil qolatda ifoda lanadi:

1. Ot: *Meymәn girәr eshiktan, de:lәt grәr deshьktәn.*
2. Sifat: *Yәxshъ тәръv sollәr, yәmәn kәrъp sollәr.*
3. Son: *Бkkъ yaxshъ, ъkkъdәn uch yaxshъ.*
4. Olmosh: *Sәn sollәdn, mәn chushьndm.*
5. Sifatdosh: *Оқығ‘an ozыr, оқытъбын tozъr.*
6. Infinitiv: *Qosh qoshtыk - bәrmaq - kelтyк.*
7. Ish oti (harakat oti): *Er хатъппъ urъshъ - dәkәnәn kursh.*

**Aniqlovchi** 5 xil ko‘rinishda ifodalanadi:

1. Ot: *Sha:yъ geynek yelpyldydy yurgendb.*
2. Sifat: *A:k kъуъk qәyda yayylur ta:g‘ olmasa, Qъzъl gul qayda achъlur ba:g‘ olmasa.*
3. Son: *Ba:zara barsang, o‘z, yolo ‘ng, o‘z volg‘ay, uch-doqqыz almag‘a quoупыng izi dolg‘ay.*

4. Olmosh: *Xu uchakten bu ucheke baqaman, Qutrgъ qushtъyn qapanatътпъ qaqaman.*

5. Sifatdosh: *Chътъдъ sъyргъ‘an bulbul, chътън gulпъ хъзън etъ.*

### To‘ldiruvchi

1. Ot: *Ag‘зына qarap solа, gezzъg n ya:g‘ basърь.*

2. Sifat: *Ullъпъ xormet et, kchchini izzат.*

3. Son: *Kopn gordm, bъrтъ so:dm, ya:rъ ba:rъn blmadъm* (qo‘shiq).

4. Olmosh: *Səngə chushtъ men уәтътпъ, nəzərъ, Qachan olqay ikкъ уетът ba:zarъ* (Qarnoq).

5. Sifatdosh: *Kortъп ajralg‘annъ borъ yer.*

6. Ish oti: *Solləshnъ yəxsh gərdъ vu* (Urganch).

7. Infinitiv: *Salam bermekпъә:m blsh gərәk.*

### Hol

1. Ravish holi: *Oylamъyn solləyәn, ag‘rътъун olәdъ.*

2. Payt holi: *Bъy kun kech eksәng, by xeptә kesh orәsә* (Iqon).

3. O‘rin holi: *Betta gosh arzәn, e:ttә ikk somg‘a bergdътъ?* (Mankent).

4. Inkor gaplarning kesimi vazifasida qo‘llanadigan emas, yo‘q so‘zlari, ba’zan o‘zaro almashadi, qorishtirib ishlatiladi: Bunday farqlamay ishlatish «ikki tilli» shevaning xususiyatidir: - *Bu kun jumатъ?* - *Yo‘q, bu kun juma yo‘q, shambә. Jora kecha kelgan emas.*

Bu shevada mumkin emas o‘rniga «*mumkъn yoq*» birikmasi qo‘llanadi.

5. O‘rin-payt kelishigi yordami bilan shakllanishi lozim bo‘lgan boshqaruв aloqasi jo‘nalish kelishigida shakllanadi: *Bъz(lar) qъshlqәqqat uramъз.*

6. Buxoro shevasida («ikki tili shevada») tojik tilidan o‘zlashgan izofa aniqlanmish-aniqlovchi so‘z birikmasi keng ishlatiladi: *gulranъ,-gulraънъ, gultәjъ xuryis - gultәjixorъz.*

7. Gap bo‘laklariga xos muayyan tartibning o‘zgarishi - inversiya adabiy tildagiga nisbatan shevalarda ko‘p uchraydi. So‘z tartibi shevalarimizda erkin holatda bo‘ladi. Masalan, Buxoro guruh shevalarida:

1. *U әvqат ko‘p yeydъ - U ko‘p әvqat yeydъ.*

2. *U tez vәzifiәnъ bәjәrdъ - vәzifәnъ u tez bajareвъ - ... tez u bajardъ.*

Sheva vakillari nutqida ellips(so‘zlarning tushib qolishi) ham uchraydi:

*Bъlәуъ zor bъrdъ уъqәr,*

*Bъlътъ zor тъngdъ уъqәr (Maqol).*

Bu misolda aniqlanmish bo‘lgan *odam* so‘zi tushib qolgan. Ba’zan shevada birikmali aniqlovchi ishlatilganda ham aniqlanmish tushib qoladi:

*әklъ kaltә pәn yәyдә, әklъ uzun kәn yәyдә* (*Aqli kalta pana joyda, aqli uzun esa kon joyda*) (Maqol).

Ushbu misolda ham aniqlanmish bo‘lgan *odam* so‘zi tushgan – qo‘llanmagan.

Gapda so‘z tartibi sintaksisning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Dialektal nutqda so‘z tartibi gapda ahamiyat berilgan bo‘laklarning, ba’zan esa

so‘zlovchi tomonidan esga kelgan bo‘laklarning birinchi aytilishi bilan farq qiladi. Diqqat markazida bo‘lgan so‘z birinchi aytilaveradi. Do‘q qilish, qo‘rqtish, qat’iy buyruq qilingan paytlarda olmosh egalarining «tushib qolishi», kesimning oldin aytilishi oddiy tartib bilan mos kelmaydi. Masalan, *tur o‘rningdan, yo‘qol bu erdan* kabi.

Dialektal nutqning intonatsiyaga boyligi, unda har xil nutqiy tovlanishlar mavjudligi gap bo‘laklarining joylanishiga ham ta‘sir qiladi. Gapda so‘z tartibi quyidagi vazifalarni bajaradi: gap bo‘laklarining o‘zaro aloqasi ta’milanadi, bo‘laklarning joylanishi, fikrning ma‘lum maqsadga qaratilishi uchun xizmat qiladi, gap bo‘laklarining ekspressiv-stistik xususiyatini ko‘rsatadi, so‘zlovchining maqsadi, tinglovchining situatsiyadan kelib chiqadigan fikri oydinlashadi. Albatta, bularni oydinlashtirish uchun shevalar sintaksisi bo‘yicha ko‘p material yig‘ish lozim bo‘ladi.

Gapda bo‘laklarining joylanishi psicho-lingvistik ahamiyatga ham ega. Maqol va matallarda gap bo‘laklaridagi tartib ma‘noni kuchaytirish maqsadi bilan bog‘liq. Bularda qofiyalanish, ohangdorlik sezilib turadi: *Boy’ma yərəshə təməg‘üm, opkələmə qonəg‘üm* (Maqol). Gap bo‘laklarining tartibi adabiy til uchun ham, o‘zbek shevalari, dialektlari uchun ham muhim lingvistik-struktural sohadir. Sodda gap bo‘laklarining odatdagagi tartibi:

1. Ega - kesim – *Bacham kelli.*
2. Ega - to‘ldiruvchi – hol – kesim - *Bacham kitopni uyan keltirdi.*
3. Aniqlovchi – ega - to‘ldiruvchi – hol – kesim – *Karimni ukasi sumkasini məktəbga qoldirdi.*

So‘zlar tartibining o‘zgarishi natijasida gapdagi so‘zlarning grammatik munosabati o‘zgarsa, bunda tartib grammatik vazifani bajargan bo‘ladi: *yetsən yəxshı murətəkə* - Yaxshi etsin murodga...

Prof. A.Aliyev Namangan guruh shevalarida gap bo‘laklarining tartibini bu tarzda birma-bir bergen:

1. Ega-kesim: *Osma ketər, qəsh qələr.*
2. Ega-to‘ldiruvchi-kesim: *Yəmən yəmenləyənən qələdə.*
3. Ega-to‘ldiruvchi-to‘ldiruvchi: *Qəssəp əshnəsəgə suyuə sətər.*
4. Ega-to‘ldiruvchi-payt holi-kesim: *Qız juvənggə qoshułgəndə hur volur.*
5. Ega-ravish holi-kesim: *Yəxshi tərəp gərərər.*
6. Qaratqich-qaralmish (ani.-ega)-kesim: *Jeyyə tevəsə - pesə bomeydə.*
7. To‘ldiruvchi-to‘ldiruvchi-aniqlovchi-kesim: *Echa:nə dədənggə bəpəddəs kosətmə.*
8. Aniqlovchi-kesim: *Bə - chıttəxənə.*
9. Aniqlovchi-ega-o‘rin holi-kesim: *Ulenə xe:ləsə beydən urqə.*
10. Aniqlovchi-ega-kesim-to‘ldiruvchi-ravish holi: *Gərəm kenə: kəyməyənən yəqəsən yərtəq.*
11. Payt holi-payt holi-ega-o‘rin holi-qo‘shma kesim: *Ettəsəgə əshəchərdə bəsməchələ sho:rdən qəchənən otəshət.*

12. Ega-aniqlovchi-to‘ldiruvchi-ravish holi-kesim: *Borъ ettъ gərъgə ləqqə choshuptъ.*

13. O‘rin holi-sifatlovchi-aniqlovchi-qaratqich aniqlovchi-ega-kesim: *Eshuvinnan Əqqən su:nъ qədrъ yo:*

14. To‘ldiruvchi-ravish holi -kesim: *Su:nъ kormъ etu: yechmъ.*

15. Ega-to‘ldiruvchi-kesim-maqsad holi: *Məzzəməmut yolgə chъxt heymənzulləshkənъ.*

16. Aniqlovchi-o‘rin holi-ega-kesim: *Orunъ təgъgə Əlmə chushmeydъ.*

17. Aniqlovchi-to‘ldiruvchi-ega-to‘ldiruvchi-kesim: *Bъrçppъ tərətəməmsən nəməzzə oqъmə.*

18. Gap bo‘laklari bilan grammatic bog‘lanmagan so‘zlar va konstruktsiyalarga xos dialektal kirish so‘zlar va iboralar ishlatiladi: Buxoro guruh shevalarida: *əvvələm, məgərəmki, cheqъdən, məngə qarang həmə kelъp oturdъ əvvyləm; ulъr kelelməvələr cheqъdən.*

Turk-kaltatoy shevasida gap bo‘laklari bilan grammatic jihatdan bog‘lanmagan so‘zlarga undalma va kirish so‘zlardir: *Bələm, senga nъmə bollъ?*

Shevalarda qo‘shma va murakkab gaplarga nisbatan sodda gaplar ko‘p uch-raydi. Yu.Jumanazarovning ta’kidlashicha, u 1962-1967-yillar ichida Xorazmdagi 112 odamdan 2800 gap yozib olgan bo‘lib, shundan 2100 tasi sodda gap, ya‘ni 75 foizi sodda gap: *Aytqanim - shu; Degenim - degan, Bala - bala.*

Dialekt va shevalarda qo‘shma gap komponentlari o‘zbek adabiy tilidan keskin farq qilmaydi. Ikki komponentdan iborat qo‘shma gaplar uch va to‘rt kom-ponentlardan tashkil topgan qo‘shma gaplarga nisbatan ko‘p tarqalgan: *G‘ava bulit bo‘ldi, dag‘in gunem savip getti. Damaqi o‘rtag‘a alip yeməkə aylanishiptilar (ovqatni tayyor qilib eya), ekkən xirman etər, ekməgən ərman etər.*

Qo‘shma gaplarning uch sodda gap komponentidan iborat bo‘lishi ham ancha keng tarqalgan: *Ayttim, hazir gələdi, bir zamin otiring.*

Qo‘shma gaplar to‘rt sodda gap komponentidan iborat bo‘lishi ham mumkin: *Axsham bulut boldi, paxtani yag‘ navedik, yişəmadi, yaxshi voldi.*

Qo‘shma gaplar beshta komponentdan iborat bo‘lishi mumkin: *Uyə girip : anavi qana? -dedi, hazir gələdi, dedim.*

Gap ichida har xil formada ishlatilib, bir-biriga yaqin ma‘noni anglatuvchi va gapda bir xil vazifani bajaruvchi parallel sintaktik konstruktsiyalar sintaktik sinonimiyanı tashkil qiladi: *qating og‘riydi? Ne:ring ag‘riydi?*

*Kennəyim kelvəttilə - gelimbiyim gəyətillə--yəngəm keləptilə.*

*Qayqılarım yəjjən chıraqdъ // Gorgən əzəplərəm unut boldi... juda kop...*

1. *Men birtudan pəxtə terdim.*

2. *Men dim kop pəxtə terdim.*

3. *Men yer qaraqan pəxtə terdim.*

4. *Men yer džəhən paxta terdim.*

5. *Men yer xiri pəxtə terdüm.*

## *6. Men iqin-diqin paxtə terdəm* (Xorazm v.)

Intonatsiya orqali so‘zlovchining his-tuyg‘usi, ichki kechinmalari, nutq predmetiga turlicha munosabati aniqlanadi. Og‘zaki nutqimizda gapning grammatik-fikriy bir butunligini intonatsiya bildirib turadi. So‘z, so‘z birikmasining gap yoki gap emasligini intonatsiya orqali bilamiz.

Dialektda intonatsiya predikatsiya vazifasini ham bajaradi. Buyruq gaplarda intonatsiya darak gaplardagiga qaraganda nutq tembri va sifatining kuchayishi bilan xarakterlanadi: qisqa va ixcham jumlalarda ovoz kuchi alohida bo‘ladi: *bor, ket, oqi, tur* kabi.

So‘roq gaplarda intonatsiya ovozning gap oxirigacha so‘raladigan so‘zgacha kuchayib, ko‘tarilib borishi bilan xarakterlanadi: *Siz paxtani nega Əz terdingiz? mektepten gelip paxtag ‘a barasa- a?*

Misollardan ko‘rinib turibdiki, dialektal gaplarning o‘ziga xos ohanglari, ya’ni aytish xususiyatlari bor. Dialektal gaplarda intonatsiya masalasini oydinlashtirish haqida berilgan misollar Xorazm shevasidan olingan dialektal gaplar bo‘lib, ular misolida shevalardagi intonatsion holatlarni ko‘rishga harakat qilindi. Sababi, ohang (intonatsiya) muammozi o‘zbek shevalari va dialektlari doirasida yaxshi o‘rganilmagan murakkab hodisadir.

Adabiy tilda bo‘lgani kabi jonli tilda (sheva) ham har bir gapning o‘ziga xos intonatsiyasi bo‘ladi. Dialekt va shevalarning sintaktik qurilishini har tomonlama tavsif qilish hozirgi adabiy til, yozma yodgorliklar tili va etakchi shahar shevalari tili bilan qiyosiy o‘rganishga asoslanadi. Dialektal sintaksis nisbatan olganda tor doiradagi kishilar, ya’ni tilshunos hamda dialektologlar uchungina xizmat qiladi.

Dialektal sintaksis dialogik jarayonlarga asoslangani uchun unda qisqalik, ixchamlikka erishish kabi xususiyatlari bor bo‘ladi. Tilimizdagи shevalar va dialekt (lahja)larning sintaktik xususiyatlarini bilish uchun qiyosiy hamda tarixiy-qiyosiy plandagi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish juda zarurdir.

### Savollar

1. Dialektal nutqning qanday xususiyatlari bor?
2. O‘zbek shevalari sintaksisini kimlar o‘rgangan?
3. Shevalarga oid gap bo‘laklarini kim tadqiq etgan?
4. Namangan guruh shevalarida gap bo‘laklarini kim o‘rgangan?
5. Shevalarda sodda gapning qanday turlari uchraydi?
6. Shevalarda qo‘shma gaplarning qanday turlari mavjud?
7. Shevaga oid gaplar adabiy tilga oid gaplardan qanday farqlanadi?

### Adabiyotlar

Turopova M. O‘zbek shevalari sintaksisi. T., Fan, 1984.

Mirzayev M. Buxoro shevasining ba’zi sintaktik xususiyatlari // O‘zbek tili grammatic qurilishining leksikologiyasi va dialektologiyasi masalalari. S., 1976. 7-15-betlar.

Egamov V.O‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. S., 1973. 130 bet.

Egamov V. O‘zbek shevalarining sintaktik qurilishi // O‘zbek tili so‘zlashuv nutqi sintaksisi masalalari. S., 1973.

O‘rinboyev B. O‘zbek tili so‘zlashuv nutq sintaksisi masalalari. T., 1974.

O‘rinboyev B., Jo‘rayev X. O‘zbek tili turk-kaltatoy shevasining grammatik xususiyatlari. T., Fan, 1985. 76 bet.

Abdullayev F.A. O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasi. T., Fan, 1978.

Jumanazarov Yu. O‘zbek tili janubiy Xorazm (o‘g‘uz) dialektining sintaktik tuzulishi. T., Fan, 1976.

11- MAVZU  
LINGVISTIK GEOGRAFIYA VA LINGVISTIK  
GEOGRAFIYA USULI  
Reja

1.Lingvistik geografiya.

2.Lingvistik geografiya usuli va uning ahamiyati.

3. Lingvistik geografiyaga oid terminlar

Tayanch so‘z va tushunchalar

Lingvistik geografiya usuli. Lingvistik geografiya.

Lingvistik geografiyaga oid terminlar. O‘zbek dialektologik atlasi.

Geografik lingvistika. Izomorfema. Izoleksema. Izofonema.

Fokus nuqta. Sruktur va zonal tuzilish. Fokus nuqtaning qurshovi.

O‘zbek tilini dialektal zonalashtirish kontseptsiysi. Sheva vakillari nutqi.

Dialekt zonasasi va azonal hududlar. Dialekt zonasidagi orol hodisalar.

Dialekt zonasidagi zona periferiyasi. So‘zlashuv nutqi. Adabiy nutq.

Bilamizki, biror tilda so‘zlashuvchilar bir joyda yashashmaydi, balki turli hudud (tuman, viloyat, voxa, qishloq) va geografik kengliklarda yashashadi. Har bir hudud o‘ziga xos geografik bo‘linishga ega bo‘lgani kabi alohida-alohida tarz-da yashovchi, ammo bir tilda so‘zlashuvchi kishilar borligini e‘tiborga olish shart. Lingvistik geografiya til hodisalarining tarqalish o‘rinlarini, ularda tarixiy taraq-qiyot jarayonida yuz bergan o‘zgarishlarni o‘rganish uchun xizmat qiladi. Masalan, turkiy tillar lingvistik geografiyasi haqida so‘z ketganda, til egalarining tarix taqo-zosi bilan muayyan o‘zgarishlarni o‘z boshlaridan kechirishlari, turli joylarga ko‘chib yurishlari va hozirgi vaqtida o‘troqlashib qolish sabablarini o‘rganish tushuniladi (Biz oldingi darslik va qo‘llanmalardagidek “Lingvistik geografiya” mavzusini avvalroq o‘tilishiga qarshimiz, chunki talaba uni o‘zlashtirishga tayyor bo‘lmaydi. Shuning uchun ayni shu mavzuni fanning eng oxirgi dars mavzusi sifatida berishni o‘rinli bilamiz).

Lingvistik geografiya lahja va shevalarni o‘rganishda ham ahamiyatlidir. Chunki ularning tarixiy taraqqiyot yo‘llarini belgilashda, fonetik, grammatik va leksik xususiyatlarini o‘rganishda xalq tarixi va til tarixi bilan ularning tarqalish joylari bilan o‘zviy bog‘liq holda olib tekshiriladi. Masalan, o‘zaro umumiy

xusu-siyatga ega bo‘lgan Toshkent, Parkent, Piskent, Qarnob kabi shevalarning yoki janubiy Xorazm, shimoliy Buxoro, Forish-Bog‘don, shimoliy o‘zbek shevalari va-killari kabilarning turli joylarda o‘troqlashib qolish sabablari, ulardagи umumiy til xususiyatlari, tarixi kabilarni hisobga olish va o‘ziga xos tomonlarini asos qilib olib, ularning xaritalarini chizib berish hamda lingvistik atlasini yaratish muhim-dir. Bunday ishlarning amalga oshnrlishi ko‘rgazmali tavsifiy quroq vositasini otaydi.

Alovida hududlarda yashovchilar bir tilning turli shevalarida gaplashadigan kishilardir. Ular tilning lingvistik imkoniyatlari bilan birga tilga bog‘liq bo‘l-magan ekstralengvistik imkoniyatlar ta‘sirida bo‘ladi. Demak, lingvistik geog-rafiya deganda aslida bir tilda gapirib, turli hududlarda yashovchi kishilarning shevalarini ilmiy asoslarga tayanib tadqiqotlar olib borish tushuniladi. U bilan tilning aniq bir hududdagi taraqqiyotini, ya’ni aniq bir dialekt (sheva, lahja)ning taraqqiyot yo‘lini, uning milliy tilga bo‘lgan munosabatini o‘rgatadi, shuningdek, lingvistik geografiya dialekt(sheva, lahja)larning tabiatini, umumiy manzarasini, uning chegarasini aniqlash, shevalarni guruhash yollari kabi muhim masalalarni aniqlashga yordam beradi. Ma‘lum bir shevani ikkinchi sheva bilan farqlash jarayonida ham lingvistik geografiya usulining yordami benihoya kattadir. Ling-vistik geografiya til tarixi va xalq tarixi uchun qimmatli bo‘lgan ma‘lum otlarni topib, dalillar vositasida olib ham beradi.

Bu bahsli muammo haqida XX asrning 60-yillarida D.I.Edelmanning tadqi-qotlari bu sohadagi birinchi ishlar sifatida e’lon qilingan hamda A.Shermatov (Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? T., Fan, 1980), A.Jo‘rayev (Djuraev A. B. Teoreticheskie osnovi arealnogo issledovaniya uzbekoyazichnogo massiva. ADD. M., 1991. 38 s.) singari olimlar tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Albatta, shevalarga geografik muhit bilan bog‘liq holda lingvistik va ekstralengvistik shart-sharoitlar ham ta‘siri sezilib turadi. Sababi, har bir sheva alovida geografik hududda yashagani kabi bir umumiy tilning, shu jumladan, o‘zbek tilining shu hudud odamlari nutqiga xos fonetik, leksik, grammatik o‘zgachaliklarni ham ifodalaydi. Mana shunday o‘zgachaliklarga ega bo‘lishgani uchun ham ular o‘zbek tilining shevalari sanaladi. Masalan, tog‘lik hududlardagi o‘zbek shevalari tekisliklardagi o‘zbek shevalaridan qisman bo‘lsa hamki farqlanib turgani kabi bu holni tumanlararo farqlanib turuvchi shevalar misolida ko‘rish mumkin. Shuning uchun ham Shahrisabz shevasi bilan Yakkabog‘ shevasi, Kitob shevasi bilan Shahrisabz shevasi, G‘allaorol shevasi bilan Forish shevasining, qarluq lahjasining qipchoq va o‘g‘uz lahjalaridan fonetik, grammatik va leksik farqlari aniq bilinib turadi.

Ammo ular lingvo-geografik usulda xaritalarga tushirilmagan. Ba’zi bir olimlar, jumladan, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, A.Aliyev, A. Shermatov, B.Jo‘rayevlar tomonidan yaratilgan xaritalar borligi ilmiy manbalarda bir necha o‘rinlarda aytilgan, ammo ular ommalashmagan, ya’ni bir butun monografik ki-tob holidagi o‘zbek shevalarining lingvistik atlasi.

(aniqrog'i xaritalari) haligacha yaratilmaganligi bor haqiqat ekanligini e'tirof etish vaqtি keldi. Biroq rus va evropa tilshunosligida lingvistik geografiya usuli bilan ishlangan tadqiqotlar XIX asrning 50-yillaridan boshlangan bo'lib, bugungi kunda ham amalga oshiril-moqda. Natijada, o'rganilgan shevalarning lingvo-geografik xaritalari tuzilganligi va nashr etilganligini e'lon qilingan monografik tadqiqotlarda ko'rish mumkin. Turkiy tillar, jumladan, o'zbek tili lingvistik geografiyasi ma'lum otlari Mahmud Koshg'ariy, Alisher Navoiy, G'ozi Olim Yunusov, A. K. Borovkov, Ulug' Tursunov, V. V Reshetov, Sobirjon Ibrohimov, Shonazar Shoabdurahmonov, Bolta Jo'rayev, Abdug'ani Aliyev, Hisom G'ulomov, Xudoyberdi Doniyorov, A'zam Shermatov, Nazar Rajabov, Aziz Jo'rayev, M. Mirzaev, Karim Na-zarov, Yo.G'ulomov singari zukko olimlarning nomlari bilan bog'langan.

Shu bilan birga lingvistik geografiya davrga ko'ra ikki turga ajratiladi:

- 1) sinxron plandagi lingvistik geografiya;
- 2) diaxron plandagi lingvistik geografiya.

Ulardan biri hozirgi kundagi sheva, mahalliy dialekt, lahjalarning hududiy tarqalishini amaliy talqin, ilmiy tadqiq etib, shevashunoslikka oid bo'lgan *leksema*, *morfema*, *fonemalarni izomorfema*, *izoleksema*, *izofonema*, *fokus nuqta*, *lingvistik geografiya*, o'zbek *dialektologik atlasi*, *struktur va zonal tuzilish*, o'zbek *tilini dialekt zonalashtirish kontseptsiyasi*, *dialekt zonasasi* va *azonal hududlar*, *fokus nuqtaning qurshovi*, *dialekt zonasidagi orol hodisalar*, *dialekt zonasidagi zona perifériyasi* terminlari asosida o'rganib, sheva(lar)imizning lingvogeografik xaritasining shakllanishiga zamin yaratadi. Ikkinchisi esa ularning til tarixidagi tarqalishiga oid xarakterli holatlarni shevalarga oid tarixiy yozma manbalarning materiallari asosida tahlil etib, izomorfema, izoleksema, izofonema terminlari asosida fikr yuritadi. Ilmiy adabiyotlarning matnlarida areal usul va lingvistik geografiya usuli degan terminlar ham uchraydi. Bu usulda turli hududdagi shevalarni qiyosiy o'rganishga imkoniyat yaratiladi. Yuqorida aytib o'tilganlardan shunday xulosaga kelish mumkin:

1.Lingvistik geografiya termini sheva va areal terminlari bilan ma'lum ma'noda sinonimik xususiyatga ega bo'lgan terminlardan biri sanaladi. Areal termini rus tilidan o'zlashtirilgan termin bo'lib, lingvistik geografiya terminining ma'nosini ifodalaydi.

Sheva termini asosida esa tilning kichik bir qismi tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganilsa, lingvistik geografiyada mana shu sheva ham lingvistik, ham geografik jihatdan tavsiflanib, sheva elementlarini o'zida jamlovchi lingvogeografik xarita(lar), shevalarning tasnifini o'zida aks ettiruvchi lingvistik atlaslar tuzish masalasini ilgari suradi. Ushbu masala hozirgacha bir necha o'zbek olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lsa-da, (achchiq haqiqat bo'lsa hamki, aytish kerak) mukammal holatga keltirilmagan holda o'zbek shevashunosligida o'lda-julda qolib ketmoqda. Bunga sabab shevashunoslар bilan birga geograflarning o'zaro jiddiy hamkorligi bugungi kungacha amalda

bo‘lmaqanligidir. Ayni vaqtida shevashunoslik sohasida lingvist shevashunoslar bilan geograflarning doimiy hamkorlikka asoslanadigan faoliyatiga zarurat sezilmoqda.

Kelajakda lingvistlar hamda geograflarning hamkorligini tiklab, o‘zbek shevalarining lingvo-geografik xususiyatlarini o‘zida birlashtirgan lingvistik atlalar yaratilishi davr talablaridan biri hisoblanadi. Albatta, o‘zbek tilshunoslari bilan geograflarning yuqorida aytib o‘tilgan sohadagi ilmiy, amaliy hamkorligini kuchaytirish kerak. Shu yo‘l bilangina shevalarimizning atlas(lar)i, ya’ni lingvo-geografik xaritalarini tuzish o‘rinli holatlardan biridir.

2. Lingvistik geografiya usuli esa turli o‘zbek shevalarini bir-biri bilan solishtirib, qiyoslab o‘rganish jarayonini anglatadi. Bunda izoglassa, izamorfema, izoleksema, izofonema degan terminlar faol ishlatiladi. Buning natijasida o‘zbek shevalarini XX asrdan keyingi mukammal tasniflash uchun zarur bo‘lgan ma-teriallar jamlanadi. Yuqoridagilardan anglashilib turibdiki, lingvistika bilan geog-rafiyaning o‘zaro munosabati doimiy jarayonligini o‘zbek shevalari materiallari asoslab turibdi. Shu bilan birgalikda lingvistik geografiya, lingvistik geografiya usuli, sheva va lajhalar bir-birini taqozo qiladigan terminlar sanaladi. Sheva materiallari lingvistik geografiya usulida o‘rganilsa, ularning ishonchliligi ancha ortadi. So‘zsiz, lingvistik geografiya, areal, lingvistik geografiya usuli va sheva ter-minlari zaminidagi ma’noni o‘zida bir butun tarzda ifodalaydigan ilmiy tadqiqotlar assosida o‘zbek shevalari yangicha tarzda mukammal o‘rganish ishlari boshlanib, o‘zbek shevalarining XXI asrdagi mukammal tasnifini ham yaratishga imkoniyat tug‘iladi. Buning uchun sheva materiallarini ko‘p yig‘ish lozim.

Hozirgi vaqtida o‘zbek dialektologiya fani sohasida lingvistik geografiya (lingvogeografiya)ga parallel ravishda yangi ilmiy yo‘nalish bo‘lgan geografik lingvistika ham yuzaga kelmoqda. Bu yangi sohaga tegishli fikrlar keyingi ishlarda beriladi.

#### Savollar

1. Lingvistik geografiya nimani o‘rganadi?
2. Lingvistik geografiya usulida nima qilinadi?
3. Lingvistik geografiya bilan kimlar shug‘ullangan?
4. Lingvistik geografiya usuli bilan shevalarni o‘rganishdan maqsad nima?
5. Lingvistik geografiyaga oid qanday terminlar faol qo‘llanadi?

#### Adabiyotlar

Shermatov A.Qashqadaryo oblastidagi o‘zbek xalq shevalari atlasi.T.,Fan,1979.

Shermatov A. Lingvistik geografiya nima? T., Fan, 1980.

Shoabdurahmonov Sh. Sh. O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari. T., 1962.

Shoabdurahmonov Sh. Sh. O‘zbek tilining dialektologik atlasi. O‘TA, 3.T., 1969.

Avenesov R.I. Lingvisticheskaya geografiya i istoriya russkogo yazika // Voprosi yazikoznaniya. №6. M., 1952.

Edelman D.I.Osnovnie voprosi lingvisticheskoy geografii. M.,Nauka, 1968.s.112.

Muxamedjanov K. Arealnoe issledovanie uzbekskix govorov yujnogo Kazaxstana. ADD. T.,1988. 44 s.

Djuraev A. B. Teoreticheskie osnovi arealnogo issledovaniya uzbekoyazichnogo massiva. ADD. M.,1991. 38 s.

Ishayev A. O‘zbek dialektal leksikografiysi.T.,Fan, 1990. 140 b.

Murodova N. O‘zbek adabiy tili va shevalar leksikasining qiyosiy tadqiqi. T.,Fan, 2005.

Rajabov N. O‘zbek shevashunosligi.T.,O‘qituvchi,1996.

Saparov M.Xorazm vohasidagi turkiy tillarning o‘zaro munosati.T.,Fan, 1988. 120 bet.

Shoabdurahmonov Sh. Sh. O‘zbek tilining dialektologik atlasi // O‘TA, 3.T., 1969.

G‘ulomov Yo.G‘.O‘zbek xalq shevalarini lingvogeografik tekshirish // O‘zbek tilshunosligining aktual masalalari.T.,1987.20-25-betlar.

## **II. “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan dars o‘tganda samarali qo‘llanadigan o‘qitishning pedagogik texnologiyalari haqida**

Bugungi kunda boshqa fanlarda bo‘lgani kabi ushbu fanga tegishli bo‘lgan mavzularni ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va seminar shakllarida o‘tishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalasi dolzarb masalalardan biri sifatida ilgari surilmoqda. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar ikkinchi bir nom bilan o‘qitishning interfaol usullari deb ataladi. Shu bilan birga ular ilg‘or pedagogik texnologiya, ya’ni mahorat mezoni sanaladi<sup>1</sup>. Shuning uchun hozirgi vaqtdagi fan-texnika talablaridan kelib chiqqan holda “O‘zbek dialektologiyasi” fanining darslari jarayonida qo‘llanadigan o‘qitishning ba’zi bir pedagogik texnologiyalari (interfaol usullari) to‘g‘risida maxsus to‘xtalish o‘rinli hisoblanadi. Chunki ularni e‘tiborga olmasdan turib, bugungi talabalar auditoriyasiga biror fandan darslar berish uchun kirish, bizningcha, mumkin emas. O‘qitishning interfaol usullari tushuntirish, ko‘rsatmali va texnika vositalaridan foydalanish kabi an‘anaviy usullardan uning samaradorligi yuqori bo‘lib, ular talabalarni shaxs sifatida shakllanishi,xususiy qobiliyatini oshirish, ijodiy mustaqilligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. O‘qitish talaba faoliyatini gavdalantiradigan sharoitda olib boriladi va muammoli vaziyatlarni hal qilishga qaratiladi.Ta’lim bilim, ko‘nikma va malakalarni guruh bo‘lib, jamoa faoliyatida birgalikda o‘zlashtirish

<sup>1</sup> Ernazarova M.S., Abdullayeva M. Ilg‘or pedagogik texnologiya – mahorat mezoni. Navoiy,2004.56 bet.

imkoniyatlari yuzaga chiqadi. Bu jarayonlarda talabalarning fikrlash faoliyatida jonlanish yuz berib, faollik oshadi. O'quv mashg'uloti munozarali holatlar, vaziyatlarga doir topshiriqlar va o'qitishning boshqa shakl va usullarida olib boriladi.

Ayni vaqtda zamonaviy darslarga qo'yiladigan talablarni shartli ravishda to'rtta guruuhga ajratish o'rini: 1) tarbiyaviy talablar; 2) psixologik talablar; 3) gigiyenik talablar; 4) didaktik talablar. Demak, zamonaviy darslar, eng avvalo, o'quvchi shaxsining ta'lim olish ehtiyojlarini mustaqil tarzda qondirishga o'rgatuvchi usullar majmuidir. Bularni e'tiborga olib, mazkur fandan dars (ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar)larni o'tganda quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkin:

1. Muammoli o'qitish (darsda o'qituvchi mavzuga oid muammollarni birin-ketinlikka asoslanib qo'yadi, guruhdagi talabalar esa ularni misollar vositasida hal qilishga harakat qilishadi. Bunda oxirgi xulosani o'qituvchi aytadi).

2. Muloqot texnologiyasi (darslarda o'qituvchi(lar) hamda talabalar o'rtasi-dagi muloqot amalga oshiriladi. Ushbu jarayonda ham boshqarish, etakchilik asosan o'qituvchi(lar)da bo'ladi).

3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiya (Bunda ma'lum bir fanga oid bo'lgan bir qancha mavzular fikrlashish, munosabatlar bildirish uchun talabalar guruhlari o'rtasiga tashlanadi va shu mavzularga nisbatan talabalar guruhlari o'rtasida tanqidiy fikrlar aytildi. Aytilayotgan fikrlarning to'g'ri yoki noo'rin- ligini o'qituvchi kuzatib boradi va munosabat bildirib boriladi).

4. O'qitishning tabaqlashtirilgan va individuallashtirilgan texnologiyasi (Bu holda esa talabalarning mavzu doirasida aytilayotgan o'zlashtirgan va individual fikrlari e'tiborga olinadi).

5. Bumerang texnologiyasi (o'qituvchi talabalarini darsda va darsdan tash-qarida ham fanning biror sohasiga tegishli bo'lgan turli adabiyotlar, shevalarga xos matnlar bilan ishlashga, o'rganilgan materiallarni yodda saqlab qolish, mazmunini yoki butun matnni so'zlab berishga, fikrni erkin holda bayon eta olishga hamda bir soatlik dars o'tish davomida auditoriyadagi barcha talabalarni mavzu doirasida o'rqli va qoniqarli tarzda baholay olishga intiladi).

6. Tarmoqlar texnologiyasi (o'quvchi-talabani mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishga o'rga-tish va shular asosida talabalarning ijodiy fikrlashni amalga oshirish).

7. Kartochka usuli. Bunda o'qituvchi dars vaqtida guruhdagi talabalarga alohida-alohida kartochkalarni berib, javob berishlarini so'raydi.

Bugungi kunda talabalarning mazkur fandan bilim saviyasini tez va ishonarli tarzda baholash uchun ham, so'zsiz, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'qituvchilarimizning bu sohadan darslarini muvaffaqiyatli o'tishlariga yordam beradi.

Xullas, yuqorida aytilganlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ma'lum jihatlari bilan "O'zbek dialektologiyasi" fanidan talabalarimiz qiziqib

tinglaydigan va o‘rganadigan faol dars o‘tish jarayonlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

“O‘zbek dialektologiyasi” fanidan dars(lar)ni o‘tganda qo‘llanadigan o‘qitishning pedagogik texnologiyalaridan namunalar

**“Kollektivga xos to‘g‘ridan-to‘g‘ri miyaga hujum” texnologiyasini  
“O‘zbek dialektologiyasi” fanidan dars(lar)ni o‘tishda ishlatish<sup>1</sup>**

O‘zbek adabiy tilining o‘zagi, assosi shevalarimiz ekanligi shevashunoslik sohasida ham ilmiy tadqiqotlarning shakllanishiga turtki bo‘lib kelmoqda. Bu esa shevashunoslik sohasida ham ilg‘or pedagogik texnologiyalarni joriy etish shartligi ifodalab turibdi. Insoniyat tarixida har bir davrning o‘z talablari va me’yorlari bo‘lgani kabi bugungi XXI asrning bиринчи choragining ta‘lim-tarbiyadagi muam-molaridan biri ilg‘or hamda zamonaviy pedtexnologiyalarni amalda qo‘llashr bilan bog‘liqdir. Ayni vaqtida mamlakatimizdagи o‘rtа, o‘rtа maxsus va oliv ta‘lim tizimida otiladigan barcha fanlarda yangi pedtexnologiyalarni amalda qo‘llashr shartligi tabiiy bo‘lgani kabi “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan (oliv ta‘lim tizi-mining “O‘zbek filologiyasi” yo‘nalishi tizimida) ma‘ruza, seminar hamda amaliy mashg‘ulot darslarini o‘tishda ham yangi, zamonaviy pedtexnolgiyalardan foydalanish zarurati tez-tez sezilmoqda.

Ushbu fan boshqa fanlardan umumiy jihatlardan o‘xshashlikka ega bo‘lga-nidek, xususiy jihatlardan esa jiddiy farqlanishi ham ma‘lumdir. Mana shu xususiy jihatlarni ochishda mavjud pedagogik texnologiyalarning hammasini ham, albatta, bu fan doirasida qo‘llashning imkoniyati yo‘qligini e’tirof etish lozim. Shularni e‘tiborga olish bilan bиргаликда “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan tuzilayotgan o‘quv-uslubiy va o‘quv qo‘llanma, shuningdek, darsliklarga ham zamonaviy pedtexnologiyalardan shu fandan dars o‘tish jarayonidagi bugungi kun uchun eng ma’qullarini (dars ishlanmalari sifatida ham) misollar vositasida tahlil va talqin etish bilan singdirish zarurati aniq-oydin sezilib turibdi. Bu ham kelajakda fanimiz sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga turtki bo‘lishi mumkin. Bizning nazarimizda, ilmiy, ilmiy ommabop adabiyotlarda turli fanlarning misollari asosida tahlil va talqin etilgan pedagogik texnologiyalardan quyidagilarni “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan dars o‘tishda faol qo‘llash mumkin bo‘ladi (shuningdek, ilmiy adabiyotlarda talqin etilayotgan barcha pedtexnologiyalarni istalgan alohida bir fan doirasida qo‘llashning imkoniyati umuman yo‘qligi va bunday hol-larni talab qilish ham bugungi pedagogik nuqtayi nazaridan

<sup>1</sup>Enazarov T. , Tilovova Z., Jumanazarov J.”Kollektivga xos to‘g‘ridan-to‘g‘ri miyaga hujum” texnologiyasini “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan dars o‘tishda ishlatish // Ta‘limda pedagogik va innovattsion-axborot texnologiyalaridan foydalanish. T.,2011. 336-338-betlar.

qaralganda kamchilik, aniqrog'i, xatoligini e'tirof etish o'rinli, lekin har bir pedagogik texnologiyaning o'ziga xos o'rni borligi bor haqiqatdir): 1) FSMU texnologiyasi; 2) keng ommaga xos miyaga hujum; 3) "Skarabey" texnologiyasi; kollektivga xos to'g'ridan tog'ri miyaga hujum.

Tez-tez ta'kidlanayotgan ayni shu pedtexnologiyalardan biri yoki bir nechasi bilan mazkur fandan amaliy mashg'ulot dars(lar)ini o'tganda rejalashtirilgan darsni muvaffaqiyatli ravishda boshlab, yakunlash mumkin bo'ladi. Shuning uchun ularning talqinini shu fanga oid mavzularning mazmuni va izohi bilan qisqacha tahlil etishni o'rinli bilib, ushbu ishda ulardan biriga to'xtaldik.

"Kollektivga xos to'g'ridan-tog'ri miyaga hujum" pedtexnologiyasini ayni shu fanning amaliy mashg'ulotlarida qo'llanishi maqsadga muvofiq keladi. Sababi, amaliy mashg'ulotlarda talabalarning guruhlari 15-20 kishilik guruhlardan tashkil topishi uning amalga oshirishga imkoniyat beradi. Amaliy mashg'ulotlar vaqtida "Transkripsiya", "Shevalar leksikasi", "Shevalarda so'z yasalishi" "She-valarda turlanish", Shevalarda tuslanish" mavzularini bu pedtexnologiya bilan bemalol o'tish mumkin. Amaliy mashg'ulot faqat yozishgina emas balki talaba bajargan amaliy mashg'ulot matnini auditoriyada o'qib, fikrlashishi ham kirishini e'tiborga olsak, mazkur pedtexnologiyaning qo'llanish o'rinalining ko'pligini sezishimiz mumkin bo'ladi. Agar dars davomida mavzu doirasida bir necha talaba o'zi yozgan amaliy ishlarining matnlarini o'qishsa, guruhning qolgan talabalari uni tinglashadi, o'z shevalarida uchramaydigan fonema va leksemalarni eshitib, ma'nolarini bilib olishi tabiiy hol. Bunda savollar berib, aytilayotgan, tayyorlangan mavzu doirasi aniqlashtirib boriladi. Ikkinchi talaba ham o'z amaliy ishi matnini o'qiganda talabalarning e'tibori jiddiy tortilayotganligiga shubha qilib bo'lmaydi. Amaliy mashg'ulotlarda "Transkripsiya" mazusida ish olib borilganda talaba o'z shevasining materiallarini bayon etganda Transkripsiyyada yozgan matnidagi turli tumanlik uni ham, kursdoshlarini ham diqqatini tortishi tabiiy holdir. Bu esa ilmiy bahsni, natijada, ma'lum bir shevaning materiallarini Transkripsiya qilishning murakkabligini, ammo amalga bajarish mumkinligini ko'rsatadi. Juda ko'p talabalar o'z shevalariga oid materiallarni sheva vakillari nutqida ham qanday aytilganligini muhrlaydigan Transkripsiyyada yozishdan boshda cho'chishadi xato qilib qo'ysam, degan o'yda bo'lishadi. Shuning uchun avval ularni transkripsiyyada yozish va o'qishlarini nazorat qilish shart bo'ladi. Amaliy hamda seminar mashg'ulotlarida ularning yozgan transkriptsion matnlariga e'tibor berilganda, ya'ni talaba va tinglovchilar tomonidan yozilgan matnlar o'z mualliflari tomonidan o'qilib, boshqalarning fikrlari, savollari va e'tirozlari eshitishganda talabalar o'zidagi yo'l qo'yilgan kamchiliklarni ajratib olishib, keyingi ishlarda takrorlamaydigan holga kelishadi.

Darslarni bu texnologiya bilan o'tganda, bizning nazarimizda, dialektologiya fanining quyidagi mavzular ustida ish olib borish maqsadga muvofiqdir: "Transkripsiya"(bunda sheva materiallarini qayd etish qulay

bo‘lgan yozuv tizimida ishlashni o‘rganish va shevaga oid dialektizmlarni Transkripsiyada berish amalga oshiriladi), “Shevalar leksikasi”(ayni shu mavzuda talabalarga shevalar leksikasi va dialektizmlarning xususiyatlari va turlari to‘g‘risida ma‘lumot berilib, shunday ma‘lumotlar talaba biladigan sheva asosida yana jamlanadi), “Shevalarda so‘z yasalishi” (mazkur o‘rinda adabiy tildan sheva so‘zlarining yasalishi asosan o‘xhash bo‘lsa-da, ma‘lum bir farqli jihatlari borligi ham bayon qilingan holda talabalardan xuddi shunday ma‘lumotlar ularning shevalari materiallari asosida jamlanishi talab etiladi), “Shevalarda turlanish” (har bir shevadagi turlanishning qisman adabiy tildan ajralib turishi alohida ajratib o‘rganilayotgan shevaning misollari tahlili hamda talqini vositasida bayon etish so‘raladi), “Shevalarda tuslanish” (ushbu mavzuga tegishli materiallar ham har bir shevada o‘zgacha ko‘rinishlarda ekanligi morfonologik jarayonlar bilan bog‘liqligi masalasi bayonini misollar asosida talqin etish mumkin bo‘ladi). Sababi, mazkur mavzular har bir shevada oldingi shevani takrorlamaydigan darajadagi katta-kichik farqlarga egaligi bilan ilmiy jamoatchilikda e‘tirof etilgan.

So‘zsiz, bunda o‘qituvchi(ustoz)ning roli, munosabati hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Shunday qilganda, endi bemalol “Kollektivga xos to‘g‘ridan-to‘g‘ri miyaga hujum” amalga oshirilayotganini e‘tirof etish o‘rinli bo‘lib qoladi. Bunda bir mavzu doirasida iloji boricha ko‘p fikrlarni yozma hamda og‘zaki shakllarda nisbatan mukammalroq jamlashni ta‘minlash imkoniyati yuzaga chiqadi. Chunki unda ishtirok etayotgan hamma qatnashchilar birgalikda bitta muammo, ya’ni mavzuni o‘z shevalariga oid misollari majmui bilan yechishadi. Mazkur pedtexnologiya vaqtida eng ko‘p, ya’ni optimal qatnashchilar soni: 15 talabandan ortmasligi kerak. Ushbu pedtexnologiyaning davomiyligi: 1 (bir) soat-gacha bo‘lishi tabiiy holdir. Bu muddatdan oshsa, talabalarning qiziqishi pasayadi, shuning uchun o‘qituvchi vaqtini hisoblab yurish shart. Bir paralik darsning qolgan qismida o‘qituvchi talabalarning yutuq va kamchiliklarini ko‘rsatib, darsning mavzusini yakunlashga kirishadi. Bu usuldan samarali foydalanish ko‘pincha ta‘lim beruvchining shu fandan yillar davomida to‘plagan tajribasi va pedagogik mahoratiga ham bog‘liqligini e‘tiborga olish lozim bo‘ladi.

### **“Keng ommaga xos miyaga hujum” texnologiyasini “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan dars(lar)ni o‘tishda foydalanish<sup>1</sup>**

Har bir davrning o‘z talablari va me’yorlari bo‘lgani kabi bugungi XXI asrning birinchi choragining, aniqrog‘i, mustaqillik yillarida mukammallashgan

<sup>1</sup>Enazarov T. , Jumanazarova G.”Keng ommaga xos miyaga hujum” texnologiyasini “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan dars o‘tishda foydalanish // Ta’llimda pedagogik va innovatsion-axborot texnologiyalaridan foydalanish.T.,2011.239-241-betlar.

ta’lim-tarbiyadagi asosiy va hal etilishi zarur bo‘lgan muammolaridan biri zamonaviy pedtexnologiyalarni joriy etishda qiyinchiliklar bo‘lsa-da, amalda qo‘l-lashr bilan bog‘liqdir. “Shu ma‘noda, qaysi sohani olmaylik, bu qishloq xo‘jaligi bo‘ladimi, ishlab chiqarish va ijtimoiy sohalar bo‘ladimi, o‘tgan yil davomida qanchadan-qancha mashaqatli sinov va muammolarni yengib o‘tishga to‘g‘ri kelganini ta’kidlash lozim”. Hozirgi vaqtida o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim tizimidagi barcha fanlarda yangi pedtexnologiyalarni amalda qo‘llashr shartligi tabiiy bo‘lgani kabi mazkur fandan (oliy ta‘lim tizimining “O‘zbek filologiyasi” yo‘na-lishi tizimida) ma’ruza, seminar hamda amaliy mashg‘ulot darslarini o‘tishda ham yangi, zamonaviy pedagogik texnolgiyalardan foydalanish zarurati sezilmoqda.

Ushbu fan boshqa fanlardan umumiy jihatlardan o‘xshashlikka ega bo‘lganidek, xususiy jihatlardan esa jiddiy farqlanishi hammaga ravshandir. Mana shu xususiy jihatlarni ochishda yangi pedagogik texnologiyalarning hammasini ham, albatta, bu fan doirasida qo‘llab bo‘lmaydi. Shular bilan birgalikda “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan tuzilayotgan o‘quv-uslubiy va o‘quv qo‘llanma, shuningdek, darsliklarga ham yangi zamonaviy pedtexnologiyalardan shu fandan dars o‘tish jarayonidagi eng ma’qullarini (dars ishlanmalari sifatida ham) misollar vositasida tahlil va talqin etish bilan singdirish zarurati sezilmoqda. Ayni shu hol ham kelajakda o‘qitilayotgan fanimiz sohasidagi o‘rganilayotgan zamon va hayot bilan uzviy bog‘liqligini ta‘minlagan holda ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga turki bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, bizning nazarimizda, ilmiy adabiyotlarda turli fanlar misollari assosida tahlil va talqin etilgan pedtexnologiyalardan quyidagilarni “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan dars o‘tishda faol qo‘llash mumkin bo‘ladi (shuningdek, ilmiy adabiyotlarda talqin etilayotgan barcha pedtexnologiyalarni istalgan alohida bir fan doirasida qo‘llashrnning imkoniyati yo‘qligi va bunday holni talab qilish ham pedagogik nuqtai nazaridan xatoligini e’tirof etish lozim bo‘ladi):

a) FSMU texnologiyasi; b) “Skarabey” texnologiyasi ; v) keng ommaga xos miyaga hujum; g) kollektivga xos to‘g‘ridan-to‘g‘ri miyaga hujum.

Ayni shu pedtexnologiyalar bilan mazkur fandan dars o‘tganda muvaffaqiyatli ravishda darsni boshlab yakunlash mumkin bo‘ladi. Shuning uchun ularning talqinini shu fanga oid mavzularning mazmuni va izohi bilan qisqacha tahlil etishni o‘rinli bildik. Ilmiy adabiyotlarda “Keng ommaga xos miyaga hujum” nomli pedagogik texnologiya to‘g‘risida fikr yuritiladi. Bu pedtexnologiyadan “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan ma’ruza darslarining oxirlarida va amaliy mashg‘ulot darslarida foydalanish mumkin bo‘ladi. “Shevalar fonetikasi”, “Shevalar leksikasi”. “Shevalarda so‘z yasalishi” mavzularini ma’ruza sifatida o‘tgandan so‘nggi, keyingi dars(lar)da bu texnologiyadan samarali tarzda foydalanish mum-kin. “Keng ommaga xos miyaga hujum”da auditoriyada o‘tirgan sheva vakil-laridan o‘z shevasiga oid unli va undoshlar (masalan, o, u, , a, ng, t, m, ng tovush-larining ishlatilishi va

qo‘llanish o‘rinlari), shevalarga oid dialektizmlar(misol uchun *giddi*, *zilmanda*, *g‘ilvindi* kabi so‘zлari)ni, shevalarga oid bo‘lgan so‘z yasalishi jarayoniga misollar sifatida keltirishda foydalanish o‘rinli. Albatta, auditoriyadagilarning (60 kishigacha bo‘lishi mumkin) fikrlarini yuqorida aytilgan mavzular doirasida shakllantirish va bir-biridan farqli misollarni keltirishga imkon beradi. Chunki “O‘zbek filologiyasi” yo‘nalishining 2-kurs talabalari guruhlarga bo‘lingandan so‘ng ham bir auditoriyada kamida besh-olti sheva vakillari ekan-ligini e‘tiborga olinsa, ushbu pedtexnologiya talabalarni ancha o‘ylab, fikrlashga imkoniyat beradi.

Mana shuning natijasida sheva(lar)ga xos yangi-yangi fonetik jarayonlarni, dialektizmlarni, faqat shevalardagina ro‘y beradigan so‘z yasalishi jarayonining misollarini to‘plab olishimiz mumkin bo‘ladi. Bu texnologiya bilan dars o‘tilganda shevalarning fonetik va morfologik belgilari bilan birlgilikda shevalar leksikasi materiallari ham talaba(lar) ning imkoniyatlari doirasida e‘tiborga olinadi, zarur materiallar jamlanadi. Shuni ham ta‘kidlash lozimki, o‘zbek tili nihoyatda ko‘p shevali ko‘p lahja(3ta)li tillardan sanaladi. Undagi ayrim sheva vakillari shevachilikka shu qadar moyilki, necha yillardan beri yagona o‘zbek tilining o‘qitilishiga qaramay, o‘z shevasi so‘zligini ishlatischni qo‘llashrni afzal sanashlari saqlanib qolmoqda. Darhaqiqat, pedtexnologiyalarni o‘rinli holda amalda qo‘llashr, ya‘ni ularni fanning biror bir mavzusini o‘tishda joriy etish jarayonida fan o‘qituvchilaridan yillar mobaynida shakllangan pedagogik mahoratni talab qiladi. Shuning uchun ham “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan dars o‘tishda talqin etilayotgan mavjud pedtexnologiyalarni tanlab, saralab olib, qo‘llashr maqsadga muvofiqdir.

### **“O‘zbek dialektologiyasi” fanidan dars(lar)ni o‘tishda “FSMU” texnologiyasini qo‘llash<sup>1</sup>**

Boshqa fanlarda bo‘lgani singari “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan ham dars o‘tish juda mas’uliyatli ishlardan biri ekanligini hamma biladi. Har bir davrning o‘z talablari va me’yorlari bo‘lgani kabi bugungi XXI asrning birinchi choragining ta’lim-tarbiyatagi muammolaridan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amalda muvaffaqiyatli ravishda qo‘llashr bilan bog‘liqidir. Ayni vaqtida o‘rta, o‘rta maxsus va oliy ta‘lim tizimidagi barcha fanlarda yangi pedagogik texnologiyalarni amalda qo‘llash shartligi tabiiy bo‘lgani kabi “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan (oliy ta‘lim tizimining “O‘zbek filologiyasi” yo‘nalishi tizimida) ma’ruza, seminar hamda amaliy mashg‘ulot darslarini o‘tishda ham yangi, zamonaviy pedtexnolgiyalardan foydalanish zarurati sezilmoqda. Ushbu fan boshqa fanlardan umumiy jihatlardan o‘xshashlikka ega bo‘lganidek, xususiy jihatlardan esa jiddiy farqlanishini

<sup>1</sup> Enazarov T. , G‘oyibnazarova R. “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan dars o‘tishda FSMU texnologiyasini qo‘llash // Ta’limda pedagogik va innovattsion-axborot texnologiyalaridan foydalanish.T.,2011. 221-222-betlar.

shevalarga tegishli turli misollar vositasida ko'rsatiladi. Mana shu xususiy jihatlarni ochishda yangi pedagogik texnologiyalarning hammasini ham, albatta, bu fan doirasida qo'llab bo'lmaydi. Shular bilan bирgalikda "O'zbek dialektologiyasi" fanidan tuzilayotgan o'quv-uslubiy va o'quv qo'llanma, shuningdek, darsliklarga ham zamonaviy pedtexnologiyalardan shu fandan dars o'tish jarayonidagi eng ma'qullarini (dars ishlanmalari sifatida ham) misollar vositasida tahlil va talqin etish bilan singdirish zarurati sezilmoqda. Bu ham kelajakda fanimiz sohasidagi ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga turki bo'lishi mumkin. Bizning nazarimizda, ilmiy adabiyotlarda turli fanlar misollari asosida tahlil va talqin etilgan pedagogik texnologiyalardan quyidagilarni "O'zbek dialektologiyasi" fanidan dars o'tishda faol qo'llash mumkin bo'ladi (shuningdek, ilmiy adabiyotlarda talqin etilayotgan barcha pedtexnologiyalarni istalgan alohida bir fan doirasida qo'llashrning imkoniyati yo'qligi va bunday holni talab qilish ham pedagogik nuqtai nazaridan xatoligini e'tirof etish maqsadga muvofiq sanaladi): 1) keng ommaga xos miyaga hujum; 2) kollektivga xos to'g'ridan-to'g'ri miyaga hujum; 3) FSMU texnologiyasi; 4) "Skarabey" texnologiyasi. Albatta, bularning miqdorini oshirish mumkin.

Ayni shu pedtexnologiyalar bilan mazkur fandan dars o'tganda muvaffaqiyatli ravishda darsni boshlab yakunlash mumkin bo'ladi. Shuning uchun ulardan birining talqinini shu fanga oid mavzularning mazmuni va izohi bilan qisqacha talqin etish o'rinni holdir. Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonida ommalashib ketgan pedtexnologiyalardan biri FSMU texnologiyasi sanaladi. Ushbu pedtexnologiya ham "O'zbek dialektologiyasi" fanidan ma'ruza darslarining yakuniy qismida va seminar hamda amaliy mashg'ulot darslari o'tilgan vaqtarda bemalol qo'llanishi mumkin. Albatta, amal qilayotgan har bir pedtexnologiya kabi buning ham o'tilayotgan fanimizning maqsad va vazifalari, shuningdek, mutaxassislik xususiyatlariga mos keladigan tomonlari bor.

Mazkur pedtexnologiya munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminar yakunida (tinglovchilarning o'quv seminari haqidagi fikrlarini bilish maqsadida) yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach, qo'llanishi mumkin, chunki bu texnologiya tinglovchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq-oydin holda bahslashishga, shu bilan bir qatorda o'quvchi talabalarning o'quv jarayonida egallagan bilim hamda ko'nikmalarini ilmiy asosda turli misollar vositasida tahlil etishga, nazariy va amaliy bilimlar majmuuni talabalar qay darajada egallaganliklarini baholashga hamda tinglovchilarni bahslashish madaniyatini o'rgatishga yo'naltirilgandir. Masalan, sheva so'zligini maxsus yozib olingen sheva matnlaridan qidirishda, o'z shevasining fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini bayon etishda bu texnologiyaning o'rni kattadir. Tavsiya qilinayotgan FSMU texnologiyasi amal qilayotgan vaqtida, ya'ni dars o'tish vaqtida quyidagi jarayonning bir butun tarzda tahlil hamda talqinini kuzatishimiz mumkin:

(F) - fikringizni bayon eting,

(S) - fikringizning bayoniga biron sabab ko'rsating,

(M) - ko'rsatgan sababingizni isbotlab, misol (dalil) keltiring,

(U) - fikringizni umumlashtiring.

Bularni amalga oshirish bilan shevashunoslikdagi biror bir mavzu doirasida (masalan, shevada dialektizmlar, etnografizmlar, onomastik birlıklarning dialektal ko'rinishlari va ularning turlarini yig'ish hamda jamlash bilan bog'liq mavzular) talabaning bilimiga mos materiallarni yig'ib olish imkoniyati bo'ladi. Masalan, talabalarga bitta oraliq nazorat topshirig'i sifatida o'zlarining shevalariga oid fonetik, leksik yoxud grammatikaga oid materiallarni yig'ish topshirig'i (vazifasi) sheva xususiyatlarini ochib beruvchi maxsus mavzular tarzida aytilsa, xuddi shu pedtexnologiyadan foydalanilgan holda uni bajarish va bajarilgan topshiriqni vaqtida, tez va aniq holda tahlil etish mumkin bo'ladi. Albatta, pedagogik texnologiyalarni o'rinli holda amalda qo'llash, ya'ni ularni fanning biror bir mavzusini o'tishda joriy etish jarayonida fan o'qituvchilaridan yillar mobaynida shakllangan pedagogik mahoratni talab qiladi. Shuning uchun ham "O'zbek dialektologiyasi" fanidan dars o'tishda mavjud pedagogik texnologiyalarni tanlab, saralab olib, qo'llash maqsadga muvofiqdir.

### **"O'zbek dialektologiyasi" fanini o'qitishda axbrot texnologiya vositalarining o'rni**

"O'zbek dialektologiyasi" fani oliy ta'lim tizimidagi ba'zi o'quv yurtlarning "O'zbek filologiyasi" yo'nalishi 2-kurs talabalariga o'tish mo'ljallangan. Albatta, bu fandan ham boshqa fanlar kabi ma'ruza, amaliy ish va seminar soatlari chegaralangan. Mana shunday vaziyatda axbrot texnologiya vositalaridan kompyuter, monitoring, proektor va uning doskasi, video va video kuzatuv moslamasi, magnitafon, lingafon, video plier, flepchatli doska (marker bilan yozilib, o'chiradigan moslamasi, quyi qismida yozuvni bir necha rangda ko'rsatib

beradigan yozuv qurilmasi, klaydeskop, kompyuterlar tizimini boshqaruvchi set tarmoqi, lazer qurilmasi kabilarni qo'llash mazkur fandan o'tiladigan darslarning samaradorligini, tushunarli bo'lishini ta'minlashga yordam beradi. Bu fikrimizni asoslash uchun shu fandan quyidagi mavzularni axbrot texnologiya vositalari o'tishiga e'tibor qaratsak:

"O'zbek dialektologiyasi" kursining umumiylashtirish masalalari. Milliy til va maqalliy dialektlar. Transkriptsiya. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari - mazkur mavzu ushbu fanda o'tilishi kerak bo'lgan birinchi ma'ruza mavzusi sanaladi. Uni ma'ruza sifatida o'tish uchun elektron ekranida tayyorlangan ma'ruza matni, shu mavzularga tegishli holatlarning slayd shaklidagi ko'rinishlari, shevalarga oid bo'lgan va ayni shu mavzuga dahldor elektron luqat(lar)ni tayyor holga keltirish kerak bo'ladi. Transkriptsiya va unga xos belgilar tizimini axborot

texnologiya vositalarida talabalarga ko'rsatish sheva materiallarini talabalar transkriptsiyada qynalmasdan yozilishiga sharoit yaratadi, desak o'rinli qol bo'ladi. Demak, uni o'tish uchun jiddiy e'tibor bilan ishslash lozim bo'ladi.

Kompyuter va uning tayyorlangan bir necha sahifali slaydini kuchaytiradigan, katta qiladigan vositalari bilan talabalar oldiga mavzuni o'zida jamlagan bir necha sahifadan iborat bo'lgan (4ta kichik mavzuli) slayd tayyorlash va uning elektron variantini namoyish etish talabalarning bu sohaga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi. Shuningdek, kompyuter tizimida talabalar bilan shu fandan shug'ullanganda ham tayyorlangan mavzular asosida yaratilgan slaydlarning elektron varianti lozim bo'ladi.

O'zbek shevalarining tasnifi mavzusini ham slayd ko'rinishida bayon etish mavzuning tushunarligini yanada oydinlashtiradi. Agar olimlar tomonidan amalga oshirilgan shevalar tasnifi kompyutering monitoringga joylashtirib, so'ngra flepchatkali doskada namoyon etuvchi maxsus qurilmada ko'rsatilsa, mazkur mavzuni tushuntirish va hatto anglab olish ancha osonlashadi.

"O'zbek shevalari fonetikasi. O'zbek shevalarining fonetik xususiyatlari" - mavzularini bayon etishda sheva vakillarining magnitafonlar xotirasida oldin yozilgan nutqlarining variantlarini, talaffuz me'yori va shevalarga oid fonetik xususiyatlar majmuuni rejali ravishda talabalarga eshittirish, so'ngra tahlil va talqin etish har qanday nuqtai nazardan qaraganda ham foydalidir. "O'zbek lahja va shevalarining adabiy tilimizdan farq qiladigan ba'zi xarakterli luqaviy xususiyatlari" - nomli mavzuni o'tishda shevalarga oid so'zlarni aniqroqi, atoqli otlarni, xususan, xotin-qizlar ismlariga xos dialektal xususiyatlar ham kompyutering monitoringida va proektor va uning doskasida ko'rsatib o'tish talabalarni shu soqadagi qiziqishlarini kuchaytiradi.

Sheva vakillarining o'zaro gapirishi, ular qo'llaydigan dialektal so'zlarni talaffuz qilish imkoniyatlarini axborot texnologiya vositalarida namoyish etish - ko'rsatish yo'lidan borishda bugungi kunda oliy ta'lim tizimida dars o'tish tizimida axbrot texnologiya vositalaridan unumli foydalanish shartligini taqozo etadi. So'zsiz, bunday axbrot texnologiya vositalari yordamida mazkur fanning mavzularini rejalashtirgan holda darslar o'tish o'zbek xalq shevalarining bir necha nomdag'i elektron lug'atlarini shakllantirishga ham zarur imkoniyatni yuzaga keltiradi.

### **III. Baholash savollari**

#### **Joriy baholash savollari**

1-JN

1-variant

- 1.O'zbek dialektologiyasining maqsad va vazifalari.
2. Transkripsiya va transliteratsiya.
3. Shevangizga oid matnni yozib, uni transkripsiya qiling (20ta gap).

**2-variant**

1. Dialektologiyaning maktablarda o‘qitishdagi ahamiyati.
2. Sheva va dialekt.
3. Shevangizga oid matnni yozib, uni transkripsiya qiling (20ta gap).

**3-variant**

1. Dialektologiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi.
2. Lahja.
3. Shevangizga oid matnni yozib, uni transkripsiya qiling (20ta gap).

**4-variant**

1. Transliteratsiya.
  2. Shevalarda tovush tushishi hodisasiga o‘nta misol keltiring.
  3. Shevangizga oid matnni yozib, uni fonetik jihatdan tahlil qiling.
- 5-variant**
1. Fonetik transkripsiya.
  2. Yudaxin tasnifi.
  3. Shevangizga oid maqollarni yozib, ularni izohlang.

**2-JN**

**1-variant**

1. Prof. V. V. Reshetov tasnifi.
2. Kartalashtirish va atlaslashtirish.
3. Shevangizga oid matn(20ta maqol)ni transkripsiya qiling.

**2-variant**

1. E.D. Polivanov tasnifi.
2. Transkripsianing tuzilishi.
3. Shevangizga oid matn(20ta maqol)ni transkripsiya qiling.

**3-variant**

1. G‘ozi Olim tasnifi.
2. Shevalarni tasniflanishi masalasi.
3. Shevangizga oid matn(20ta maqol)ni transkripsiya qiling.

**4-variant**

1. Transkripsiya.
2. Shevalarda tovush ortishi hodisasiga o‘nta misol keltiring.
3. Shevangizga oid matnni yozib, uni fonetik jihat dan tahlil qiling.

**5-variant**

1. Shevalarda unlilar.
2. Shevalarda frazeologizmlar (10ta misol).
3. Shevangizga oid topishmoqlarni yozib, ularni leksik tahlil qiling (izohlang).

**3-JN-x**

**X-variant**

Bunda talabalarga test tuzishni vazifa sifatida berish kerak bo‘ladi. Test miqdori 40(qirq)ta qilib olinsa, talaba fan mavzulari bo‘yicha zarur mavzularni

qamrab oladi. Albatta, test yozish topshiriq sifatida uyg'a yozish uchun beriladi.Unda darsda o'tilgan mavzular ham e'tiborda bo'ladi.

### 3-JN

#### 1-variant

- 1.Shevalarda so'z tarkibida tovush ortishi.
2. Sheva so'zlarida tovush tushishi.
3. Shevangizga oid matnni yozing va fonetik o'zgarishlarini ko'rsating.

#### 2-variant

- 1.A.K.Borovkov tasnifi.
2. O'zbek shevalarida unlilar.
3. Shevangizga oid matnni yozing va fonetik o'zgarishlarini ko'rsating.

#### 3-variant

- 1.K.K.Yudaxin tasnifi.
- 2.O'zbek shevalarida undoshlar.
3. Shevangizga oid matnni yozing va fonetik o'zgarishlarini ko'rsating.

#### 4-variant

- 1.Transkripsiyaning turlari.
- 2.Shevalarda assimiliyatsiya hodisasi.
3. Shevangizga oid firazeologizmlarni yozib, ularni izohlang.

#### 5-variant

- 1.Fonologik transkripsiya.
- 2.Shevalarda singarmonizm hodisasi.
3. Shevangizga oid bolalar o'yinlarining nomini yozing va izohlang.

### 4-JN

#### 1-variant

- 1.Shevalarda kelishik va egalik qo'shimchalari.
2. Shevalarda so'z turkumlari.
- 3.Shevangizga oid matnni yozib, undagi kelishik va egalik qo'shimchalarini ko'rsating.

#### 2-variant

1. Shevalarda ot so'z turkumi.
- 2.Shevalarda tuslanish.
3. Shevangizga oid matnni yozib, undagi kelishik va egalik qo'shimchalarini belgilang.

#### 3-variant

- 1.Shevalarda fe'l so'z turkumi.
- 2.Turlanish.
3. Shevangizga oid matnni yozib, undagi kelishik va egalik qo'shimchalarini ko'rsating.

#### 4-variant

- 1.Shevalarda undoshlar.
- 2.Shevalardagi antonimlarga 10ta misol keltirib, izohlang.
3. Shevangizga oid uy-ro'zg'or buyumlari nomini yozib, izohlang.

## 5-JN

### 1-variant

1. Shevalarda so‘z yasalishi.
2. Shevalarda dialektal gap va uning ko‘rinishlari.
3. Shevangizga oid matnni yozib, undagi dialektal so‘zlarni ko‘rsating.

### 2-variant

1. Shevalarda fe’l so‘z turkumi.
2. Shevalarda gap bo‘laklari tartibi.
3. Shevangizga oid matnni yozib, undagi dialektal so‘zlarni ko‘rsating.

### 3-variant

1. Shevalarda sifat so‘z turkumi.
2. Shevalarda gap tartibi.
3. Shevangizga oid matnni yozib, undagi dialektal so‘zlarni ko‘rsating.

## **Oraliq baholash savollari**

### **1-ON**

#### **1-variant**

- 1.Sheva leksikasiga xos xususiyatlar.
2. Prof. E.D.Polivanov tasnifi.
- 3.Shevalarda ko‘plik.
- 4.Shevaga oid matnni transkripsyada yozib, undagi fonetik, leksik holatlarga qisqa izoh bering.

#### **2-variant**

- 1.Shevaga oid fonetik xususiyatlar.
- 2.Prof. I. I. Zarubin tasnifi.
- 3.Shevalarda tuslanish.
4. Shevaga oid matnni transkripsyada yozib, undagi fonetik, leksik holatlarga qisqa izoh bering (Matn 30 ta gapdan iborat bo‘lishi kerak).

#### **3-variant**

- 1.Professor V.V. Reshetov tasnifi.
- 2.Shevaga oid fonetik xususiyatlar.
- 3.Shevalar leksikasi.
- 4.Shevaga oid matnni transkripsyada yozing va undagi fonetik, leksik holatlarga qisqa izoh bering (Matn 30 ta gapdan iborat bo‘lishi kerak).

#### **4-variant**

- 1.Shevangizga oid unlilar.
- 2.Shevangizga oid ovqat nomlari(parcha va izohi).
- 3.Shevangizga oid xalq qo‘shiqlari(parcha va izohi).
- 4.Shevangizga oid uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari (50tadan misol).

### **2-ON**

#### **1-variant**

- 1.Shevangizga oid matnni transkripsiya qilib, uning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari haqida maxsus to‘xtaling.

2. Shevaga oid yuzta dialektal so‘zni qayd etib, uni qisqacha izohlang.

#### **2-variant**

1. O‘qi tuvchining ko‘rsatmasi bilan shevashunoslikka oid maqola(yoki kitob qismlaridan biri)ni o‘rganib, ma’ruza qilib berish.
2. Shevaga oid yuzta dialektal so‘zni qayd etib, uni qisqacha izohlang.

## **Yakuniy nazorat uchun savollar**

#### **1-variant**

1. O‘zbek dialektologiyasi kursining maqsad va vazifalari.
2. Shevalarda unlilar tizimi.
3. Prof.K.K.Yudaxin tasnifi.
4. Shevalarda turlanish.

5. Shevangizga oid matnni transkripsyada yozib, fonetik va leksik xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

2-variant

1. O'zbek tilini o'qitishda mazkur fanning o'mi.
2. Transkripsyva transliteratsiya.
3. Dialektal so'zlarning semantik guruhlari.
4. Prof. Fozi Olim tasnifi.

5. Shevangizga oid matnni transkripsyada yozib, uning fonetik va leksik xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

3-variant

1. Prof.V.V.Reshetov tasnifi.
  2. Shevalarda tuslanish.
  3. O'zbek shevalari sintaksisi.
  4. Shevalarda uchraydigan fonetik hodisalar.
5. Shevangizga oid matnni transkripsyada yozib, fonetik va leksik xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

4-variant

1. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari.
  2. Shevalarda tovush tushishi va ortishi hodisalar.
  3. Shevalarda so'z turkumlari (ot va sifiat so'z turkumlari misolida).
  4. Shevalarda ko'plik.
5. Shevangizga oid matnni transkripsyada yozib, fonetik va leksik xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

5-variant

- 1.O'zbek xalq shevalarini o'rganish usullari.
  - 2.Shevalarda singarmonizm va assimiliyatsiya hodisalar.
  - 3.Shevalarda so'z turkumlari (fe'l va bog'lovchi so'z turkumlari misolida).
- 4.Shevalarda egalik qo'shimchalari.
- 5.Shevangizga oid matnni transkripsyada yozib, fonetik va leksik xususiyatlari haqida ma'lumot bering.

## **IY.“O'zbek dialektologiyasi” fanidan mustaqil ish savollari**

- 1.O'zbek dialektologiyasining maqsad va vazifalari talqini.
2. Transkripsyva transliteratsiyaga xos xususiyatlar.
3. Shevangizga oid matnni yozib, uni transkripsyya qiling (20ta gap).
4. Dialektologiyaning maktablarda ona tilini o'qitishdagi ahamiyati.
- 5.Sheva va dialekt hamda ularga xos holatlar.
6. Shevangizga oid matnni yozib, uni transkripsyya qiling (20ta gap).
7. Dialektologiyaning boshqa fanlar bilan aloqadorligi va farqi.
- 8.Lahja nima?
9. Shevangizga oid matnni yozib, uni transkripsyya qiling (20ta gap).

10. Prof. V. V. Reshetov tasnifi va uning yutuq, kamchiliklari.
11. Kartalashtirish va atlaslashtirish muammolari va yechimi.
- 12 Shevangizga oid matn(20ta maqol)ni transkripsiya qiling.
- 13.E.D.Polivanov tasnifi hamda uning kamchiliklari.
- 14.Transkripsiyaning tuzilishi va uning muammolari.
15. Shevangizga oid matn(20ta maqol)ni transkripsiya qiling.
- 16.G‘ozi Olim tasnifi va uning yutuq, kamchiliklari.
- 17.Shevalarni tasnifilanishi masalasi va mukammal tasnifi.
- 18.Shevangizga oid matn(20ta maqol)ni transkripsiya qiling.
- 19.Shevalarda so‘z tarkibida tovush ortishi hamda ularga misollar yozing.
- 20.Sheva so‘zlarida tovush tushishi va unga misollar toping.
- 21.Shevangizga oid matnni yozing va fonetik o‘zgarishlarini ko‘rsating.
- 22.A.K.Borovkov tasnifi va uning yutuq, kamchiliklari.
23. O‘zbek shevalarida unlilar va ularning ortishi, tushishi.
24. Shevangizga oid matnni yozing va fonetik o‘zgarishlarini ko‘rsating.
- 25.K.K.Yudaxin tasnifi va uning yutuq, kamchiliklari.
- 26.O‘zbek shevalarida undoshlar hamda ularning tushishi.
27. Shevangizga oid matnni yozing va fonetik o‘zgarishlarini ko‘rsating.
- 28.Shevalarda kelishik va egalik qo‘srimchalarining xususiyatlari.
29. Shevalarda so‘z turkumlarining dialektal xususiyatlari.
- 30.Shevangizga oid matnni yozib, undagi kelishik va egalik qo‘srimchalarini ko‘rsating.
31. Shevalarda ot so‘z turkumi talqini.
- 32.Shevalarda tuslanish va uning ko‘rinishlari.
- 33.Shevangizga oid matnni yozib, undagi kelishik va egalik qo‘srimchalarini ko‘rsating.
- 34.Shevalarda fe’l so‘z turkumi va unga xos xususiyatlar.
- 35.Turlanish hamda uning ko‘rinishlari.
- 36.Shevangizga oid matnni yozib, undagi kelishik va egalik qo‘srimchalarini ko‘rsating.
- 37.Sheva leksikasiga xos xususiyatlarini talqin qiling.
38. Prof. E.D.Polivanov tasnifining yutuqlari.
- 39.Shevalarda ko‘plik va unga xos xususiyatlar majmui.
- 40.Shevaga oid matnni transkripsiyyada yozib, undagi fonetik, leksik holatlarga izoh bering.
- 41.Shevaga oid fonetik xususiyatlar talqini.
- 42 .Prof. I. I. Zarubin tasnifi va bu tasnifning kamchiligi.
- 43.Shevalarda tuslanishning ditalektologlar talqinidagi ko‘rinishlari.
44. Shevaga oid matnni transkripsiyyada yozib, undagi fonetik, leksik holatlarga izoh bering.
- 45.Professor V.V. Reshetov tasnifi.
- 46.Shevaga oid fonetik xususiyatlar.
- 47.Shevalar leksikasi.

48.Shevaga oid matnni transkripsiya yozib, undagi fonetik, leksik holatlarni qisqa izohlang (Matn 30 ta gapdan iborat bo‘lishi kerak).

49.Shevangizga oid matnni transkripsiya qilib, uning fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari haqida maxsus to‘xtaling.

50. Shevaga oid yuzta dialektal so‘zni qayd etib, uni qisqacha izohlang.

51.O‘zbek dialektologiyasi kursining maqsad va vazifalari.

52.Shevalarda unlilar tizimi hamda ularga xos xususiyatlar.

53.Prof.K.K.Yudaxin tasnifining shevalarimiz tasnifidagi ahamiyati.

54.Shevalarda turlanish va unga xos holatlar.

55.Shevangizga oid matnni transkripsiya yozib, uning fonetik va leksik xususiyatlari haqida ma‘lumot bering.

56.O‘zbek tilini o‘qitishda mazkur fanning o‘ziga xos o‘rnini sharhlang.

57.Transkripsiya va transliteratsiya.

58.Dialektal so‘zlarning semantik guruhlari va ularni izohlashga misollar keltiring .

59.Prof.Fozi Olim tasnifi.

60.Shevangizga oid matnni transkripsiya yozib, uning fonetik va leksik xususiyatlari haqida ma‘lumot bering.

61.Prof.V.V.Reshetov tasnifi va uning o‘zbek shevalari tizimidagi ahamiyati.

62.Shevalarda tuslanish.

63.O‘zbek shevalari sintaksisi.

64.Shevalarda uchraydigan fonetik hodisalarni qayd eting.

65.Shevangizga oid matnni transkripsiya yozib, uning fonetik va leksik xususiyatlari haqida ma‘lumot bering.

66.O‘zbek adabiy tili va o‘zbek xalq shevalari, ularning farqli hamda o‘xshash jihatlari talqini.

67.Shevalarda tovush tushishi va ortishi hodisalari.

68.Shevalarda so‘z turkumlari (ot va sifiat so‘z turkumlari misolida).

69.Shevalarda ko‘plik.

70.Shevangizga oid matnni transkripsiya yozib, uning fonetik va leksik xususiyatlari haqida ma‘lumot bering.

71.Shevalarda bog‘lovchi hamda ularga misollar keltiring.

72. Shevalarda egalik qo‘srimchalarining qo‘llanishiga e’tibor bering va izohlang.

73. Shevalardagi taqlidiy so‘zlarga misollar keltiring.

74. Shevalarda modal so‘zlar va ularga oid xususiyatlarni misollar bilan sharhlang.

75.Shevalarda yuklamalarning qo‘llanishiga misollar keltiring.

76.Shevalarda undovlar hamda ularning ma‘nolari.

77.Shevalarda ko‘makchilar va ularning turlariga misollar keltirib, izohlang.

78. Transkripsiya muammolari hamda undan foydalanish zarurligini asoslang.

79. Shevalarni tadqiq etish muammolarini sanang va ularni izohlab bering.

80. Shevalarning mukammal tasnifi deganda nimani tushunasiz?

81. Shevalar lug‘atiga qanday so‘zlarni kiritgan ma’qul?

82.”O‘zbek tilida kelishiklar” nomli asarni kim yozgan?

83. Sheva nima?

84. Dialekt nima?

85. Oraliq shevalar nima?

86. Nega “O‘zbek shevashunosligi”ni o‘rganish va o‘rgatish shart?

87. Shevalarda bo‘g‘in turlari.

88. Shevalarda undoshlar.

89. Shevalarda unlilar.

90. Transkriptsiyaning turlari.

91. Shevalarda sodda gaplar.

92. Shevalarda gap bo‘laklarining joylashuvi.

93. Shevalarda qo‘shma gaplar.

94. Shevalarda kelishik qo‘sheimchalarining o‘ziga xosligi.

95. Shevalarda kelishik qo‘sheimchalarini kim o‘rgangan?

96. Shevalarda egalik qo‘sheimchalarini kim tadqiq etgan?

97.”O‘zbek dialektologiyasi”ning o‘rganish obyekti nima?

98. Shevalar sintaksisini kimlar o‘rganishgan?

99. Shevalarda gap bo‘laklarining joylashuviga misollar keltiring.

100.“O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”ning 1971-yilgi bir tomlik nashrining yutuqlari haqida gapiring.

101.“O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”ning 1971-yilgi bir tomlik nashrining kamchiliklari haqida so‘zlang.

102. Shevalar so‘zliklari bilan ko‘p tomlı “O‘zbek xalq shevalari lug‘ati”ni tuzish muammolari haqida gapiring.

103. Shevashunoslikka oid kimlarning asarlari bilan tanishsiz?

104. Shevalarimiz qanday va qay tarzda tasnif qilingan?

105. Shevangiz haqida ma‘lumot bering.

106. Shevangizda qancha kelishik bor?

107. Shevangizda gapning qanday turlari faol ishlataladi?

108. Qaysi yoshdagi kishilardan sheva ma‘lumotlarini yig‘ish o‘rinli?

109. Faqat shevangizdagina qo‘llanadigan o‘nta so‘zni izohlang.

110. Sheva(lahja)ngiz to‘g‘risida ma‘lumot bering.

111. Shevalarda leksikasi.

## **“O‘zbek dialektologiyasi” fanidan tayyorlangan test savollari**

### **Nº1**

- O‘zbek shevalarini tasniflashda yetakchi prinsiplarga nimalar kiradi?
- A. hududiy, etnogenetik, lisoniy,lisoniy hududiy yoki lingvoareal prinsipler.
  - V. hududiy, etnik, lisoniy,lisoniy hududiy yoki lingvoareal prinsipler.
  - G. hududiy, etnik, etnogenetik, lisoniy,lisoniy hududiy yoki lingvoareal prinsipler.
  - D. hududiy, etnik, etnogenetik, lisoniy hududiy yoki lingvoareal prinsipler.

### **Nº2**

- Sheva deb nimaga aytildi?
- A. Sheva - biror tilning o‘ziga xos punktuatsiyasi, etimologiyasi va grammatik xususiyatlarga ega bo‘lgan eng kichik qismi.
  - V. Sheva - biror tilning o‘ziga xos bo‘lgan fonetik, leksik xususiyatlarini o‘zida birlashtirgan eng kichik qismi.
  - G. Sheva - biror tilning o‘ziga xos bo‘lgan fonetik hodisalarini va xususiyatlariga ega bo‘lgan eng kichik qismi.
  - D. Sheva - biror tilning o‘ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlariga ega bo‘lgan eng kichik qismi.

### **Nº3**

O‘zbek tilining oraliq shevalarini kimlar tadqiq etgan?

- A. A.Jo‘rayev, T.Qudratov, J.Abdullayev, N.Shoimova.
- V. B.Jo‘rayev, Z.Qudratov, F.Abdullayev, N.Shoimova.
- G . B.Jo‘rayev, T.Qudratov, F.Abdullayeva, N.Shoimova.
- D. B.Jo‘rayev, T.Nafasov, F.Abdullayev, N.Shoimova.

### **Nº4**

Lahja deb nimaga aytildi?

- A. Lahja - grammavtik, tarixiy va uslubiy xususiyatlarni o‘zida birlashtiruvchi shevalar yig‘indisi.
- V . Lahja - fonetik, leksik va grammavtik xususiyatlarni o‘zida birlashtiruvchi shevalar majmuasi.
- G. Lahja - etimologik, grammatik xususiyatlarni o‘zida birlashtiruvchi shevalar yig‘indisi.
- D. Lahja - leksik, punktuatsion xususiyatlarni o‘zida birlashtiruvchi shevalar jamul jami.

### **Nº5**

Buxoro viloyati shevalarini kim o‘rgangan?

- A. Sh.Shoabdurahmonov .
- V. A.Shermatov.
- G. X.Doniyorov.
- D .M.Mirzayev.

**№6**

Dialektologiya nimani o‘rganadi va o‘rgatadi?

A. Dialektologiya tilshunoslik bir sohasi bo‘lib, u biror tilning mavjud qonuniyatlarini o‘rganadi va o‘rgatadi.

V. Dialektologiya tilshunoslik bir sohasi bo‘lib u biror tilning morfologiyasini o‘rganadi va o‘rgatadi.

G. Dialektologiya tilshunoslikning bir sohasi bo‘lib, u biror tilning grammatikasini o‘rganadi va o‘rgatadi.

D . Dialektologiya tilshunoslikning bir sohasi bo‘lib, u biror tilning mavjud dialektlarini, ya‘ni mahalliy lahja va shevalarini o‘rganadi va o‘rgatadi.

**№7**

O‘zbek tili shevalarini dialect zonalashtirish kontseptsiyasini  
kim ilgari surgan?

A.A. Hamidov.

V.A.Rustamov.

G.A.Tojiyev.

D . A.Jo‘rayev.

**№8**

O‘zbek tilining o‘g‘uz lahjasini kimlar o‘r gangan?

A. F.Abdullayev, K.K. Yudaxin.

V . F.Abdullayev, Yu.Jumanazarov.

G. F.Abdullayev, S. Yuunusov.

D. F.Abdullayev, L. Mahmudov.

**№9**

Dialektologiya fanining asosiy vazifalariga nimalar kiradi?

A.1)ayrim sheva va dialectlarning fonetik, morfologik, leksik, sintaktik xu-susiyatlari; 2) milliy tilning paydo bo‘lishi, taraqqiyotida shevalarning tutgan o‘rni; 3) shevalarning o‘zaro munosabati; 4) o‘xhash xususiyatlariga ko‘ra shevalarning tarqalishi; 5) umumiyl o‘xhash lingvistik xususiyatlarini belgilash asosida shevalarning tarqalishi xaritalarini tuzish va shevalarni har tomonlama tasnfi qilish.

V.1)ayrim sheva va dialectlarning fonetik xususiyatlari; 2) milliy tilning paydo bo‘lishi va taraqqiyotida lahjalarning tutgan o‘rnini; shu milliy tilga asos bo‘lgan lahjalar; 3) shevalarning o‘zaro munosabati 4)o‘xhash xususiyatlariga ko‘ra shevalarning tarqalishi; 5) umumiyl o‘xhash ekstraliningvistik holatlarni belgilash asosida har tomonlama yoritish.

G.1)ayrim sheva fonetik xususiyatlari; 2) milliy tilning paydo bo‘lishi va taraqqiyotida adabiy tilning o‘rni; 3) shevalarning o‘zaro munosabati; 4)o‘xhash xususiyatlariga ko‘ra shevalarning tarqalishini 5) umumiyl o‘xhash xususiyatlariga ko‘ra shevalarning tarqalishini tasniflash.

XX asrning boshlaridanoq “O‘zbek dialektologiyasi” o‘zining o‘rganish va tadqiqot olib borish ob’ektlariga ega bo‘lgan fanlardan biri sifatida shakllandi. Uning shakllanishida rus turkologolimlarining xizmatlari bebahodir. Sababi, ularning bu sohadagi amalga oshirilgan birinchi ilmiy va amaliy izlanishlari natijasida shevalarimiz haqida ilk materillar - dalillar to‘plandi. Rus turkologolimlarining o‘zbek shevalarini ma’lum bir dasturlar asosida, rejali tartibda o‘rganib chiqishmagan bo‘lsalarda, lekin ularning nazariy hamda amaliy fikrlari va to‘plab ulgurgan materiallari bugungi kunda ham o‘zining ilmiy, amaliy ahamiyatini – qimmatini yo‘qotgani yo‘q.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Tilshunoslik instituting dialektologiya bo‘limi xodimlari XX asrning 50-80-yillaridan har yili o‘z-bek shevalaridan materiallar yig‘ish uchun dialektologik safar (ekspeditsiya)lar uyuştirib kelishdi. Natijada, katta ilmiy-amaliy qimmatga ega bo‘lgan manbalar hisoblanadigan dialektologik materiallar to‘plandi.

Bu sohada V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev, S.Ibrahimov, M.Mirzayev, A.Shermatov, X.Doniyorov, B.Jo‘rayev, A.Aliyev, N.Rajabov, A.Ishayev, Q.Muhammadjonov, SH.Nosirov, T.Sodiqov, D.Abdurahmonov, M.Turobova, Yo.G‘ulomov, A.Jo‘rayev, K.Nazarov, X.Jo‘rayev, I.Farmonov, N.S.G‘ofurova, T.Turg‘unov, M.Sh.Shoinoyatova, M.Valiyev, A.Mamatov kabi dialektolog olimlar o‘zbek shevalari bo‘yicha ancha ilmiy-amaliy kuzatishlar olib borishgan va bu kuzatishlar davom ettirilmoqda. Ular o‘zlari to‘plagan shevaga oid materiallarni, albatta,

dialektologik ekspeditsiyaga chiqish bilan to‘plashgan. Bu olimlar to‘plagan shevaga oid materiallarning bir qismigina monografiya va maqolalar sifatida nashr qilindi, qolganlari ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Yuqoridagilardan ko‘rinib turibdiki, respublikamizdagи ko‘plab qishloq, shahar va tumanlarning shevalari bo‘yicha materiallar to‘plangan. Biroq hali kam tadqiq etilgan yohud mutlaqo o‘rganilmagan o‘zbek shevalari mavjud. Bunday shevalarni topib o‘rganish juda zarur va muhimdir. Mana shu shevalarni tadqiq etadigan tadqiqotchilar, albatta, bugungi talabalarimizdan chiqadi. Shu sababli talabalarga “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan amaliyat o‘tkazish katta ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Chunki ularga dialektologik amaliyat bir umrga kerak bo‘ladi - o‘qituvchi bo‘lganda o‘quvchilarning xatolarini kamaytirishda, jurnalist bo‘lishganda xalq tiliga mos iboralar qo‘llay bilishda, ijodkor bo‘lganda esa xalq ommasiga tushunarli fikr-mulohazalarni matbuot sahifalarida berishda, qayd etishda, so‘zsiz, dialektologik amaliyat vaqtida ko‘rilgan va kuzatilgan holatlar yordam berishi aniq.

“O‘zbek dialektologiyasi” fanidan bo‘ladigan amaliyat pedagogik amaliyat kabi talaba yoshlarni bo‘lg‘usi kasbiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga, xalq tiliga hurmat hissini uyg‘otishga, sheva vakillari bilan muomala qila olishiga yordam beradi, ya’ni tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Shuningdek, talabalar bu amaliyat vaqtida xalq hayoti bilan, ona yurtning tabiat go‘zalliklari bilan yaqindan tanishishadi. Bu esa talabalarda ona vatanga, ona tabiatga mehr uyg‘otadi. Xalq tarixiyu taqdiri, ona vatan tarixi, xalqimizning urfi-odatlariga va an’analariga nisbatan qiziqishini kuchaytiradi. Ushbu amaliyotning ilmiy-amaliy tomonlari ham mavjud. Chunki talabalar tomonidan yig‘ilgan sheva mateirallarini alohida ilmiy to‘plam sifatida nashr qilish, talabalarga ilmiy ma’ruza, kurs ishi, ma’lum bir sheva materiallari bitiruv malakaviy ish(lar)iga asos sifatida berilishi mumkin. Bularдан ko‘rinib turibdiki, “O‘zbek dialektologiyasi” fanining o‘quv amaliyotdan ko‘zda tutilgan asosiy maqsadlar quyidagilar:

1) ajratib olingen ma‘lum bir shevaning o‘ziga xos barcha lingistik xusu-siyatlari haqida mumkin qadar ko‘p va sifatli dalillar yig‘ish; 2) milliy tilga hurmat tuyg‘usini uyg‘otish; 3) xalq tili, xalq tarixi va uning hayoti bilan yaqindan tanishish; 4) amaliyotda yig‘ilgan dalillar tilshunosligimizni boyitishga hissa qo‘sishini his qilish; 5) ona-Vatanga, el-yurtga muhabbat tuyg‘usini uyg‘otish; yurt tabiatidan estetik zavq olish; 6) kuzatishlar natijasida ma‘lum xulosalar chiqara olish kabi ko‘nikma va malakalarni hosil qilish. Bular o‘z navbatida talabalarning kelajakdagi ta‘limiy, tarbiyaviy va ma’rifiy faoliyatlarini belgilashda ham yordam beradi.

Demak, “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan bo‘ladigan o‘quv amaliyotning vazifalari jumlasiga quyidagilar ham kiradi:

1.Soha bo‘yicha egallangan nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash.

2.Shevalarni adabiy til bilan qiyos qilgan holda o‘rganib, ilmiy hamda amaliy jihatdan tadqiq etish.

3.Talabalar dialektologik amaliyot vaqtida egallashgan ko‘nikma hamda malakalarni keyinchalik o‘qituvchilik kasbida qo‘llashrlari uchun doimiy ko‘nik-malar hosil qilish.

4.Amaliyot vaqtida aytilgan talablar asosida to‘liq va xatosiz holda tayyorlangan talabalarning dialektologik amaliyoti materiallaridan kelajakda tuzilishi tabiiy hol va ma’naviy ehtiyoj bo‘lgan ko‘p tomli “O‘zbek xalqi shevalari lug‘a-ti” uchun so‘zliklarni tanlab yig‘ib olish.

### **Amaliyotning texnika xavfsizligi qoidalari**

“O‘zbek dialektoliyasi” fanidan amaliyotga borish uchun talabalar bilish kerak bo‘lgan texnika xavfsizligi qoidalari quyidagilardan iborat:

- 1 . Ko‘chada yurganda yo‘l transport qoidalariiga amal qilish.
2. Elektr jihozlariga tegmaslik.
3. Elektr asboblarini ruxsatsiz ishlatmaslik.
4. Gaz asboblaridan ehtiyyotkorlik bilan foydalanish .
5. Taqiqlangan joylarda cho‘milmaslik.
6. Ariqdagi suvdan foydalanmaslik.
7. Taqiqlangan joylarda yurmaslik.
8. Begona odamlar bilan ortiqcha suhbatlashmaslik.
9. Rahbarning ruxsatisiz kunlik amaliyotga chiqmaslik.
10. Ruxsatsiz yakka o‘zi amaliyotga chiqib ketmaslik.
11. Jamoat tartibini buzmaslik, jamoani hurmat qilish.
12. Sheva vakillari nutqini hurmat qilish.
- 13.Noo‘rin gapirish va qo‘pol holatlarda yurishdan saqlanish.

### **“O‘zbek dialektologiyasi” fani amaliyotiga tayyorgarlik ko‘rish**

Ushbu fanidan amaliyot folklor fanidan bo‘ladigan amaliyot bilan birgalikda (ba’zan alohida holda) bir oy ichida o‘tkaziladi. Unga tayyorgarlik ko‘rish, o‘tkazish va yakunlash reja asosida olib boriladi. Ushbu amaliyotga tayyorgarlik ko‘rishni bir oz oldindan boshlash kerak, ma’ruza va amaliy ishlar olib borish davrida yozgi dialektologik amaliyotning maqsad hamda vazifalari tushuntirib boriladi, yo‘l-yo‘lakay amaliyotga doir bo‘lgan ayrim metodik va tashkiliy ko‘rsatmalar ham berib boriladi.

Mazkur amaliyotdan ko‘zlangan maqsadni amalga oshirish uchun eng avval talabalar bunga tayyor bo‘lishlari kerak. Dialektologik amaliyotga qatnashish va uni samarali o‘tkazish uchun talabalardan quyidagilar talab qilinadi:

1. Soha doirasida puxta ilmiy-nazariy va amaliy bilimga ega bo‘lish.
2. Transkripsion yozuv tizimini yaxshi o‘zlashtirish va uni amaliyot davrida qo‘llay bilish.
3. Yozuvning zamonaviy texnikasini yaxshi egallash va unga amal qilish.

### **Shevalardan materiallar yig‘ish usullari:**

1. Shevani o‘rganish uchun reja, dastur va so‘roqlikka ega bo‘lish.
2. Magnitofon va fotoapparatdan o‘z vaqtida o‘rinli foydalana olish.
3. Tashqi qiyofasi hamda kishilar o‘rtasida o‘zini tuta bilishi bilan o‘rnak bo‘lishlari shart.
4. Joylarda kishilar bilan sodda, samimiy, ma’naviy va madaniy munosabatda bo‘lish.
5. Shevasi o‘rganilayotgan hududning madaniy-iqtisodiy ahvoli, etnolingvistik xususiyatlari va geografik o‘rinalashuvidan ma‘lum darajada xabardor bo‘lishi tabiiy holdir.

Bu amaliyotga tayyorgarlik ko‘rishning birinchi bosqichi o‘qituvchi tomo-nidan talabalar davrasida bajariladi. O‘qituvchi yoxud guruh rahbari talabalarni to‘plib, mazkur amaliyotning maqsad va vazifalari, uni o‘tkazish tartiblari, ama-liyot uchun kerak bo‘ladigan barcha narsalar haqida tushuncha beradi. Aytilgan narsalar talabalarda amaliyotga chiqish davrigacha tayyor bo‘lishi lozimligi uqtiri-ladi. Shuningdek, fakultet dekanati va kafedra bilan kelishilgan holda dia-lektologik amaliyotga bag‘ishlangan kichik anjuman o‘tkaziladi. Ushbu anju-manda avval o‘tkazilgan amaliyotlarning yutuq va kamchiliklari hamda bo‘lajak amaliyotning maqsadi, yo‘nalishlari kabi masalalar yoritib beriladi.

Shundan so‘ng rahbar amaliyot o‘tkazilishi lozim bo‘lgan tuman haqida axborot beradi. Bunda mazkur tuman hududidagi qishloqlar va har bir qishloq aholisining qaysi lahja va shevaga oid ekanligini, amaliyot davrida talabalar, asosan, qanday narsalarga o‘z e‘tiborlarini qaratishi lozimligi to‘g‘risida ko‘rsatmalar, tavsiyalar beradi. Talabalarga magnitofon, fotoapparatlardan foydalanish haqida ko‘rsatmalar berilib, ular bilan amaliy ishlar bajarilishi ham o‘rinlidir.

Fakultet dekanati dialektologik amaliyotga tayyorgarlik ko‘rish davrida:

1. Shu sohaga oid fakultativ kurs va ushbu amaliyotga bag‘ishlangan anjuman o‘tkazishga imkoniyat topadi.
2. Dialektologik amaliyot o‘tkazilishi lozim bo‘lgan tuman va tashkilotlar bilan aloqa bog‘laydi.
3. Amaliyot davrida esa uning borishini vaqtiga vaqtiga bilan nazorat qilib boradi.

Mazkur amaliyotga tayyorgarlik ko‘rish, o‘tkazishga oid barcha tashkiliy va metodik-uslubiy ishlarni amalga oshirishda kafedra bosh-qosh bo‘ladi. Avvalo, kafedra dialektologik amaliyot o‘tkazilishi lozim bo‘lgan obektlarni belgilaydi va rejalashtiradi, amaliyot rahbarlarini aniqlaydi. Talabalarni guruhlarga ajratadi va har bir guruhga bitta rahbar tayinlaydi. Har bir guruhning bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar aniq belgilab beriladi.

Guruh rahbarlari amaliyot boshlanishidan avvalroq belgilangan hududlarga borib, o‘sha hududdagi tuman, tashkilot, xo‘jalik rahbarlari bilan

uchrashadilar va talabalarning yotish joylari, ovqatlanish manbalarini haqida kelishib oladilar.

Dialektologik amaliyotga tayyorgarlik ko‘rish davrida yana quyidagi ishlarni amalgalash oshirish ham maqsadga muvofiqdir:

1. Dialektologik amaliyot o‘tadigan hududdagi mahalliy tashkilotlarga universitet yoki institut ma’muriyati tomonidan rasmiy xat yozish.
2. Kuzatilishi lozim bo‘lgan hududni aniq belgilab olish.
3. Obyektgacha boradigan transport vositalarini aniqlash. Agar universitet yoxud institut tomonidan transport bilan ta’minlansa, uning xujjatlarini rasmiylashtirish.
4. Magnitofon, uning lentasini, fotoapparat hamda plyonkalarini tayyorlash.
5. Talabalarga amaliyotga borish uchun ajratiladigan mablag‘ hisob-kitobini amalgalash.
6. Talabalarning rahbarlariga xizmat safari hujjatlarini rasmiylashtirish. Ta-labalar joylashishi lozim bo‘lgan obyekt va undagi ovqatlanish manbalarini aniqlash.
7. Har bir talaba o‘zi uchun ko‘rpa-to‘shak anjomlarini tayyorlashi.
8. Har bir talabalar guruhida meditsina aptechkasining bo‘lishi shart yoxud zarur dorilar bilan ta’minlash lozim.
9. Talabalar dialektologik amaliyot davrida kerakli bo‘lgan barcha o‘quv qurollari va vositalarni tayyorlash lozim. Bunda quyidagilarga alohida e‘tibor berish kerak: amaliyot oxirigacha etadigan daftar yoki qog‘oz, qalam va ruchka, magnitofon, fotoapparat (imkoniyati borlarga), sheva va uning ko‘rinishlari bo‘yicha materiallar yig‘ish uchun so‘roqlik va dastur, kerakli adabiyotlar.

### **“O‘zbek dialektologiyasi” fani amaliyotini tashkil qilish va o‘tkazish**

Ushbu amaliyotning samaradorligi, tartibli o‘tishi uning rejali tashkil qilinishiga ko‘p tomonlama bog‘liq. Uning o‘tkazilishi tartibi o‘rnini va o‘rganish ob‘ektlari oldindan rejalashtirilib, kafedra majlisida tasdiqlangan bo‘ladi. Ushbu rejada amaliyotning boshlanishidan yakunlanishigacha bo‘lgan vaqt ichida qilinadigan ishlar o‘z ifodasini topgan bo‘ladi. Amaliyotning tashkiliy qismi rahbar zimmasiga anchagina ma’suliyat yuklaydi. Talabalarning belgilangan manzilga yetkazishda rahbar bosh-qosh bo‘ladi.

Belgilangan tumanga kelgan guruhi rahbari quyidagilarni amalgalashadi:

1. Tuman hokimligiga uchrab, dialektologik amaliyot o‘tkazish uchun etib kelishganini ma‘lum qilish.
2. Tuman hokimligidan amaliyotni samarali o‘tkazish uchun ma’naviy va amaliy yordam so‘rash.
3. Amaliyot o‘tkazish uchun belgilangan hududga etib kelgan talabalarning guruhlari bilan umumiylig yig‘ilish o‘tkazadi va amaliyot davridagi ishlarning bajarilishi to‘g‘risida hisobot berish.

4. Har bir guruhning yotish va ovqatlanish joyini aniqlash. Hamma talabani bir yerga joylashtirish imkonni bo‘lsa, ularning ovqatlantirish manbalarini tashkillashtirish.

5. Har bir guruhning o‘rganish hududini aniq va ravshan qilib belgilash. Talabalarning har biriga aniq topshiriqlar berish.

Rahbar har bir guruhning o‘rganish obektiga borib, talabalarning ish sharoiti bilan tanishib chiqadi hamda zarur uslubiy tavsiyalarni beradi. Talabalar belgilangan tartib-intizomga amaliyotning oxirigacha qat’iy amal qilishlari shart.

Amaliyot vaqtida talabalar o‘zlarini yashayotgan va o‘rganayotgan hududning aholisi bilan yaqindan do’stona aloqalar o‘rnatishadi. Ular bo‘sh vaqtlarida hamda dam olish kunlarida o‘sha yerdagi tashkilotlarning qishloq xo‘jalik ishlariiga yordamlashsalar, foydadan holi bo‘lmaydi. Buning evaziga xo‘jalik talabalarni qishloq xo‘jalik mahsulotlari bilan ta’minlashi mumkin.

Talabalar ushbu amaliyot davomida shevaga oid materiallar yig‘ish bilan birga, shu hududning diqqatga sazovor joylari, tarixiy obidalari, muhim voqealari haqida ma’lum otlar to‘playdi, tarixiy joylarning fotonusxasini oladilar. Uyushtirilgan kecha, suhbat va jamoat ishlari suratga tushirib boriladi. Har bir talaba amaliyot yakunida bular asosida albom tuzib, amaliyotga oid hisobot bilan birga kafedraga topshiriladi.

Rahbar vaqt-vaqt bilan talabalarning ishlari bilan tanishib, kerakli uslubiy tavsiyalarni berib boradi. Talabalar ham yo‘l-yo‘lakay tug‘ilgan savollar hamda muammolari bilan rahbarlariga murojaat qilib turadilar. Shu o‘rinda talabalar bilan suhbatlashishgan har bir kishining pasportiga (ya‘ni u haqidagi ma’lum otlarga) e‘tibor berishni yana bir bor ta’kidlash lozim.

Ba’zan materiallar talabalarning o‘zi tushunadigan holatda yozilishi mumkin, biroq uni keyinchalik tartibga solib, qayta yozib olishlari kerak bo‘ladi. Amaliyot yakunida yig‘ilgan shevaga oid materiallar tartibga solinib, kamchiliklari to‘g‘irlanadi. Materiallar rahbarning umumiy hisoboti bilan birga kafedraga topshiriladi.

### **Shevalarni o‘rganish va materiallar to‘plash usullari**

Dialekt va shevalarni o‘rganish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, har qanday tilning shevalarini o‘rganishda, birinchi navbatda, shu shevani o‘rganish uchun mukammal dasturga ega bo‘lishi lozim. Bu dastur milliy til tarkibidagi barcha dialektlarning lingvistik xususiyatlarini o‘zida qamrab olishi va tadqiqotlarga yo‘llanma beruvchi vosita bo‘lishi shart. Dasturlar mavzular bo‘yicha tuzilib, tilshunoslikning barcha qismlari alohida-alohida holda o‘z ifodasini topishi maqsadga muvofiqdir. Sababi, puxta va pishiq tayyorlangan holda shevalarni o‘rganish amaliyotning har tomonlama samarali chiqishiga ko‘mak beradi.

Shevalarni o‘rganish xarakteri, o‘rganish obekti tanlash hamda uni kuzatish uslubiyati dialektologning oldiga qo‘ygan vazifalaridan kelib chiqadi. Chunki dialektolog ajratib olingan shevani bir tomonlama yoki har tomonlama

tekshirishi mumkin. Shuning uchun ham uning kuzatish va o‘rganish usullari turlicha bo‘ladi. O‘zbek dialektolog olimlarining tajribasiga suyangan holda ma’lum bir shevalarga oid lingvistik qimmatga ega bo‘lgan faktlarni quyidagi usullar yordamida to‘plashni talabalarga tavsiya qilishimiz mumkin:

1. Eshitish va xotirada saqlash orqali. Sheva vakili yoki vakillari bilan suhbatlashib bo‘lgandan so‘ng suhbatni xotirada qayta tiklash bilan qayta yozib olish mumkin bo‘ladi. Bu ancha murakkab usul.

2. Bog‘liqli materiallarni, zarur hisoblangan alohida jumlalarning yozib olish orqali. Agar bu yozib olish usuli so‘zlayotgan kishi o‘z nutqiga e‘tibor bermayotgan bo‘lsa, u ancha samarali bo‘ladi. Chunki so‘zlovchi o‘zining nutqiga kimdir e‘tibor berayotganini, ayniqsa, yozib olinayotganini sezsa, uni yaxshilashga, tuzatishga, ko‘proq adabiy tilda gapirishga harakat qiladi. Bu hol ma’lum bir shevaga xos xususiyatlarni to‘laligicha aks ettirishga to‘sinqinlik qiladi.

Shevalarga oid materiallarni qo‘lda yozish talabidan katta mehnat talab qiladi, ya‘ni talaba matnni, nutqni xatosiz va tez, to‘lig‘icha aniq yozish uchun transkripsion yozuv tizimini yaxshi o‘zlashtirgan bo‘lishi hamda tez yozish texnikasini o‘zlashtirgan holda amalda qo‘llay oladigan bo‘lishi lozim. Aks holda, qolib ketgan jumla yoki so‘zlar, noto‘g‘ri yozib olingan lingvistik faktlar sheva to‘g‘risida noto‘g‘ri xulosalarga kelishga sabab bo‘ladi.

So‘zlovchi nutqini yozib olishda talaba uning barcha xususiyatlariga e‘tibor bera olmasligi mumkin. Chunki ularda ma‘lum ko‘nikma va tajribalar kam. Bunday hollarda talabaning hali malakali dialektolog emasligini hisobga olib, o‘qituvchi ularning ishini osonlashtirishi, aniqlashtirishi mumkin. Bu hol bir necha yo‘l bilan amalga oshiriladi. Birinchidan, guruhdagi har bir talabaga alohida-alohida topshiriqlar berish mumkin. Masalan, bir talaba o‘rganish obektini faqat fonetik tomondan o‘rgansa, ikkinchi talaba uning morfologik tomonlariga alohida e‘tibor beradi. Shuningdek, leksik va sintaktik xususiyatlar ham alohida o‘rganiladi. Bunday hol talabaning ishlarini ma‘lum darajada osonlashtiradi va aniqlashtiradi. Ikkinchidan, magnitofon lentasiga sheva vakili nutqining yozib olinishi orqali. Bu holatda o‘rganiladigan shevaning barcha xususiyatlari aks etadi, albatta. Magnita-fon(lentasi)ga yozib olingan materiallardan esa shevaning xohlagan lingvistik xususiyatlarini ajratib olish mumkin. Talaba shevaga oid materiallarni daftarga yozib borgani ma’quldir. Shunday holda olingan material to‘liq saqlanadi.

Uchinchidan, amaliyot o‘tkazish dasturi bo‘yicha, shuningdek, maxsus tuzilgan so‘roqlardagi savollar bo‘yicha so‘rash orqali. Bunda har bir savol qarshisiga uning javobi yozib qo‘y iladi. Agar ko‘p bo‘lsa, alohida varaqdan yozish mumkin. Dialektlarni o‘rganish tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu usul shevalarning xususiyatlarini o‘rganishdagina yaxshi samara berishi mumkin. Demak, har qanday holatda ham shevaga oid lingvistik, lingvogeografik xususiyatlarni o‘zida ifodalovchi materiallarni yig‘ish talabalarning ilmiy-nazariy bilimiga, mahoratiga va tayyorgarligiga bog‘liq. Chunki talaba

amaliyotda nimalarga e‘tibor berishi, nimalarni yozib olishi kerakligini yaxshi bilishi va obъektni iloji boricha ko‘proq turli mavzulardagi suhbatlarga torta bilishi lozim.

Talaba obyektni - sheva vakilini suhbatga tortishi uchun quyidagi mavzularda so‘z ochishi maqsadga muvofiq bo‘ladi:

1. Qishloqda yashovchilarining qaysi o‘zbek shevasiga mansubligi.
2. Ushbu hudud tarixi to‘g‘risida.
3. Mazkur hududning nomining kelib chiqishi va ma‘nolarini imkoniyat doirasida izohlash.
4. Qishloq vakillarining o‘ziga xos urf-odatlari.
5. O‘zbek xalqi tarixidagi muhim voqealar shu yerlik aholi nutqi misolida izohlab ko‘rsatish.
6. Sheva vakillariga xos bolalar o‘yinlarini yozib, qanday borishini izohlash.
7. Sheva vakillariga xos o‘yinlarning nomi va ularning boshlanishi, tugashini talqin etish.
8. Sheva vakillariga xos kasb-hunarlarning nomini yozib, ularni sharhlash.
9. Xalqaro ahvolga sheva vakillarining munosabatini qayd etish.
10. Bu hudud aqolisi nutqida uchrovchi xalq qo‘shiqlari, ertak, doston va termalari.
11. Tabiat hodisalarini izohlash.
12. Dehqonchilik va chorvachilik muammolarini yozib olish.
13. Qishloq vakillari shug‘ullanadigan kasb-hunarlar haqida ma’lum otlar yig‘ish.
14. Bu hududda yashovchilarining milliy qadriyatlarini sanab, izohlash.
15. Ushbu hududdagi to‘y-tomoshalar va ularning o‘tkazilishini izohlab bering.
16. Kunning muhim voqealariga sheva vakillarining munosabatini bilib olish.
17. Sheva vakilining tarjimai holini hamda kasbini so‘rash.

Talaba obyekt - sheva vakilining nutqini o‘rganish uchun tanlashda quyidagilarga e‘tibor bermog‘i kerak: sheva bo‘yicha materiallar yig‘ish uchun shu shevaning maxsus ma’lum otga ega bo‘lgan, nafaqaga chiqqan yoki umuman savodi bo‘lmagan vakillarini(ularning yoshi 50-60 va undan yuqori bo‘lishi maqsadga muvofiq) tanlash maqsadga muvofiq. Bunday kishilar nutqi adabiy til ta‘siriga kuchli berilmagan bo‘lib, unda shevaning aniq xususiyatlari saqlanib qolgan bo‘ladi. Bu hol shevaning fonetik, morfologik va sintaktik xususiyatlarini mukammal aks ettirishda juda yaxshi samara beradi. Leksik xususiyatlarni esa shevaning yuqoridagi vakillaridan ham so‘rab-surishtirib olish mumkin.

Talaba sheva vakilidan material to‘plar ekan, materialning pasportini, ya‘ni asosiy hujjatini to‘ldirishi shart. Agar sheva vakilining gaplari

magnitofonga yozilsa, unda ham aks etmog‘i lozim. Aks holda, to‘plangan materialning obyekti - egasi noaniq bo‘lib qoladi. Material uchun pasport to‘ldirish sharoitga qarab olib borilsa, yaxshi bo‘ladi, chunki ba‘zi kishilar bor, u haqida o‘zidan biron narsa so‘rasangiz jum bo‘lib qoladi. Boshqa bir odamlar borki, u haqida biror narsa so‘rasangiz, bemalol gapirib beraveradi.

Har bir olingan materialning pasportida quyidagilar aks etgan bo‘lishi maq-sadga muvofiq hisobalanadi:

- Pasportning tartib raqami (masalan, 1-pasport)
1. Viloyati.
  2. Tumani.
  3. Qishloq kengashi nomi.
  4. Qishloq, shahar yoxud posyolkasi.
  5. Sheva vakilining ismi-sharifi.
  6. Tug‘ilgan yili.
  7. Ma’lum oti, qayerlarda o‘qigani, ishlagani.
  8. Qaysi yozuvni bilishi
  9. Ishlamagan bo‘lsa, sababi.
  10. Kasbi hamda ish joyi.
  11. Materialni yig‘ib olgan shaxsning ismi-sharifi.
  12. Material yozib olingan kun, oy va yil.

Bitta kishidan bir necha material olish mumkin, shuning uchun bitta pasport to‘ldirilsa bo‘ladi. Boshqa sheva vakillaridan material yozib olinganda esa, albatta, yangi tartib raqamli hujjatni, ya’ni pasportni to‘ldirilishi shart.

Sheva vakilidan yozib olingan materialning pasporti to‘ldirilgach, o‘rganilayotgan obekt haqida ma’lum ot berilishi lozim. Yoki oldin sheva haqida ma‘lumot berilib, so‘ngra bu asosiy hujjat to‘ldirilsa bo‘ladi. Bunda material yig‘ilayotgan joyning eski va yangi nomlari, qishloq nomining kelib chiqishi haqidagi rivoyat va farazlar, o‘rganilayotgan obekt tuman markazidan va shahardan, temiryo‘ldan qanchalik masofada joylashgani, shu hududdagi sheva vakillaridan boshqa yana qaysi millat vakillari yashashi, sheva vakillari qaysi o‘zbek urug‘iga mansubligi, bu shevaning qaysi lahjaga oidligi, material olinayotgan joyning madaniy va iqtisodiy hayoti, urf-odatlari va hokazolar qisqacha o‘z ifodasini topadi. Bular o‘rganilayotgan sheva haqida to‘liqroq tasavvur hosil qilishimizga yordam beradi. Yuqorida qayd etib o‘tilgan tashkiliy ishlar amalga oshirilgach, sheva bo‘yicha materiallari to‘planib, transkripsiya asosida yoziladi.

### **Sheva materiallarini transkripsiya yozish ko‘nikmalari to‘g‘risida**

Talaba butun amaliyot davomida material to‘plash jarayonida transkripcion yozuv tizimidan foydalanadi. Transkripsiya bilan yozilgan materiallar shevaning takrorlanmas xususiyatlarini ko‘rsata oladi. Shuning

uchun ham transkriptsion yozuv uchun zarur bo‘lgan harflarni va shartli belgilarni qayd qilib o‘tishni lozim deb topdik. Talaba amaliyot vaqtida bundan bemalol foydalanish mumkin. Transkripsiya bilan yozish uchun quyidagi transkriptsion belgilar ishlataladi:

### **Unlilar:**

Unli tovushlarni ifodalash uchun quyidagi transkriptsion belgilar olingan:

**ў** – umumturkiy orqa qator, lablanmagan [a] unlisi. Qipchoq guruhidagi ohangdosh shevalarning hammasida uchraydi: *vaqt, ata, hamъ*.

**ә** – old qator, lablanmagan keng unli.U o‘zbek xalq shevalarining deyarli hammasida uchraydi: *әкә, кәттә (Toshkent), әкә, кәттә (Qo‘qon)*, .

**Ә** – orqa qator, lablanmagan ochiq unli tovush. U ko‘pincha shahar va shahar atrofiidagi shevalarda uchraydi: *дән, нән, әтә, бәлә, мәшһүн*.

**е** (ye) – til old qator,lablanmagan tor unli ылиб, shahar va shahar tipli shevalarda uchraydi: *kel, bedә, terәk, yенәвъ, yechкъ, teskәrъ, kerәk*.

**е** – til old qator, lablanmagan, ochiq [e]unlisi. Bu fonema ohangdoshlik xususiyatiga ega bo‘lgan shevalarda qо‘llaniladi: *eshik, echki, elәk, mergәn*.

**ԑ** – old qator unli , lablanmagan [e] unlisining ochiq varianti.Bu esa [e] va [ә] o‘rtasidagi bir tovush bo‘lib, Xorazmda *gel, get, gerәk*, Namanganda *nemәsъ, beli/* tarzida aytildi.

**и** – til oldi unli. U odatdagи turkiy so‘zlarda uchraydigan lablanmagan tovushdir.Ohangdosh shevalarda mustaqil fonema hisoblanadi: *Tish, kiyim, ilgari, bittә, kitәр* .

**ъ** – lablanmagan unli. U turg‘un tovush [i] va [ы ] tovushlarining birlashishi natijasida kelib chiqqan. ъ fonemasi shahar va ularga yaqin shevalarda qо‘llaniladi: *Kъshъ, ъkkъ, bъz, kъm, kъr, kъrъm, chънъп*.

**ы** – lablanmagan unli. U turg‘un tovush bo‘lib, i unlisiga yaqin talaffuz etiladi va chuqur til orqa tovushlaridan bo‘lgan *q, g‘, x* tovushlari bilan yonmayon keladi. ы – unlisi shahar va shahar atrofi shevalarida uchraydi. *Qыигъ, qыish, qызығ, тых, /ыish(/ыisht )*.

**ү** – orqa qator, lablangan unli.Turkiy tillarda mustaqil fonema sanaladi.Bu unli o‘zbek xalq shevalarining hammasida ishlataladi: *tumshuq, ulug‘, quyruq, murun*.

**ү** – til oldi qator, lablangan unli. U ohangdoshlik qonuni saqlangan o‘zbek xalq shevalarida uchraydi: *Kyil, gyi, ychyn, ych, pyl*.

**ө** – til orqa qator, lablangan unli fonema. Barcha shevalarda mustaqil holatda qо‘llaniladi: *oraq, qолыны, quoыр, bir ming yuz on somga qoy* Әldы.

**ө** – til old qator, lablangan unli. Bu ham ohangdosh o‘zbek shevalarida ishlataladi. *Kөl, bөlә, bөlim, kөr, kөz, gөr, kөmъr*.

**ы** – lablangan tovush. Bu unli [o] bilan [ө] oralig‘idagi tovush bo‘lib, shahar va shahar atrofidagi shevalarda uchraydi. Shunday qilib, unlilarni ifodalash uchun yuqorida qayd etilgan singari 14 ta belgi ishlataladi.

## **Undoshlar**

Ilmiy yozuv (transkripsiya)da b, d, z, m, n, p, r, s, t, sh undoshlari o‘zicha ishlatiladi. Qolgan belgilar esa quyidagilardir:

**v** – lab-lab ; [v] lab-tish undoshi uchrab qolsa, uni alohida izohlash kerak.  
*Vəh, Əvqat.*

**y** - ruscha [y] tovushiga nisbatan torroq talaffuz qilinadigan tovush:  
*yənən, əyə, pəyshəmə.*

**g‘** - chuqur til orqa, sirg‘aluvchi tovush: *quləg‘*, Əg‘aynъ, g‘əm.

**g** - sayoz til orqa, portlovchi tovush: *gəz*, *gul*.

**j** - sirg‘aluvchi undosh: *ajdar, jurnal*.

**ж** yoki **dj** - qorishiq undosh: *җələ* yoki *djol*.

**q** - chuqur til orqa , portlovchi tovush: *qoy, qayschы.*

**k** - sayoz til orqa, portlovchi tovush: *kərəm, kəch*.

**l** - til orqa: *altын, lələ*.

**l**- til oldi, yumshoq: *kyl, kel*.

**ң** - til orqa, burun tovushi: *ishiñ, təñə qara*.

**f** - lab-lab va lab-tish: *tuf, puf*.

**ch** - qorishiq tovush: *chəy, ъchək*.

**x** - chuqur til orqa, sirg‘ aluvchi tovush: *xətəyir, Xəlmət*.

**h** - bo‘g‘iz tovushi: *hamma, əvhəl*.

## **Diakritik belgilar va boshqa shartli belgilar**

. ( nuqta) , : ( ikki nuqta) va ... ( ko‘p nuqta) belgidan keyin qo‘yilib , unlilarning cho‘ziqligini ifodalaydi.

, - lenis , g‘ ning yoniga qo‘y ilib ( g‘ъ ) talaffuzda portlashni ifodalaydi.

ъ – asper, g ning yoniga qo‘y ilib (gъ ), spirantizatsiyani, ya’ni shu tovushning sirg‘ aluvchi ekanligini ifodalaydi.

/ - akut, belgining o‘ng tomoniga qo‘yilib, ( 1/ ), palatalazatsiya ( yumshalishini) ko‘rsatadi.

> belgisi – o‘tish hodisasini bildiradi.

< belgisi – o‘zgarish hodisasini ko‘rsatadi.

// belgisi – tovushlarning almashinishi va ikki faktning parallel qo‘llanishini ko‘rsatadi.

( ) qavs – shart bo‘lmagan , tushib qoladigan elementni ko‘rsatadi.

[ ] o‘rta qavs – umumiy matndan transkripsiya qilingan so‘zlarni ajratib ko‘rsatish uchun ishlatiladi.

~ - turli darajadagi qisqarish va kuchsizlanishlarni ifodalaydigan belgilardan biri sanaladi.

## **Shevalarni o‘rganish dasturi**

Yuqorida qayd etib o‘tilganidek, har bir shevaning o‘ziga xos xususiyatlarini aniq ochish uchun amaliyotga borgan talabalar qo‘lida maxsus shevani o‘rganishga mo‘ljallangan dastur bo‘lishi zarur. Bu dastur esa ma’lum bir hududdagi sheva vakillari uchun xos bo‘lgan dialektal birliklar tizimini tashkil etuvchi barcha xusu-siyatlarini o‘zida aks ettirishi kerak. Albatta, dastur bo‘yicha yig‘ilgan materiallar hamma vaqt ham shevani har tomonlama aks ettira olmaydi. Lekin o‘rganuvchilarni ma’lum bir sistema - tizimda ishlashini ta’minlaydi, ma’lum bir maqsadga qarab yo‘nalishini ko‘rsatib turadi.

Biz o‘zbek dialektologiyasida qo‘llanib kelingan dasturlar, so‘roqliklar, metodik tavsiyalarga tayangan holda tuzilgan quyidagi dasturni shevalardan material to‘plash uchun talabalarga tavsiya qilamiz.

Dasturda tilshunoslikning har bir bo‘limiga oid bo‘lgan savol va topshiriqlar alohida-alohida tarzda beriladi.

### **Fonetika bo‘yicha materiallar to‘plash**

O‘zbek shevalarining fonetik xususiyatlarini o‘rganishda talablar(lar)dan jiddiy va mashaqqatli mehnat talab qilinadi. Chunki u sheva vakillarining nutqini har tomonlama sinchiklab o‘rganishi, buning uchun esa shevaning fonemalar tuzi-lishini belgilashi, har xil sharoitlarda bo‘ladigan fonemalarning fakultativ va kombi-nator-pozitsion variantlarini aniqlashi va ularning tarixiy taraqqiyot bosqichlarida mavjud bo‘lgan tarixiy-fonetik evolyutsiyani kuzatish talab qilinadi.

Dasturdagi har bir punkt tushunarli bo‘lishi uchun, shu masalaga oid misollar namunasi ham berildi.

Amaliyot davomida talabalar shu punktlarning har biriga javob topa olsalar, o‘rganilayotgan shevaning asosiy fonetik xususiyatlari ma’lum darajada yoritilgan bo‘ladi. Shevalar fonetikasi bo‘yicha materiallar to‘plash uchun savollar:

1. o-lashish va a-lashishning tarqalishi:

a) bir bo‘g‘inli o‘zaklarda: *ot//at, oz//az, bosh//bash kabi;*

b) ikki bo‘g‘inli o‘zaklarda: *bola//bala, ota//ata, bozor//bozar//bazor//bazar* singari.

v) ko‘p bo‘g‘inli so‘zlarning keyingi bo‘g‘inlarida: *qaldo‘rg‘och // qaldo‘rg‘ach, yaxsho‘roq // yaxsho‘raq* kabi.

2. Birinchi darajali cho‘ziq unlilarning mavjud yoki mavjud emasligi: *at//a:d, yaz//ya:z, ot//o:t//o:d* singari.

3. Ikkinchi darajali cho‘ziqlik - ultra cho‘ziqlik borligi: *shahar//sha::r* kabi.

4. Lab garmoniyasining mavjud yoki mavjud emasligi:

a) *konglum//kongulum//kongilim//ko‘ingləm* singari;

b) *turuptu//turuptъ//turъptъ* kabi;

v) *ustude//utide//ustde* singari.

5. Kontrast juft unlilarning mavjudligi yoki mavjud emasligi: /a o, u o‘, ъ, i, Ҷ/. Masalan, *bol/bo‘l, qol / qo‘l* kabi.

6. Cho‘ziq hamda qisqa unlilarning mavjud yoki mavjud emasligi.

7. So‘z boshida o‘rta-tor va o‘rta-keng unlilarning diftonglashuvi /ie, uo, uo‘/: a) ie – *iechki // ieshki* kabi;

b) uo – *uon // von, uoli* singari;

v) uo‘ - *uo‘rdak // uo‘rdek // uo‘rday* kabi.

8. So‘z boshida dj/j/i hodisasining tarqalishi: /djoq-joq-yoq/, /djol-jol/yol/ singari.

9. Yumshoq va qattiq unlilarning mavjudligi. Ular so‘zlarni farqlashda ishlataladimi?

10. A//E mosligi uchraydimi? /ayel-ayol, abir-obro‘i, majoz-mijoz, palenchi-palonchi/ kabi.

11. O‘//E mosligi uchraydimi? /o‘tuk-etik, o‘chki-echki/ singari.

12. O‘ unlisi U unlisi bilan almashadimi?

13. E // U mosligi uchraydimi? /duvona-duvol/devol/ kabi.

14. *Tursun, turg‘un, kunduz, chumchuq* kabi so‘zlardagi ikkinchi bo‘g‘indagi unli qanday talaffuz qilinadi?

1. U va A tovushlarining almashinishi: *djavop-djuvop, yevosh-yuvosh-djuvosh* kabi.

2. E//I hodisasi uchraydimi? /ergash-irgash, endi-indi/ singari.

3. E//U hodisasi mavjudmi? /devor-devol-duvol/ kabi.

4. U//O‘ hodisasi uchraydimi? /uy-o‘y, kuylak-ko‘y lak/ singari.

5. E//O‘, O hodisasi mavjudmi? /echki-o‘chku-ochku, etik-o‘tuk/ kabi.

6. So‘z boshida y undoshiining tushish hodisasi: /yъrъk-ъrъk, yъgъrma-ъgъgma-egъrma, yъl-ъl singari.

7. X va h mavjudmi? /hamma-xamma, mehnat-mexnat/ kabi.

8. F tovushining mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash.

9. Tor unlilardan so‘ng til orqa undoshlarining mavjudligi yoki tushishi: /sarъq-sarъ, kichik-kichi/ kabi.

10. So‘z boshida /k-g/ va /t-d/ hodisalarining mavjud yoki mavjud emasligi: /koz-goz, kun-gun, tush-dush, tovush-dovush, tutun-dutun/ singari.

11./g‘ -v/ hodisasi: /tog‘-tov, og‘iz-oviz/ kabi.

12./p-v/ hodisasi: /top-topaman-tovaman/ singari.

13./b-p/ hodisasi: /butun-putun/ kabi.

14./d-t/ hodisasi: /zavod-zavut, baland-balant/ singari.

15./b-m/ hodisasi: /burun-murun, bunday-munday/ kabi.

16./y-g//g‘ hodisasi yoki /g-y/ hodisasi bormi? /mayiz-megъz, kigiz-kiyiz/ singari.

17./k/q-y, g/g‘ -y/ hodisasi: /tegdi-tegвъ, tiydi-tъyевъ, yъg‘ъn-djъyуn/ kabi.

- 18./ng-y/ hodisasi: /atangъz-etengъz-atayъz-oteyъz/ singari.
- 19./t-ch/ hodisasi: /chъsh-tъsh, chusht-tusht/ kabi.
- 20./i-e/ hodisasi: /xil-xel, tig ‘-teg ‘, mix-mex/ singari.
- 21./i-u/ hodisasi: /altin-altun, xotin-xotun, temir-temur, borsin-borsun/ kabi.
- 22./g‘ /ning sirg‘ alish hodisasi: /ag ‘-ak, ax-ox, ko ‘k-kok/ singari.
- 23./q-g‘ /x/ hodisasi: /toqsan-toxsan, chъqtъ-chъg ‘въ, aqъ-ag ‘ъ/ kabi.
- 24./x-q/ hodisasi: /xotin-qatъn-xatъn/ singari.
- 25./k-v/ hodisasi: /olevъk-olduv, kettъk-kettuv, tuzuk-tuzuv/ kabi.
- 26./k-y/ hodisasi: /terek-terey, bilek-biley/ singari.
- 27.So‘z boshida /h/ tovushining orttirilish: /ayvan-hayvan, arra-harra/ kabi.
- 28./k-g/ hodisasi: /ekin-egin, ekip-egib/ singari.
- 29.So‘zlarga egalik affiksi qo‘shilganda /p-b/ hodisasining hosil bo‘lishi: /qap-qаръ-qаръм/ (qop) kabi.
- 30.So‘z oxirida tor unlilardan keyin /q, k/ tovushlarining o‘zgarishi: /sarъq-sarъ-saru-saruv-saru:/ singari.
- 31.To‘liq progressiv assimiliyatsiya hodisasining mavjud yoki mavjud emasligi hodisasi: /qo ‘shnъ-qo ‘sh shъ, bizni-bizzi-bъzъ, temъrnъ-temъrrъ, ketвъ-kettъ/ kabi.
- 32.To‘liq regressiv assimilyatsiyaning mavjud yoki mavjud emasligi hodi-sasi: /ornъм-onnъм, etles-elles, borвъм-bodeъм/ singari.
- 33./ld-ll/ tovushlarining o‘zgarishi: /bo ‘ldъ-bo ‘llъ, keldъ-kellъ, oldъ-ollъ/ kabi.
- 34.Metateza hodisasi: /deyre-daryo, aylaney-aylanay/ singari.
- 35.So‘z orasida /n/ ortishi yoki ortmasligi: /ichide-ichinde, tushide-dushinde, qolъde-qolъnde/ kabi.
- 36.So‘z boshida /q-k/ hodisasi: /qalampъr-kelempъr, kant-kent, qelem-kelem/ singari.
- 37./b-m/ hodisasi: /buni-muni, kesbi-kasbi/ kabi.
- 38./s-ch/ hodisasi: /soch-choch, sochъq-chochъq-chachoq-sechoq/ singari.
- 39./v/ tovushining tushishi natijasida ikkinchi darajali cho‘ziqlikning vujudga kelishi hodisasi: /ovqet-o:qet, hovlъ-ho:lъ/ singari.
- 40.Shevada quyidagi fonetik hodisalardan qaysisi uchraydi? Masalan: /erslon-eslon, herzdor-hezdor, tureвъ-tudeвъ, kertoshka-kettъshke, hershъ-heshshъ, Tursun-Tussun/ singari.
- 41./bm-pp//mm/ hodisasi: /boribman-borippa-nborimman/ kabi.
- 42.So‘z boshida /v,y/ hodisasi orttirilishi hodisasi: /osma-vosma, otъr-votъr, ene-ona-yene/ singari.
- 43.So‘z ichida va oxirida /h/ tovushining tushirilishi hodisasi: /sheher-she:er, gunoh-guno:, ahmet-e:met, nikoh-niko:/ kabi.

44./q, g‘, k/ tovushlarining tushishi natijasida ikkinchi darajali cho‘zliqning vujudga kelish hodisasi: /q̚shloqlik-q̚shlo:lik, bog‘l̚q-bo:l̚q, ochoq-ocho:/ singari.

45./f-p/ hodisasi: /falonchъ-pelonchъ, febrъke-pebrъke, fotъme-potъme, oftob-optob/ kabi.

46./x-g‘ / hodisasi: /xoroz-g‘oroz, xotik-g‘otik, xəznə-g‘aznə/ singari.

47./t-h/ hodisasi: /əhləs-ətləs, əhlə-xətlə/ kabi.

48.So‘z o‘zagida ayrim tovushlarning takror kelishi uchraydimi? /tepə-teppə, həqyım-həqqyım / kabilar.

Yuqoridagilardan tashqari shevaning o‘ziga xos bo‘lgan har qanday fonetik hodisalar uchrasa, ularni alohida misollar bilan qayd etish lozim.

### Morfologiya bo‘yicha materiallar to‘plash

Shevalarga xos xususiyatlar so‘z turkumlari va mavjud grammatik kategoryalar bo‘yicha o‘rganilishi maqsadga muvofiqdir. Bunda ko‘proq shevaning morfologik xususiyatlarining adabiy tildan farq qiluvchi tomonlari aks ettirilsa, yaxshiroq bo‘ladi. Adabiy tildan farq qilmaydigan formalarni qayd etish esa behuda takrorni keltirib chiqaradi. Shuningdek, shevada uchramaydigan morfologik xususiyatlarni mavjud deb ko‘rsatish ham katta nazariy va amaliy xatoga olib keladi, bu yolg‘on fakt - dalillar bu sohada tadqiqot olib boruvchi kishilarni chalg‘itishi mumkin. Shuning uchun bunday yolg‘on faktli ma’lumotlar keraksiz hisoblanadi.

Shevalarning morfologiyasiga oid bu dastur so‘z turkumalari va morfologik kategoriylar bo‘yicha tuzildi. Agar ulardan tashqari holatlar uchrasa, alohida qayd qilish lozim. Shevalar morfologiya bo‘yicha materiallar to‘plash uchun savollar:

1.Qaratqich /-ning/ va tushum kelishigi /-ni/ qo‘sishmchalarining farqlanishi yoxud farqlanmasligi.

2.Shevangizda qaratqich kelishigi qo‘sishmchasining qanday variantlari mav-jud? /-ning, -пънг, -вънг, -ding, -ting, -вън, -тън/.

3.Tushum kelishigi affiksining variantlari: /-ni, -пъ, -въ, -тъ, -ъ, -и.

4.Jo‘nalish(-ga) va o‘rin-payt(-da) kelishiklari qo‘sishmchalarining farqlanishi yoki farqlanmasligi.

5.Shevada qanday qo‘shma otlar uchraydi? Zarpechak, tolkul, bilaguzuk, ko‘r sichqon, laylakqor, yo‘lpashsha, tog‘chumchuq, sixkabob kabi.

6.Shevada -turuk/-duruk/-dirik/-tirik qo‘sishmchalari orqali ot yasaladimi? /bo‘yinturuq, umulduruq, umildiriq, shumulturuq, papultiriq/ kabi.

7.Jo‘nalish kelishigi qo‘sishmchasining variantlari: /-ga, -gə, -kə, -qa, -ga, -a, -ə, -ya, -yə/.

8.O‘rin-payt kelishigi qo‘sishmchasining qanday variantlari ishlataladi? /-da, -də, -ta, -tə/.

9.Chiqish kelishigi qo'shimchasining qanday variantlari shevangizda mav-jud? /-dan, -dən, -tan, -tən, -din, -eñn, -tin, -tən/.

10.Ko'plik qo'shimchasi (-lar) ning qanday variantlari bormi? /-lar, -lər, -la, -nər, -nar, -ər, -ar/.

11.-lər yoki -la qo'shimchalari hurmat ma'nosida yakka shaxslarga nisbatan ham ishlatiladimi? /dədəmlə, əkəmlə/ kabi.

12.Shevada egalik affikslarining qanday variantlari mavjud? /mektebəmtəz, mektepəmtəz, mektarpəvuz, iuyməz, oyvuz/ kabilar.

13.Shevada əpemlə-əpemgələ, əyəmlə-əyəmgələ, bıvəmlə-bıvəmgələ formalari mavjudmi?

14."Ko'k" sifatining orttirma darajasining qanday variantlari uchraydi? /ko'm-ko'k, kom-kov, kum-kuv, kokmek/ kabi.

15.-rəq qo'shimchasining qanday variantlari bor? / -rek, -rək, -rəq, -rog', -ro:, -lav, -tav/ kabi.

16.-g 'ən, -əng 'əch, -ək kabi sifat yasovchilarining qaysi biri shevada mavjud?

17.Tartib son yasovchi qo'shimchalarining qanday variantlari bor? /-ləmchə, -lənchə, -(ə)nchə, -(ə)ndjə, -(u)ndjə, -(i)nchi/ kabilar.

18.Birdan o'ngacha sonlar va o'nlik, yuzlik, minglik sonlar qanday talaffuz etiladi? Sheva vakiliga ularni sanatib, yozib oling.

19.Shaxs va ko'rsatish olmoshlarining quyidagi ko'rinishlaridan qaysilari shevada ishlatiladi? Masalan: men-mən, sen-sən, u-ul-ol-vol, bəz-bəzlər-bəzər-bəzə, bu, shu, sho, oshe, shə, həylə-həyləhə, ənə-ənə, tənə-tənə, tənə bu-tənənu-tənənən-tənənə, ana u-ənənə kabilar.

20.So'roq olmoshlarining qanday variantlari uchraydi?

21.Jo'nalish kelishigidagi shaxs va ko'rsatish olmoshlarining ifodalanishi: /mengə-məngə-mag' an, senga- sangə-səngəe-səg' an/ kabi.

22.Chegara ma'nosini bildiruvchi qo'shimchalarining qanday variantlari bor? /-gachə, -kəchə, -qacha, -devur, -chəvur, -chavur, -dəng/ kabi.

23.Aniq hozirgi zamon fe'llarining ifodalanishi: -vət, -vut, -yap, -yəp, -ut, -əp, -yatər, -djatər/ kabilar.

24.Shevada kelasi zamon fe'lning ifodalanishi: -djek, -djaq, -chek, -chaq, -adəgən, -adəgan, -miz, -vuz, -vuzə: /bardjaqman, geldjekman, barchaq, bərəvən-gənmən, keləvəgənmən, bərəməz, bərəvuz, bərəvuzə/ kabi.

25.Kelasi zamon fe'lning ketarmishman, ketarmishsan, ketarmish kabi formalari mavjudmi?

26.O'tgan zamon fe'llarining shevalarda turlicha shakllarda ifodalanishi: -dik, -duk, -duv, -dig /boreňk, bordug, borduv, keldig/, -vuz, -vuze, -eňyuz, -məsh, -gan, -kən, -miz /bərduvuz, bərduvuzə, bərəməsh, barg 'amməz, bəruvkəmməz, bəreňməz/ kabilar.

27.Shevada buyruq-istak maylining qanday variantlari mavjud? -g 'alə, -geli, -alə, -elə, -eyluk, ılyluv: /baralə, bəreylik, bəreyluv/ kabi.

28.Shevada *bərsak*, *bərsəv*, *bərsəvuz*, *bərseməz*, *bərsengəz*, *bərseyəz*, *bərsele* kabi shart mayli ko‘plik qo‘shimchalarining qaysi bir varianti ishlatalidi?

29.-*maqchi*, -*məxchi*, -*məqchi*, -*mə:chi*, -*mag ‘chi*, -*maxchi* qo‘shimchalarining qaysi biri shevada ko‘p qo‘llanadi?

30.-*gudek*, -*g’udek* yordamida tuzilgan fe’l formalari mavjudmi?

31. *ətvərdi*, *yutvərdi*, *ketvərduk*, *aytvur-etvur*, *sətvəldi*, *əpqəldi*, *əbəraman*, *əpke-apke tipidagi* qo‘shma fe’llar uchraydimi?

32.Fe’lning orttirma daraja formalaridan (-*t*, -*at*, -*it*, -*giz*, -*kəz*, -*g’əz*, -*gəz*, -*kəz*, -*qaz*, -*g’ az*, -*i*, -*az*, -*tir*, -*dir*, -*ir*) qaysi biri faolroq ishlatalidi?

33.*Bərbəb edi* – *baribeəvə* – *barivedi* - *bəruvəvə* so‘zlarining qaysi biri o‘rganilayotgan ushbu shevada mavjud?

34.-(*a*)*r*, -*mas* affikslari qatnashgan so‘zlar qo‘llanadimi?

35.Sifatdosh yasovchi qo‘shimchalarining dialektal-shevagagina xos bo‘lgan variantlari uchraydimi, qayd qil ing.

36.Shevada ravishdosh yasovchi qo‘shimchalarining qanday variantlari mavjud?

37.O‘rganilayotgan shevada *mundə*, *uyəg ‘də*, *buyəg ‘də*, *shuyəg ‘də*, *bəyəg ‘də*, *əg ‘də*, *bəg ‘də*, *əqqə*, *bəqqə*, *shəqqə*, *shəg ‘də*, *o ‘ttə*, *əttə*, *bo ‘ttə*, *sho ‘ttə*, *uyerdə*, *sherdə*, *shettə*, *uyən*, *buyən*, *shuyən*, *bəz*, *bə*, *yənə*, *yənəbə*, *tag ‘ın*, *tag ‘a*, *tag ‘ındə*, *song*, *son*, *sog ‘ın*, *bəryolə* kayubi ravishga oid so‘zlarning qaysi xillari uchraydi?

38.Fe’lning birgalik daraja formalari: *bolъler kelъshevə*, *kъtob o ‘qъshədə* kabi aytiladimi yoki *bolъlъr kelebъler*, *kъtob oqъydъlər* formasida -*sh*, -*ish* qo‘shimchalari almashmasdan talaffuz qilinadimi?

39.To‘liqsiz fe’lning quyidagi formalaridan qaysi biri ishlatalidi: *edi* (*di*), *ekan* (*kan*, *akan*), *emish* (*emush*, *mush*, *mish*)?

40.Bilan ko‘makchisining tarqalishi: *kim bъlen*, *kim minan*, *kъm tъnen*, *kimmen*, *kummen* kabilar.

41.Lekin ko‘makchisining qanday dialektal variantlari uchraydi? /*lekin*, *nekъn*, *ləkъn*, *əmmə-ləkъn*/ kabilar.

42.-*tъ//mi//ma//mə//nə* so‘roq yuklamalarining tarqalishini aniqlang: *bərm//bərma//barna//kelədəmъ//keləmə* kabilar. Misollarni shevaga oid matnlar asosida keltiring.

43.Adabiy tildagidan farq qiluvchi so‘z yasovchi qo‘shimchalar yoki shevaning o‘zagagina xos bo‘lgan yasovchilar mavjudmi? Bo‘lsa, ularga matn asosida misollar keltiring.

44.Shevada qanday emotsional so‘zlar qo‘llanadi? /*əh*, *əh-əh*, *vəh-və h*, *bay-bay*, *pəh-pəh*, *astaprilə*, *yə pirimay*, *ibiy/* kabilar.

45.Tovushga taqlid so‘zlarning qanday turlari mavjud? /*vish-vish*, *pisir-pisir*, *tasir-tusir*, *hiq-hiq*, *pix-pix/* kabilar.

46.Shevadagina ham kam uchraydigan qo‘shimchalar haqida to‘xtaling va misollar keltiring.

## Leksika bo‘yicha materiallar to‘plash

O‘zbek shevalarining leksik xususiyatlarini o‘rganish shevaning boshqa bo‘limlarini-qismlarini o‘rganishga nisbatan biroz osonroq bo‘ladi. Chunki bunda talabalar leksika bo‘yicha tuzilgan so‘roqlikdan foydalanib yozib olishi mumkin bo‘ladi. Shuningdek, narsa va predmetlarni ko‘rsatib, ularning nomlarini so‘rab olishi ham mumkin. Ko‘p ma’noli so‘zlearning har birining ma‘nolarini ochib berish uchun esa ularni matnning ichida berish lozim. Hozirgi kunda sheva hayotiga kirib kelayotgan yangi so‘zlarga ham alohida e’tibor berish kerak.

Shevalarni o‘rganganda shunday so‘zları uchrashi mumkinki, ularning bar-chasini oldindan bilishi qiyin. Shuning uchun talabalar shevadagi har bir yangi so‘zga jiddiy e’tibor berishi, uchragan yangi so‘zni matn ichida yozib borishi kerak. Ana shundagina o‘rganiladigan shevaning lug‘at tarkibi ma’lum darajada to‘liq aks ettirilishi mumkin va talabalar ushbu amaliyotdan ancha narsalarni o‘rga-nishlari aniq bo‘ladi. Quyidagilarga talaba o‘rganayotgan shevasi materiallari asosida har biriga 20 (yigirmata) dan misollarni javoblarida yozishlari lozim:

Qipchoq shevasiga xos bo‘lgan *kəvənək* // *kəbənək* // *kəpən*. 1. k (chakmon), egi I1.V k // *etruk* / (yolg‘on), *qalpaq* // *qalpəq* (do‘ppi), *urg* // *uvurt* // *ovurt* (lunj), *manglay* (peshona), *xəqən-qən* // *qan* (*xən*), *ne* // *n»* // *ni* (nima), *vusma* “osma” (o‘sma) singari so‘zlardan Navoiy asarlaryda ham keng foydalanilgan.

Yoki boshqa misollarni ham keltirish mumkin: *qalampir* (adabiy tilda), *gərmdərə* (toshkent shevasida), *qalamfur* (Samarqand, Buxoro shevalarida); *xomak* (adabiy tilda), *sapcha* (Toshkent shevasida): *mzlamaq*, *istaməq*, *qidirməq* ma‘no dosh so‘zları shevalar nuqtai nazaridan quyidagicha: *əstəməq* (Farg‘ona va O‘sh shevalarida), *qədərməq* (Toshkent shevasida), *mzlamaq*, *qmdmrəməq*, *istəmaq* (qipchoq va o‘g‘uz lahjalariga xos shevalarda).

Shevalar eng qadimiy bo‘lib, odamzot tilga kirgandan boshlab, iste’molda bo‘lib kelmoqda. Bunday o‘ziga xoslikni hozirgi vaqtida osonlik bilan farqlash mumkin: *bineyi* (tuzuk), *pisip* (yashirinib), *talli* (shirinlik), *tag‘in* (yana), *qmlam-mq* (yupqa), *qnchap* (tez), *hzyda* (yur), *bavmr* (jigar) singarilar qipchoq lahjası shevalarida; *zəp* (juda, vaqtida), *peqqos* (butunlay), *pəchchə* (aka, amaki), *uneməq* (ko‘nmoq), *mehovat* // *vey‘mr* (mubolag‘a), *diltan bo‘lməq* (xafa bo‘l-moq) singarilar qorluq-chigil-uyg‘ur lahjasidagi shevalarda; *atnz* (paykal), *morchə* (chumoli), *dovdm* (beparvo), *pəlpis* (iflos), *arna* (anhor), *yap* (katta ariq), *pərik* (ship), *təyək* (bolaxona), *məyin* (miya), *kurt* (bura) va boshqalar o‘g‘uz guruhi shevalarila uchaydi. Shevalar leksika bo‘yicha materiallar to‘plash uchun savollar:

- 1.Shevadagi antonimlarni qayd eting.
- 2.Shevada uchrovchi omonimlarni to‘liq yozib olishga harakat qiling.
- 3.Mazkur shevada uchragan sinonimlarni birma-bir yozib oling.

4.Sheva hududidagi joy nomlari - toponimlarni yozib oling va uning tarkibidagi dialektizmlarni izohlang.

5.Sheva hududida uchrovchi gidronimlarni qayd qil ing va uning tarkibidagi dialektizmlarni sharhlang.

6.Sheva vakillari yashayotgan hududga xos tarixiy inshoot va binolarning, machitlarning nomlarini yozib, izohlab tushuntiring.

7.Sheva vakillari nutqiga xos qabriston nomlarini yozing va uning tarkibidagi dialektizmlarni sharhlang.

8.Sheva mavjud bo‘lgan hududda uchrovchi etnografik nomlarni birma-bir yozib oling va uning tarkibidagi dialektizmlarni izohlash.

9.Shevada uchrovchi qarindosh-urug‘chilik atamalarini qayd eting va uning tarkibidagi dialektizmlarni sharhlashga harakat qiling.

10.Sheva vakillari nutqidagi uy-ro‘zg‘or buyumlarining nomlarini yozib oling, izohlang.

11.Shevaga xos kuyov salomlarni yozing va va uning tarkibidagi dialektizmlarni sharhlang.

12.Shevaga oid kelin salomlarni yozib oling va uning tarkibidagi dialektizmlarni izohlab bering.

13.Shevadagi tez aytishlarni yozib olish va uning tarkibidagi dialektizmlarni sharhlang.

14.Shevada qo‘llanuvchi oziq-ovqat nomlarini yozib oling va uning tarkibi-dagi dialektizmlarni izohlashga harakat qiling.

15.Shevada qo‘llanuvchi kiyim-kechak nomlarini qayd eting va uning tarki-bidagi dialektizmlarni sharhlash.

16.Shevada qo‘llanuvchi ish-qurollarining nomlarini yozib oling va uning tarkibidagi dialektizmlarni izohlash.

17.Shevada qo‘llanuvchi zeb-ziynat, taqinchoqlarning nomlarini yozib oling va uning tarkibidagi dialektizmlarni sharhlash.

18.Shevada qo‘llanuvchi parranda nomlarini yozib oling va uning tarki-bidagi dialektizmlarni izohlashga harakat qiling..

19.Sheva vakillari asrovchi uy hayvonlarining nomlarini yozib oling.

20.Shevada qo‘llanuvchi yovvoyi hamda yirtqich hayvonlarning nomlarini birma-bir yozib oling.

21.Sheva vakillari ishlatuvchi ovchilik va baliqchilik atamalarini birma-bir qayd eting.

22.Sheva vakillari aloqador bo‘lgan urug‘ va qabilalarning nomlarini to‘liq yozib olishga harakat qiling.

23.Shevada “*supurgi*” so‘zi qanday aytildi?

24.To‘y bilan bog‘liq so‘zlarni yozib, ularni to‘y qo‘sishqlari bilan izohlang.

25./*Zag‘izg‘on, həkkə, alashaqshaq /so‘zlaridan qaysi biri bu shevada bor ekan?*

26./*Chug ‘urchuq, qərəyələq, yələq/* so‘zlarining qaysi birlari o‘rganilayotgan shevaga xos?

27.Shevada /temene, juvoldəz, yo ‘g ‘on igna/ so‘zlarining qaysi biri qo‘llanadi va qaysi ma‘noda?

28.*Satil, paqir, chelak* so‘zlarining qaysi biri qo‘llanadi?

29.*Palos* vazifasini bajaruvchi qanday so‘zlar shevada bor?

30.O‘limga oid sheva so‘zlarini yozing va ularni gaplar, marsiyalar bilan izohlang.

31.Shevada erkalash ma‘nosini ifodalovchi qanday so‘zlar ishlatiladi?

32.O‘rganilayotgan shevada qarg‘ishni (haqoratni) anglatadigan qanday so‘zlar tez-tez qo‘llanadi?

33.Quyidagi leksik dubletlardan qaysi biri shevada faol qo‘llanadi? Masalan: /nervən, shətə, zengə, nərbən, otər, kelə, so:qə, goshəngə, chəmtəldəq, goshəyənə, chimildəq, duxəbə, baxmal, barqət, chəchvən, chashpant, chəmmet, chimmet, non-par, chəkəch/ kabilar.

34.Shunday qilib iborasining shevada boshqa variantlari mavjud bo‘lsa, qayd eting.

35.Shevada “bo ‘yniga əlmədi”, “rad etdi”, “munkir keldi” iboralarining qaysi biri ishlatiladi?

36.Shevada “dedi, didi, eyttə, ettə” so‘zlaridan qaysi biri ishlatiladi? yələq

37.Shevada “piyava shorva//shorba, qore shorve//qora shorva, pъyova, vag ‘lama” so‘zlaridan qay biri uchraydi va qanday ma‘noda ishlatiladi?

38.Quyidagi iboralarning qaysi biri o‘rganilayotgan shevaga xos?

A) *kuchuk tishlədi* yoki *qəpdi*;

B) *sigir suzdi* yoki *shəxlədi*.

39.*Chərəylə, kohlək//kohlu, korkem, suluv* so‘zlarining qaysi biri shevada faol (aktiv) qo‘llanadi?

40.Tasdiq ma‘nosini ifodalovchi “ha” so‘zining qanday variantlari mavjud?

41.Adabiy tildagi “qidirməq” so‘zining qanday variantlari bormi?

42.”Suvda suzməq” iborasi shevada qanday qo‘llanadi?

43.Yil fasllari shevada qanday nomlangan?

44.Shevada hunarmandchilikka oid qanday atamalar qo‘llanadi?

45.Shevada “etik” so‘zining boshqa variantlari bormi?

46.Shevada “kalit” so‘zining boshqa variantlarini bilasizmi?

47.Shevada “childirma” so‘zining boshqa variantlari uchraydimi?

48.Shevada palovni suzadigan idish qanday ataladi?

49.Kir yuvadigan tog‘oraning shevada qanday nomlari bor?

50.Shevada “arqən” so‘zining boshqa variantlarini bilasizmi?

51.Shevada qozonning qopqog‘i qanday nomlanadi?

52.Adabiy tildagi “g‘isht” so‘zining qanday variantlari mavjud?

53.”Bəlta, əybəlta, tever//teber” so‘zlarining qaysi biri shevada uchraydi?

54.Shevada “do‘ppi” so‘zining boshqa variantlari bormi?

55.Sheva vakillari qo‘llaydigan pichoq turlarini yozing, izohlang.

56.Adabiy tilda qo‘llanuvchi “təza” so‘zi bu o‘rganilayotgan shevada qanday ma‘no nozikliklari bilan uchraydi?

57.Shevada “yangi” so‘zining boshqa variantlari bormi?

58.”Marza, pəl, taxta” so‘zlari bormi, ular qanday ma‘nolarda ishlatiladi?

59.”Pushta, jo‘yak, chel, tırgak” so‘zlari bormi, ular qanday ma‘nolarda ishlatiladi?

60.”Tashlama, zaykash, zaxkash, solma, zovur//zavr” so‘zlari bormi, ular qanday ma‘nolarda ishlatiladi?

61.Adabiy tildagi “sharshara” so‘zining qanday variantlari shevada uchraydi?

62.”To‘g‘ən” so‘zi shevada ham qo‘llanadimi yoki boshqa so‘zlar shu ma‘-noda ishlatiladimi?

63.Uy hayvonlarini chaqiradigan so‘zlar shevada uchraydimi?

64.Uy hayvonlarini haydaydigan so‘zlar ham shevada bormi?

65.Shevada “echki, uloq” so‘zlarining yana qanday variantlari uchraydi?

66.Shevada erkaklar qo‘llaydigan qo‘pol so‘zlarni yozish.

67.Shevada ayollar qo‘llaydigan qo‘pol so‘zlarni qayd eting.

68.Shevada o‘g‘il bolalar qo‘llaydigan qo‘pol so‘zlarni yozib oling.

69.Shevada qizlar qo‘llaydigan qo‘pol so‘zlarni qayd eting.

70.Shevada momolar qo‘llaydigan qarg‘ishlarni yozib boring.

71.Shevada ayollar qo‘llaydigan qarg‘ishlarni yozib qo‘ying.

72.Shevada eshakning bolasini qanday so‘zlar bilan atashadi?

73.Adabiy tildagi “ari” so‘zining bu shevada variantlari bormi? Bo‘lsa, bir-ma-bir qayd qiling.

74.Qo‘y va echkilarga qiron keltiradigan yirtqich hayvonning shevadagi no-mi nima?

75.Shevada “it, mushuk” so‘zlarining qanday variantlari bor?

76.Adabiy tildagi “chittak” so‘zining bu shevada variantlari bormi? Bo‘lsa, birma-bir qayd qiling.

77.”Chumčli” so‘zi shevada qanday so‘zlar bilan ataladi?

78.Adabiy tildagi “ninachi” so‘zining bu shevada variantlari bormi?

79.”Əshqəvəq” so‘zi o‘rganilayotgan shevada qanday variantlarda uchraydi?

80.”Orъk, g‘olъn, zərdəlъ” so‘zlaridan qaysi biri shevaga xos?

81.”Yəlpəz, pədənə//pidənə, həlvə” so‘zlaridan qaysi biri shevaga oid?

82.Shevada “murch va qalampir” so‘zlari ma‘no jihatdan farq qilinadimi?

83.Adabiy tildagi “nən” so‘zining shevada qanday variantlari mavjud?

84.”Rəvəch//ravəch, chukurъ” so‘zlaridan qaysi biri shevaga xos?

85.”Dəvuchchə, davuchcha, davcha, duvchə, dəvcho, qəra” so‘zlaridan qaysi biri shevaga oid?

86.”Ishkəm, vəyish, so‘ri” so‘zlaridan qaysi biri shevaga ishlatiladi?

87.Adabiy tildagi “bəla” so‘zining qanday variantlari ushbu shevada mavjud?

88.”Mo‘yləv” so‘zining qanday ko‘rinishlari mavjud?

89.Adabiy tildagi “chaqaləq” so‘zining qanday variantlari bor?

90.O‘rganilayotgan shevada kishi a’zolari qanday nomlar bilan ataladi?

91.”Əchəfat, xasis” kabi kishi xarakteridagi kamchilik-nuqsonni bildiruvchi so‘zlar shevada qo‘llanadimi? Qo‘llansa, misollar yozing.

92.Tegirmonchilikka oid atamalar bu shevalarda qo‘llanadimi?

93.Etikdo‘zlikka oid atamalar bu shevalarda ishlatiladimi?

94.Temirchilikka oid atamalar bu shevalarda qo‘llanadimi?

95.Shevada qanday og‘irlilik o‘lchovlari ishlatiladi?

96.Shevada hunarmandchilik atamalari bormi? Bo‘lsa, yozib izohlang.

97.Ushbu shevada tovuq, xo‘rozlarning turlari qanday nomlar bilan aytildi?

98.Shevada vaqt o‘lchovlarini anglatuvchi so‘zlar qanday variantlarda uchraydi?

99.”Djəger, bag‘yr, bəvur” so‘zlarining qaysi biri shevaga xos?

100.”Kiprik, kirpik, mujğən” so‘zlaridan qaysi biri shevada aktiv ishlatiladi?

101.”Bəsh va kalla” so‘zları shevada qanday ma‘nolarda qo‘llanadi va ularning qanday variantlari mavjud?

102.”Peshənə, məngləy” so‘zları shevada qanday ma‘nolarda qo‘llanadi va ularning qanday variantlari bor?

103./Dost//dos, ortoq, djora//djoro//djorjon, esh, yoldəsh, Əg‘əyň, boyünsə, Əshnə/ so‘zlarining qaysi biri o‘rganilayotgan shevada mavjud?

104.Shevada “qo‘shni” so‘zining qanday variantlari bor?

105.”Xəla” so‘zi shevada ishlatiladimi?

106.Shevada xolaning bolasini qanday so‘zlar bilan atashadi?

107.”Pəchcha” so‘zi shevada qandayvariantlarda ishlatiladi va ular qanday kishilarga nisbatan qo‘llaniladi?

108.Sheva kishilari akasining xotinini qanday chaqiradilar va uning yana qanday variantlari mavjud?

109.”Bəldiz, kundəsh, Əvsin, beka, bekach, Əyim, aya, qayin, qayinsingil, qayinəg‘a” so‘zlaridan qaysi biri ko‘p ishlatiladi va qanday ma‘noda qo‘llanadi?

110.Bolalarining yosh jihatdan farqlanishi shevada qanday holatda?

111.Shevada adabiy tildagi “Əna” so‘zining qanday variantlari bor va ulardan qaysi biri faolroq qo‘llanib ketmoqda?

112.Imorat va uning qurilishiga oid shevaga xos bo‘lgan so‘zlearning hammasini birma-bir qayd qilib chiqing.

113.Chevarchilikka oid atamalarni yozib olish.

114.Kashtachilikka xos atamalarni qayd etish.

- 115.Shevada qanday gul nomlari tez-tez ishlatiladi?
- 116.Bug‘doy navlari sheva vakillari nutqida qo‘llanadimi?
- 117.Qovun navlari shevada qanday variantlarda saqlanib qolgan?
- 118.Tarvuz navlari ushbu shevada qanday ko‘rinishlarda va nega shu holatlarda ishlatiladi?
- 119.Shevangizga oid urug‘-qabila nomlarini qayd etish.
- 120.Uzum navlarini yozing.
- 121.Shevada qush oviga oid qanday so‘zlar ishlatiladi?
- 122.Arava va aravasozlikka oid qanday so‘zlar bu shevada tez-tez qo‘llanadi?
- 123.Uy bezatishga oid qanday so‘zlar shevada mavjud?
- 124.Dam olishga xos bo‘lgan qanday so‘zlar shevada ishlatiladi?
- 125.Sheva vakillari nutqida qanday xalq o‘yinlarining nomlari saqlanib qolgan?
- 126.To‘y nomlaridan qaysi birlari shevada ko‘proq qo‘llanadi?
- 127.Beshik to‘yi qanday o‘tkaziladi?
- 128.O‘qil to‘y qanday holda bo‘ladi?
- 129.Qiz to‘yi qanday o‘tkazilmoqda?
- 130.Shevada “aqlъ, әдәблъ” so‘zlarining qanday variantlari ishlatiladi hamda ular qanday ma‘nolarda bo‘ladi?
- 131.”O‘qituvchi, muallim” so‘zлari shevada yana qanday variantlarda aytiladi?
- 132.Shevada “yəstiq, bolish, lo‘la, lo‘lva, takya” so‘zlarining qaysi biri qo‘llanadi hamda qanday ma‘noda ishlatiladi?
- 133.O‘rganilayotgan shevada eskicha pul sanog‘i mavjudmi?
- 134.Uy-ro‘zg‘or nomlarini yozing.
- 135.Harakat nomlarini birima-bir qayd qilish.
- 136.Ovqat nomlarini yozish.
- 137.Shevangizga oid sutli ovqatlarning nomi yozib, izohlab ko‘ring.
- 138.Shevangizga xos yog‘li ovqatlarning nomlarini yozib, ularni izohlang.
- 139.Shevaga oid “Yər-yər”larni yozib, ulardagi dialektal so‘zlarning tagiga chizing.
- 140.Shevaga oid “Kuyəv sələm”larni yozib, dialektal so‘zlarini belgilang.
- 141.(Qiz) “Chərlər” qanday o‘tkaziladi?
- 142.Marhumlar uchun qanday urf-odatlar o‘tkazilib turadi?
- 143.Shevangizga oid kiyim nomlarini yozing, izohlab ko‘ring.
- 144.Shevangizga xos erkaklarning qishki va yozgi kiyimlarining nomini yozing va izohlang.
- 145.Shevangizga xos ayollarning qishki hamda yozgi kiyimlarining nomlarini yozib oling va sharhlang.
- 146.Shevangizga xos bolalar kiyimlarining nomlarini yozib, ularni izohlang.

147.Shevangiz vakillariga xos qadimdan davom etib kelayotgan urf-odatlarning nomini yozib, izohlashga harakat qiling.

148.Bezak nomlarini qayd etish.

149.Sheva vakillari nutqida qo‘llanadigan toponimlarni qayd etish.

150.Shevangizga oid hikmatli so‘zlarni yozing.

151.Shevangizga xos frazeologizmlarni qayd etib, ma‘nolarini yozish.

152.Shevangizga oid bo‘lgan maqollarni yozib, ularni tushuntirib bering.

153.Sheva vakillari izohlagan toponimlarni yozib olish.

154.”Məhmədənə, ezmə” so‘zlarining qanday variantlari mavjud va ular qanday ma‘nolarnda qo‘llanadi?

### Sintaksis bo‘yicha materiallar to‘plash

Shevalarning sintaksisini o‘rganish ham dialektologik amaliyotning ajralmas bir qismi hisoblanadi. O‘zbek shevalari bo‘yicha qilingan ko‘pgina ilmiy tadqiqotlarda sintaktik xususiyatlar umumiyligi obzor tariqasida o‘rganilgan. Chunki F.Abdullayev, Yu.Jumanazarov va M.Turopovalarning shevalar sintaksisi haqidagi monografiyalari ma’lum bir ajratib olingan hududlarning shevalariga bag‘ishlan-gandir. Haligacha o‘zbek shevalari sintaksis nuqtayi nazardan mukkammal o‘rganilmagan.

Shevalarning sintaktik xususiyatlarini o‘rganish uzoq muddatli kuzatishlar natijasida to‘plangan dialektal nutq(lar)ning daliliy materiallari asosida yoritib berishni talab qiladi.

O‘zbek tilining shevalar sintaksisi o‘ziga xos konstuktsiyalar va oborotlarga egaki, bularni o‘rganish va tahlil qilish o‘zbek tili tarixi uchun ham, hozirgi o‘zbek tili uchun ham qimmatli ilmiy-nazariy xulosalarga kelishga imkoniyat yaratib beradi. Amaliyotga chiqqan talabalar o‘zları o‘rganayotgan shevaning barcha sintaktik xususiyatlarini to‘liq aks ettira olmasalar-da, ayrim sintaktik hodisalarini qayd qilib o‘tishlari lozim.

Talabalar iloji boricha, o‘rganilayotgan shevaning o‘ziga xos ayrim sintaktik xususiyatlariga e‘tiborini qaratishlari o‘rinlidir. Ular shevalar sintaksisini o‘rga-nishda quyidagi topshiriqlarga e‘tibor qaratishlari maqsadga muvofiq:

1.Shevaga xos so‘z birikmalarini qayd etish.

2.Shevaga xos sodda gaplarni yozing.

3.Gap tuzilishida bo‘ladigan alohida holatlarni qayd qilish.

4.Sodda gaplarning turlarini qayd etish.

5.Bir sostavli gaplarning alohida turlari uchrasa, ularni yozib olish.

6.Gap bo‘laklarining shevaga xos joylashish xususiyatlarini aniqlash.

7.Sheva vakillarigagina xos so‘z birikmalari bormi?

8.Shevada tarafi bəzər, buluti siyə, guli raşın, məzəri kalın kabi izofiali so‘z birikmalari mavjudmi?

9.Tobe so‘z ko‘makchi bilan bog‘langan holda keladimi? (*Bələsi ychun ɔpti-bolasi uchun opti* kabilar).

10.Qo‘shma gapning shevaga xos xususiyatlari e‘tibor berish va ularni yozib olish. Qo‘shma gapning shevaga xos qanday turlari uchradi?

11.Shevadagi gaplarda gap bo‘laklarining belgili qo‘llanishiga misollar keltiring.

12.Shevadagi gaplarda gap bo‘laklarining belgisiz ishlatilishiga namunalar bering.

13.Shevangizda sodda gapdan ko‘p foydalanadimi, nega?

14.Shevangizda qo‘shma gapdan ko‘p foydalanadimi? Nega shunday deb o‘ylaysiz?

15.Shevangizdagagi gaplarda kiritma bo‘laklar ham qo‘llanadimi? Misollar keltiring.

16.O‘zga gapning alohida turlari uchrasa, ularni qayd qilish.

17.Shevada bir so‘zdan iborat gaplar uchradi?

18.Shevangizda ajratilgan gap bo‘laklari ham ishlatiladimi, misollar keltiring.

19.Shevaga xos bo‘lgan har qanday oborot va konstruktsiyalarni yozib olish.

20.Murakkab konstruktsiyali gap(matn)lar uchrasa, ularni alohida qayd etish lozim. Chunki ular ham qiziq, ham ishonchli dalillar hisoblanadi.

21.Talabalar shevani o‘rganish jarayonida o‘zi to‘liq tahlil qila olmaydigan sintaktik hodisalarga duch kelishi ham mumkin. Bunday holatda ularni to‘liq yozib olib, rahbar(o‘qituvchi)ga ko‘rsatish lozim.

22.Sheva vakillari aytgan, istalgan bir necha matnni yozib, undagi gaplarni hisoblang.

### **Sheva materiallari yig‘iladigan hudud va amaliyotning muddati to‘g‘risida**

Shu sheva aholisi o‘zbek tilining qaysi lahja yohud shevalar guruhiga man-sub ekanligi.

Keyingi davrda shu shevada ro‘y bergen ayrim fonetik va leksik o‘zgarishlar.

Sheva vakillarining tuman hamda shahar markazidan qanchalik uzoqlikda joylashganligi.

Bu hududda o‘rganilayotgan sheva vakillari bilan yana qanday millat, elat vakillari istiqomat qilishlari.

Shevaning shu guruh shevalaridan o‘zigagina xos xususiyatlari.

Sheva vakillari nutqida boshqa tillarning ta‘siri bor yoki yo‘qligi aniqlanadi. Bo‘lsa misollar keltiriladi.

Bu sheva oldin biror bir olim tomonidan o‘rganilganmi?

Sheva agar olimlar tomonidan oldin o'rganilgan bo'lsa, uning qaysi xususiyatlari e'tibordan chetda qolganligi haqida gapiring.

Amaliyot davrida shevaga xos xarakterli xususiyatlar haqida tug'ilgan fikr-mulohazalar yozib boriladi.

Bu amaliyot vaqtida paydo bo'lgan turli xil muammolar ham ko'rsatiladi.

Mazkur amaliyotni tashkil etish hamda uni o'tkazish yuzasidan bildiriladigan taklif va istaklar ham iloji bo'lsa yozib boriladi.

Yozilgan hisobot amaliyot davrida sheva materiallari yozish uchun tutilgan daftar (bu daftar shevaga oid matnlar va amaliyot dasturi asosida to'ldirilgan bo'ladi) hamda talabaning kunlik ish daftari bilan birgalikda amaliyot rahbariga topshiriladi. Rahbar ularni ko'rib chiqib, zarur ro'yxat asosida qabul qiladi: har bir daftar, magnitafon kassetasi va boshqa yig'ilgan materiallar ro'yxat qilinib kafed-raga topshiriladi.

Har bir qabul qilingan materialga, hisobotning to'g'ri va aniq yozilganligiga, ayniqsa, shevaga oid materiallarning pasportlari chalkashib ketmasligiga alohida e'tibor beriladi. To'plangan shevaga oid materiallar ma'lum bir tizimga solinib, alohida-alohida belgilanadi.

Talabalar hisobot bilan birga ushbu amaliyot davomida qilingan ishlar, to'plangan shevaga oid materiallar, yangi topilmalar, tabiat manzaralari, ommaviyisosiy ishlar va madaniy dam olishlar aks ettirilgan foto albomlarni ham tuzib topshirishadi. Amaliyot davrida qilingan ishlar va tassurotlar yuzasidan albom tuzish har bir talaba uchun maroqli.

Dialektologik amaliyotning yakuni sentabr oyida anjuman sifatida o'tkaziladi. Chunki yangi o'quv yili boshlangach, o'qituvchilar jamoasi va talabalar bilan birgalikda amaliyot to'g'risida majlisda gaplashib olish maqsadga muvofiq. Bunda amaliyot rahbarlari hamda talabalar bajarilgan ishlar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini aytib o'tishadi. Mana shu hol talabaning amaliyotdan olgan ko'nikmalarini tanqidiy ravishda jiddiy qarab chiqishlariga turtki bo'ladi. Talabalar "quyidagi ishlarni bajardim", deb sheva materiallarini to'plab, yozgan daftarlarini baho olish uchun ro'yxat bilan rahbarlarga topshirishadi. Amaliyotning yutuq va kamchiliklari to'g'risida ham talabalar o'z fikrlarini aytishadi. Shundan so'ng ama-liyot rahbari kafedra, dekanat va universitet (institut)ning o'quv ishlari bo'limiga yozma hisobot topshirishadi. O'tkazilgan dialektologik amaliyotning yakuni kafed-ra yig'ilishida hamda fakultet ilmiy kengashida ham ko'rib chiqiladi va kelgusi yilgi bo'ladi dan dialektologik amaliyotda qilinadigan ishlar rejalashtiriladi.

### **"O'zbek dialektologiyasi" fani amaliyotining bajarilishi to'g'risida hisobot**

Ushbu amaliyotni yakunlash va u haqida hisobot topshirish ham amaliyotning asosiy va ma'suliyatli qismlaridan biri hisoblanadi. Bu hisobot talabalarning o'quv amaliyoti davomida amalga oshirgan barcha faoliyatining

ko‘zgusidir. Shuning uchun ham talabalarning mazkur amaliyotdagi ishlarini baholash ham mana shu hisobot asosida bo‘ladi. Buning uchun talabalar yuqorida aks etgan reja bilan shevalarni o‘rganishda kerak bo‘ladigan maxsus dialektologik dastur asosida hisobot yozib topshiradilar.

Talaba bu amaliyotdan juda ko‘p narsalarni o‘rganishi, ayrim qaramaqarshiliklarga duch kelishi, ayrim yutuqlarni qo‘lga kiritishi va mustaqil fikrlar bilan chiqishi mumkin. Mana shu narsalar uning hisobotida o‘z aksini topadi. Amaliyot tugagach, uning o‘tishi haqida hisobot talab qilish talabalarning o‘z ishiga mas’uliyat bilan qarashlarini, samarali ishlashlarini hamda har bir ishga ijodiy yondashishni o‘rgatadi. Yuqorida so‘ralgan savollarga birma-bir javob berishi talabaning amaliyotga nisbatan mas’uliyatini ko‘rsatadi. Shu sababli hisobotda nimalar aks etishini avvaldan rejalshtirib, uni talabalarga yetkazib qo‘yish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Amaliyot yakunida talaba o‘z o‘rgangan sheva vakillari o‘rtasida olib borgan ishlari, amaliyotdan orttirgan ko‘nikma va malakasi, duch kelgan turli xil muam-molari, o‘zida tug‘ilgan ayrim fikr-mulohazalari haqida to‘liq hisobot yozadi. Ushbu hisobotda bajarilgan ishlar mazmuni o‘z ifodasini topishi shart.

### **“O‘zbek dialektologiyasi” fanidan yozma ishlarni baholash mezonlari**

#### **6.2.1. Aъlo baholanadi, qachon (86-100):**

- variant savollarining barchasiga atroflicha, aniq va to‘g‘ri javoblar berilsa (yozilgan bo‘lsa);
- talaba berilgan masalalar bo‘yicha qo‘srimcha ma’lum otlardan xabardor bo‘lsa;
- qonun-qoidalar, nazariya va taxminlar, tushunchalar va tasavvurlar to‘g‘ri va aniq aytilsa (yozilgan bo‘lsa);
- bayonda ilmiy xatoliklarga yo‘l qo‘yilmay, material mazmunining ilmiy va mantiqiyligi saqlangan (puxta yozilgan) bo‘lsa;
- bayonda transkription, orfografik va grammatik xatoliklar uchramasa.

#### **6.2.2. Yaxshi baholanadi, qachon (71-85):**

- variant savoliga berilgan (yozilgan) javoblar to‘g‘ri , ammo faqatgina o‘quv dasturi talablari doirasi bilan cheklanib qolgan;
- javoblarda ilmiylik buzilmagan;
- bayon mazmunida mantiq saqlangan;
- qonun-qoidalar, nazariya va taxminlar, tushuncha va tasavvurlar bayonida xatoliklar uchramasa;
- bayonda transkription, orfografik va grammatik xatolar uchramasa;
- berilgan savollarning (topshiriqlarning) bittasiga to‘liq javob yozilmagan bo‘lsa) berilmasa.

#### **6.2.3. Qoniqarli baholanadi, agar (55-70):**

- savollarga to‘liq javoblar berilmagan (yozilmagan) bo‘lsa;

- variant savollariga berilgan (yozilgan) javoblar yuzaki. Ba’zi bir mantiqiy ketma ketligiga ta’sir ko‘rsatmaydigan grammatik xatolar mavjud;
- bayonda ba’zi mantiqiy chalkashliklar qayd etilsa;
- Qonun qoida , nazariya va taxminlar, tushunchalar va tasavvurlarda ba’zi bir noaniqliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa;
- bayon transkriptsion, orfografik va grammatik tomondan noto‘g‘ri.

- 6.2.4. Qoniqarsiz baholanadi, qachon (0-54):
- variant savollarining 1-3 tasida kamchiligi bo‘lsa yoki umuman javob berilmagan (yozilmagan) bo‘lsa;
  - variant savollariga berilgan (yozilgan) javoblar noto‘g‘ri yoki aniq berilmagan (yozilmagan) bo‘lsa;
  - javoblarda noaniqlik va mantiqiy chalkashliklar qayd etilsa;
  - bayon matnida transkriptsion, orfografik va grammatik jixatidan xatolar ko‘p bo‘lsa.

### **Dialektologik amaliyot vaqtida to‘plangan materiallardan namunalar:**

#### **1.Xalq qo‘shiqlari:**

Jezdenin hasratlari<sup>1</sup>

*Qøyñətə jurt həvəsъn*

*Məydələp qar jəvəsъ.*

*Jurətdən ketgən kuyəvdən*

*Achchi rəyəz dəvəsъ.*

*Qøyñilerdən tavəg ‘ň,*

*Tulkъlarge jem boləvъ.*

*Jezde meymən bog ‘əndə*

*Meymən siyi kəm boləvъ.*

*Dəstrxəndə jəzdyılər,*

*Kəl pələvdə əsdylər.*

*Keyňn təyyar əvqətg ‘ə*

*Achchı rəyəz bəstylər.*

*Təmchı jəvun sel boməs,*

*Vonъmən jer xol boməs.*

*Von jıł sъyləb bəxsənəm*

*Kuyov degən el boməs.*

#### **2.Xalq maqollari:**

*İntılganga təle jo ‘r .*

*Yomonnı bır qъlbg ‘ň Əttıq.*

---

<sup>1</sup> Nasriddin Nazarovning o‘z shevasiga oid to‘plagan materiallaridan parcha olindi.

### **3.Xalq iboralari:**

*Qəshıng bərmə deb, kozъga qərəməslək.*

*Ədamnъng ləbzъ hələl, goshi hərəm.*

*Qыртынга қытта нән Әмә q.*

### **4.Sheva so‘zliklari lug‘ati:**

4.1.Sof leksik-dialektal so‘zlar lug‘atiga misollar:

*Әpədə* - bobo (Tosh., Namangan v.Chortoq t.)

*ləyxorək* - chuvalchang (Namangan v.Chortoq t.)

*og‘ ur* - havoncha (Namangan v.Chortoq tumani)

4.2. Etnografik-dialektal so‘zlar lug‘atiga misollar:

*tayəq ushslash* - yaqin kishi o‘lganda yig‘lashda va jasad qabrga qo‘yilgach, tayoqlarni ham go‘r boshida qoldirish odati (Jiz., Shah.)

*xudayı // quday* - o‘lgan kishiga atab xudoyi qilish (Yakkabog‘ t.)

*qыирғ* - o‘lganining 37 yoki 39 kuni qilinadigan yig‘in nomi (Sur.,Qash)

*jыл* - o‘lganiga bir yil bo‘lganda qilinadigan odat (Sam.,Jiz.)

4.3. Leksik-fonetik dialektal so‘zlar lug‘atiga misollar:

*shahar* > sha:ar > sha::r (Shah.)

*assalomu alaykum* > salam alaykum >salamlaykum

*Әvuz* - og‘uz (Nurota )

*vut, vusma* - o‘t, o‘sma (Nurota )

4.4. Leksik-firazeologik dialektal so‘zlar lug‘atiga misollar:

*kozъ achrmadы* - doimo minnat qildi, haqoratladi (Sur.,?ash)

*bashы qatty* – sog‘lig‘i yaxshi (Sam.,Jiz.)

*bash baylavlı* - qizning unashtirilishini anglatadi (Yak., Sam.,Jiz.)

*suyuq Әүәq* - yomon odam, qadam tashlashi bejo bo‘lgan kishi (Qash.)

4.5. Leksik-derivatsion dialektal so‘zlar lug‘atiga misollar:

*burtlas kishi* - sermo‘ylov kishi

*dјыrчы* > dјыг - (janjal) -chы (Xorazim) (o‘g‘uz) - janjalkash;

*g‘achchaq* > g‘ach - (qo‘chqor) -chaq (QQASSR-o‘zb.) - mard, botir, dovyurak.

*bergi* > ber -gi (Mang‘it) - qarz

*Әchqich* > Әch - qich (kalit) (Namangan)

*chapqы* > chap -qы - poygaga qatnashadigan ot (Sur.)

*yur -mel* (QQASSR-o‘zb.) - tez yuradigan, yurag‘on

*quyash - lama* - oftobro‘ya;

*qaňyır-ыishma* - ziyofat.

*chege -len* (QQASSR- o‘zb.)- qumoq

*murt -las* - mo‘y lov dor (chege, murt so‘zlari DLda alohida sof leksik-dialektal so‘zlar sifatida beriladi)

chushirindъ > chushur -indi <tushir - (kelin) tushiri (moq) indi (Farqona)-nikoh to‘yi.

4.6. Morfiologik-dialektal so‘zlar lug‘atiga misollar:

*ərəngъlə* - opanglar (Tosh., Sam.)

*Ətəluvъ // Ətəluuyъ* - otalari (Jiz., Sam.)

*həmmələysъ* - hammalari (Tosh., Qarshi, Namangan)

4.7. Frazeologik-dialektal iboralar lug‘atiga misollar:

*uryı tamaq* - qo‘li egri, yashirinchha ovqat yeydigan kishi (Jiz.)

*qыттынга qitta nən Əlməq* - xasislik ma‘nosida (Shah.)

*salqы adam* - ishni orqaga tashlaydigan, quntsiz odam (Jiz., Sam.)

*dardi bedavəga yo‘liqmoq* - ishi yurishmaganga duch kelmoq

(Tosh., Shah.).

**5.Hikmatli so‘zlar:** *qayraqčch qalъn bolsa, yəmg ‘yr otməs, Əg ‘əyənъ tətuv bolsə, xorlъk yətməs* (Qayrag‘och qalin bo‘lsa, yomg‘ir o‘tmas, og‘a ini totuv bo‘lsa, xo‘rlik yetmas).

*Əz gərərgən Əz yəngləshər* - oz gapirgan oz yanglishar) (Tosh., Sam.)

*tuqqan tuqqan bələn təpəshər* - Tuqqan tuqqan bilan topishar (Jiz.)

*yətga balə yəpəshər* - Yotga balo yopishar (Jiz.)

Shu tarzda talabalarimiz amaliyat vaqtida sheva vakillari nutqidan yuqorida-gilarga mos holda kamida ellikdan kam bo‘lmagan so‘zlarni yozib olishadi va izohlashadi. Shuningdek, kelin salom, kuyov (*kuyəv*) salom, yor-yor (*yər-yər*), ay-timlig‘ (*aytyimlyig*‘), ya‘ni marsiyalar yozib olinadi. Sheva vakillaridan so‘ral-ganda aytilgan savol-javoblar o‘sha payitda biror talaba tomonidan yozilgan matn-larni keyin transkripsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

## ILOVALAR

### 1-ILOVA

#### Shevalar lug‘atiga kiritiladigan so‘zlar<sup>1</sup>

Shevalar lug‘atiga (agar u umumo‘zbek shevalarining katta hajmidagi ko‘p jildli lug‘ati bo‘lsa) qorluq, o‘g‘uz lajhalariga oid leksik materiallardan olinadi, dialektal lug‘at (DL) tuzish printsiplariga to‘la javob beradigan dialektal so‘zlar kiritiladi.Odatda, shevalar leksikasi uchun materiallarning ko‘pchilik qismi adabiy til leksikasiga qiyoslangan holda to‘planadi va ulardan DL uchun so‘z tanlash prin-siplariga mos kelganlarigagina DLga kiritiladi.

Dialektal so‘zlarning bir qancha tasnify turlari mavjud, biroq ularning ayrimlari o‘zbek dialektologiyasida va hatto, rus dialektologiyasida ham

<sup>1</sup> Ahmad Ishayev.Shevalar lug‘atiga kiritiladigan so‘zlar. O‘zbek tili va adabiyoti. 1988 yil. 2-soni.37-42-betlar.

uzilkesil tarzda aniq hal etilmagan. Shunga ko‘ra, DLga kiramidan dialektal so‘zlarning turlari haqida qisqacha ma‘lumot berishga harakat qilamiz.

1.Sof leksik-dialektal so‘zlar. Sheva, dialektlarda qo‘llanadigan, faqat ularga xos leksikani adabiy til, xususan sheva va adabiy til uchun mushtarak leksikadan farqlash maqsadida ularni sof leksik-dialektal so‘zlar deb atagan ma’qul.

Adabiy tilda qo‘llanmaydigan bunday so‘z, termin va iboralar DLLar uchun birinchi darajali muhim ahamiyatga ega, chunki A.G‘ulomov juda to‘g‘ri ko‘rsatganidek, “Tuzilayotgan dialekt lug‘atlari differentsial printsipdagи lug‘atlardir: unda dialektal so‘zlargina, shu dialektni xarakterlovchi, ajratib ko‘rsatuvchi so‘zlargina beriladi”. Haqiqatdan ham o‘zbek shevalariga oid dialektal-adabiy tipdagи differentsial lug‘atlarda, dastavval, sof leksik-dialektal so‘zlar - sodda so‘zlar ham, komponentlarning adabiy tilda qo‘llanilishi, qo‘llanilmasligidan qat’iy nazar, adabiy tilda uchramaydigan qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar ham o‘z aksini topmog‘i shart.

Sof leksik-dialektal so‘zlarga shevalardagi etnografizmlar juda yaqin. Biroq ularni DLga kiritish masalasi munozaralidir. Shunga ko‘ra, etnografik-dialektal so‘zlarga alohida to‘xtalamiz.

2.Etnografik-dialektal so‘zlar. O‘zbek adabiy tilida ham, shevalarimizda ham xalqimizning asrlar davomidan shakllangan juda qadimgi turmush tarzi, urf-odatlari, moddiy va ma‘naviy madaniyati bilan aloqador ko‘pgina so‘z, terminlar mavjud. Lekin bu xil so‘zlar - adabiy tildagi etnografizmlar ham, adabiy til va shevalar uchun mushtarak bo‘lgan adabiy-dialektal etnografizmlar ham, faqat she-va, dialektlarga xos etnografik so‘zlar ham bir-birlaridan farqlangan holda tadqiq etilmagan. Hattoki, rus dialektologiyasida ham shevalardagi etnografik so‘zlar DLga kiritilishi yoki kiritil-masligi masalasi uzilkesil hal etilgan emas. Masalan, F.P.Filin “Rus xalq shevalari lug‘ati”ga etnografik terminologiyani kiritish maqbul emas, chunki, birinchidan, bu xil terminologiya tematik lug‘atlarning obyektidir, ikkinchidan, nihoyatda ko‘p, katta hajmdagi “xalq etnografik terminologiyasi”ni lug‘atga kiritish “Rus xalq shevalari lug‘ati”ni yaratish imkoniyatini yo‘qqa chiqaradi”, - deb ko‘rsatgan.

V.A.Senkivich esa dialektlardagi etnografik so‘zlar dialektal so‘zlarning leksik tiplaridan birortasini taaluqli bo‘lib, o‘zi alohida tip bo‘la olmaydi, - deydi. Biroq boshqa ko‘pchilik leksikologik-dialektologiya shevalaridagi etnografizm-larni leksik dialektal so‘zlarning alohida bir turi, deb qayd etadilar va ayrimlari, masalan, O.P.Belyaeva, etnografizmlarning barchasini, hatto, adabiy tilda qo‘llana-yotganlarini ham ular biror shevalarga xos so‘zlar sifatida DLga kiritmoq kerak, deb hisoblaydi.

Biroq adabiy tilda qo‘llanadigan *sadr* - azada ovoz chiqarib, jazavasi tutib, qattiq yig‘lash; chilla - bola tug‘ilgandan boshlab keyingi qirq kunlik davr; azaymxon, beshik kabi so‘zlar shevalarda xuddi shu shaklda, shu ma‘noda uchrasa ham, ularni adabiy tilda mavjud bo‘lgani uchun DLga kiritmaslik kerak,

chunki DL adabiy tildagi so‘zlarning transkripsiya bilan beriladigan lug‘ati emas, u o‘z nomi bilan shevalar lug‘atidir.

Ma’lumki, adabiy til lug‘atlarini (shu jumladan, termonologik lug‘atlarni) tuzuvchilar faqat adabiy tilda mavjud etnografizmlarni lug‘atlarga kiritadilar. Ular dialektologlardek qishloqma-qishloq yurib dialektal so‘zlarni to‘plamaydilar. Shunga ko‘ra, etnografik terminlarning shevalar lug‘atiga kiritmaslik kerak, degan fikrga qo‘silib bo‘lmaydi. Bu o‘rinda turkologlarning 1984-yil 10-oktabrda Cheboksari shahrida bo‘lib o‘tgan o‘ninchisi yalpi yig‘ilishda qabul qilingan re-zolyutsiyada etnografizmlarga diqqat-e’tibor berish, ularni to‘plib, rus tiliga tarjima qilgan holda katta DLLarga kiritish alohida ta’kidlab o‘tilganligini qonuniy ko‘rsatma tarzida qabul qilmoq lozim.

Xullas, DLga faqat shevalardagina qo‘llanadigan etnografizmlar kiritiladi va ular qanchalik ko‘p bo‘lsa, DLning qimmati shunchalik ortadi.

3.Leksik-semantik dialektal so‘zlar. Sheva, dialektlardagi so‘zlar adabiy til-dagi, shuningdek boshqa biror sheva, dialektdagi xuddi o‘sha xil so‘zlardan ma‘nosiga ko‘ra farqlanadigan bo‘lsa, ular leksik-semantik dialektlar so‘zlar guruhini tashkil etadi. Masalan adabiy til va shevalarda mavjud bo‘lgan aka so‘zi ayrim shevalarda “ota” va hatto “pochcha” ma‘nolarini qo‘llanadi. Yoki adabiy tildagi va shevalardagi dars (urok) so‘zi Xorazm va Qoraqalpog‘istondagi o‘zbek shevalarida “mahalliy o‘g‘it, go‘ng” ma‘nosida uchraydi. Ko‘pchilik hollarda bu xildagi so‘zlarning har ikkalasi ham sheva vakillari tomonidan qo‘llanadi va ularning ma‘nolari nutq jarayonida tushinarli bo‘ladi. Qiyoslang, peshe (Sayram, Chimkent, Forish, Andijon) ~ peshshe (Xorazm-qipch., QQAR-o‘zb., Buxoro, Farg‘ona) ~ peshshe (Xorazm-o‘g‘uz) ~ pe:she (Iqon) - chivin (комар), chibin (Xorazm-qipch., QQAR - o‘zb.) ~ chivin (Xorazm-o‘g‘uz) ~ chopon // chovon (Buxoro) ~ chi:vin (Qoramurt) ~ chu:n (Shahrisabz) - pashsha (муха). Sh.Rahmatullayev “dialektizm-ma‘no” deb atagan bu xil so‘zlar leksik-semantik dialektal so‘zlar sifatida DLga kiritiladi.

Ba‘zi sheva, dialektlarida so‘zlar adabiy til va shevalarda mavjud bo‘lgan ma‘nosi bilan bir qatorda yana boshqa xil qo‘sishimcha manoga (ma‘nolarga) ega bo‘lishi mumkin. Masalan, qoloq (отстающий, неуспевающий; отстает) so‘zi adabiy tilda ham, shevalarda ham bor. Biroq shevalarda, masalan, QQARDagi o‘zbek shevalarida, bu so‘zning yuqoridagi ma‘nosidan tashqari “podadan qolib ketadigan mol”; “cho‘milayotganda bir bolaning boshqa bolalarni quvib, birortasining boshiga qo‘l tekizib, quvish navbatini unga berib ketadigan o‘yin”; “qorig‘ich; kurakcha; kichik o‘qlog‘; andava; katta eshak” kabi ma‘nolari borki, ular hammasi DLda to‘la aks ettirilmog‘i kerak.

Adabiy tilda ham, shevalarda ham shakli va ma‘nosi bir xil bo‘lgan so‘zlar shevalarda yana boshqa xil ma‘noga ega bo‘lsa, ularning adabiy tildagi ma‘nosi DLda beriladimi? O‘zbek va boshqa ko‘pchilik turkiy tillarning shevalari bo‘yicha tuzilgan DLLardan bu xildagi so‘zlarning adabiy tildagi ma‘nosi, odatda, ko‘rsatilmaydi. Biroq L.T.Maxmutova hamda Sh.Sh.Saribovlar bunday so‘zlarning semantikasi haqida to‘la tasavvur hosil qilish uchun

ularning shevalardagi va adabiy tildagi ma'nolarini berish kerak, deb hisoblaydilar. Haqiqatan ham shevalardagi bu xil so'zlarning ma'nosi bilan bir qatorda adabiy tildagi (shuningdek shevalardagi) ma'nosini ham (shevalarda adabiy tilidagi ma'nosi yo'q ekan, degan tasavvur hosil bo'lmasligi uchun) muxtasar tarzda qayd qilmoq maqsadga muvofiqdir: qil'yich 1.(To'rtko'l, Beruniy, Mangit) yag'rin, hayvonlar yag'rini (спина животных); 2.(Hozarasp) karj (Эомотъ, омтик (дыни); 3.ad.t.qilich (сабъя, меч).

O'zbek shevalarida qo'llanadigan turli xil sanash sistemalariga oid hisoblashlar ham leksik-semantik dialektal so'zlardir, chunki bu hisoblarda ishtirok qiladigan son bildiruvchi so'zlar adabiy tilda bor: besh уъгме (Namangan) - yuz (сто); ombъr yus - bir ming bir yuz. Bular, albatta, DLdan o'z o'rinalarini olishlari shart.

4.Leksik-fonetik dialektal so'zlar. Ma'lumki, adabiy tildagi ko'pchilik so'z-lar o'zbek shevalarida xilma-xil fonetik o'zgarishlarga uchraydi. Masalan, so'z boshida qo'llanadigan adabiy tildagi y undoshi o'rniga qipchoq lahjasiga oid dj-lashgan sheva vakillari, ko'pincha, dj undoshini talaffuz etadilar: djaman-yomon, djoq-yo'q; o'sha shevalarda ayrim unlilar so'z boshida difonglashadi; tariq, sariq kabi so'zlar oxiridagi q undoshi talaffuz etilmaydi;ayrim undoshlar tushurilib talaffiuz etilgani tufayli ikkinchi darajali cho'ziq unlilar vujudga keladi.Bu xildagi fonetik o'zgarishlarga uchragan so'zlar bo'yicha yuzlab, minglab misollar keltirish mumkin. Agar ular DLga kiritiladigan bo'lsa, o'zbek shevalari bo'yicha 20-30 jilddan iborat DLLar tuzsa bo'ladi. Biroq, hozircha, kamroq hamda sistemali ravishda fonetik o'zgarishga uchragan so'zlarni DLga kiritmay turgan ma'qul.

F.A.Abdullayev "...fonetik o'zgalik ma'nodagi o'zgalik bilan bog'liq bo'lsa, bunday so'zlar lug'atga kiritilishi kerak", - deydi. Ayrim dialektologlarimiz esa DLda "fonetik o'zgarishli, ammo ma'no o'zgaligiga ega bo'limgan so'zlar mustaqil so'z sifatida berilmaydi",- deyishadi. Bu fikrga qo'shilish qiyin, chunki shevalarimizda mavjud bo'lgan xilma-xil fonetik hodisalar sababli adabiy tildagi ba'zi so'zlar shu qadar o'zgarib ketadiki, hatto ularning qanday so'z ekanligini izohsiz aniqlab bo'lmaydi:

a) Qashqadaryo, Surxondaryo va boshqa shevalarda *jdav* so'zi bor. Bu so'z y->dj- hamda -g' >-v tovushlari o'tishi tufayli sodir bo'lgan adabiy tildagi yoq so'zining aynan o'zidir;

b) Oshobo shevasida *burgulte*, *olta* kabi so'zlar mavjud. Aslida ular -tl // -lt- metatezasi va so'zlar oxiridagi -r undoshining tushishi natijasida sodir bo'lgan, ma'noda farqlanmaydigan burgutlar, o'tlar (травы) so'zlaridir. Xo'sh, djav, olta singari fonetik o'zgarishga uchragan so'zlarni DLga kirtimaslik kerakmi? Bu xil so'zlar DLLarda berilmasa, qaysi xildagi lug'atlarda beriladi?

Umuman, shevalardagi tovushlar almashishi, ortishi, tushishi, so'zlarning torayishi, xususan metateza kabi xilma-xil fonetik hodisalar tufayli

shaklan kuchli o‘zgarishlarga uchragan quyidagi tipdagi so‘zlarni DLga kiritmoq lozim<sup>1</sup>:

1) fonetik o‘zgarishlar natijasida adabiy tilda va shevalarda mavjud bo‘lgan so‘zlarga o‘xshab qolgan dialektal so‘zlar: hovuz (Qoramurt) – og‘ iz suti, ilk sut (molozivo), hayvon; (Qarnoq) - ayvon;

2) metateza hodisasi tufayli kuchli fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar: gindjelek (Uychi) - jingalak; evere (Andijon) - arava; hayda-hadya; erves-obrez;

3) so‘zlarning torayishi (qisqarishi) sababli izoh berilmasa, tushunish qiyin bo‘lgan so‘zlar: kesh (Namangan) - kalish; e:de (Uycha) - ana u yerda; kochche - katta achabuvi; balы - boyo‘g‘li (qush);

4) o‘g‘uz lahjasidagi birlamchi cho‘ziq unlilar va boshqa fonetik o‘zgarishlar natijasida adabiy tildagi hamda qorluq, qipchoq lahjalaridagi so‘zlardan farqlanadigan bu:z - muz; di:v - tup (kust, osnovanie rastaniya) singari so‘zlar;

5) Namangan tip umlautli shevalarga xos bosh-boshum; oq - eqър // eqър (протекав), chon - chochi (sochi) kabi so‘zlar DLga kiritilmaydi. Lekin umlaut hodisasiga aloqador hozur - hozir; chogun - chovgun; setъsh - sotish (прадажа) kabi so‘zlarni DLda berish kerak;

6) adabiy tilda qo‘llangani uchun shevalardagi savchы//sovchъ - sovchi etnografizmi DLga kiritilmaydi. Lekin uning shevalarda uchraydigan djavchы//djovchъ//djovchъ; zavdъ//zevcho//yevchъ kabi fonetik variantlarini (bitta so‘z boshida s//dj//z//y undoshlari mosligidek muhim fonetik xususiyatga egaligini, bu sistematik hodisa emasligini hisobga olib) DLga kiritish lozim (rus tili shevalarida bittta fonetik yoki urg‘usi o‘zgargan so‘zlar DLlarga kiritiladi);

7) o‘zbek lahjalari, sheva, dialektlari tasnifi uchun asos hisoblanadigan fo-netik belgilarga ega bo‘lgan so‘zlar: dag‘ (o‘g‘uz) ~ tav (qipchoq) – tog‘; sollemek (o‘g‘uz ) ~ soylemek (qipch.) - so‘zlamoq; a:djы (o‘g‘.) ~ achchы (qipch.) - achchiq (горъкий). Umuman shevalarimizdagи kәryə - qariya, koyeg-kuyov kabi fonetik qiyofasi o‘zgargan so‘zlar hamda laryda - rapida, zәlәl - zarar singari dialektizmlar DLdan o‘rin olmog‘i lozim.

5. Leksik-derivatsion dialektal so‘zlar. Adabiy tilda yoki faqat shevalarda mavjud bo‘lgan xilma-xil so‘z yasovchi affikslar shevalardagi so‘zlarga yoki adabiy til va shevalar uchun mushtarak so‘zlarga qo‘shilishi natijasida sheva, dialektlarda adabiy tilda uchramaydigan dialektal so‘zlar vujudga keladiki, ularni “leksik-derivatsion dialektal so‘zlar” deb atagan ma’qul.

O‘zbek shevalarida leksik-deravitsion dialektal so‘zlarning asosan quyidagidek to‘rtta xili mavjud:

1. Adabiy tilda uchramaydigan shevalarga xos so‘zlarga adabiy tildagi affikslarni qo‘shish orqali hosil bo‘lgan dialektal so‘zlar: dýyrchы < dýyr - (janjal) -чи (Xorazim) (o‘g‘.) - janjalkash; qachchag‘ < qach - (qo‘chqor) -chaq (QQAR-o‘zb.) - mard, botir, dovyurak (yigit).

<sup>1</sup> Ta’kidlash ma‘nosida har bir bandni alohida qatordan berildi.

2.Adabiy tilda ham, shevalarda ham so‘z o‘zagi va yasovchi affikslar mavjud bo‘lsa-da, shevalardagi so‘z yasalishining o‘ziga xos xususiyatlar sababli adabiy tilda uchraydigan so‘zlar: *bergi* < *ber* -*gi* (Mang‘ it) - qarz; *chapqы* < *chap* -*qы* - poygaga qatnashadigan ot.

3.Adabiy tilda (shevalarda ham) mavjud so‘z o‘zagiga shevalar uchun xarakterli affikslarni qo‘shish orqali hosil bo‘lgan dialektal so‘zlar: *yur-mel* (QQAR-o‘g‘.) - tez yuradigan, yurag‘on; *quyash* - *lama* - ofitobro‘ya; *qavyr* - *bishma* - ziyofat.

4.Dialektal so‘z - dialektal affiks: *chege-len* (QQAR- o‘zb.)- qumoq; *murt-las* - mo‘ylovdor (chege, murt so‘zlari DLda alohida sof leksik-dialektal so‘zlar sifatida beriladi); *chushirindi* < *chushur* -*indi*<*tushir* - (*kelin*) *tushiri* (moq) - *indi* (Farg‘ona) - nikoh to‘yi. Bu xildagi leksik-derivatsion dialektal so‘zlar DLda berilishi va, imkon boricha, izohlar bilan ta’minlanishi kerak.

6.Morfologik-dialektal so‘zlar. Adabiy til va shevalardagi so‘z o‘zaklariga forma yasovchi affikslarni qo‘shish orqali vujudga kelgan morfologik-dialektal so‘zlar turli xil bo‘lib, ular, odatda, forma yasovchi affikslarning birgalikda qo‘llanishi, turli xil fonetik o‘zgarishlarga uchrashi yoki faqat shevalarga xos foma yasovchi affikslarning qo‘shilishi natijasida shevalarda (adabiy til uchramaydigan) *əpəngъla* - opanglar; *otəluvъ //otəluyъ* - otalari; *həmməlъysъ* - hammalari singari anchagina morfologik dialektal so‘zlar paydo bo‘lgan. Biroq bu xil so‘zlar bevosita leksika bilan aloqador bo‘lmaganligi sababli DLLarda berilmaydi.

7.Frazeologik-dialektal iboralar. O‘zbek sheva, dialektrida mavjud bo‘lgan, adabiy tilda uchramaydigan uchrasa ham ma‘noda farqlanadigan frazeologik iboralar, birikmalar bir butun , yaxlit holdagini biror ma‘noni, odatda, qo‘shimcha ko‘chma ma‘noni anglatadiki, ularni DLda qay tarzda bermoq kerak? qozoq, boshqird, qoraqalpoq tili shevalariga o‘zi reestr so‘z sifatida berilgan. Tatar, yoqut shevalariga oid lug‘atlarda esa ular bir butun qolda berilmay, odatda, undagi birinchi so‘z tariqasida berilgandan keyin frazeologik iboraning o‘zi qayd etilgan<sup>1</sup>.

Demak, ushbu lug‘atlarda ko‘rsatilganidek, shevalardagidek frazeologik dialektal iboralarni DLda ikki xil ko‘rinshda berish mumkin: 1)yipsiz *bəylamoq*, (QQAR-o‘zb.) ko‘tarib qo‘ymoq; 2)*yip*: *yiasiz baylamoq* ... DLda bulardan qaysisi bergan ma‘qul? Ortiqcha qaytariqlar bo‘lmasi, tejamkorlik bo‘lishini nazarda tutib, ularni bir butun, yaxlit holda DLga kirtigan ma‘qul.

Xullas, o‘zbek sheva, dialektlardagi sof leksik, leksik-semantik, etnografik, leksik-fonetik (shuningdek , fonematik), leksik-dirivatsion so‘z, terminlarni va frazeologik dialektal iboralarni DLLarda, imkonli boricha, to‘la aks ettirmoq lozim.

Quyidagi so‘zlar, terminlar esa DLga kiritilmaydi:

<sup>1</sup> Ahmad Ishayev Til va adabiyot institutida qariyib 50 yil ishlab, o‘zbek shevalarining tadqiqi bo‘yicha eng ko‘p, eng salmoqli taqiqotlarni olib borgan. Bu esa olimning shevashunoslik bo‘yicha qimmatli fikrlarni aytishga imkoniyati bo‘lganligini asoslaydi.

- 1) adabiy tilda, keng doirada qo‘llanadigan so‘zlar;
- 2) og‘zaki so‘zlashuv tiliga oid leksika;
- 3) adabiy tildagi formasiga nisbatan kam fonetik o‘zgarishga uchragan so‘zlar;
- 4) dialektologik tekshirish obektiga taalluqli bo‘lmagan, boshqa joylardan kelgan, boshqa shevalarni vakillari nutqiga oid so‘zlar;
- 5) kitobiy uslubiy xos so‘z, terminlar;
- 6) adabiy tilda mavjud bo‘lgan proffiosonalizmlar va terminologik leksika;
- 7) umumsheva vakillari nutqi uchun xos bo‘lmagan, individual xarakterdagi okkazional (tasodifiy) so‘zlar;
- 8) varvarazimlar, parnografik so‘zlar;
- 9) ayrim shaxslar guruhi nutqida qo‘llanadigan argo va jargonlar;
- 10) yosh bolalar (go‘daklar) tiliga oid so‘zlar;
- 11) sheva vakillari ma‘nosiga tushunmaydigan diniy aqidalarga oid so‘z va iboralar.

Xullas, lug‘atlar tuzish qiyin, lekin savobli ish. Leksikologiya sohasida qilingan ishlar ba’zan unutilishi mumkin, biroq leksikografiya bo‘yicha bajarilgan ishlar - tuzilgan yaxshi lug‘atlar hech qachon unutilmaydi. Shunga ko‘ra, DL tuzuvchilari oldida turgan eng muhim vazifa shevalarimizdagi mavjud dialektal so‘zlarni xalqimiz so‘z boyligini o‘ziga xos xazinasi bo‘lgan DLLarda qayd etib, kelgusi avlodlar uchun saqlab qolishdan iborat.

## 2-ILOVA

### **Shevalar lug‘ati - dolzarb masala**

O‘zbek xalqi til jihatidan tarixan uchta yirik-qorluq, qipchoq va o‘g‘uz lahjalaridan (bu lahjalar esa, o‘z navbatida, bir qancha sheva, sheva guruhlari, zonalardan) tashkil topgan bo‘lib, ularning har biri umumo‘zbek tili uchun mushtarak so‘z boyligiga ega bo‘lish bilan birga, o‘zlariga xos til xususiyatlariga - fonetik, morfologik, xususan, leksik jihat dan farqlanadigan qator lingvistik belgilarga ega.

Shevalardagi ana shu rang-barang til xususiyatlarini o‘rganib, ularni yozib qoldirilmasa, vaqtlar o‘tishi bilan u o‘zgaradi, xalqimiz tarixi, uning ma’naviy va moddiy madaniyatining ajralmas bir qismi sifatida fan uchun, kelajak avlod uchun izsiz yo‘qolib ketadi. Ulug‘ bobomiz Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘otit turk” asari orqali bundan qariyb ming yillik ota-bobolarimiz tilidan bahramand bo‘lishimiz buning yaqqol dalilidir.

O‘zbek xalqining so‘z boyligi xalqning o‘tmishi, hozirgi kuni, umuman bu-tun borlig‘ini o‘zida mujassamlashtirgan. Shevalarimizdagi ana shu boylikni to‘p-lash, ularni yozib olib, lug‘atlar tuzish o‘zbek dialektologlari oldida turgan birin-chi darajali vazifadir.

O‘zbek sheva, lahjalari bo‘yicha tuziladigan bunday lug‘atlar faqat o‘zbek adabiy tili uchungina emas, balki o‘zbek tili tarixi, shuningdek, qardosh turkiy til-larni qiyosiy o‘rganish hamda o‘quvchilar, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqida uchraydigan sheva xatolarini bartaraf etish borasida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tipdagи lug‘atlar yana o‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi munosabati bilan o‘zbek tilining fonetik, morfologik va lek-sik normalalarini, o‘zbek atamalarini tartibga solishda, o‘zbekcha-ruscha, o‘zbek tilining mukammal izohli lug‘atlarini yaratishda beباho manba bo‘lishi shak-shub-hasizdir<sup>1</sup>.

### 3-ILOVA

”Badiiy adabiyot va vaqtli matbuot tilidagi dialektizmlar, o‘zbek shevalarining lug‘at boyligi to‘la yig‘ib olinmaguncha, ayniqsa, o‘zbek shevalari lug‘ati sostavidagi leksik qatlamlarning qonuniyatları, bu qatlamlarning aniq chegarasi, o‘zaro miqdoriy munosabatlari va bir-biriga munosabatlari aniqlanmaguncha ayni bir tushunchani ifodalovchi shevalararo so‘zlarning adabiy tilga munosabatini chuqr ilmiy asosda aniq belgilash mumkin emas”<sup>2</sup>.

### 4-ILOVA

“O‘zbek tili dialektologik atlasi quyidagi vazifa-maqсадларни ko‘zda tutadi:

1. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tili ma’lum shevalarga tayanadi. U o‘zining imlo va talaffuz normalalarini, shuningdek, fonetik sistemasi, grammatic tuzilishi, leksik sostavili normalashtirishda, asosan, Toshkent-Farg‘ona tip shevalariga asos-lansa ham, ayrim hollarda bu shevalar materiali adabiy til normalariga mos kel-maydi. Dialektologik atlasning ob’ektiv natijalari (xulosalari) bu masalaga to‘liq aniqlik kiritadi. Haqiqatan ham, shevalarga xos dialektal xususiyatlarning butun o‘zbek tili territoriyasida tarqalishi va uning chegaralarini faqat dialektologik at-las zaminidagina muvaffaqiyatli hal qilish mumkin.

2. Dialektologik atlas materiallari o‘zbek shevalarining mavjud tasniflarini to‘ldirish, mukammallashtirishga, ularga aniqlik kiritishga yordam beradi. Shu-ningdek, o‘zbek shevalarining paydo bo‘lishida qatnashgan turkiy va turkiy bo‘l-magan etnik gruppalarining o‘zaro aloqalari natjasida ro‘y bergen juda murakkab etnolingvistik taraqqiyot protsessiny ham belgilab beradi.

<sup>1</sup>Nosirov Sh. Shevalar lug‘ati - dolzarb masala // O‘TA.T., Fan, 1991.58-60-betlar. Bunda muallif yuqoriroqda keltirilgan A.Ishayevning fikrlarining mazmunini ilgari surmoqda (Muallif A.Ishayev bilan birga ishlagan olim).

<sup>2</sup> Abdurahmonov D.O‘zbek shevalari leksikasining taraqqiyot manbalari va ulardagи leksik farqlar // O‘zbek shevalari leksikasi. T., Fan, 1991.12-85-betlar.

3. Adabiy til va tayanch shahar shevalarining kundalik ta'siri o'zbek xalq she-valarida til faktlarining aralashuvi va tekislasha borish jarayonini tezlashtirdi. Chunki o'zbek xalqining ekonomikasi va madaniyati mislsiz darajada yuksalishi bilan o'zbek adabiy tiliying qo'llanish doirasi kengaydi. Adabiy tilning barcha o'zbek shevalari aro normalasha borishi asta-sekin dialektal nutqni qisib, og'zaki - so'zlashuv nutq doirasiga ham kirib bordi.

O'tmishda genetik jihatdan turlicha bo'lgan o'zbek xalq shevalarining bir-lashishi uchun xalqning ekonomik va madaniy qoloqligi to'sqinlik qilar edi. Xon-liklar va ularning territorial chegaralanganligi shevalararo farqlarning keskin saqlanib qolishiga sabab bo'ldi. Ayrim til faktlarining qisman aralashuviga ular orasidagi o'zaro farqning tekislasha borishi butun uzbek tili tarqalgan territoriyada bo'lmay, balki bir-biriga yaqin, qo'shni shevalarning o'zaro munosabati natijasidagina sodir bo'lgan edi. Hozir dialektal xususiyatlarning aralashuvi va osha borishi - tekislashib borish protsessi faqat yondosh shevalarning o'zaro munosabati natijasidagina emas, balki maktab, vaqtli matbuot, radio va boshqalar orqali adabiy tilning kundalik va atroficha ta'siri orqasida ham ro'y bermoqda. Masalan, qipchoq shevalari o'ziga xos ba'zi bir dialektal xususiyatlarini yo'qotib, yangi xususiyatlar - adabiy til normasiga mos keladigan til xususiyatlariga ega bo'ldi. Ayrim shevalarda (Gurlan va Bog'ot shevalari) so'z boshida uchraydigan [dj] o'rnini [i] egallaydi [dj>y]. Shuningdek, qipchoq shevalarida [q] o'rnida sporadic holda uchraydigan [x] tovushi ham [q a t i n // x a t i n kabi] adabiy til ta'siri natijasidir. Bundan tashqari, qipchoq shevalarida «o» lash hodisasi borgan sari kengayib bormoqda. Bu hodisani Toshkent oblastidagi qurama, Samarqand oblastidagi qozoq-nayman shevalarida, Qashqadaryodagi Koson, Namangan oblastidagi Yangi-qo'rg'on qipchoq, shevalarida ko'rish mumkin. Shuni aytish kerakki, qipchoq she-valarida «o» lash hodisasi shu shevalar materiali zaminida, tilning fonetik rivojlanish qonunlari asosida hamda qo'shni «o» lovchi shevalar ta'sirida vujudga kelmoqda va adabiy til ta'sirida mustahkamlanib bormoqda. [a > e] protsessi «a» lovchi shevalarda ham to'xtovsiz davom etmoqda. Bu tovush, shubhasiz, yaqin kelajakda qo'shni «o» lovchi shevalar va adabiy til ta'sirida «a» lovchi shevalar vokalizmidan ham mustahkam o'rin oladi. [f,ts,j] kabi bir qator o'zbek jonli tilida yo'q tovushlarning talaffuzi o'zlashayotganida ham, singarmo-nizmning buzilib borayotganida ham adabiy tilning progressiv ta'siri bor. Adabiy til ta'siri bugungi kunda shevalarning morfologik tuzilishi va so'z sostaviga ham ta'sir etmoqda. Farg'ona tip shevalarga va adabiy tilga xos [-yop[ affaksi faqat adabiy til ta'sirida 1-vət], [-ut], [-əp] kabi dialektal formalar o'rnini egallab bormoqda. Bu jo'nalish va o'rin-payt kelishigi affikslarini (Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo shevalari), qaratqich va tushum kelishigi affikslarini farqlashda (Toshkent va Farg'ona tip shevalar) ko'rindi. Bu

protsessning asosiy yo‘nalishi va natijalarini dialektologik atlas materiallarisiz butun o‘zbek tili territoriyasida hisobga olish qiyin”<sup>1</sup>.

## 5-ILOVA

### “O‘zbek dialektologiyasi” fanidan tayyorlanib, nashir etilgan darsliklar haqida

Bu fan yuzasidan XX asrning 20-yillaridan to bugungacha bir qancha o‘quv qo‘llanma, metodik qo‘llanma, juda ko‘p monografiya va maqolalar nashr qilingani kabi bir necha darsliklar ham tayyorlanib, e’lon qilingan. Ular (ya’ni darsliklar) to‘grisida quyida qisqagina ma’lumotlarni qayd etishni o‘rinli deb bilamiz:

1. V. V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov. O‘zbek dialektologiyasi.T., 1959.

Mualliflari: prof.V.V.Reshetov, filologiya fanlari kandidati Sh.Shoabdurahmonov. Nashr etilgan yili 1959-yil.Tiraji 3500 ta.Hajmi 80 sahifadan iborat.Uning munda-rijasida quyidagilar bor:

- I.Ukdirish xati - 3-31-betlar.
  - I.1.Dialektologiya fani – 3-4-betlar.
  - I.2. Transkripsiya – 4-11-betlar.
  - I.3.O‘zbek xalq shevalarini o‘rganish – 12-16-betlar.
  - I.4. O‘zbek xalq shevalarining klassifikatsiyasi – 17-31-betlar.
  - II.Programma (4ta bo‘limdan iborat) – 32-34-betlar..
  - III.Adabiyotlar (3ta bo‘lim, 247ta) – 35-44-betlar.
  - IY.Tekst namunalari (22ta) – 45-80-betlar.
2. V. V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov. O‘zbek dialektologiyasi.T., 1962 (Mazkur ishda shevalarimizning fonetikasi, morfologiyasi, leksikologiyasi bo‘yicha shevalarga oid katta hajmli material bor).
